As we have seen, each innovative technology has its own advantages. In all such methods, cooperation between the teacher and the student, the active action of the student in the educational process is envisaged.

In accordance with these requirements, classrooms were equipped with stands and new information and communication techniques. The demand for learning a foreign language is increasing day by day. Foreign language science is divided into four aspects (reading, speaking, listening comprehension and speaking), and separate concepts and skills are given for each of them. Educational technologies are effective use of modern information technologies in the educational process. It is also intended to increase the quality and efficiency of education by introducing modern innovative technologies into the educational process. In particular, there are several advantages of using such information and communication technologies in learning a foreign language. The role of modern technology in language learning and teaching is incomparable.

He use of these technical tools makes the process of learning a foreign language more interesting and effective for students. In the process of globalization, it is difficult to imagine our life without the Internet. It is one of the most effective ways to use it effectively in the process of learning and teaching a foreign language. You will have the opportunity to communicate with people who speak a foreign language through the Internet. You can improve writing practice by writing letters via e-mail. Bringing modern communication technologies into the educational process, using them purposefully and correctly, and using them to increase the student's interest in a foreign language and increase the effectiveness of teaching is the most important issue. Through this, the opportunity to use innovative technologies of education will be created and the demand will increase. Today, there are several different methods of innovative educational technologies. If they use wide and various methods to cover the topic in classes, the efficiency of the lesson will be high and the increase of students' interest in the lesson will be ensured. It is intended to increase the effectiveness of education by introducing innovations into the educational process and implementing them. The use of various role-playing and action games in the teaching of foreign language classes increases the interest in the lesson and language learning. It helps students to communicate with others by working in pairs or small groups. The use of graphic organizers in the educational process is one of the most important ways to illuminate the topic and deliver it to students. It is also possible to use several different graphic organizers to cover the same topic. When teaching a foreign language, it is



appropriate to use graphic organizers to explain new words and grammatical rules related to the topic. It will also be easy to remember if these are presented through graphic organizers.

The effectiveness of using different tables in the process of teaching a foreign language is also high. Using tables in the educational process, students can learn a certain grammatical rule, for example, making sentences using tenses, placing new words. At a time when the need to learn a foreign language is high, effective use of modern information technologies and innovative educational technologies in the educational process will make this process effective. The effectiveness of innovative educational technologies lies in their correct and effective use in the educational process.

In short, because of using innovative methods in English lessons, students' logical thinking skills develop, their speech becomes fluent, and the ability to quickly and correctly answer is formed. Such methods make the student eager for knowledge. The student tries to prepare thoroughly for the lessons. This makes students active subjects of the educational process. As the education system sets itself the task of educating a freethinking, well-rounded, mature person, in the future, we future teachers will contribute by developing ways to effectively use innovative technologies. Possible.

#### REFERENCES:

1. Yoldoshev J. T. "Problem solutions in the direction of new pedagogical technologies. Tashkent. 1999.
2. Bekmuratova U. B. Abstract on "Using innovative technologies in teaching English". Tashkent - 2012
3. Otaboeva, M. R. The use of modern innovative technologies in foreign language teaching and its effectiveness / M. R. Otaboeva. — Text: neposredstvennyy, electronic // Molodoy uchenyy. — 2017. — No. 4.2 (138.2). — S. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (data processing: 04/27/2020)
4. N. Q. Khatamova, M. N. Mirzayeva. "INTERACTIVE METHODS USED IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS" (methodical guide), Navoi, 2006, 40 pages.
5. M. Kholdorova, N. Fayziyeva, F. Rikhsittilayeva. "USE OF HELPING TOOLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE". Tashkent: TDPU named after Nizomi, 2005
6. N.Q. Khatamova, M.N. Mirzayeva. "Interactive methods used in English language classes" (methodical guide), Navoi, 2006, 40 pages.
7. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.17.
8. Rasulova, Azizaxon Muydinovna, & Xusanova, Ma'Rifat Axmadjonovna (2022). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 807-811.
9. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254

10. Xusanova Ma’rifat Axmadjonovna., Asomiddinova Gulruh Alijonovna. TIL ESTETIKASIGA DOIR. Analytical Journal of Education and Development Volume: 03 Issue: 03 | Mar-2023 ISSN: 2181-2624 [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz) 262-265.

11. Хидиров, X. H. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the

Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.

12. Хидиров, X. H. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.

13. Хидиров, X. H. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой ученый, (14), 262-263.

14. Mamatkadirovna N. K. Pedagogical system of development of culture of international communication in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 245-247.

15. KARIMOVA N. PRINCIPLES TO DEVELOP THE LITERACY OF INTERNATIONAL COMMUNICATION CULTURE IN STUDENTS //ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ ВЕСТНИК НУУЗ АСТА NUUZ. – 2022.

16. KARIMOVA N. MUTUAL-COLLECTIVE LEARNING //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2021. 13. Mamatkadirovna K. N. JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TA’LIM INFORMASION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – Т. 18. – №. 5. – С. 338-341.

17. Mamatkadirovna N. K. Pedagogical system of development of culture of international communication in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 245-247. 8

18. Mamatkadirovna A. K. et al. Translation as a Special Type of Language and Intercultural Communication //JournalNX. – С. 176-180. 9. Karimova N. Professional and moral competence of primary school teachers: essence, structure, content //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 11.

## ФЕНОЛ ВА УНИ ҲОСИЛАЛАРИНИ ВИНИЛЛАШ ЖАРАЁНИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ

**О.Х.Касимова**

*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялари  
университети Тошкент филиали*

**Д.Х.Мирхамитова**

*Тошкент давлат техника университети Олмалик филиали*

**Калит сўзлар:** фенол, *n*-бромфенол, винил эфирлар, квант-кимёвий ҳисоблашлар, математик моделлаштириш, юқори асосли система, жараён механизми.

**Аннотация:** Фенол ва уни ҳосилалари асосида олинган винилэфирларнинг квант-кимёвий ва молекуляр-динамик ҳисоблашлари амалга оширилди. Виниллаш жараёни натижалари математик қайта ишланиб математик моделлаштирилди, винилэфирнинг ҳосил бўлиш механизми изоҳланди.

Фенол ва уни ҳосилаларини виниллаш натижаларини амалиётда таҳлил қилишда уни математик моделлаштириш катта аҳамиятга эга. Бундан келиб чиқиб, ацетиленни қўллаб танланган фенол ва уни винил эфирлари синтезини математик моделлаштириш тадқиқ этилган [1]. Намуна сифатида *n*- бромфенолни каталитик виниллаш жараёнини математик моделлаштириш натижалари келтирилди. *n*-Бромфенолни ацетилен асосида таклиф этилган виниллаш усули формализация бўйича уч фазали тизимда ўтадиган мураккаб стехиометрияси ва иссиқлик алмашилини кўриниши бўйича фарқланади. Математик моделни тузишда адабиётлардаги маълум қонуниятларни қўллаш билан реакцияларнинг асосий схемасини ажратиш йўли бўлиши мумкин. Лаборатория қурилмасида олинган натижалар асосида келтирилган. Бунда мақсадли функция сифатида *n*- бромфенолни чиқиш унуми ва реакция тезлиги қўлланилган. Қуйидаги расмларда *n*- бромфенолни виниллаш жараёнини моделлашнинг визуал иконограммалари келтирилган, бу ерда реакция давомийлиги ва унинг ҳарорати ишчи функциялардир.

*n*- Бромфенол винил эфирининг унуми ҳарорат ва вақтга боғлиқлиги мўлжалланганидек экстремал характерга эга, бу эса экспериментда ўрнатилган диапазонларнинг таъсирлигини тасдиқлайди. Ўрнатилган боғлиқлик тенглама билан аппроксимланади:

$$y = -133,34 + 4,15x_1 - 0,028x_1^2 + 2,78x_2 - 0,47x_2^2 \quad (1)$$


бунда *y*- *n*-бромфенол винил эфири унуми (%);

*x*<sub>1</sub>- ҳарорат (°C);


*x*<sub>2</sub>- вақт давомийлиги (соат).

Виниллаш жараёни шароитини оптималлаштиришнинг технологик шарти маҳсулот унумини ошириш ҳисобланади:

$$y(x_1, x_2) \rightarrow \max \quad (2)$$



**1- Расм. n- Бромфенол винил эфири синтези жараёнини математик моделлаштириш иконограммаси**



**2-Расм. n-Бромфенолни виниллаш реакциясида реакция тезлигига харорат ва реакция давомийлигининг биргаликдаги таъсири иконограммаси.**

Бу эса юқорида таъкидланганидек, маҳсулот унумини аниқлаш орқали амалга оширилади. Муқобил ҳолатни ифодалаш учун жараён математик моделланади ва умумий кўриниш:

$$y = b_0 + b_1x_1 + b_2x_1^2 + b_3x_2 + b_4x_2^2 \quad (3)$$

холда ифодаланади. Ҳар бир  $x_1$  ва  $x_2$  ўзгарувчилари орқали «у» ни дифференциялаб қуйидаги тенглама ҳосил қилинади:

$$\begin{cases} \frac{\partial y}{\partial x_1} = b_1 + 2b_2x_1 = 0 \\ \frac{\partial y}{\partial x_2} = b_3 + 2b_4x_2 = 0 \end{cases} \quad (4)$$

Тенгламалар системаси ечилиб  $x_1$  ва  $x_2$  топилади:

$$x_1 = -\frac{b_1}{2b_2} \quad \text{ва} \quad x_2 = -\frac{b_3}{2b_4} \quad (5)$$

$b_1, b_2, b_3$  ва  $b_4$  қийматлари ўрнига қўйилиб  $x_1$  ва  $x_2$  учун оптимал топилади:  
 $x_1 = 122,7^\circ\text{C}$ ;  $x_2 = 7,6$  соат,  $y = 35,2\%$ ;  $z = 2,68 \cdot 10^{-4}$  мол/л.соат.


Фенол ва унинг ҳосилаларини винил эфирлари ҳосил бўлишининг механизми таклиф этилган. Фенол ва унинг ҳосилаларини муҳим хусусиятларидан бири уларнинг молекуласида реакция қобилияти юқори бўлган гидроксил гурухи ва ароматик халқа мавжудлигидир. Шунинг учун бу туркум моддалардан турли хил бирикмаларни синтез қилиш имконияти юқори ҳисобланади [2-4].

Адабиётларда ацетилен спиртлари, феноллар ва уларнинг ҳосилалари, карбон кислоталар, ҳамда углеводларнинг ацетилен билан таъсири ва реакция натижада уларнинг винил ҳосилалар ҳосил бўлиш механизмлари тўғрисида Трофимов Б.А., Новокшонов В.В., Поткин В.И., Дикусар Е.А. ва уларнинг шогирдлари Опарина Л.А., Лавров В.И., Паршина Л.Н. томонларидан бир қанча фикрлар билдирилган. Улар бир-бирини тўлдирсада, лекин турли нуқтаи назардан ёндашилган [3].


п-Бромфенолни гомоген фазада КОН-ДМСО юқори асосли системасида ацетилен билан нуклеофил бирикиш реакцияси кетиши натижасида п-бромфенолнинг винил эфири ҳосил бўлади.

Адабиёт манбаларига таянган ҳолда п-бромфенолнинг винил эфири синтези реакцияси меҳазми қуйидагича таклиф этилди.


Реакциянинг дастлабки босқичида эритувчи ДМСО ва калий ишқори ўзаро таъсирлашиб юқорли асосли система, яъни оралик комплекс ҳосил қилади:




Ҳосил қилинган оралик комплекс п-бромфенол билан реакцияга киришади ва п-бромфенолнинг калийли тузи, яъни калий п-бромфенольят ҳосил қилади [3,4].



Реакциянинг кейинги босқичида ҳосил бўлган *p*-бромфенолнинг калийли тузи ацетилендаги учбоғга “нуклеофил бирикиш” содир бўлади ва оралиқ металл комплекс ҳосил бўлади.



Оралиқ металл комплекс *n*-бромфенол билан таъсирлашиб *p*-бромфенолнинг винил эфирини ҳосил қилади [5-6].



Фенол ва унинг ҳосилаларини виниллаш жараёнида келтирилган юқори асослиликнинг моҳияти шундаки, икки ёки бир неча асоснинг синергизми асосида металл иони делокалланган зарядли комплекс катион ҳосил қилади ва анионнинг фаоллигини кескин оширади.

---

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Майер, И. Избранные главы квантовой химии: доказательства теорем и вывод формул : учебное пособие / И. Майер ; под ред. А. Л. Чугреева. - 4-е изд. Москва, 2021. - 387 с
2. Викторова Н. Б. Основы математического моделирования квантовых вычислительных процессов / Санкт-Петербург “Лань”, 2023, -120 с.
3. Л.А.Юсупова, С.Э.Нурманов, Д.Х.Мирхамитова, А.Икромов, Ш.Б.Мамаризаев, Х.М.Вапаев, Моделирования процесса винилирования бутин-2-диола-1,4 // Журнал “Химия и химическая технология”, Ташкент, 2015, №3. С.56-60.
4. Нурманов С.Э., Солиев М.И., Мирхамитова Д.Х., Электронная структура ароматических ацетиленовых спиртов и моделирование их винилирования // Журнал “Современные научные исследования и инновации”, Россия, 2015, С.78-81.
5. Козинская Л.К. Механизм и квантово-химический расчет синтеза 4', 4'' (5'')-ди-(метилэтилоксиметил)-добензо-18-краун-6 // Universum: химия и биология электронный научный журнал, Россия, 2021, №3(81).
6. Нурманов С.Э., Геворгян А.М., Матмуратов Ш.А., Касимова О., Сирлибаев Т.С., Калядин В.В. Синтез винилфенилового эфира и применение его в качестве аналитического реагента // Журн. прикладной химии., Россия, 2002. Т.75. Вып.3. с. 491 – 495.

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM SIFATINI BOSHQARISHDA BAHOLASHNING  
INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH**

*O‘rolova O‘g‘iloy Bahodir qizi*

*Oriental universiteti magistranti*

**M.Mirqosimova**

*Ilmiy rahbar: Turon FA akademigi, prof.*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabda baholashning innovatsion usullarini joriy etish orqali ta‘lim sifatini boshqarish mazmuni, shakl va vositalari yoritilgan; ta‘limni tashkil etish va o‘qitish jarayonida PISSA va TIMSS dasturlaridan foydalanish haqida ma‘lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *PIRLS, PISA, TIMSS, TAILS xalqaro baholash dasturi, ta‘lim sifati, ta‘limni boshqarish, baholashning innovatsion usullari, boshqarish mazmuni, shakl va vositalari.*

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida baholashning innovatsion usullari ta‘limning barqaror taraqqiyotini ta‘minlaydigan asosiy kuch sifatida e‘tirof etilgan. Xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan yangi ta‘lim konsepsiyasida “o‘qitish sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” dolzarb vazifa etib belgilangan [1].

Dunyo miqyosida ta‘lim sifatini baholashni takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development(OECD)) tomonidan PISA (The Programme for International Student Assessment) va Ta‘lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (The International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)) tomonidan TIMSS (Trends in International mathematics and science study) hamda PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi o‘quvchilarning savodxonligi va uni amaliyotda qo‘llash qobiliyati, ta‘lim natijalarining sifati va tengligini taqqoslash, boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladigan siyosat va amaliyotlarni o‘rganish orqali ta‘lim sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradigan keng qamrovli xalqaro baholash tadqiqotlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga mos ravishda umumiy o‘rta ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va metodlarini joriy etish vazifasini qo‘yadi. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo‘yilgan [3; 1-b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son



Farmonida ham bir nechta asosiy vazifalar belgilangan bo‘lib, bunda ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratilgan [5; 1-2-b.].

Yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni amalga oshirish uchun, eng avvalo, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida (UO‘TT) samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, ta‘lim sifatini boshqarishda innovatsiyalarni qo‘llash zarur hisoblanadi. Asosiy maqsadlardan biri dunyo miqyosida raqobatbardosh ta‘lim tizimini yaratish va o‘quvchilarimizning sifatli ta‘lim olishlariga erishish.

Ta‘lim — ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon; [2; 1-b]

Bugungi kunda bizga nafaqat ta‘lim faoliyatini boshqarishni, balki ta‘lim faoliyati sifatini ham aniq aks ettiradigan boshqaruv modeli kerak. Davlat va jamiyatning standartlarda ifodalangan talablari mavjud. Shu munosabat bilan oldimizda ta‘lim standartlariga muvofiq ta‘lim natijalari to‘g‘risida obyektiv axborot olish tizimini yaratish (shu jumladan, mezonlar, tartiblar va baholash texnologiyalari majmuini belgilash, pedagogik monitoringni tashkil etish va undan ajralmas vosita sifatida foydalanish) vazifasi qo‘yilgan.

Bu yo‘lda ko‘p ishlar qilinmoqda, davlat ta‘lim standartlari ijtimoiy zaruriy standart/talablar sifatida takomillashtirilmoqda, turli darajadagi ta‘lim sifati mezonlari va ko‘rsatkichlari ishlab chiqilmoqda, tegishli tashkilotlar va tadqiqotchilar tomonidan ta‘lim muassasalarida pedagogik monitoringni tashkil etish bo‘yicha tajribalar o‘rganilmoqda.


Monitoring maqsadi: ta‘lim muassasasi faoliyati sohasida sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni o‘z vaqtida va tezkor aniqlash.

Ushbu ta‘rifning uchta asosiy jihati mavjud.

1. Bu ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish tizimi.
2. Ta‘lim jarayonini boshqarishni axborot bilan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan tizim.
3. Monitoring ma‘lumotlari istalgan vaqtda kuzatuv obyektining holati to‘g‘risida oqilona xulosalar chiqarish va uning rivojlanishini bashorat qilish imkonini beruvchi mexanizm.

Monitoring davomida to‘plangan ma‘lumotlar o‘qituvchi yoki rahbarga tegishli ta‘lim yoki boshqaruv modelini tanlash uchun zarur va yetarli ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Ta‘lim jarayonida maqsaddan kelib chiqqan holatda quyidagi monitoring turlaridan foydalaniladi (1.6-rasmga qarang):



**1.6-rasm.** Monitoring turlari

Ta'limda monitoring tizimi. Monitoringni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Ta'lim boshqaruvi bo'yicha axborotlar tizimini (me'yoriy baza) yaratish (qonun, nizom, tavsiya) monitoringi.

2. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari o'sishini kuzatuvchi monitoring. Bunda sinflar bo'yicha qiyosiy tahlil natijalari boshqaruvni muvofiqlashtirish, o'zgartirish, rivojlantirish, taktikani belgilashga yordam beradi. Asosan bunday tahlillar rahbarlarga boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur.

3. Kirish-chiqish modeliga asoslangan monitoring. Bunda o'quvchining maktabga birinchi bor kelganidagi ijtimoiy ahvolidan tortib, bitirishgacha bo'lgan standart me'yorlarini o'zlashtirish darajasini aniqlovchi monitoring qo'llaniladi.

4. Ta'lim tashkilotida qo'llanilayotgan texnologiyalar samaradorligini, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi faktorlarni, o'qituvchi malakasining darajasini ko'rsatuvchi, aniqlovchi monitoring [4].

Ta'lim menejmentida ayniqsa, 1-, 2- va 3-guruh monitoringlar ko'proq qo'llaniladi.

Monitoring maktabga nima beradi? Monitoring nima uchun o'quv faoliyatiga olib kiritilishi kerak? Uni nimadan boshlash kerak? Boshqaruv faoliyatida bunday savollar paydo bo'lishi tabiiy holdir. Monitoring maktab rahbariyati, o'qituvchilar, ota-onalar, mahalla orasida axborot almashinuvi orqali ta'lim sifatini oshirish, ta'limda ishtirok etuvchilar mas'uliyatini oshirishga olib keladi. Agar monitoring shaklan va mazmunan o'zlashtirilib, ta'limga tatbiq etilsa, ta'limda ishtirok etuvchi har bir shaxsni ishga yangicha munosabatda bo'lishga, yangicha yondashishga, izlanish, tashabbus ko'rsatishga odatlantiradi. Yangicha yondashuv, qarash yaxshi natijalar bera boshlaydi. Ta'limning ichki boshqaruvida samarali uslublar qo'llanishiga olib keladi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, monitoring ta'lim jarayonida:

- o'zini oqlamagan, samarasiz o'qitish va boshqaruv uslublaridan, o'qituvchi, o'quvchilar faoliyatini o'rganishda ilmiy asosga ega bo'lmagan,

uslubiy, diagnostik, tasodifiy sinovlar, nazariy asosga ega bo‘lmagan ishlarni qo‘llashdan voz kechish;

- direktor, direktor o‘rinbosari, o‘qituvchi va boshqa xodimlar faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishni ta‘minlash;

- o‘quvchi faoliyatini nazorat etuvchi, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi me‘yoriy hujjatlar bazasini yaratadi va tartibga tushiradi;

- har bir maktabning ichki nazoratini amalga oshirish loyihasi/dasturi, nizomini qayta ishlab chiqish, boshqaruvning keyingi qadamlarini belgilash imkonini yaratish;

- ta‘lim sifatini boshqarishning jarayoni, shakli, mazmuni, uslublarini yanada takomillashtirib borishda yaxshi samara beradi.

Monitoringning asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy boshqaruvni yo‘lga qo‘yishdir. Shunday qilib, ta‘lim jarayoniga ilmiy asoslangan monitoringni tatbiq etish ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning shakli, mazmunini yangi bosqichga olib chiqish imkonini yaratadi [5; 3-4-b.].

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish tizimli doimiy tarzda bo‘lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta‘lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, maktab ta‘limida sifatni baholash tizimini doimiy takomillashtirib borish dolzarb vazifadir. Bunda fanlar xususiyati, o‘quvchilarning va o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish, ayniqsa, muhim deb hisoblaymiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea), 12 p.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ – 637 – son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

4. Gorb V.G. Pedagogicheskiy monitoring obrazovatel'nogo protsessa kak faktor povыsheniya yego urovnya i rezultatov // Standarty i monitoring v obrazovanii. 2000. – № 5.

5. Jaap Scheerens, Cees A.W. Glas, Sally M. Thomas, Dr. Sally Thomas. Educational Evaluation, Assessment, and Monitoring: A Systemic Approach. –London and New York, 2007.

6. Abdullayev F.R., Pardayeva M.D. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash bo‘yicha yo‘riqnoma – uslubiy qo‘llanma // Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Respublika ta‘lim markazi. – Toshkent, 2021.

**KOMPETENSIYAVIYLIKKA ASOSLANGAN TIL TA’LIMIDA TAYANCH  
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLAR****Abdullayeva Sitora Alisherovna***Buxoro Tabiiy Resurslarni Boshqarish Instituti*

**Annotatsiya.** *Jahonda ilm-fan, texnika, iqtisod sohalari taraqqiyotining jadallashuvi, axborot tizimining globallashuvi, tezkor axborot olish, yaratish va uzatish zaruriyati bois bugungi kun o‘quvchisida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish til ta’limining bosh ustuvor vazifasiga aylandi. Shu nuqtai nazardan ona tili ta’limida o‘quvchilarning lingvistik, xususan, til va nutq birliklari hamda hodisalarini anglash, tushunish, tahlil qilish va faoliyatda to‘g‘ri, maqsadli, aniq qo‘llashga doir tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Integrativ yondashuvni ta’lim jarayonida qo‘llashning dolzarbligi uning o‘z mantig‘idan kelib chiqadi. Muhim vazifalardan biri o‘quvchilarda integrativ yondashuv asosida dunyoning yaxlit manzarasi haqidagi tasavvurlarning hosil bo‘lishidir. Uning asosini o‘quvchi shaxsini shakllantirish maqsadi tashkil etadi. Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda yaxlit nuqtai nazar, kasbiy qiziqishlar, gumanitar madaniyat va keng dunyoqarash shakllanadi*

**Kalit so‘zlar:** *lingvistik, kompetensiya, integrativ yondashuv, gumanitar madaniyat, kommunikativ kompetensiya, kommunikatsiya jarayoni, adresat nutqi,*

Boshqa predmetlar qatori ona tili uchun fanga oid *umumiy kompetensiyalar tizimida*, avvalo, kommunikativ kompetensiya tilga olinadi. Bu kompetensiya ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqot madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. “Kommunikativ kompetentlilik “tug‘ma qobiliyat bo‘lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o‘zgartirish mexanizmini o‘z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo‘llashda namoyon bo‘ladi”. Insonning nafaqat shaxs, balki, faoliyatning sub’ekti sifatida to‘laqonli shakllanishi uchun kommunikatsiyaning ahamiyati haqida, tadqiqotchi L.P.Grimakshunday yozadi: “insonning inson bo‘lishining yana bir sababishundaki, u o‘ziga o‘xshaganlar bilan faol muloqotda bo‘lgan, tug‘ilishining ilk kunlaridan boshlab insonlar bilan doimiy muloqotda bo‘lish.”. Kommunikatsiya jarayonida tayanch layoqat muhim sanaladi, negaki kishi hayotining har kuni, har soat va daqiqasida kirishiladigan muloqotning muhiti, kommunikati va maqsadiga ko‘ra eng samarali muqobil variantini topa bilish, til vositalaridan unumli foydalana olish kabi talablar ko‘ndalang turadi. Shu talablar ijrosiga ko‘ra natija, hosila olinadi. “So‘z shuning uchun ham ulug‘ki, - degan edi L.N.Tolstoy, - u odamlarni birlashtiradi. So‘z bilan mehr-muhabbatga sazovor bo‘lish mumkin. So‘z bilan odamlarni ajratib yuborish ham mumkin. U tufayli dushmanlik va nafrat orttirib ham oladi, kishi. Odamlarni ajratib yuboradigan so‘zdan zinhor saqlaning”. Til dastlabki o‘rinda, avvalo, so‘zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Tilning nutq ijodkori bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganish muhim. Negaki, “biror bir tilda so‘zlash oddiygina

ushbu tildagi gaplarni tuzishdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki shu yo‘sinda ma‘lum turdagi ijtimoiy faoliyat ijrosidir”.

Tayanch kommunikativ kompetensiya, avvalo, o‘quvchilar ongida so‘z (til, muloqot)ning ana shunday imkoniyati, kuchi va oqibati haqida tasavvurni shakllantirishdir. Saylov jarayonlaridagi davlat rahbarlari, deputatlarning chiqishlari, jang oldidan sarkardalarning askarlariga murojaati pirovard natijaga qanday ta‘siri bo‘lganini yoki o‘ylamay aytilgan gap inson taqdirida nechog‘lik pushaymonliklarga sabab bo‘lishini ko‘plab misollar bilan tasdiqlash mumkin.

Tayanch kommunikativ kompetensiya, shuningdek, o‘quvchilarga muloqot muhitini his qilish, ulardagi o‘zlari muvaqqat doxil bo‘lib turgan bu muhit talab qiladigan uslubni to‘g‘ri tanlay bilish malakasidir. Bu malaka faqat maxsus tashkil qilingan ta‘lim shakllaridagina emas, ayni paytda ko‘proq spontan ta‘lim muhitida shakllanadi. O‘quvchilar jamiyat hayotini kuzatar ekanlar, kommunikativ vaziyatlarga ko‘ra uyokibusotsiumning ijtimoiy roli o‘zgarishi bilan nutqi ham muvofiq tarzda o‘zgachalik kasb etishiga guvoh bo‘ladilar. Masalan, o‘z o‘qituvchilarining hayotdagi ijtimoiy roliga ko‘ra nutqlarining quyidagi shakllarda bo‘lishini ko‘rganlar:

1. Darsni tushuntirish jarayonida ilmiy nutq uslubidan foydalanadi.

2. Turliyig‘inlarda rasmiy yoki publitsistik uslublarga murojaat qiladi.

3. Maktabdan, darsdan tashqari bo‘ladigan kommunikativ vaziyatlarda kundalik-maishiy uslubni qo‘llaydi.

Tayanch kommunikativ kompetensiya muloqot jarayoni ishtirokchilari bo‘lmish kommunikant va kommunikantning millati, yoshi, ijtimoiy roli (mavqei), jinsi kabi omillarni hisobga olgan holda muloqot madaniyatiga rioya qilishidir. Masalan, ruslarda ota-onasiga sensirab murojaat qilish odatiy hol bo‘lgan holda, o‘zbek mentalitetiga ko‘ra ota-onasi tugul begona bo‘lgan o‘zidan katta millatdoshlarini sensirash ham ulkan madaniyatsizlik sanaladi. Ayollarga qilinadigan murojaat yoki munosabat er kishiga va aksincha bo‘lsa, nafaqat madaniyatsizlik, balki haqorat sifatida qabul qilinadi. Tayanch kommunikativ kompetensiya sotsiumning o‘zi uchun odatiy bo‘lgan muhitdan boshqa yangi muhitda ham u yerdagi ijtimoiy marker ni nozik ilg‘agan holda kirishuvchanlik, ijtimoiy moslashuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lishidir. Shunday kishilar borki, yangi muhitda “mezbon”lar bilan kirishib ketolmay, begonasirab yuradi (o‘tiradi), o‘zini noqulay sezadi, topgan mavzu, aytgan gaplari ham qovushmaydi, muhitga singmaydi. Aksincha, sotsiumlar borki, besh-o‘n daqiqada muhitni “o‘ziniki” qilib oladi, ular yangi jamoaga kelgan bo‘lsalar ham kommunikativ kompetensiya layoqati bois samarali faoliyat ko‘rsata biladilar.

O.S.Issersning ta‘kidlashicha, muloqot jarayonida adresat nutqi quyidagi parametrlarda o‘z aksini topadi:

- u o‘z nutqida o‘z “men”ini, shaxsiy xususiyatlarini (bevosita yoki bilvosita, o‘z mavqeini ko‘tarish yoki pasaytirish darajasida) namoyon qiladi;

- so‘zlarni qo‘llashda odobliligini (xushmuomalalik borasida suhbatdoshini o‘ziga jalbqilishga qiziqish yoki qiziqmasligini) namoyon qiladi;

- fikr almashinuv jarayonida suhbatdoshlar o‘z nutqlarining kommunikativ tayanch ta‘sirning samaradorligini nazorat qiladilar (ohangni ongli tarzda tanlaydi, vaziyat va holatni boshqaradi). Umumiy kompetensiyalar doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil qaror qabul qila

olish, o‘qib-o‘rganish kompetensiyasini egallashni nazarda tutadi. Ona tili ta’limida esa buni o‘quvchilarning spontan hamda maxsus tashkil etilgan ta’lim orqali olingan bilim, egallangan ko‘nikma va malakalarni o‘zlarida shakllangan hayotiy tajribalar asosida o‘zini o‘zi rivojlantirishlari tarzida ifodalash mumkin. Ona tili predmetida o‘zini jismoniy rivojlantirish vazifasi mantiqan uzoqday tuyuladi. Chunki bu maqsad fizkultura, mehnat darslari kabi jismoniy harakatlarga asoslangan predmetlar kompetensiya doirasiga kiradi degan qarash hammaga singgan.

Pragmalingvist J.Lich bu borada hurmat tamoyili tushunchasini taklif etadi va uning voqelanishi tamoyilning quyidagi oltita qoidasi faollashuvidan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlarini sarfini kamaytir, uning foydasini ko‘paytirishga harakat qil);
2. Himmat, oliyjanoblik qoidasi (o‘z foydangni kamroq ko‘zla, barcha sarfni o‘z zimlangga ol);
3. Ma’qullash, tahsin qoidasi (o‘zgalarni yomonlama, g‘iybat qilma, koyima);
4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o‘z-o‘zingni maqtashni keskin kamaytir);
5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);
6. Xush ko‘rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqko‘ngilli bo‘l).

Bu siradagi oxirgi – matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy reja tuza olish, diagramma, chizma va modellarni o‘qish, fanga oid innovatsion texnologiyalardan foydalanish layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu kompetensiya orqali o‘quvchi maqsadi, manfaati, imkoniyatidan kelib chiqib, kunlik, haftalik shaxsiy reja tuzishni o‘rganadi, fanga doir diagramma, chizma va jadvallar tuzadi, shartli belgilar orqali tushunchalarni, voqeliklarni umumlashtirish, ifodalash layoqatini qo‘lga kiritadi. Masalan, o‘quvchilar gap bo‘laklarini, ularning ostiga tegishli chiziqlar bilan belgilashni o‘rgangandan so‘ng gaplar modelini shu chizmalar orqali ifodalashni o‘rganadilar. Masalan, aniqlovchi+ega+to‘ldiruvchi+hol+kesim (*Kichik singlim masalani tezda hal qildi*) modelidagi gap chizmada quyidagicha belgilanadi:

----- ..... ~~~~~ ——— ———

**Xulosa.** Ushbu maqolada keltirilgan misollar va qilingan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, tayancha boshqa fanlar kabi Ona tili predmetini o‘qitishda fanga doir kompetensiyalarni, shuningdek, umumiy tayanch kompetensiyalarni amaliyotga, hayotga yaroqliligini ta’minlovchi tayanch nuqtadir.

1. Ona tili ta’limida fanga oid hamda umumiy tayanch kompetensiyalarni to‘laqonli shakllantirish uchun, avvalo, davlat ta’lim standartida kompetensiyaviy ta’limga doir mazmuniy tafsilotlar yanada aniqlashtirilishi, sifatiiy ko‘rsatkichlar alohida o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Shuningdek, dastur va darsliklarni takomillashtirish, ularning metodik apparatini mukammallashtirish ham zaruriy choralardan hisoblanadi.

2. O‘quvchilar nutqiy kompetensiyasidagi nomukammallik tajriba-sinov ishlarimiz davomida aniqlangan spontan hamda maxsus tashkil qilingan ta’lim shakllaridagi ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni bartaraf etishda ona tili fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

3. Lingvistik va kreativ kompetensiyalar tilning barcha nazariy hamda amaliy sathlarini o‘zaro aloqadorlikda ham og‘zaki, ham yozma savodxonlikni ta’minlash maqsadiga

yo‘naltirgan holda lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilimva ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llash tajribasiga ega bo‘lgan o‘quvchining integral shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashni ko‘zlaydi.

4. Ona tilini o‘qitish bilan bog‘liq ta‘lim-tarbiya jarayonida samarali, sifatli natijaga erishmoq uchun oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetensiyalar singdirilishini oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda fanga oid umumiy kompetensiyalarni ona tili predmetining mohiyati va o‘ziga xosligidan kelib chiqib, tayanch kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifa sifatida qaralmog‘i lozim.

5. Shakllantirilayotgan fanga oid, shuningdek, umumiy kompetensiyalar ona tili ta‘limida ayni paytda ma‘naviy layoqatni shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim. Chunki Sharqda qadimdan tarbiya har qanday ta‘limning pirovard maqsadi, xulosasi sifatida qarab kelingan va bu qarashning naqadar to‘g‘riligi asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Proceedings of the 12th International Congress of Linguists. Vienna, 1977 (ed. By Dressler W.) Meid W. – Innsbruck: Inst. Fir Sprachwissenschaft, 1978.–R.829.

2. Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.–Toshkent: Cho‘lpon, 2006.

3. Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho‘lpon, 2019.

4. Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Toshkent: SHarq, 2001.

5. Nurmonov A., Ziyodullaeva G. O‘quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari // Ma‘rifat, 2014, 18 iyul.–B.9.

6. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik tayanchning nazariy shakllanishi // O‘zbek til va adabiyoti, 2001, 4-son, – B. 54-58.

7. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

8. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishda uzluksizlikni ta‘minlashning ilmiy-metodik asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008. – 162 b.

## SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA TELEMEDITSINANING O‘RNI

**Ashurova Samodil Kamol qizi***Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada telemeditsinaning qanchalik darajada muhim ekanligini va barcha aholi qatlamlariga yetkazishni ta'minlashimiz kerak. Telemeditsina yangi tushuncha emas; u deyarli telefonlar kabi mavjud. Ko'p yillar oldin, shifokorlar uzoqdan bemorga dastlabki maslahat berishlari mumkin edi. Video chatlar paydo bo'lishi bilan teletibbiyot zamonaviy tarkibga ega bo'ldi va pandemiya boshlanishi bilan u juda mashhur bo'ldi va talabga aylandi.*

**Kalit so'zlar:** *telemeditsina, teletibbiyot, akne, vizualizatsiya, instrumental, telekommunikatsiya.*

**Аннотация:** В этой статье мы должны показать, насколько важна телемедицина и ее доступность для всех слоев населения. Телемедицина-концепция не новая; он существует почти так же, как телефоны. Много лет назад врачи могли дать пациенту первоначальную консультацию издалека. С появлением видеочатов телемедицина приобрела современный контент, а с началом пандемии стала очень популярной и востребованной.

**Ключевые слова:** *телемедицина, телемедицина, прыщи, визуализация, инструментальный, телекоммуникации.*

**Abstract:** *In this article, we need to explain how important telemedicine is and how it should be delivered to all segments of the population. Telemedicine is not a new concept; it has been around almost as long as phones. Many years ago, doctors could provide an initial consultation to a patient remotely. With the advent of video chats, telemedicine gained modern content, and with the onset of the pandemic, it became very popular and in demand.*

**Key words:** *telemedicine, telemedicine, acne, visualization, instrumental, telecommunications*

**Kirish.** Telemeditsina - bu bemorlarni tashxislash va davolash sifati va qulayligini oshirish, shuningdek, aholi salomatligini yaxshilash maqsadida mutaxassislar o'rtasida tibbiy ma'lumot almashish uchun zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan tibbiyotning alohida sohasi umumiy telemeditsina texnologiyalari tibbiyot uchun muhim bo'lgan vaqt omilidan samarali foydalanish imkonini beradi. Telemeditsina tibbiy yordam sifati va foydalanish imkoniyatini yaxshilaydi va kasalxonaga yotqizish sanalarini muvofiqlashtirish vaqtini qisqartiradi. Bemorlar Markazga to'liq ko'lamli tadqiqotlar bilan kelishadi, bu esa tayyorgarlik vaqti va kasalxonaga yotqizish muddatini qisqartiradi va operatsiyadan keyingi bemorlarda natijalarni masofadan kuzatish imkonini beradi. Tibbiy yordam sifati yuksalib, uni hududiy miqyosda tashkil etishni takomillashtirish borasidagi ishlar faollashmoqda. Bundan tashqari, telekonsultatsiyalarning tarbiyaviy ta'sirini ta'kidlash kerak, ular davomida markazdan uzoqda joylashgan mintaqa mutaxassislari markazning etakchi mutaxassislari



bilan murakkab klinik holatlar bo'yicha professional muloqot qilish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Hozirgi vaqtda dunyoda 250 dan ortiq telemeditsina loyihalari ma'lum bo'lib, ular tabiatiga ko'ra klinik (ko'pchilik), ta'lim, axborot va tahliliy loyihalarga bo'lingan. Geografik taqsimot bo'yicha loyihalar mahalliy (bir muassasa doirasida mahalliy, ulardan 27%), mintaqaviy (40%), milliy (16%) va xalqaro (17%) bo'linadi. Telemeditsinaning 23 foizi qishloq va chekka hududlar aholisiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun ishlatiladi. Amerika Telemeditsina assotsiatsiyasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, masofaviy maslahatlar va monitoring shifoxonaga yotqizish sonini 19% ga, yuzma-yuz maslahat uchun tashriflar sonini esa 70% ga kamaytiradi. Onlayn maslahatlar tufayli og'ir bemorlarni transportirovka qilishda tejamkorlik yiliga million mablag'larni tejashga olib keladi. Telemeditsina maslahatlari tibbiy ma'lumotlarni telekommunikatsiya aloqa kanallarida uzatish orqali amalga oshiriladi. Maslahatlashuvlar "store-and-forward" (eslab qol va yubor) rejimda ham, "live, real-time" (real vaqt) rejimida ham amalga oshirilishi mumkin.

Teletibbiyotning afzalliklari

- Chegara yo'q
- Masofaviy teletibbiyot bo'yicha maslahatlar Internetga kirish imkoni bo'lgan dunyoning istalgan nuqtasida mavjud. Bemorga faqat aloqa va kompyuter, planshet yoki smartfon kerak.

Qulaylik

Inson uydan chiqmasdan kerakli mutaxassisdan maslahat oladi. Siz klinikada uchrashuvga yozilish uchun cheksiz urinishlar va shifokorlarni ko'rish uchun soatlab navbatlarni unutishingiz mumkin. Shifokor qabulida bo'lganingizda, ishdan vaqt ajratish, sayohatga vaqt sarflash yoki bolangiz uchun enaga izlashning hojati yo'q. Va yana ko'p noqulayliklar - barchasi o'tmishda qolishi mumkin. Masofaviy maslahatlar vaqt, kuch va nervlarni tejashga yordam beradi. Teletibbiyot bo'yicha maslahat olishni xohlovchi bemorlar o'z mintaqasidagi eng yaqin uchinchi darajali tibbiyot muassasasiga – viloyat va viloyat shifoxonalari murojaat qilishlari kerak. Davolovchi shifokor barcha tegishli hujjatlar va tadqiqotlarni federal teletibbiyot tizimi orqali yuboradi. Maslahatlashuvlar yopiq aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi, bu uchinchi shaxslarning bemorlarning shaxsiy ma'lumotlariga erkin kirishini istisno qiladi. Telemeditsina yashash joyining uzoqligi yoki eng yaqin shifoxonalarda bunday shifokorning yo'qligi sababli kerakli mutaxassisga borishda qiynalayotgan bemorlar uchun qulaylik ko'rsatdi. Gap nogironlar, keksa bemorlar va katta shaharlardan uzoqda joylashgan hududlarda va tajribali shifokorlari bo'lgan klinikalarda yashovchilar haqida ketmoqda. Maslahatlarga tezkor kirish yuqori ixtisoslashgan mutaxassislar odatda 48 soat ichida onlayn uchrashuv o'tkazadilar.

Telemeditsina tibbiy tashkilot uchun bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilish imkonini beradi. Bu shifokorlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishga yordam beradi va bemorlarning vaqtini tejaydi.

Shu bilan birga, klinika o'zining jismoniy manziliga etib bormagan bemorlarga kirish huquqiga ega. Bular boshqa shaharlarning aholisi, harakatchanligi cheklangan odamlar yoki qat'iy ish jadvaliga ega odamlar bo'lishi mumkin. Qabul qiling, onlayn konsultatsiya uchun 30 daqiqa vaqt topish ko'pincha sayohatga va tashrifga 2-3 soat sarflash, ishdan ta'til so'rash va farzandlaringizni kimdir bilan qoldirib ketishdan ko'ra osonroqdir.

### Kasallikning oldini olish

Shifokorga murojaat qilish oson bo'lsa va ko'p vaqt talab qilmasa, odamlar asoratlarni kutmasdan, o'z vaqtida o'z sog'lig'i haqida savollar berishga rag'batga ega.

Telemeditsina shifokor faqat shaxsan bajaradigan vazifalarni o'z zimmasiga olmaydi. Ko'pgina kasalliklarni tashxislash va davolash hali ham mutaxassislarga shaxsan tashrif buyurishni talab qiladi: tekshiruv, test, keng qamrovli diagnostika va muayyan turdagi davolanish. Ushbu klinikaning tibbiy vazifalari hech qachon onlayn rejimga o'tmaydi. Va shunga qaramay, teletibbiyot ba'zi diagnostika va maslahat jarayonlarini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Shifokorlarning o'zaro mutanosib harakati va maslahatlashuvi. Telemeditsina texnologiyalaridan foydalangan holda shifokorlar o'zaro yoki boshqa ixtisoslikdagi mutaxassislar bilan tezkor maslahatlashib olishi mumkin. Bu esa bemorlarga ko'rsatiladigan yordam darajasini sezilarli oshiradi.

Tibbiy ma'lumotlarni saqlash va yuborish. Telemeditsinadan foydalanishning asosiy omillaridan biri tegishli mutaxassislarga osongina jo'natilishi mumkin bo'lgan tibbiy ma'lumotlarni (tahlillar natijalari, hayotiy faoliyat belgilari, laboratoriya hisoboti va profil hujjatlari) oraliq saqlashdir

Tibbiy vizualizatsiya. U telemeditsinaning davolash guruhi va tashqi maslahatchilar o'rtasida rentgen suratlari va boshqa tasvirlar almashinuvini tezlashtiradigan yechimi. Ushbu jarayondan foydalangan holda, xususan, rentgenolog-mutaxassis istalgan vaqtda tasvirlarni o'rganishi va tezda tahlilni taqdim etishi mumkin.

Raqamlashtirish jarayonini moliyalashtirish va telemeditsina xizmatlari ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutuvchi bandlarni kiritgan holda davlat sog'liqni saqlash xarajati ro'yxatini tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, telemeditsinaning zamonaviy usullari va turlarini mahalliy tibbiy yordam ko'rsatish amaliyotiga joriy etish maqsadida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikka e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Internetdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish uchun tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, jumladan, aholining ijtimoiy zaif qatlami va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus tariflar joriy etish lozim. Bundan tashqari, virtual konsultatsiya, masofaviy ko'riklar o'tkazish uchun oilaviy poliklinikalar va sog'liqni saqlashning boshqa birlamchi bo'g'inlarini telekommunikatsiya infratuzilmasi va zarur texnik vositalar bilan ta'minlash darkor.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, telemeditsina sog'liq bilan bog'liq ko'plab masalalarda qulay, sodda, va foydalidir. Shuning uchun u allaqachon hayotimizga mustahkam o'rin olgan. Internet-kommunikatsiya va texnologiyalarni rivojlantirishda doimiy yutuqlarni hisobga olgan holda, teletibbiyotni rivojlantirish istiqbollari eng qulaydir. Va hozir mavjud bo'lgan narsa bizga sezilarli afzalliklar va foydalanish qulayligini beradi. Shifokorlar bilan muloqot qilishning ushbu formatini sinab ko'ring - unda siz albatta yangi imkoniyatlar topasiz.

Xulosa :Biz telemeditsinani yo'lga qo'ysak anchagina aholining orasida kechayotgan kasalliklarni yengilashtirishga harakat qilgan bo'lamiz. Shubhasiz, ayrim muammolar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish (masalan, tasvir sifatini oshirish), etik (axloqiy) va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish (maxfiylikni muhofaza qilish muammosi) va tibbiy ta'limga Telemeditsina dasturlarini faol joriy etish sog'liqni saqlashning ushbu sohasini yanada

rivojlantirishni joriy etish bosqichma-bosqich hal bo‘ladi. Biroq, Telemeditsinani ijtimoiy mas’uliyat bilan va bemorga yo‘naltirilgan holda rivojlantirish uchun o‘ziga xos xususiyatlarini (vizual va instrumental tekshiruv zarurati, visual ko‘rik) tushunish muhimdir. Shifokor va bemorlarning o‘zaro munosabati, bu tibbiydiagnostik muolajalar va tadbirlarining muvaffaqiyatini belgilaydi.

#### REFERENCES:

1. Teri va tanosil kasalliklari kitob, S.Aripov
2. Наливаева А.В. Информационные технологии в медицине: доказанные факты и нерешенные проблемы. Бюлл. мед. Интернет-конференций. 2012; 2 (11): 894–897.
3. Посненкова О.М., Киселёв А.Р., Гриднев В.И. и др. Контроль артериального давления у больных гипертонией в первичном звене здравоохранения. Анализ данных регистра артериальной гипертонии. Кардиоваск. терап. и профил. 2012; 11 (3): 4–11.
4. Telemedicine in Japan. JTТА, 2013. URL: [http://jtta.umin.jp/pdf/telemedicine/telemedicine\\_in\\_japan\\_20131015-2\\_en.pdf](http://jtta.umin.jp/pdf/telemedicine/telemedicine_in_japan_20131015-2_en.pdf) (дата обращения: 07.11.2017).
5. [www.tma.uz](http://www.tma.uz)
6. [www.medical.ru](http://www.medical.ru)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www.tashpmi.uz](http://www.tashpmi.uz)
9. [www.med.uz](http://www.med.uz)
10. Хидиров, Х. Н. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.
11. Хидиров, Х. Н. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
12. Хидиров, Х. Н. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой ученый, (14), 262-263.
13. Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
14. Z Madraximova, Z & Ablaeva, N.(2022). CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
15. Madraximova, Z & Ablaeva, N. (2022) ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ". Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
16. Аблаева, Н.К.(2022). Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Та’лим fidoyilari 6 (7), 687-691

**TERRORIZM VA EKSTREMIZM BUGUNGI KUN TARAQQIYOTI UCHUN  
GLOBAL MUAMMO  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

**Keldiyev Kamronbek Sarvarjon o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta’lim 3-kurs kursanti*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada bugungi kunda terrorizm, ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar kun sayin ortib borayotganligi va bunga qarshi kurashish global muammolardan biriga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Terrorizm, ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni oldini olish ularga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish va ushbu faoliyatni amalga oshirishda yo‘l qo‘yilayotgan xato kamchiliklarni aniqlash, bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.*

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan aholi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 36,8 million kishini tashkil etmoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning natijasi sifatida milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq – tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklari uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart – sharoitlar yaratdi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart – sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish davlatimiz, fuqarolarimizning oliy maqsadi hisoblanadi. Terrorizm va ekstremizm bugungi kunda dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan global muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lib ulgurdi. Uning salbiy oqibatlari davlatlarning rivojlanishiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini to‘la ta‘minlanishiga katta to‘siq bo‘lmoqda.

Terrorizm va ekstremizmning global muammo ekanligi butun dunyo hamjamiyati tomondan tan olinmoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasida ko‘plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ushbu qonun hujjatlari orqali tegishli davlat organlari, muassasalariga terrorizm, ekstremizmga qarshi kurashda turli xil taklif, tavsiyalar ishlab chiqish ushbu faoliyatga chek qo‘yish uchun turli xil vazifa va topshiriqlar, vakolatlar berilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev

tomonidan 2022 – yil, 1-iyul kuni qabul qilingan “2021 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Ekstremizm va Terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6255-sonli farmoni qabul qilindi. Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib quydagilar belgilandi:

- Ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishini oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an‘anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik mafkurasini targ‘ib qilish;
- Voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishini oldini olish;
- Ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;

- Uzoq muddat xorijda bo‘lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ta‘siridan himoya qilish;

- Internet jahon axborot tarmog‘idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida foydalanishga qarshi kurashish;

- Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;

- Ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta‘qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;

- Ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlik;

Undan tashqari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2021 – yil

12 – fevraldagi videoselektor yig‘ilishida ham bevosita ichki ishlar organlariga alohida to‘xtalib o‘tib, bu sohada jinoyatchilik soni ortib borayotganligi, faqat jinoyat sodir etib bo‘linganidan keyin unga qarshi kurashib uni fosh etish bilan cheklanib qolinayotganligini, sohadagi kamchiliklar va muammolar, fuqarolar bilan muloqot to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligini, fuqarolarning ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan hurmat va ishonch yo‘qolganligi ta‘kidlab o‘tildi. Bundan tashqari ichki ishlar organlariga tegishli bir nechta qarorlar ishlab chiqildi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallaydi. O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, II Oning mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan chora–tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta‘minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibini va xavfsizligini saqlash masalalari Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida eng muhim va ustuvor o‘rin egallaydi hamda bu masala ichki ishlar tizimini tubdan isloh qilish, uning faoliyati samaradorligini zamonaviy bosqichga ko‘tarishdek g‘oyat murakkab vazifa doimiy ravishda kun tartibiga qo‘yib kelinmoqda .

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash , fuqarolarni huquq va erkinliklarini har qanday tajovuzlardan himoya qilishdek yuksak maqsadlarga erishish uchun istiqloq yillarida ichki ishlar organlari tizimini chuqur isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, har bir mahalla, eng olis, chekka qishloq ovullarimizgacha xalq bilan ishlaydigan uning dardu g‘amiga hamdard, quvonch – tashvishiga sherik bo‘lishga tayyor profilaktika inspektorlari faoliyat ko‘rsatishiga imkoniyat yaratildi.

Jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlari va ularni taqazo etuvchi omillarning aloqadorlikda mamlakatdagi, uning ma‘muriy hududlaridagi jamoat tartibi va xavfsizligiga ta‘siri ularning mazmun – mohiyatidan kelib chiqib ijobiy va salbiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ichki ishlar organlari muntazam ravishda tizimli holda ushbu

---

qonuniyatlarni va omillarni o‘z vaqtida aniqlashlari, monitoring olib borishlari va uning natijalari bo‘yicha:

a) Jamoat tartibi va xavfsizligiga ta‘sir etuvchi omillardan ichki ishlar organlari ushbu jarayonni boshqarishda samarali foydalanishga;

b) Jamoat tartibi va xavfsizligiga ta‘sir qiluvchi omillarni esa ichki ishlar organlari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda bartaraf etish, zararsizlantirish choralarini amalga oshirishlari talab qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kurbonali, S., & Umarali, Y. (2023). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL FITNESS OF COLLEGE STUDENTS. Conferencea, 188-191.

2. Мамажонов, Н., Хамракулов, Р. А., Хайдаралиев, Х., Хасанов, А., Бобожонов, Н., & Усмонов, З. КБК: 751 М23 Ташкилий кумита.

**ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР  
ПРОФИЛАКТИКАСИНИ АМАЛГА ОШИРИШ****Турсунов Оқилжон Оматали ўғли***Ўзбекистон Республикаси ИИВ**Академияси курсанти*

**Аннотация:** *Мазкур мақолада диний экстремизм билан боғлиқ хуқуқбузарликларнинг умумий, махсус, якка ва виктимологик профилактикасини амалга ошириш борасидаги чора-тадбирлар, тавфсия ва таклифлар келтириб ўтилган. Шунингдек, бу чора-тадбирларни самарадорлигини оширишга қаратилган тавфсиялар ишлаб чиқилган.*

**Таянч тушунчалар:** *Диний экстремизм, виктимологик профилактика, ақидапарастлик, глобаллашув жараёни, диний бағрикенглик, диний ташкилот.*

Мустақиллик йилларида мамлақтимиз тарихан қисқа бу даврни босиб ўтиш билан бирга улкан ютуқларни ҳам қўлга киритди. Бунинг натижасида Ўзбекистон жаҳон миқёсида ўзининг ўрни ва нуфузига эга бўлди. Аммо бу ютуқлар билан чегараланиб қолмасдан янги марралар сари интилиш, мамлақатимизни янада ривожлантириш, унинг мутақиллигини янада мутақамлаш, фуқароларимизнинг тинч, осуда ва фаровон ҳаётини таъминлаш

йўлида интилиб яшаш энг муҳим вазифаларимиздан бири ҳисобланади, лекин шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, сўнги кунларда бутун дунё мамлақатларини диний экстремизм ва терроризм ташвишга солиб келмоқда. Дунёнинг турли минтақаларида давом этаётган маҳаллий урушлар, ҳарбий қарама-қаршилик ва можаролар, террорчилик ҳуружлари халқаро хавфсизликка таҳдид солмоқда. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов 1993-йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти минбаридан туриб диний экстремизм халқаро миқёсида ниҳоятда томир отиб бораётганлиги, унга қарши кескин кураш олиб бориш лозимлигини таъкидлаб кетган эди. Бундан ташқари унинг қуйидаги сўзларига тўхталиб ўтсак –“Ҳозирги мураккаб ва таҳликали замонда, халқаро терроризм, диний экстремизм ва наркобизнес каби бало-қазолар инсоният ҳаётига таҳдид солиб турган бир шароитда мен ўз уйимиз, муқаддас юртимизни ўзимиз асрайлик, ўзимиз ҳимоя қилайлик, деган даъват ҳар бир юртдошимизни доимо ҳушёрлик ва огоҳликка чорлаб туришини истар эдим”- деб терроризм ва экстремизмнинг ижтимоий хавфлилигини ва унга қарши барча кучларни бирлаштирган ҳолда курашиш лозимлигини кўрсатиб берган.

Кишилик жамиятининг ҳозирги босқичида терроризм, жумладан диний сиёсий-мақсадга моҳиятга эга терроризм ва экстремизмнинг глобаллашуви, уларнинг тобора халқаро миқёсидаги воқеликка айланиб бораётгани дунё ҳамжамиятининг мазкур муаммога бўлган эътиборини янада оширмоқда. Мазкур ижтимоий салбий иллатнинг моҳияти ва унинг сабаб ҳамда шароитларини ўрганишдан аввал унинг тушунчаси ҳақида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. “Экстремизм” лотинча “эктремис” сўзидан олинган бўлиб, ашаддий, қатъий нуқтаи назарда ва чора тарафдори деган маънони англатади. Шундан кўриниб турибдики, диний экстремизм ижтимоий ҳаётда

юз бераётган жарёнлар таъсирида вужудга келади ва унинг илдизлари узоқ ўтмишга бориб тақалади. Экстремизмнинг авж олишига айрим омиллар таъсир кўрсатади.

-Биринчидан, наркотик воситалар ва психатроп моддаларнинг ноқонуний савдоси кучайиб бораётганлиги;

-Иккинчидан, диний экстремис гуруҳларни молиявий маблағ билан таъминлайдиганларнинг кўпайиб бораётгани;

-Учинчидан, бундай гуруҳларнинг жиноят содир этиш малакаси йилдан йилга ошиб бораётгани

-Тўртинчидан, халқаро иқтисодий ва молиявий ҳамкорликнинг кенгайиб бораётгани ва бошқа шу каби омиллар авж олишига сабаб бўлмоқда.

Турли экстремистик гуруҳларнинг ўзаро муносабатида доимий келишмовчилик ва жанжаллар, воқеликнинг кескин ўзгаришлар шароитида улар бўлиниб кетадиган гуруҳлар ўртасидаги “револютсенирликда” мусобақалашув кузатилади. Америкалик социолог К.Кенидон “бундай гуруҳларда одатий шахсий инзолар, лидерлик учун кураш, дид ва қарашлардаги фарқ сезиларли даражада ўсиб, баъзида хатто ҳаёт-мамот масаласигача етиб боради”- деб ёзган эди.

Диний-экстремистик ташкилотларнинг асосий фаолият усуллари қуйидагилардан иборат:

-Диний экстремистик руҳдаги, шу жумладан “жиход”, “шоҳидлик” ғоялари тарғиб қилинган варақа, адабиёт, видео ва аудио тасмаларни тарқатиш;

-Яширин “хужраларда” ўқитилаётган радикал исломий тушунчаларни сингдириш;

-Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий ҳолатни кескин қоралаш;

-Расмий диний тузилмаларни обрўсизлантириш;

-Аёллардан иборат ячейкаларин кучайтириш қабиларни уз ичига олади.

Ўзбекистон Республикасининг диний экстремизмнинг профилактикаси сиёсати Олий Мажлис ва Ўзбекистон Республикаси президенти томонидан белгиланади.

Диний экстремизм умумий профилактикаси бу, диний экстремизмнинг профилактикасини бевосита амалга оширувчи органларнинг диний экстремизмни олдини олиш, унинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон берётган шарт-шароитларни аниылаш, бартараф этиш бшйича фаолиятдир. “Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонуннинг 23-моддасида хуқуқбузарликларнинг умумий профилактикасини чора-тадбирлари кўрсатилган бўлиб, бу диний экстремизмнинг умумий профилактикаси ҳам ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг 2014-йил 14-майдаги 371-сонли қонунининг 24-моддасида хуқуқбузарликларнинг махсус профилактикаси тушунчфси ҳфмда 25-27-моддаларида эса чора-тадбирлар кўрсатиб ўтилган.

Якка тартибдаги профилактик фаолиятни ташкил этишнинг мақсади, диний экстремизм оқим аъзолари ва хуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган шахсларни аниқлаш, уларни ўрганиш, таъсир этиш, уларнинг хулқ-атворини ижобий томонга ўзгартириш ҳамда уларга салбий таъсир этувчи шарт-шароитларни бартараф этишга йўналтирилган фаолиятдир.

Ҳозирги кунга келиб виктимология нафақат криминалогиянинг алоҳида йўналиши, балки ундан алоҳида ажралиб чиқиш имкониятига эга таълимотлар тизимидир. Ўзбекистонда хуқуқбузарликлар ва жиноятларнинг олдини олишда виктимологик



профилактикани амалга оширишга алоҳида эътибор берилмоқда. Профилактика инспекторининг терроризмдан жабрланиш хавфини камайтиришга қаратилган профилактик чора-тадбирларини қўллашга доир фаолияти диний экстремизмнинг виктимологик профилатикасидир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, терроризм ва диний экстремизмга қарши курашишда барча давлат органлари, шу жумладан Ички ишлар органларининг соҳавий хизматлари ўзаро ҳамкорликдаги фаолияти самарали натижаларни келтириб чиқаради. Ҳамкорликда асосий эътибор фуқароларнинг ҳуқуқий онги, маънавияти юқори бўлишига қаратилиши мақсадга мувофиқдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни. // URL: <http://www.lex.uz>.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 30 июльдаги “Экстремизмга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

**VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLAR****Alijonov Abdug'ani Salimjon o'g'li***IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi 305-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Voyaga etmaganlar jinoyati shaxslar, oilalar va jamoalar uchun keng qamrovli oqibatlariga olib keladigan muhim ijtimoiy tashvish bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot hujjati voyaga etmaganlar jinoyatini, jumladan, uning sabablari, oqibatlari va potentsial aralashuvini har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan. Turli nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni o'rganish orqali ushbu maqola voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga yordam beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va ekologik omillarni o'rganadi. Qolaversa, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarning shaxs va jamiyatga ta'siri haqida so'z yuritilib, ushbu murakkab muammoni hal etishda profilaktika choralari va reabilitatsiya tadbirlarining ahamiyati ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Voyaga yetmaganlar jinoyati, O'smirning jinoiy xatti-harakati, Kichik jinoiy harakatlar, Voyaga yetmaganlar adliya tizimi, Yoshlar jinoyati statistikasi, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sud jarayoni, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, O'smirlarning qonunbuzarligi, 18 yoshgacha bo'lgan jinoiy xatti-harakatlar, Voyaga yetmaganlarni qamoqqa olish.*

**Kirish.**

Voyaga yetmaganlar jinoyati deganda 18 yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatlar tushuniladi. Voyaga yetmagan jinoyatchilar bunday xatti-harakatlarning asosiy sabablarini tushunib, o'g'irlik, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va zo'ravonlik kabi turli xil jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirishiga qarshi samarali aralashuv va oldini olish zarurdir. Ushbu maqola voyaga yetmaganlar jinoyatining ko'p qirrali mohiyatini o'rganishga, uning asosiy sabablarini, ijtimoiy oqibatlarini va potentsial yechimlarini ko'rib chiqamiz. Asl sabablar, statistika va tendentsiyalarni, shuningdek, balog'atga yetmagan bolalar adliya tizimini chuqur o'rganish orqali biz ushbu dolzarb masala bo'yicha qimmatli tushunchalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining boshlanishiga turli omillar sabab bo'ladi. Ushbu sabablar ko'pincha o'zaro bog'liq va ko'p qirrali ekanligini tan olish kerak. Muhim ta'sirlardan biri bu oilaviy muhit. Oila ichidagi disfunktsiya, e'tiborsizlik yoki suiiste'mollik voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq-atvor muammolari va uquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tengdoshlarning bosimi va ijtimoiy ta'sirlar balog'atga yetmaganlarning xatti-harakatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ta'lim olish imkoniyatining yo'qligi, qashshoqlik, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va ruhiy salomatlik muammolari ham e'tibordan chetda qoldirilmaydigan omillardir.

O'smirlar orasida jinoyati statistikasi va tendentsiyalari, ularning jinoyatlarining ko'lami va mohiyatini har tomonlama tushunish uchun jinoyatlar statistikasi va tendentsiyalarini tahlil qilish juda muhimdir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir bo'ladigan jinoyatlarning umumiy ko'rsatkichlari pasaygan. Biroq, giyohvand moddalar va zo'ravonlik jinoyatlari kabi jinoyatlarning ayrim turlari hali ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu doimiy tendentsiyalarni

bartaraf etish va aralashuvlarni mos ravishda moslashtirish juda muhimdir. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining rivojlanayotgan manzarasi haqida xabardor bo'lish orqali jamiyat paydo bo'layotgan muammolarga yaxshiroq javob berishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarga oid adliya tizimi voyaga yetmagan jinoyatchilarga nisbatan adolatli va rehabilitativ yondashuvni ta'minlashga qaratilgan. Katta yoshdagi jinoiy adliya tizimidan farqli o'laroq, bu yerda asosiy e'tibor o'smir yoshlarning farovonligi va isloh qilinishiga qaratilgan. Voyaga yetmaganlarga oid adliya tizimining asosiy maqsadlari yosh huquqbuzarlarni qilmishlari uchun javobgarlikka tortish, takror jinoyat sodir etilishining oldini olish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli qayta integratsiyalashuviga ko'maklashishdan iborat. Jazoni rehabilitatsiya bilan muvozanatlash juda nozik vazifadir, lekin yoshlar hayotida ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash uchun zarurdir.

Voyaga yetmaganlar og'irligi va xarakteriga ko'ra turli xil jinoiy harakatlarga jalb qilinishi mumkin. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ba'zi keng tarqalgan turlariga o'g'irlik, vandalizm, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar, hujum va qotillik kabi yanada jiddiy jinoyatlar kiradi. Jinoyatning har bir turini jinoyatchining ehtiyojlari va sharoitlariga mos keladigan tegishli choralar bilan hal qilish juda muhimdir. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning xilma-xilligini tan olish orqali biz sa'y-harakatlarimizni samarali oldini olish va rehabilitatsiya strategiyalariga moslashtira olamiz.

O'smirlarning jinoiy xatti-harakatlariga yordam beruvchi ayrim omillar:

Yoshlarning jinoiy xatti-harakatlariga yordam beradigan omillarni tushunish samarali choralarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, oila dinamikasi, tengdoshlarning ta'siri, ta'limdagi bo'shliqlar, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va ruhiy salomatlik muammolari keng tarqalgan hissa qo'shadigan omillardir. Ushbu asosiy sabablarni bartaraf etadigan yaxlit yondashuvni qabul qilish juda muhimdir. Qo'llab-quvvatlash tizimlari, maslahatlar, ta'lim va shaxsiy o'sish imkoniyatlarini taqdim etish orqali biz yoshlarning jinoiy faoliyatga kirishishining oldini olishga yordam bera olamiz.

Voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etganda, ularning yoshi va sharoitlariga mos keladigan tegishli oqibatlar va aralashuvlarni amalga oshirish juda muhimdir. Faqat jazoga e'tibor qaratish o'rniga, adolatni tiklash amaliyotini amalga oshirish mumkin. Ushbu amaliyotlar etkazilgan zararni bartaraf etishga, huquqbuzarni javobgarlikka tortishga va ularning rehabilitatsiyasiga yordam berishga qaratilgan. Aralashuv dasturlari maslahat, jamoat xizmati, kasbiy ta'lim va ta'lim imkoniyatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Jinoiy xatti-harakatlarning yanada kuchayishining oldini olish uchun erta aralashuv juda muhimdir.

Yoshlar sudi ishlari kattalar sudidan bir necha jihatdan farq qiladi. Asosiy maqsad yosh jinoyatchini jazolashdan ko'ra rehabilitatsiya qilishdir. Huquqiy tizim o'smir yoshdagi voyaga yetmaganlarning o'zgarish va o'sish qobiliyatiga ega ekanligini tan oladi. Yoshlar sudlari ko'pincha tegishli oqibatlar va aralashuvlarni aniqlash uchun sudyalari, advokatlar va hatto tengdoshlar bilan hamkorlikda yondashuvni o'z ichiga oladi. Har bir ishning o'ziga xos holatlarini hisobga olgan holda, huquq tizimi o'smirlar jinoyatlarining asosiy sabablarini bartaraf etadigan moslashtirilgan echimlarni taklif qilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarni qamoqqa olish va rehabilitatsiya qilish dasturlari: Jinoyatning og'irligi xavfsiz qamoqqa olishni talab qiladigan hollarda, voyaga yetmaganlar uchun qamoqxonadan foydalaniladi. Ushbu muassasalarning maqsadi nafaqat jazolash, balki rehabilitatsiya uchun tuzilgan muhitni ta'minlashdir. Ta'lim, kasbiy ta'lim, maslahat va

terapiya ushbu dasturlarning muhim tarkibiy qismidir. Maqsad - huquqbuzarlik sodir etgan yoshlarni zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash. Uzoq muddatli qamoqqa olishdan ko'ra reabilitatsiyani birinchi o'ringa qo'yish juda muhim, chunki bu odamlar uchun yanada istiqbolli kelajakni taklif qiladi.

Yosh huquqbuzarlik qonunlari va ularning samaradorligi: Yosh huquqbuzarlar to'g'risidagi qonunlar huquqbuzar voyaga yetmagan, ammo jiddiy huquqbuzarlik sodir etgan holatlarni ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan. Ushbu qonunlar huquqbuzarga voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan shaxs sifatida munosabatda bo'lish o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan. Yosh huquqbuzarlik qonunlarining samaradorligi yurisdiksiyaga va har bir ish bilan bog'liq o'ziga xos holatlarga qarab o'zgaradi. Hisobdorlik, reabilitatsiya va jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun ushbu qonunlarni doimiy ravishda baholash va takomillashtirish zarur.

Profilaktik choralar va jamoatchilikni jalb qilish, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish oilalar, maktablar, mahallalar va davlat idoralarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Oilaviy rishtalarni mustahkamlash, sifatli ta'lim berish va xavfsiz muhitni yaratish orqali biz o'smir yoshlarning jinoiy xatti-harakatlari bilan bog'liq xavf omillarini kamaytirishimiz mumkin. Yoshlarni jinoiy faoliyatdan chalg'itishda murabbiylik dasturlari, maktabdan keyingi mashg'ulotlar va jamoatchilik bilan bog'liq tashabbuslar ham muhim o'rin tutadi. Jamiyatni jalb qilish ijtimoiy tuzilmani mustahkamlaydi va yoshlarga ijobiy tanlov qilish imkoniyatini beradi.

**Xulosa:** yosh huquqbuzarlar uchun yaxshi kelajakni targ'ib qilish

Voyaga etmaganlarning xulq-atvorini tushunish va voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni bartaraf etish murakkab va ko'p qirrali ishdir. Sabablarini tan olish, jinoyatlar statistikasini tahlil qilish va samarali choralarni amalga oshirish orqali biz yosh huquqbuzarlarning kelajagini yaxshilashga yordam bera olamiz. Bu shaxslarning farovonligi, reabilitatsiyasi va jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiyasiga ustuvor ahamiyat berish zarur. Hamkorlik va rahm-shafqatli yondashuv bilan biz jinoyatchilik tsiklini sindirishimiz va hamma uchun xavfsizroq va yanada inklyuziv jamiyat yaratishimiz mumkin. Keling, yoshlarimizni ertangi yorug'lik sari qo'llab-quvvatlash va yo'naltirishda birgalikda harakat qilaylik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Voyaga yetmaganlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgariigi. o'quv qo'llanma. —T.: «Aloqachi\* nashriyoti, 2010
2. <https://uza.uz/static/media/uza-logo.d02b4538.svg>  
(O'zb Milliy Agentligi rasmiy sayti)

**DAVLATLAR BUYUDJETLARI TUZILMALARI VA ULAR FAOLIYATINI  
IJTIMOIY SOHAGA YONALTIRISH OMILLARI****Aslonboyev Suhrob Dadajon o'g'li***Farg‘ona Politehnika instituti “ICHB” fakulteti talabasi***Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna***FerPI, Iqtisodiyot kafedrası, i.f.n., dotsent*

**Annotatsiya:** Davlat byudjetlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu byudjetlarning katta qismi ijtimoiy sohaga yo'naltiriladi. Ushbu maqolada davlat byudjetlari tuzilmalari, ijtimoiy ta'minot dasturlari, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muhim xizmatlarga mablag'lar ajratilishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqiladi. Ushbu omillarni tushunib, siyosatchilar davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larning samaradorligi va inklyuzivligini oshirish, shu orqali ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish uchun asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Davlat byudjeti, ijtimoiy soha, taqsimlash, omillar, xalq farovonligi, sog'liqni saqlash, ta'lim

**Kirish.** Davlat byudjetlari hukumatlar milliy ustuvorliklar va maqsadlarni aks ettiruvchi turli tarmoqlar bo'yicha resurslarni taqsimlash uchun foydalanadigan moliyaviy rejalar bo'lib xizmat qiladi. Ushbu sohalar orasida ijtimoiy soha muhim soha bo'lib, farovonlik dasturlari, sog'liqni saqlash, ta'lim va fuqarolar farovonligi uchun muhim bo'lgan boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy sohaga davlat byudjeti mablag'larining taqsimlanishiga ko'plab omillar, jumladan, iqtisodiy sharoitlar, siyosiy ustuvorliklar, demografik tendentsiyalar va ijtimoiy ehtiyojlar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola davlat byudjetlarining murakkab tuzilmalarini va ularni ijtimoiy sohaga taqsimlashga yo'naltiruvchi omillarni o'rganishga qaratilgan.

Ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlar qashshoqlikni bartaraf etish va davlat byudjetlarida ishsizlik nafaqalarini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu siyosat va dasturlar muhtoj shaxslar va oilalarga yordam ko'rsatish, ularning muhim resurslar va imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Ushbu maqolada biz ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlarning turli jihatlarini, jumladan, ularning moliyalashtirilishi, xarajatlar toifalari va ularning qashshoqlikni kamaytirish va ishsizlik nafaqalariga ta'sirini o'rganamiz.

Davlat byudjetlarini moliyalashtirishda soliqqa tortishning ahamiyati

Davlat byudjetlarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri soliqqa tortish hisoblanadi. Soliqlar turli davlat dasturlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan daromad olish maqsadida jismoniy shaxslar, korxonalar va boshqa tashkilotlardan undiriladi. Daromad solig'i, savdo solig'i, mol-mulk solig'i va yuridik shaxslar solig'i davlat byudjetiga hissa qo'shadigan soliq'larga misoldir. Soliqqa tortishdan olingan daromadlar har xil xarajatlar toifalariga, jumladan, ijtimoiy ta'minot dasturlariga taqsimlanadi.

Davlat byudjetlaridagi xarajatlar toifalari: Davlat budjetlarida mablag‘lar har xil xarajatlar toifalariga ajratiladi, ijtimoiy ta‘minot dasturlari asosiy toifalardan biridir. Boshqa xarajatlar toifalariga ta‘lim, sog‘liqni saqlash, jamoat xavfsizligi va infratuzilmani rivojlantirish kiradi. Ushbu toifalarga mablag‘larni taqsimlash hukumatning fiskal ustuvorliklari, shuningdek, aholi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy ta‘minot dasturlari byudjetning muhim qismini muhtoj shaxslar va oilalarning muhim xizmatlar va qo‘llab-quvvatlashdan foydalanishini ta‘minlash uchun oladi.

Davlat budjetlarining tuzilmalari: Davlat budjetlari odatda har xil tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ularning har biri umumiy fiskal doirada muayyan maqsadga xizmat qiladi. Ushbu komponentlar ko‘pincha daromadlar, xarajatlar, zaxiralar va qarzlarga xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tuzilmalarni tushunish ijtimoiy sohada mablag‘lar qanday taqsimlanishi va ishlatilishini tushunish uchun juda muhimdir.

Daromadlar : Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai soliqlar (masalan, daromad solig‘i, yuridik shaxslar solig‘i, savdo solig‘i), grantlar va boshqa daromad shakllarini o‘z ichiga oladi. Ushbu daromadlar byudjet mablag‘larini taqsimlashning moliyaviy asosini tashkil qiladi.

Davlat xarajatlari sog‘liqni saqlash, ta‘lim, mudofaa, infratuzilma va ijtimoiy ta‘minot dasturlari kabi ko‘plab sohalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy sohada Xarajatlar : xarajatlar fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan dasturlarga, jumladan, ijtimoiy yordam, pensiya, sog‘liqni saqlash va ta‘lim subsidiyalariga yo‘naltiriladi.

Zaxiralar : Ko‘pgina davlat byudjetlarida iqtisodiy noaniqliklar va kutilmagan xarajatlarni yumshatish uchun zaxiralar mavjud. Ushbu zaxiralar iqtisodiy tanazzul yoki favqulodda vaziyatlar davrida bufer bo‘lib, ijtimoiy sohada muhim xizmatlarning uzluksizligini ta‘minlaydi.

Qarzlarga xizmat ko‘rsatish : Davlatlar ko‘pincha infratuzilma loyihalarini va boshqa uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish uchun qarz oladi. Davlat byudjetlarining bir qismi ushbu qarzga xizmat ko‘rsatish uchun ajratiladi, bu esa ijtimoiy dasturlar uchun mavjud mablag‘larga ta‘sir qiladi.

Ta‘limni moliyalashtirish va uning qashshoqlikni bartaraf etishga ta‘siri

Ta‘limni moliyalashtirish davlat byudjetlarining muhim qismi bo‘lib, qashshoqlikni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Sifatli ta‘lim olish imkoniyati odamlarni kuchaytirishi va ularga yaxshi ish imkoniyatlarini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlarni berishi mumkin. Ta‘limga sarmoya kiritish orqali davlat byudjetlari qashshoqlik tsiklini buzishga va yanada inklyuziv jamiyat yaratishga yordam beradi. Grantlar, grantlar va moliyaviy yordamning boshqa shakllari ko‘pincha kam ta‘minlangan talabalar ta‘lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash uchun taqdim etiladi.

Sog‘liqni saqlash xarajatlari va ularning ishsizlik nafaqalarini qo‘llab-quvvatlashdagi roli: Sog‘liqni saqlash xarajatlari davlat byudjetining yana bir muhim jihati hisoblanadi. Tibbiy yordam olish, ayniqsa, ishsizlik davrida odamlar va oilalar uchun juda muhimdir. Davlat byudjetlari sog‘liqni saqlash dasturlariga mablag‘ ajratadi, bu esa odamlarning arzon va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishini ta‘minlaydi. Ushbu dasturlar, shuningdek, ishsiz bo‘lgan va ishga joylashish orqali tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish orqali ishsizlik nafaqalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ijtimoiy ta'minot dasturlari va ularning qashshoqlikni bartaraf etishga qo'shgan hissasi: ijtimoiy ta'minot dasturlari qashshoqlikni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu dasturlar mehnatga layoqatsiz yoki daromadi cheklangan shaxslar va oilalarga moddiy yordam beradi. Davlat budjetlari ijtimoiy ta'minot dasturlariga, jumladan, ishsizlik nafaqalari, nogironlik bo'yicha nafaqalar va pensiya nafaqalari uchun mablag' ajratadi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari muhtojlar uchun xavfsizlik tarmog'ini ta'minlash orqali qashshoqlikni engillashtirishga yordam beradi va odamlarning asosiy ehtiyojlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Pensiya dasturlari va ularning kambag'allikni kamaytirishga ta'siri

Pensiya dasturlari ijtimoiy ta'minot siyosatining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu dasturlar nafaqaga chiqqandan keyin jismoniy shaxslarga moddiy yordam ko'rsatadi va ularga munosib turmush darajasini saqlab qolishga yordam beradi. Butun umri davomida mehnatga hissa qo'shgan shaxslarning pensiya yillarida munosib qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash uchun davlat byudjetlari pensiya dasturlariga mablag' ajratadi. Keksa aholi orasida qashshoqlik xavfini kamaytirish orqali pensiya dasturlari qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi.

Ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlarning umumiy ko'rinishi: Ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlar muhtoj shaxslar va oilalarga yordam ko'rsatishga qaratilgan keng ko'lamlı tashabbuslarni o'z ichiga oladi. Bu dasturlarga daromadlarni qayta taqsimlash, fiskal ustuvorliklar, davlat grantlari, notijorat tashkilotlari, uy-joy dasturlari, bolalar parvarishi xizmatlari va davlat infratuzilmasiga investitsiyalar kiradi. Ushbu dasturlarning har biri qashshoqlikni bartaraf etish va davlat byudjetlarida ishsizlik bo'yicha nafaqalarni qo'llab-quvvatlashda o'ziga xos rol o'ynaydi.

Daromadlarni qayta taqsimlash va uning qashshoqlikni bartaraf etishdagi roli: Daromadlarni qayta taqsimlash ijtimoiy ta'minot siyosatining asosiy jihati hisoblanadi. Progressiv soliqqa tortish va farovonlik dasturlari orqali daromadlar yuqori daromadli shaxslardan past daromadli shaxslarga qayta taqsimlanadi. Bu muhtojlarga qo'shimcha resurslarni taqdim etish orqali daromadlar tengsizligini kamaytirish va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi.

Fiskal ustuvorliklar va davlat grantlarini taqsimlash: Davlat grantlari taqsimotini belgilashda fiskal ustuvorliklar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu grantlar qashshoqlikni bartaraf etish va ishsizlik nafaqalarini qo'llab-quvvatlovchi turli tashkilotlar va tashabbuslarga beriladi. Hukumatning fiskal ustuvorliklari uning ijtimoiy farovonlikka sodiqligini va qashshoqlikdan xalos bo'lishga eng katta ta'sir ko'rsatadigan dasturlarga mablag' ajratish qat'iyatini aks ettiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning ijtimoiy yordam ko'rsatishdagi roli: Nodavlat notijorat tashkilotlari muhtoj shaxslar va oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotlar ko'pincha o'z ishlarini bajarish va oziq-ovqat banklari, uysizlar uchun boshpana va ish o'rgatish dasturlari kabi muhim xizmatlarni taqdim etish uchun hukumatdan mablag' oladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilib, davlat byudjetlari o'z imkoniyatlarini kengaytirishi va ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lganlarga ko'rsatilishini ta'minlashi mumkin.

Uy-joy dasturlari va ularning qashshoqlikni kamaytirishga ta'siri

Uy-joy dasturlari qashshoqlikni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Davlat budjetlari aholi va oilalarning xavfsiz va arzon uy-joyga ega bo'lishini ta'minlab, arzon uy-joy tashabbuslariga mablag' ajratadi. Uy-joy dasturlari jismoniy shaxslarning asosiy ehtiyojlaridan birini qondirish orqali barqarorlikni yaratishga yordam beradi va odamlar va oilalar uchun qashshoqlikni engish uchun poydevor yaratadi.

Bolalarni parvarish qilish xizmatlari va ularning ishsizlik nafaqalarini qo'llab-quvvatlashga qo'shgan hissasi: Bolalarni parvarish qilish xizmatlari ishsizlik nafaqalarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat budjetlari bolalarni parvarish qilish dasturlariga mablag' ajratadi, bu esa ota-onalar ish izlayotgan paytda bolalarni parvarish qilish bo'yicha arzon va sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Davlat budjetlari ushbu yordamni ko'rsatish orqali ota-onalarga ish bilan ta'minlashdagi to'siqlarni bartaraf etishda, farzandlarining to'g'ri parvarish va ta'lim olishini ta'minlashda yordam beradi.

Davlat infratuzilmasiga investitsiyalar va ularning qashshoqlikni bartaraf etishdagi roli: Kambag'allikni bartaraf etishda davlat infratuzilmasiga investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Davlat budjetlari yo'llar, ko'priklar va jamoat transporti tizimlari kabi infratuzilma loyihalariga mablag' ajratadi. Ushbu investitsiyalar nafaqat ish o'rinlarini yaratish, balki, ayniqsa, kam ta'minlangan jamoalarda yashovchi shaxslar uchun muhim xizmatlar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilaydi.

Byudjet cheklovlari va ularning ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlarga ta'siri: Byudjet cheklovlari ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Cheklangan mablag'lar ushbu dasturlarni moliyalashtirishning qisqarishiga olib kelishi mumkin, bu esa muhtoj shaxslar va oilalarga ko'rsatiladigan yordam darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Siyosatchilar uchun byudjet cheklovlarining qashshoqlikni kamaytirish va ishsizlik nafaqalariga uzoq muddatli ta'sirini ko'rib chiqish va ushbu muammolarni hal qilish uchun innovatsion echimlarni topish juda muhimdir.

Davlat byudjeti mablag'larini ijtimoiy sohaga taqsimlashda turlicha yondashuvlarni ko'rsatish uchun ikkita qarama-qarshi misolni ko'rib chiqamiz:

1-tadqiqot: Nordik farovonlik modeli - Shvetsiya va Daniya kabi shimoliy mamlakatlar keng qamrovli farovonlik tizimlari bilan mashhur. Bu davlatlar o'z davlat byudjetlarining katta qismini ijtimoiy ta'minot dasturlariga, umumiy sog'liqni saqlash, saxovatli ijtimoiy yordam va ta'limga subsidiyalar berishga ajratadilar. Ushbu yondashuv ijtimoiy tenglik va farovonlikka jamiyatning sadoqatini aks ettiradi, yuqori soliqlar mustahkam ijtimoiy xizmatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

2-tadqiqot: Rivojlanayotgan iqtisodiyot ustuvorliklari - Aksincha, rivojlanayotgan iqtisodlar ko'pincha byudjet cheklovlari va raqobatdosh ustuvorliklarga duch keladi. Braziliya va Hindiston kabi davlatlar ijtimoiy farovonlik ehtiyojlarini infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy o'sish tashabbuslari bilan muvozanatlashi kerak. Ushbu mamlakatlarda byudjet mablag'lari iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish uchun infratuzilmaga sarmoya kiritishda aholining eng zaif qatlamlari uchun maqsadli ijtimoiy dasturlarga ustuvor ahamiyat berishi mumkin.

Xulosa



Davlat byudjetlarining tuzilmalari murakkab bo'lib, xalqlarning xilma-xil ehtiyojlari va ustuvorliklarini aks ettiradi. Mablag'larni ijtimoiy sohaga yo'naltirish iqtisodiy, siyosiy, demografik va ijtimoiy omillar ta'sirida ko'p qirrali jarayondir. Ushbu omillarni tushunib, siyosatchilar davlat byudjetidan ajratmalarning samaradorligi va inklyuzivligini oshirish uchun asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Ijtimoiy sohaga sarmoya kiritish nafaqat fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka ham hissa qo'shadi.

Davlatlar zamonaviy davr muammolarini hal qilar ekan, davlat byudjeti mablag'larini ijtimoiy sohaga oqilona yo'naltirish inklyuziv boshqaruv va barqaror rivojlanishning asosi bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy ta'minot siyosati va vositalar bilan sinovdan o'tgan dasturlar qashshoqlikni bartaraf etish va davlat byudjetlarida ishsizlik nafaqalarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Soliqdan moliyalashtirish va turli xarajatlar toifalariga resurslarni taqsimlash orqali davlat byudjetlari muhtoj shaxslar va oilalarga muhim yordam beradi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, pensiya dasturlari va boshqa tashabbuslarga sarmoya kiritish orqali davlat byudjetlari qashshoqlikni yumshatish, daromadlar tengsizligini kamaytirish va yanada inklyuziv jamiyat yaratishga yordam beradi. Siyosatchilar uchun ijtimoiy ta'minot siyosatiga ustuvor ahamiyat berish va ularning aholi ehtiyojlarini samarali qondirish uchun etarli darajada moliyalashtirilishini ta'minlash juda muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Smit, J. (2020). "Davlat byudjeti: tamoyillari va amaliyoti". Nashriyot X.
- 2.OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti). (2022). "Hukumat bir qarashda". OECD nashriyoti.
3. Esping-Andersen, G. (1990). "Kapitalizm farovonligining uch dunyosi". Prinston universiteti matbuoti.
4. Po'latova,S. (2023, November). BO'LG'USI MUTAXASSIS-KADRLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

AMIR TEMUR DAVRINI VA JANGLARINI CHET EL MANBALARIDA  
O‘RGANILISHI  
A STUDY OF THE PERIOD AND BATTLE OF AMIR TIMUR IN FOREIGN  
SOURCES  
ИЗУЧЕНИЕ ПЕРИОДА И БИТВЫ АМИРА ТИМУРА  
В ЗАРУБЕЖНЫХ ИСТОЧНИКАХ

**Mamajonov Soyibjon Halilovich**

*Farg‘ona Davlat Universiteti harbiy ta‘lim fakulteti mahsus tayyorgarlik sikli dotsenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Amir Temur davrini va janglarini chet el manbalarida o‘rganilishi xaqida qisqacha yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim muassasalari talabalariga harbiy san‘at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo‘ljallangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Amir Temur davri, sarkardalik faoliyati, buyuk ajdodlarimiz merosi, asosiy manbalar, buyuk allomalarimiz asarlari, Amir Temur davlatining tuzilishi, Ko‘kdala tumani, tarixshunoslik, tarixiy voqealar, Ro‘znomai g‘azavoti Hindiston, Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy.*

Ushbu maqolada Amir Temur davrini va janglarini chet el manbalarida o‘rganilishi qisqacha yoritilgan. Shu bilan bir qatorda Amir Temur davrini va janglarini mahalliy manbalarda yoritilishi, chet el manbalarida o‘rganilishi, Amir Temur zamonasi haqida O‘rta Osiyo tarixshunosligi hamda uni hayoti tarixshunosligi haqidagi ma‘lumotlar berilgan. Bunda Amir Temurning sarkardalik faoliyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shib kelayotgan asosiy manbalar, buyuk allomalarimiz asarlarini bazi-birlaridan qisqacha tahlil qilingan.

Xozirgi vaqtda mamlakatimizda dolzarb masalalardan biri buyuk ajdodlarimiz merosini, xarbiy san‘atga qo‘shgan xissalarini o‘rganish va bundan yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda keng ko‘lamda foydalanishdur. Tarhimizni o‘rganishda buyuk ajdodlarimizdan biri Amir Temur davlatining tuzilishi, boshqarish xususiyatlari va savdo yo‘li bo‘lgan “Buyuk ipak yo‘li”ni qo‘lga kiritish uchun qilingan tashqi tajovuzlarga qarshi janglaridagi harbiy sanatinini chuqur o‘rganish bo‘yicha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Qashqadaryoda yangi tashkil etilgan Ko‘kdala tumani faollari bilan uchrashuvda bu o‘lkaning farzandi va butun O‘zbekiston faxri bo‘lgan sohibqiron Amir Temurning harbiy san‘ati yani uni taktika va strategiyasi haqida gapirar ekan “Biz birinchi navbatda o‘zimizning bobolarimiz tarixini o‘rganishimiz kerak” deb takidladi.

Amir Temur davrining mahalliy manbalarda yoritilishicha uning shaxsi va davlati tarixi ko‘p o‘rganilgan mavzulardan biridir.

Lekin Sohibqiron shaxsi va faoliyatiga hamisha bir xil baho berilmagan. A.Temur tarixi tarixshunosligi u hokimiyat tepasida turgan vaqtdanoq boshlangan. Ana shu katta hajmdagi tarixshunoslikni XX asrning 30-yillarigacha butun dunyoda keng ko‘lamli o‘rganildi. XX asrning 30-yillari oxiridan – 80- yillar 2- yarmigacha A.Temur davri tarixini o‘rganish

tarixiy voqealarning barchasi, jumladan A.Temur tarixi kommunistik mafkura nuqtai nazaridan, sinfiylik tamoyillari asosida o‘rganila boshladi. Natijada Amir Temur qonxo‘r, Amir Temur kallakesar degan qarashlar hukmron bo‘lib qoldi. Amir Temur shaxsi va faoliyati, davlati tarixini o‘rganishda mustaqillik yangi sahifa ochdi. Amir Temur davriga oid manbalar nashr qilindi va qayta nashr qilindi. Nashr qilingan asarlarda Amir Temur shaxsi va faoliyati, davlatining haqqoniy tarixi yaratildi, uning O‘zbek xalqi tarixida va shuningdek jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni hamda roli ko‘rsatib berildi. Amir Temurning diplomatik munosabatlari tadqiq qilinib, harbiy yurishlari tahlil qilinib sarkardalik faoliyati yoritildi.

Amir Temur davriga oid tarixiy asarlarning aksariyati uning shaxsi va faoliyatiga bag‘ishlangan. A.Temur davriga oid ilk manbalardan biri

G‘iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning “Ro‘znomai g‘azavoti Hindiston” asari bo‘lib, unda Amir Temurning Hindistonga yurishining kundaligi berilgan. Bu asar shaxsan Amir Temurning topshirig‘i bilan 1399-1401 yillarda yozilgan. Asarning ayrim joylari baland parvoz, Amir Temur shaxsini ulug‘lashga bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramay, unga tanqidiy ko‘z bilan qaralsa, Amir Temurning harbiy yutuqlarining ildizini, uning urushlarda va shaharlarni qamal qilishda qo‘llagan strategiya va taktikaga oid usullarni, Amir Temur zamonasida amirlar va bahodirlar tizimining mohiyati va tuzulishini tushunishga ta‘luqli qiziqarli ma‘lumotlar, hind xalqining Amir Temur qo‘shinlariga ko‘rsatgan qarshiliklari to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. Asarda Amir Temurning safdoshlari va Amir Temur davridagi Movaraunnahr shaharlari, Amir Temurning Mo‘g‘iliston, Xorazm, Mozandaron, Ozarbayjonga qilgan yurishlari, Mahmud G‘aznaviyning erlarini tobe etilishi va qaram bo‘lgan hududlarda savdo olib borish uchun xavf tugatilganligi haqida muhim ma‘lumotlar bor.

G‘iyosiddin Ali Yazdiyning asari A.Temur shaxsini o‘ta ulug‘lagani bois,

A.Temur yangi asar yozishni Nizomiddin Shomiyga topshirdi. Shomiy saroy

solnomachisi sifatida A.Temurning harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U o‘z asarini “Zafarnoma” yoki “Amir Temur zafarnomasi” deb atadi. Muallif asarni yaratishda A.Temur tarixiga oid qator og‘zaki va yozma manbalardan, shu jumladan G‘iyosiddin Alining asaridan ham foydalangan. Ushbu asar Amir A.Temur haqida birinchi rasmiy tarix manba bo‘lib hisoblanadi. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, bu majmua A.Temurnng rasmiy tarixi bo‘lsa-da, Nizomiddin Shomiy uni saroydan olisda yozgani uchun, faktlar va tarixiy jarayonlar bayonida birmuncha xolislik bor. 1937 yilda Shomiyning asari F. Tauer tomonidan chex tilida chop etiladi. Bungacha asar biror tilga to‘liq o‘girilmagan edi. Faqatgina rus tilidagi asardan parchalar tarjima etilgan edi. Shomiyning asarida voqealar rivoji 816(1404) yilning yozigacha davom etadi. Shomiyning vafoti tufayli asar tugallanmay qolgan.

To‘liq va mukammalligi jihatidan Sharafiddin Ali Yazdiyning

“Zafarnoma”si tarixshunoslikda muhim rol o‘ynaydi. Ali Yazdiyning

“Zafarnoma”si ko‘p xollarda va asosan Nizomiddin Shomiyning asari negizida yozilgan.

“Zafarnoma” matni shoir Lutfiy tomonidan fors, Xotfiy tomonidan tojik tilida she‘riy usulda yoziladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy Yazddan uncha uzoq bo‘lmagan Taft shahrida (Eron) tug‘ilgan. 1415-1435 yillari Shohruhning o‘g‘li, Ulug‘bekning akasi Ibrohim Sulton xizmatida

bo‘lgan. Ibrohim Sulton Sharafiddin Yazdiyga «Zafarnoma»ni yozishda homiylik qilgan. Ibrohim Sulton vafotidan so‘ng (838 hijriy-1435 melodiy) «Zafarnoma» muallifi Shohruh nabirasi, hijriy 846, milodiy 1443 yilda Sultoniya, Kazvin, Ray va Kum hokimi bo‘lgan Mirzo Muhammad tomonidan saroyga taklif etilgan. Sharafiddin Ali, manbalarga qaraganda, umrining oxirigacha Vatani Taft (Tafti Yazd) dagi xonaqohida yashadi. Bu haqida Abdurazzoq Samarqandiy xabar beradi. Shunday qilib, Sharafiddin Ali (1454 yil) Yazdda vafot etdi va o‘sha erda dafn etildi.

«Zafarnoma» O‘rta Osiyo xalqlarining nodir madaniy obidasidirki, u faqat O‘rta Osiyoning emas, butun Sharq mamlakatlari tarixi manbai, shuning uchun u hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda va o‘ziga xosligi, to‘plangan materiallarning haqqoniyligi bilan ko‘rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o‘rin tutadi.

«Zafarnoma» tuzilishiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: 1) Muqaddima, u

A.Temur shajarasiga bag‘ishlangan, unda turk urug‘lari va Chingizxonning to‘rt ulusi haqida umumiy ma‘lumotlar beriladi. 2) Asosiy qism (A.Temurning o‘z tarixi). Muallif ma‘lumotidan ko‘rinadiki, bu tarixiy asar Sharafiddin Alini saroyiga taklif qilgan Shohruhning o‘g‘li Ibrohim Sulton tashabbusi bilan yozilgan. Shoh o‘zining bobosi haqida maxsus kitob yaratishni istadi va u 822 (1419-1420 yy.) sohibqiron A.Temur haqida ma‘lumotlar to‘plash haqida farmon berdi. Muqaddimada bu jarayon quyidagicha tasvirlangan. To‘plangan ma‘lumotlar shohidlarning og‘zaki hikoyalari bilan taqqoslangan, so‘ng Sharafiddin Ali Yazdiy bu ma‘lumotlar bilan tanishib chiqib, Ibrohim Sultonga ular haqida fikrini aytgan, shundan so‘ng u «Zafarnoma» kitobini yozishga kirishgan. Muallif to‘plangan ma‘lumotlarni uch guruhga bo‘ladi: voqealar shohidlarining hikoyalari, ikkinchi va uchinchi o‘quvchilar turi va fors manbalarining bilimdonlari. Barcha sanalar, o‘rinlar topografik koordinatlar va ular orasidagi masofalar Ibrohim Sulton farmoniga ko‘ra har tomonlama tekshiruvdan o‘tkazilib, so‘ng Sharafiddin Ali Yazdiyga beriladi. Bunda muallifga ko‘rsatma berilgandiki, birinchidan, badiiy nafosatli hamda tushunarli tilda bitilgan kitob bo‘lsin, ikkinchidan, muallif hujjatga qat‘iy amal qilmog‘i, dastlabki bitiklardan chekinmasligi, hech narsani bo‘yab-bejamasligi shart edi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki A.Temurning keng miqyosda rasmiy tarixi dunyoga keldi. «Zafarnoma» O‘rta Osiyo xalqlarining nodir madaniy obidasidirki, u faqat O‘rta Osiyoning emas, butun SHarq mamlakatlari tarixi manbai, shuning uchun u hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda va o‘ziga xosligi, to‘plangan materiallarning haqqoniyligi bilan ko‘rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o‘rin tutadi.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI DARS MASHG ‘ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 28-32.
2. Boqiyev, F. (2024). MASSAJ VA GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI REFLEKTOR HARAKATLAR VA “HARAKAT XOTIRASI” NI TAKOMILLASHTIRISH. SPORT VA XORIJIY TILLAR INTEGRATSIYASINING AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI, 1(1), 365-369.
3. Fazliddin, B. (2024). BO ‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O ‘QITUVCHILARINI TURISTIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Research and implementation*, 2(4), 142-146.
4. Kurbonali, S., & Umarali, Y. (2023). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL FITNESS OF COLLEGE STUDENTS. *Conferencea*, 188-191.
5. Мамажонов, Н., Хамракулов, Р. А., Хайдаралиев, Х., Хасанов, А., Бобожонов, Н., & Усмонов, З. КБК: 751 М23 Ташкилий кумита.

**ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ****Абдулазизова Севара Мирвохидовна***Студентка НОУ «Университет-Маъмуна» sevараabdulazizova56gmail.com***Мадрахимова Зебо Фрунзевна***Преподаватель кафедры русского языка и литературы  
НОУ «Университет-Маъмуна» zebomadrakhimova76gmail.com*

**Аннотация:** данная статья рассматривает вопросы использования современных педагогических технологий на уроках русского языка. Автор статьи считает, что внедрение информационных и инновационных технологий в обучение.

**Ключевые слова:** современный, педагогические технологии, образование, национальный, система, русский язык, дидактическая цель.

**Abstract:** this article examines the issues of using modern pedagogical technologies in Russian language lessons. The author of the article believes that the introduction of information and innovative technologies in education.

**Key words:** modern, pedagogical technologies, education, national, system, Russian language, didactic purpose.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada rus tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola muallifi ta'limga axborot va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, deb hisoblaydi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, pedagogik texnologiyalar, ta'lim, milliy, tizimli, rus tili, didaktik maqsad.

Современные технологии позволяют детям стать более активными участниками образовательного процесса, а педагогам создавать новые подходы, методы, модели обучения и воспитания. Например, педагог может провести онлайн-опрос на любом этапе лекции для выяснения уровня усвоения изучаемого материала.

Использование педагогических технологий в учебном процессе вуза способствует четкому определению конечной цели, разработке объективных методов контроля, проект учебного процесса, определению структуры и содержанию учебно-познавательной деятельности учащихся.

Невозможно представить совершенствование образовательного процесса без учителя. Учитель является одновременно субъектом и организатором образовательного процесса. Постоянно процесс непрерывного совершенствования эффективен в определенной степени зависит от содержания и методики обучения учителей. Таким образом, повышение активности учащихся – задача учителя, и все.

Учащийся, используя различные виды современной техники, ищет задачу. необходимо повысить активность. В целях повышения активности учащихся на занятиях по русскому языку проводятся следующие мероприятия:

- можно использовать методы.
- создание комфортных условий для студентов, позволяющих хорошо организовать учебный процесс;

- дать возможность студентам обмениваться идеями (информацией);
- продемонстрировать друг другу свои знания на основе полученной информации;
- например, создание среды, в которой каждый студент чувствует себя автором образовательного контента. возможности являются основой для достижения полного усвоения содержания образования.

Игровые технологии реализуются посредством интерактивного обучения ("inter" — это взаимный, "act" - действовать), что означает взаимодействовать, находится в режиме беседы, диалога с кем-либо. Другими словами, в отличие от активных методов, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие учеников не только с учителем, но и друг с другом и на доминирование активности учащихся в процессе обучения. Суть интерактивного обучения состоит в том, что учебный процесс организован таким образом, что практически все учащиеся оказываются вовлеченными в процесс познания, они имеют возможность понимать и рефлексировать по поводу того, что они знают и думают. Совместная деятельность учащихся в процессе познания, освоения учебного материала означает, что каждый вносит свой особый индивидуальный вклад, идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности. Причем, происходит это в атмосфере доброжелательности и взаимной поддержки, что позволяет не только получать новое знание, но и развивает саму познавательную деятельность и навыки взаимодействия, переводит ее на более высокие формы кооперации и сотрудничества. Основными составляющими интерактивных уроков являются интерактивные упражнения и задания, которые выполняются учащимися. Важное отличие интерактивных упражнений и заданий от обычных в том, что, выполняя их, учащиеся не только и не столько закрепляют уже изученный материал, сколько изучают новый [1].

Современные инновационные технологии также важны в процессе обучения русскому языку. Их развитие приводит к появлению новых подходов к изучению языка. Инновационные подходы делают уроки русского языка более подробными, интересными и яркими. Например, перспективный метод развития творческих способностей учащихся в ходе урока. следует использовать методы: кластеры, вставки (при самостоятельном изучении теоретического материала); заполнение таблиц, двухчастного дневника; чтение с остановками, совместный поиск; взаимная дискуссия, круглый стол; изобретательские технологии решения задач, «В поисках ошибки», классические лекционные занятия; обучение с использованием аудиовизуальных технических средств, тесты, метод проектов и т. д.

### ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Основы педагогических инноваций (учебное пособие) Тургунбоева К., Ортикова М..
2. Современные образовательные технологии. Селевко Г.К. Москва, 1998.
3. Современные технологии обучения. Методическое пособие по использованию интерактивных методов в обучении .Г.В. Борисовой, Т.Ю. Аветовой и Л.И. Косовой. — СПб.: Изд-во «Поли-граф-С», 2002

4. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров; Издательский центр «Академия», 2002
5. Kadamzhanovna, A.N. (2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY "MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
6. Z Madraximova, Z & Ablaeva, N. (2022). CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS "HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
7. Madraximova, Z & Ablaeva, N. (2022) ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА " ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ". Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
8. Аблаева, Н.К. (2022). Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Ta'lim fidoyilari 6 (7), 687-691
9. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2314-2320.
10. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Nauka i obrazovanie segodnya, (4 (63)), 82-83
11. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations Pedagogical Need. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1777-1784
12. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Наука и образование сегодня, (4 (63)), 82-83
13. ST Xasanova, DN qizi Qayumova, BS Ramozonova. (2023). TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G ‘URURNI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN 1 (31), 101-107
14. Хидиров, Х. Н. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.
15. Хидиров, Х. Н. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
16. Хидиров, Х. Н. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой ученый, (14), 262-263.
17. Nasirov, A. N. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.
18. Nasirov, A. N. (2023). Alisher navoiy obrazining badiiy ifodasi. Ustozlar uchun, 15(1), 35-39.
19. A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. Ustozlar uchun, 15(1), 72-77.
20. Nasirov, A. (2023). ERKIN A'ZAM IJODINING O ‘ZIGA XOSLIKLARI HAQIDA. Ustozlar uchun, 15(1), 78-84.



**RUS TILINING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING DUNYO MIQYOSIDAGI AHAMIYATI****Sobirova Dilfuza Ortiqovna***Ichki ishlar vazirligi Farg‘ona akademik litseyida rus tili o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Rus tili ko‘p asrlik tarixiy, madaniy va siyosiy kuchlar tomonidan shakllantirilgan til evolyutsiyasining boy gobelenining dalilidir. Ushbu maqola rus tilining eng qadimgi ildizlaridan hozirgi global ahamiyatigacha bo‘lgan murakkab rivojlanishini kuzatib, vaqt bo‘ylab sayohatga kirishadi. Proto-slavyan ta‘siridan tortib, zamonaviy muammolar va imkoniyatlargacha, bu tadqiqot rus tilining jahon tarixi, adabiyoti, diplomatiyasi va ilm-fanini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini yoritadi.

**Kalit so‘zlar :** Proto-slavyan, qadimgi Sharqiy slavyan, cherkov slavyanining ta‘siri, Mo‘g‘ul istilosi va til ta‘siri, Ivan dahshatli va til islohotlari, Buyuk Pyotrning til islohotlari, Rus tilini standartlashtirish, adabiy oltin asr, Rus adabiyotining global ta‘siri, rus tili Sovet Ittifoqida lingua franca sifatida , bolsheviklar inqilobi va til siyosati.

**Kirish:** Rus tili o‘zining jozibali kadensi va murakkab grammatikasi bilan slavyan madaniyatlarining mustahkamligi va boyligining yodgorligi sifatida turibdi. Unda nafaqat xalq, balki zamonaviy dunyoni nozik va chuqur shakllantirgan bosqinlar, islohotlar va adabiyotlar hikoyasi to‘qilgan. Ushbu tadqiqotda siz rus tilining murakkab evolyutsiyasi va inkor etib bo‘lmaydigan global ahamiyatini, asrlar davomida va qit‘alarni kesib o‘tgan odisseyini o‘rganasiz.

Rus tilining ahamiyatini oshirib bo‘lmaydi. Ona tilida so‘zlashuvchilar soni bo‘yicha dunyoda sakkizinchi til sifatida Sharq va G‘arbni, o‘tmish va bugunni bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Kirill yozuvi va ohangdor intonatsiyalari bilan bu lingvistik kolossus aloqa vositasidan ko‘proq narsani taklif qiladi. Bu tarix davomida global voqealarda hal qiluvchi rol o‘ynagan xalqning ruhiga bir oyna beradi. Butun dunyo kitobxonlarini hayratga solgan adabiy durdonalardan tortib diplomatik lingva franka roligacha rus tili turli bilim, madaniyat va qudrat sohalarini ochadigan kalit hisoblanadi.

Rus tilining tarixi va evolyutsiyasi Rossiyaning shov-shuvli va jonli tarixini aks ettiradi. Ming yillar avval slavyan xalqlari gapirgan protoslavyan tilida kelib chiqishidan tortib, hozirgi holatigacha rus tili istilolar, islohotlar va madaniy inqiloblarning ta‘sirini aks ettiradi. Vaqt bo‘ylab sayohat tashqi kuchlar va ichki innovatsiyalar rus tajribasining murakkabligi va chuqurligini qamrab oladigan tilni qanday shakllantirganini ochib beradi.

Rus tilining evolyutsiyasini tushunish nafaqat til taraqqiyoti, balki millatni shakllantirgan va dunyoga ta‘sir ko‘rsatgan madaniy, siyosiy va ijtimoiy dinamika haqida ham ma‘lumot beradi. Ushbu sayohatga otlar ekansiz, rus tilini soxtalashtirgan kuchlarni kashf etasiz, uning qadimiy ildizlaridan zamonaviy mujassamlanishigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tasiz.

Rus tilining hikoyasi - bu urushlar, migratsiyalar va madaniy o‘zgarishlar ta‘sirida bo‘lgan evolyutsiya dostonidir. Uning kelib chiqishi vaqt tumanlarida, barcha slavyan tillarining umumiy ajdodi bo‘lgan proto-slavyan tili bilan bog‘liq. Bu tilshunoslik avlodi boshqa slavyan tillari qatori zamonaviy rus tili ham o‘sadigan urug‘larni sepd.

Slavyan qabilalari ko'chib, kengayib borar ekan, proto-slavyanlar turli tillar va dialektlarga bo'linishni boshladilar. Ushbu tafovut davri zamonaviy rus tilining to'g'ridan-to'g'ri kashshofi bo'lgan qadimgi Sharqiy slavyan tilining paydo bo'lishi uchun asos yaratdi. Qadimgi Sharqiy slavyan tilining rivojlanishi murakkab va boylikda rivojlanishda davom etadigan noyob lingvistik o'ziga xoslikning boshlanishini belgilovchi muhim bosqich edi.

13-asrdagi mo'g'ullar istilosi va keyinchalik rus yerlarida asrlar davomida hukmronlik qilishi tilga katta ta'sir ko'rsatib, yangi so'zlarni kiritib, uning fonetik va grammatik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bunday tashqi tazyiqlarga qaramay, rus tili nafaqat omon qoldi, balki gullab-yashnadi, o'zining asosiy o'ziga xosligini saqlab qolgan holda ta'sirlarni o'zlashtirdi va moslashtirdi.

"Protoslavyan va rus tilining kelib chiqishi" rus tilining kelib chiqishini o'rganish bizni barcha slavyan tillarining lingvistik ajdodlari bo'lgan proto-slavyan tilida Evropaning keng hududida so'zlashilgan davrga olib keladi. Hind-yevropa tillari oilasidan chiqqan bu til o'ziga xos xususiyatlar va tuzilmalari bilan slavyan tilshunosligi bo'limiga asos solgan.

Proto-slavyan tilidan qadimgi Sharqiy slavyan tiliga o'tish tilning dinamik tabiatidan dalolat beradi. Slavyan qabilalari turli hududlarga joylashar ekan, proto-slavyanlar ajrala boshladi va turli slavyan tillari paydo bo'ldi. Bu lingvistik tabaqalanish jarayoni asta-sekin kechdi, qadimgi Sharqiy slavyan tili miloddan avvalgi I ming yillikning oxirlarida Sharqiy slavyan xalqining tili sifatida paydo bo'ldi.

Proto-slavyan tilining ahamiyati nafaqat uning lingvistik salaf sifatidagi rovida, balki slavyan xalqlarining madaniy va tarixiy birligiga qo'shgan hissasida hamdir. Proto-slavyan aks-sadolari hali ham zamonaviy rus tilida eshutilishi mumkin, bu til va madaniy merosning uzluksizligida hozirgi zamonni qadimgi o'tmish bilan bog'laydi.

Qadimgi Sharqiy slavyan tilining zamonaviy rus tiliga ta'siri juda katta. U rus tilining grammatik va leksik asosini yaratdi. Qadimgi Sharqiy slavyan tili o'rta rus tiliga va oxir-oqibat zamonaviy rus tiliga aylanganda, u o'z ajdodining elementlarini saqlab qoldi va asrlar davomida lingvistik davomiylik ipini to'qdi.

9-asrning oxirida slavyan xalqlariga nasroniylikning kiritilishi rus tiliga doimiy ta'sir ko'rsatadigan cherkov slavyan tilini, liturgik tilni olib keldi. Qadimgi bolgar tilidan olingan bo'lib, qadimgi Sharqiy slavyan tilining bir shakli bo'lgan cherkov slavyan tili Rossiyadagi pravoslav cherkovining tili bo'lib, rus til va madaniy hayotining to'qimalariga kiritilgan.

Sovet Ittifoqida rus tili, XX asr boshlarida Sovet Ittifoqining tashkil topishi rus tilini keng ko'p millatli davlatning lingua franca sifatida belgilab berdi. Davlat, ta'lim va madaniyatning rasmiy tili sifatida rus tili Sovet Ittifoqining turli xalqlarini birlashtirishda, uning keng hududlarida aloqa va boshqaruvni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

Rus tilini lingua franca sifatida targ'ib qilish Sovet Ittifoqining yagona o'ziga xosligini yaratishga qaratilgan kengroq siyosatining bir qismi edi. Bu siyosat rus tili va madaniyatining tarqalishiga hissa qo'shgan bo'lsa-da, rus bo'lmagan etnik guruhlar o'rtasida keskinlik va qarshiliklarga olib keldi, til va kuchning murakkab dinamikasini ko'rsatdi.

Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, Sovet Ittifoqida rus tilining lingua franca roli mintaqaning lingvistik landshaftiga doimiy ta'sir ko'rsatdi. U millatlararo muloqot, madaniy almashuv va ilmiy va texnologik bilimlarni tarqatishga yordam beradigan umumiy aloqa vositalarini rivojlantirdi.

1917 yildagi bolsheviklar inqilobi rus jamiyatiga, jumladan, til siyosati sohasiga chuqur o'zgarishlar kiritdi. Sotsializm va internatsionalizm g'oyalariga sodiq bo'lgan yangi Sovet hukumati savodsizlikni yo'q qilish va Sovet Ittifoqidagi turli xalqlarning tillarini targ'ib qilishga qaratilgan ulkan til islohotlarini amalga oshirdi.

Ushbu til siyosati jamiyatni o'zgartirish va ishchilar sinfi va etnik ozchiliklarni kuchaytirishga qaratilgan kengroq sa'y-harakatlarning bir qismi edi. Rus va boshqa tillarda savodxonlikni oshirish sotsializm qurish va sovet xalqida birdamlik tuyg'usini rivojlantirish loyihasining muhim qismi sifatida qaraldi.

Bolsheviklar tili siyosati ezgu maqsadlarni ko'zlagan bo'lsa-da, to'siqlarga ham duch keldi va munozaralarga sabab bo'ldi. Rus tilini lingua franca sifatida targ'ib qilish va til xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi keskinlik murakkab til merosiga ega bo'lgan ko'p millatli davlatni boshqarish muammolarini aks ettirdi.

Stalinizm davri til siyosatiga dastlabki sovet yondashuvidan uzoqlashdi. Asosiy e'tibor ruslashtirishga yo'naltirilgan strategiyaga qaratildi, rus tili ta'lim, boshqaruv va jamoat hayotining asosiy tili sifatida tobora ko'proq targ'ib qilinmoqda. Bu o'zgarish Sovet birligi va samaradorligini mustahkamlash zarurati bilan oqlandi, lekin ko'pincha til va madaniy xilma-xillik hisobiga sodir bo'ldi.

Stalinning til siyosati rus tilini standartlashtirish va soddalashtirish, uni omma uchun qulayroq qilish bo'yicha harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu islohotlar Sovet Ittifoqini modernizatsiya qilish va Kommunistik partiyaning hayotning barcha jabhalari ustidan nazoratini mustahkamlashga qaratilgan kengroq kampaniyaning bir qismi edi.

Stalinistik til siyosatining ta'siri chuqur va uzoq davom etdi. Ular rus tilining tarqalishiga va Sovet Ittifoqining integratsiyasiga hissa qo'shgan bo'lsa-da, ular ozchilik tillari va madaniyatlarining marginallashtirishiga olib keldi, bu meros postsovet hududida til va etnik munosabatlarni shakllantirishda davom etmoqda.

Ikkinchi jahon urushi va uning rus tiliga ta'siri: Rossiyada Ulug' Vatan urushi deb atalgan Ikkinchi jahon urushi rus tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu mojaro natijasida yuzaga kelgan chuqur ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni aks ettirdi. Urush rus tiliga harbiy terminologiya, texnika taraqqiyoti, ichki front va jang maydoni tajribasidan kelib chiqqan ko'plab yangi so'z va iboralarni kiritdi.

Urush yillarining tili qahramonlik, qurbonlik va azob-uqubatlarning uyg'unligi bilan ajralib turardi, Sovet Ittifoqining fashistlar Germaniyasiga qarshi kurashining ruhiy chuqurligi va murakkabligini aks ettiradi. Urushning jamoaviy tajribasini ifodalashda, g'alaba va mag'lubiyat hikoyasini shakllantirishda o'sha davr adabiyoti va she'riyati rasmiy va norasmiy jihatdan hal qiluvchi rol o'ynadi.

Ikkinchi jahon urushining rus tiliga ta'siri lug'atdan tashqariga chiqdi, urushdan keyingi adabiyot, jurnalistika va ommaviy nutqning uslubi va ohangiga ta'sir qildi. Urush rus tilida o'chmas iz qoldirib, sovet xalqining o'z tarixidagi eng qorong'u fasllardan biridagi matonat va fojiasini o'zida mujassam etgan.

Sovet tilshunosligi tilning ijtimoiy jihatlariga alohida e'tibor qaratishi, sovet ilm-faniga asos bo'lgan marksistik-leninistik mafkurani aks ettirishi bilan ajralib turardi. Tilshunos olimlar tilning jamiyat hayotidagi o'rni, uning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi, muloqot va madaniy ifoda vositasi sifatidagi funksiyasini o'rgandilar.

Sovet Ittifoqi tillarini o'rganishga katta hissa qo'shdi . Sovet tilshunoslarining ishi Rossiyada zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun asos yaratdi va mamlakatning boy til merosini saqlash va tushunishga hissa qo'shdi.

Xulosa: Rus tilining davom etayotgan ahamiyati

Rus tilining proto-slavyan ildizlaridan zamonaviy mujassamlanishigacha bo'lgan sayohati chidamlilik, moslashish va ta'sir dostonidir. U rus xalqining shov-shuvli tarixi va jonli madaniyatini aks ettiradi , uning g'alabalari, fojialari va bardosh ruhini aks ettiradi.

Rus tilining global ahamiyati uning aloqa vositasi sifatidagi roolidan tashqariga chiqadi. U madaniy almashinuv, adabiy va intellektual yutuqlar uchun vosita va Rossiyaning dunyodagi o'rni ramzi bo'lib xizmat qiladi.

Rus tilining evolyutsiyasi va ta'siri haqida fikr yuritar ekansiz, til bizning tarix, madaniyat va bir-birimizni tushunishimizni qanday shakllantirishini ko'rib chiqing. Rus tili o'zining chuqurligi va murakkabligi bilan tadqiqot va kashfiyotga chorlaydi, lingvistik chegaralardan tashqarida bo'lgan inson tajribasi haqida tushuncha beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Damirovich, MR, Ibragimovich, TI, & Sattarovich, AU (2022). Diniy bag'rikenglik va xalqaro salomatlik g'oyalarini targ'ib qilishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni . Braziliya Implantologiya va sog'liqni saqlash fanlari jurnali, 4 (5), 42-47.

2. DAMIROVICH, janob, IBRAGIMJANOVICH, TI, & UGLI, KNK (2021). Yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda oila, mahalla va tarbiyaning o'rni. JournalNX, 7(1), 311-314.

3. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021 yil) . 48(8),8.

4. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023 yil, iyun). Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda til va kompyuter. AIP konferentsiyasi materiallarida (2789-jild, 1-son). AIP nashriyoti.

5. Damirovich, RM, Saydaliyevich, U.S, & Nosirxonzoda, AN (2022). KELAJAK HARBIY XIZMATLARDA KASBIY MUVOJLANISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. ILMIY VA TA'LIM TADQIQOTLARIDAGI INNOVATIONS JURNALI, 5(4), 462-465.

6. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(3), 1027-1032.

7. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 978-983.

## ХАВФ ОСТИДА ҚОЛДИРИШ ЖИНОЯТИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Я.О.Жумақўзиёв**

*ИИБ Академияси 323-гуруҳ курсанти*

**Анотатсия:** *Хавфли жиноятлар жаҳон бўйлаб қонун эгаллаш агентликларига катта қийинликлар туғишмоқда, чунки уларнинг мураккаб хусусиятлари ва кенг тарқалган зарар еҳтиёжларига ега. Бу мақола, жиноятларига ёналтирилган таҳқиқотларнинг амалиётлари бўйича самарали стратегияларни ва методологияларни ўрганади. Криминология, жазоир, технология ва психология соҳаларидан интердисциплинар тушунчалардан фойдаланиб, бу таҳқиқот, таҳқиқот натижаларини яхшилаш учун бошқарувни ўз ичига олади. Яширин текширув техникаларини интеграллаш, технологик ривожланишларни фойдаланиш ва психологик профил иши муҳимлигини белгилаш орқали, ҳуқуқний агентликлар жиноятларига қарши кураш ва жамоани ҳимоялаш бўйича самарали ишлашларни таъминлашлари мумкин.*

**Калит сўзлар:** *Предеништаблаш, Ҳамкорлик, Таълим, Технология, Қийинликни баҳолаш, Протоколлар, Жамиятга ёнгин қилиш, Маълумотлар таҳлили, Зарар ёкифталлаб қолиш, Қонунчилик, Даражада вазирликлараро ҳамкорлик, Криминалистика усуллари, Маълумотдон кампаниялари, Проактив тедабирлар, Тиклаш.*

Хавф остида қолдириш жинояти бугунги кунда тез тез учраб турадиган жиноятлардан бўлиб ҳисобланади ва мазкур жиноят Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 117-моддасида ўз аксини топган. Ушбу жиноятни тергов ва суд амалоётида бошқа моддалар билан биргаликда кўшиб квалификация қилинади. Хавф остида қолдириш жиноятини асосан Жиноят Кодексининг қуйидаги моддалар билан биргаликда қўлланилади, Булар:

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 104-моддаси;
- Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 105-моддаси;
- Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 116-моддаси;
- Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг 266-моддалар.

Хавф остида қолдириш ўзи нима? Хавф остида қолдириш бу - айбдор шахснинг қилмиши натижасида жабрланган шахс ўзини ўзи ҳимоя қилиш имкониятидан маҳрум бўлиши ва жабрланувчига ҳеч қандай ёрдам кўрсатмаслиги, айбдор шахс жабрланган шахсни хавфли аҳволга солиб қўйган ва бу ҳол баданга ўртача оғир ёки оғир шикаст етказилишига олиб келганлиги тушунилади. Хавф остида қолдириш билан боғлиқ жиноятлар юзасидан бири қанча тергов ҳаракатлари ўтказилади ва мазкур тергов ҳаракатлари тергов органлари томонидан синчиковлик билан амалга оширади. Ўтказиладиган тергов ҳаракатларига қуйидагиларни мисол келтиришимиз мумкин, булар:

- Кўздан кечириш тергов ҳаракати;
- Экспертиза ўтказиш тергов ҳаракати;

- Экспертиза учун наъмуналар олиш тергов ҳаракати;
- Сўроқ қилиш тергов ҳаракати;
- Юзлаштириш тергов ҳаракати;
- Таниб олиш учун кўрсатиш тергов ҳаракати;
- Кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текшириш тергов ҳаракати;
- Эксперимент тергов ҳаракатларини ўтказиш мумкин.

Кўздан кечириш тергов ҳаракати бу - жиноятга оид излар, иш учун аҳамиятга ега бўлган ашёвий далилларни топиш, ҳодиса содир бўлган вазиятни ва бошқа ҳолатларни аниқлаш мақсадида ўтказиладиган тергов ҳаракатидир.

Кўздан кечириш тергов ҳаракатининг етти та тури мавжуд бўлиб, уларга 1) ходисас содир бўлган жойни кўздан кечириш, 2) мурдани кўздан кечириш, 3) ҳайвонларни кўздан кечириш, 4) теварак атрофни кўздан кечириш, 5) биноларни кўздан кечириш, 6) нарсаларни кўздан кечириш, 7) ҳужжатларни кўздан кечириш турлари мавжуд. Кўздан кечириш тергов ҳаракати уч босқичдан иборат бўлиб, биринчи босқич, тайёргарлик босқичи бўлиб, мазкур босқичда тергов ҳаракатига киришишдан олдин терговчи томонидан фойдаланиладиган нарсалар содир этилган жиноятга қараб тайёрланиши лозим бўлади. Иккинчи босқич кўздан кечириш тергов ҳаракатини ўтказиш босқичи бўлиб, мазкур босқичда Тергов тезкор гуруҳ аъзолари томонидан амалга ошириладиган ҳаракатларни келтиришимиз мумкин. Тергов тезкор гуруҳи терговчи, тезкор вакил, эксперт, профилактика инспектори ва кинологлардан иборат бўлиб, ушбу гуруҳда терговчи томонидан берилладиган вазифалар асосида ҳаракатлар амалга оширилади ва кўздан кечириш жараёни энг камида икки нафар холислар иштирокида видео тасвирга олинади. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечиришда биринчи бўлиб ҳодиса жойига эксперт криминалист киради ва ҳодиса жойини фото ва видео тасвирга олади, шунингдек ҳодиса жойидан олинган ишга алоқадор нарса ва буюмларни белгиланган тартибда олинади ва ҳодиса жойидан топилган ҳамда эксперт томонидан олинган барча майда деталлар жиноят ишини қўзғатиш учун асос бўлиши мумкин. Терговчи мазкур тергов ҳаракатини ўтказиши давомида ундан синчиков бўлиш талаб қилинади ва олинган иш учун аҳамиятли нарсаларни процессуал тартибда экспертизага юборади. Кўздан кечириш тергов ҳаракатини ўтказиш жараёни тўлиқ видео тасвирга олинади ва бунда холислар, мутахасис ҳамда эксперт иштирок этиши шарт ҳисобланади. Кўздан кечириш жараёнида олинган жиноятга оид излар ёки бошқа маълумотлар асосида жиноят ҳодисаси юз берган бермаганлиги аниқланади. Кўздан кечириш тергов ихаракати ўтказилганидан кейин натижаларни баённома асосида расмийлаштириш керак бўлади ва бу учинуи босқич бўлиб ҳисобланади. Баённомада қуйидагилар акс этган бўлиши керак, булар, баённоманинг номи, баённома тузилган вақт ва жойи, баённома тузилган шароит, баённома тузишда иштирок этган шахслар, фойдаланилган техник воситаларнинг номи, олинган нарса ва ҳужжатларни қандай қилиб ва қай тартибда муҳрланганлиги акс этган бўлиши керак. Кўздан кечириш тергов ҳаракати Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 135-141-моддаларида ўз аксини топган.

Хавф остида қолдириш жиноятини тергов қилиш жараёнида терговчилар томонидан ўтказиладиган тергов ҳаракатларини бугунги кунда муайян бир кетма кетлиги шакиллантирилмаганлиги, шунингдек ўтказиладиган тергов ҳаракатлари

давомидаги қилинадиган шилар кетма кет тарзда қилиниши тўғрисида ҳеч қандай қўлланма ишлаб чиқилмаганлиги ва тергов давомида турли сабаблар билан айрим эътибор берилиши керак бўлган нарсалар қолиб кетаётганлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. Масалан, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 266-моддасида кўрсатилга жиноятни содир этган шахснинг ҳаракатларида ЖКнинг 117-моддаси аломатлари бор ёки йўқлигини аниқлаштириш мақсадида ходиса содир бўлган жойни кўздан кечириш, сўроқ ҳамда эксперимент тергов ҳаракатларини ўтказилишига эътиборли бўлишни талаб этади.

Бундай ҳолатлар юзага келган тақдирда автомобиль шиналаридан қолган излари, тўқнашув нуқтаси қаер эканлигини, жабрланган шахснинг қаерга бориб тушганлигини, у ерда мавжуд бўлган автомашинага тегишли автомобилларга мўлжалланган мойлардан йўл транспорт ходисаси содир бўлган жойда тўкилиб қолган бўлса, жабрланган шахснинг уст бошида қон доғлари, автомашинага тегишли бўлган қармақ излари мавжуд бўлса, қон доғлари ва жабрланувчининг уст бошидаги қармақлардан экспертиза тайёрлаш учун намуналар олиниши мақсадга мувофиқ бўлади. Ушбу тергов ҳаракати белгиланган талаблар асосида ўтказилганлиги келгуси тергов ҳаракатларини амалга оширишида муаммоли бўлган ҳолатларни ечими бўлиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 266-моддаси ва 117-моддаси биргаликда квалификация қилиниб, тергов ҳаракатлари ўтказилиши жараёнида сўроқ қилиш, кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текшириш эксперимент тергов ҳаракатларига ҳам алоҳида эътибор бериши лозим бўлади, чунки, сўроқ жараёнида олинган кўрсатмалар билан ходиса содир бўлган жойни кўздан кечиришда олинган маълумотлар бир бирига мутаносиб келиши мумкин. Шунинг учун сўроқ тергов ҳаракатига терговчи томонидан муқим тайёргарлик кўриб, сўроқ жараёнида бериладиган саволлар рўйхатини аввалдан тузиб, шахсга оид маълумотларини аниқлаштириб олиши лозим бўлади ва айбланувчига қуйидаги саволларни бериш мақсадга мувофиқдир, булар 1)Айтингчи, Сиз йўл транспорт ходисаси юз берган қатнов йўлида ҳаракатланиб кетаётган вақтингизда автомобилнинг тезлиги неча км/с тезликда ҳаракатланаётган эди? 2)Айтингчи, Сиз йўл транспорт ходисаси юз берган қатнов йўлида ҳаракатланиб кетаётган вақтингизда қатнов йўли четки қисмида ҳаракатланиб кетаётган пиёдачини кўрганмисиз? 3)Айтингчи, Сиз транспорт воситасини бошқариб кетаётган вақтингизда йўлдан пиёдачи ҳаракатланаётганини кўриб транспорт воситасини тўхтатишга ҳаракат қилганмисиз? 4) Айтингчи, Сиз транспорт воситасини бошқариб кетаётган вақтингизда йўлдан пиёдачи ҳаракатланаётганини кўрган бўлсангиз пиёдачи билан қанча оралиқ масофа қолганида транспорт воситасини тўхтатишга ҳаракат қилгансиз? 5) Айтингчи, Сиз пиёдачини уриб юбориб йўл транспорт ходисаси юзага келиши натижасида пиёда ҳаракатланиб кетаётган шахсни йиқилганлигини ёки унинг бирон жойидан қон оқаётганлигини кўрганмисиз? 6) Айтингчи, Сиз пиёдачини уриб юбориб йўл транспорт ходисаси юзага келиши натижасида сиз пиёдачи шахсга биринчи тиббий ёрдам кўрсатганмисиз? 7) Айтингчи, Сиз пиёда ҳаракатланиб кетаётган шахсни уриб юбориб йўл транспорт ходисаси содир этганлигингиз ҳақида биринчи бўлиб кимга айтгансиз? 8) Айтингчи, йўл транспорт ходисаси юз берган жойни қаерда эканлигини

бизга кўрсата оласизми? 9) Айтингчи, йўл транспорт ходисаси юз берган вақтда транспорт воситаси ичида сиздан бошқа кимлар бўлган?

Экспертза, мазкур тергов ҳаракати кечиктириб бўлмас тергов ҳаракати бўлиб ҳисобланади ва ушбу тергов ҳаракати жиноят ишини кўзғатилишидан аввал ўтказилади. Экспертнинг хулосаси жиноят иши учун муҳим ҳисобланади аммо юридик кучга эга бўлмайди. Экспертнинг хулосаси терговчи томонидан берилган саволларнинг асослилиги ва савиялилигига ҳам боғлиқ бўлиб, эксперт фақатгина қарорда ақс эттирилган саволларгагина жавоб тақдим этади. Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 266-моддаси билан боғлиқ жиноят ишларда эксперт хулосаси муҳим ҳисобланади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дамирович, М. Р., Ибрагимович, Т. И., & Саттарович, А. У. (2022). Мазкурлик, маданият ва таълимий тадбирларнинг диний толерантлик ва халқаро саломатлик идеяларини ривожлантиришдаги ўрни. Бразилия имплантология ва саломатлик мавзуси журнали, 4(5), 42-47.
2. ДАМИРОВИЧ, М. Р., ИБРАГИМЖАНОВИЧ, Т. И., & УГЛИ, К. Н. К. (2021). Ўзбек ёшларда ватандошлик руҳини ривожлантиришда ўйла, жамоа ва таълимнинг ўрни. JournalNX, 7(1), 311-314.
3. Туйчиева, И., Арипов, С., Мадаминова, Д., & Мустаев, Р. (2021). Умумий ўрта таълим мактабларида болаларни оилавий муносабатларга тайёрлаш педагогик тизими. 湖南 университети илмий журнали (табiiй илмлар бўлими), 48(8), 8.
4. Туйчиева, И., Арипов, С., Мадаминова, Д., & Мустаев, Р. (2023, июнь). Тили ва компьютер болаларнинг коммуникатив раҳбарликни ривожлантиришда. АIP Конференция мақолалари (Том 2789, №. 1). АIP нашриёти.
5. Дамирович, Р. М., Сайдалиевич, У. С., & Носирхонзода, А. Н. (2022). Мустақил аскерий хизматкорларда профессионал ўқилга мувофиқ ёзиқ-маданиявий асослар. Илмий ва таълимий изишлар журнали, 5(4), 462-465.
6. Дамирович, М. Р., & Сайдалиевич, У. С. (2022). ЖОЙ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Илмий тезкора, 1(3), 1027-1032.
7. Дамирович, М. Р., & Сайдалиевич, У. С. (2022). САТЕЛЛИТЛАРДАН ТАРГИТЛАШ УЧУН ПОЗИЦИОННИНГ НАВИГАЦИЯСИНИ ЎРНАТИШ. ЎЗБЕКИСТОНДА ФАНЛАРАРО ИННОВАЦИЯЛАР ВА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ, 1(12), 978-983.



---

**JISMONIY MADANIYAT SHAKLLARI HAMDA JAMIYATDAGI O'RNI VA AHAMIYATI****Sarimsoqov I.M.**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i*

**Annotatsiya.** Davlatimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan barkamol avlod tarbiyasining asosiy omili sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e'tibor berildi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarining biriga aylanib, bugungi kunda ham davlatimiz tomonidan ulkan islohatlar olib borilmoqda. Jismoniy tarbiyaning paydo bo'lishi insoniyat jamiyati tarixidagi eng qadimgi davrlarni anglatadi. Jismoniy tarbiya elementlari ibtidoiy jamiyatda vujudga kelgan. Odamlar o'z oziq-ovqatiga ega bo'ldilar, ov qildilar, uy-joy qurdilar va bu tabiiy, zaruriy faoliyat davomida ularning jismoniy qobiliyatlari - kuch, chidamlilik, tezlik o'z-o'zidan rivojlanib bordi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya hamda sportning kundan kunga rivojlanib borishi barchamizni quvontirmoqda.

**Kalit so'zlar:** jismoniy madaniyat, jamiyat, sport, barkamol avlod tarbiyasi, jismoniy tarbiya.

**Kirish.** Jismoniy madaniyatning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati juda katta. U insonlarga sog'lom hayotni o'rgatadi, jamiyatdagi kommunikatsiya va aloqalarni kuchaytiradi va jamiyatning umumiy rivojlanishiga qo'llab-quvvat beradi. Bu esa, insonlarni yaxshi o'zlashtirish, tinchlik va tinchlik xavfsizligini himoya qilishga yordam beradi. Sportning, jismonan barkamol insonni shakllantirishdagi beqiyos hamiyati oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror-farmonlarda o'z aksini topmoqda. Bu bor haqiqat. Chunki jismoniy tarbiya va sport aholini sog'lomlashtirish va inson sog'lig'ini saqlashning kaliti, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga tez tanita olmaydi" degan jumlaning tasdig'ini guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Jismoniy madaniyat jahon xalqlarining umumiy madaniyati -mazmunidan chuqur o'rin egallamoqda. Uni o'qitish, o'rganish va ilmiy tadqiqot olib borish bugunning dolzarb muammolaridan biridir [1]. Jismoniy madaniyatning ilk izlari, namunalari, o'rta yer dengizi atrofida, eradan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan davlatlarda (Mesopotamiya)da ko'proq uchraydi. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o'z ifodasini topgan. Bunda, asosan, merganlik (kamon-yoy), bel ushlab kurashish, mushtlashish, g'ildirakli aravalarda poyga qilish san'ati va merganlik kabi faoliyatlar muhim o'rinni egallaydi. Jismoniy madaniyat shakllari, odamlarning tabiatlarini o'zida aks ettiradigan amaliyotlardir. Bu shakllar jismoniy faoliyat, o'ziga xos kiyim-kechak ko'rinishi, o'yinlar va sport salohiyatlari, oziq-ovqat ustida bo'lgan adabiyotlardan iboratdir. Jamiyatda jismoniy

madaniyatning o'rni va ahamiyati juda muhimdir. Jismoniy madaniyatning rivojlanishi jamiyatning salomatligi va bemorlik xizmatlariga e'tibor berishga olib keladi. Sport mashg'uloti jismoniy va psixologik rivojlanishga yordam beradi va insonlarga sog'lom hayotni o'rgatadi. Jismoniy faoliyat jamiyatda jamoaviy himoya avlodini o'z ichiga oladi va insonlarga qo'ng'iroq soladi. Jamiyatdagi shaxsiy aloqalar, do'stlar va do'stlar uchun qadriyat tashkil etadi va o'zaro muloqotni kuchaytiradi. Jamiyatda jismoniy madaniyatning o'rni va ahamiyati o'nii o'ldirish, taxminan o'nii muhofaza qilish hamda insonlarga murojaat qilishga yo'l ochishi yordam beradi. Bu esa, insonlar o'rtasida yaxshi aloqa, do'stlarning ko'rsatishlarini qabul qilish va boshqalar bilan birgalikda ishlash imkonini yaratadi. Jismoniy madaniyat va faoliyatlar jamiyatdagi yaxshi va sog'lom turmushga erishishga yordam beradi. Bu esa insonlarni fizikadan qochqinlikka chaqirish, energiyalarini sarflash va umumiy qilingan mamnuniatlarini oshirishga yordam beradi. Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda [2]. Xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida jismoniy madaniyat va sport sohasi eng muhim o'rin egallaydi. Jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy soha sifatida insonlarni jismonan, ma'nan va ruhan etuk, komil shaxs etib tarbiyalasa, iqtisodiy jihatdan esa ishlab chiqaruvchi sub'ektlar, ya'ni insonlarni salomatliklarini hamda yuqori ish qobiliyatlarini tiklash va mustahkamlash orqali mamlakatimizning ishlab chiqarishini hamda iqtisodiyotini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Butun insoniyat boshiga tushgan bunday ulkan ofatni yengida inson organizmi uchun eng kerakli bo'lgan narsa immunitet ekanligi qayd etildi. Immuniteti kuchli insonlar bu kasallikni yengil tarzda boshidan o'tkazdi ammo buning aksi bo'lgan insonlarga esa dori darmon ham yordam bermadi. Kuchli immunitetga esa sog'lom turmush tarzi, foydali va sifatli oziq-ovqat maxsulotlarini istemol qilish va eng asosiysi jismoniy tarbiya bilan uzluksiz va tizimli shug'ullanib borish orqali erishishimiz mumkin. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda turli xil kasalliklarning oldini olishning asosiy yo'li to'g'ri tashkil etilgan jismoniy harakat madaniyati, sport, hamda sog'likni saqlash tizimidir. Jismoniy harakat odamning butun organizmidagi a'zo va tizimlar ishini normallashtiradi, buzilgan fiziologik faoliyatlarning tiklanishiga yordam beradi, aqliy va jismoniy faollikni oshiradi. Jismoniy tarbiya – sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyatning aholini bildiruvchi ko'rsatkichlaridan biri [3]. "Sog'lom tanada sog'lom aql" – bu so'zlar zamonaviy jamiyatda, dolzarb bo'lgan mashhur maqol hisoblanadi, chunki jamiyatda

sog‘lom muhitni yo‘lga qo‘yish uchun ham sog‘lom fikrli hamda sog‘lom tan bo‘lishi darkor. Jismoniy tarbiya nafaqat insonni jismoniy jihatdan balki ruhiy salomatlikni yo‘lga qo‘yishda ham beqiyos o‘rin tutadi. Hamda ruhiy salomatlikni himoya qiladi, stressga chidamliligini va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda samaradorlikni oshiradi. Sifatli jismoniy tarbiya dasturlari barcha o‘quvchilarning butun umr davomida jismoniy faol bo‘lishlari uchun jismoniy kompetensiyani, sog‘liq bilan bog‘liq tayyorgarligini, o‘z-o‘ziga mas’uliyat va jismoniy faoliyatdan zavqlanishlarini oshirish uchun zarur. Shu bilan birga jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat bir birlari bilan chambarchas bog‘liq jarayon hisoblanadi. Jismoniy madaniyat – insonning qobiliyatlarini jismoniy va intellektual rivojlantirish, uning jismoniy faolligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, hamda ijtimoiy moslashish maqsadida jamiyat tomonidan yaratilgan va foydalaniladigan qadriyatlar va bilimlar to‘plamidir. Jismoniy madaniyat, shuningdek, tana madaniyati sifatida ham tanilgan. Shu bilan birga jismoniy madaniyatga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, jismoniy madaniyat, falsafa, rejim yoki turmush tarzi, vazn mashqlari, parhez, aerobik faoliyat, sport musobaqalari va aqliy intizom kabi vositalar orqali maksimal jismoniy rivojlanishga intiladi. Muayyan afzalliklarga salomatlik, tashqi ko‘rinish, kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, tezlik va umumiy jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, sport bilan bog‘liq mashg‘ulotlarda esa ko‘proq mahorat kiradi. Jismoniy tarbiya hamda jismoniy madaniyat jamiyatning taraqqiyoti, odamlarning samarali mehnat qilishi, aqliy imkoniyatlarining ravnaq topishi, aqliy poklanish va kelajak nasllarining jismoniy ahvoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham maktablar va kollejlarda, Oliy ta’lim muassasalarida ayniqsa oliy harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlikka katta e’tibor qaratiladi. Insonning jismoniy harakatlarga moslashuvchanlik jarayonida ham jismoniy madaniyatning o‘rni mavjud [4]. Ushbu faoliyat sohasining o‘ziga xosligi “moslashuvchan” qo‘shimcha ta’rifida ifodalanadi, bu sog‘lig‘i bo‘yicha muammolari bo‘lgan odamlar uchun jismoniy tarbiya vositalarining maqsadini ta’kidlaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, jismoniy madaniyat o‘zining barcha ko‘rinishlarida tanadagi ijobiy morfo-funksional o‘zgarishlarni rag‘batlantirishi kerak. Jismoniy madaniyat ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa bo‘lib, u aholining barcha qatlamlarini rivojlantirish va tarbiyalashga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, jismoniy madaniyatning eng muhim o‘ziga xos funksiyasi insonning jismoniy faoliyatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yaratish va shu asosda hayotda zarur jismoniy imkoniyatlarni ta’minlashdir. Shuningdek, shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish jismoniy madaniyatning maqsadi hisoblanadi [5]. Ta’lim tizimiga xos bo‘lgan eng muhim gumanistik natijalar - bu sog‘lomlashtirish, dam olish, rehabilitatsiya qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan jismoniy madaniyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalardir. Shu bilan birga, sog‘lom, jismoniy faol turmush tarzi va unga erishishga ijtimoiy munosabatlarning qadriyat yo‘nalishlarini shakllantiradigan bilimlar

muhim ahamiyat kasb etadi. Oxir oqibat, umumiy jismoniy tarbiya sog‘lom va majburiy jismoniy faol turmush tarzi dunyoqarashini shakllantirishi kerak.

Xulosa. Demak, jismoniy madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jismoniy rivojlanish muammolarini hal qilish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning axloq, tarbiya, axloq sohasidagi boshqa ijtimoiy vazifalarini ham bajaradi. Zamonaviy jamiyat yosh avlodning jismonan barkamol, sog‘lom, quvnoq bo‘lib voyaga yetishidan manfaatdor.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining —Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi Qonuni. Toshkent, 5 sentabr 2015 yil. 174 – son Xalq so‘zi gazetasi.
2. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008., - 30 b.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Гидрофилия – зебралар. Тахрир хайъати: М. Аминов, Б. Ахмедов ва б. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002. – 614 б.
4. SAMARQAND FORUMI: “Yoshlar-2020: global birdamlik, barqaror tarqqiyot va inson huquqlari. [https://pravacheloveka.uz/oz/news/samarqandforumi-yoshlar-2020-global-birdamlik-barqaror-tarqqiyot-va-inson huquqlari](https://pravacheloveka.uz/oz/news/samarqandforumi-yoshlar-2020-global-birdamlik-barqaror-tarqqiyot-va-inson-huquqlari)
5. <https://www.shakopee.k12.mn.us/Page/964>

---

**KORXONALARDA ASOSIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.**

**Sanayeva Malika Jaxankulovna**

*Uzsanoat qurilish bank tukimachilik filiali servis menejeri*

[Malika.sanaeva@bk.ru](mailto:Malika.sanaeva@bk.ru) (91 418 79 97)

**Annotatsiya.** *Maqolada mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalarining asosiy fondlarini boshqarish masalalari muhokama qilinadi. shuningdek, globallashuv sharoitida davlat rivojlanishining xususiyatlari, integratsiyani chuqurlashtirish muammolari va kengaytirish bo'yicha takliflar belgilab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiyot, menejment, yangilanish, fan, texnologiya, samaradorlik, siyosat, tahlil, omil, strategiya.*

**УПРАВЛЕНИЕ ОСНОВНЫМИ АКТИВАМИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ.**

**Санаева Малика Джаханкуловна**

*Узпромстройбанк менеджер по обслуживанию*

*тукимачикского филиала [Malika.sanaeva@bk.ru](mailto:Malika.sanaeva@bk.ru)*

*91 418 79 97*

**Аннотация.** *В статье рассмотрены вопросы управления основными активами промышленных предприятий в развитии экономики страны. а также особенности развития государства в условиях глобализации, обозначены проблемы углубления интеграции и предложения по расширению.*

**Ключевые слова:** *экономика, обновление, наука, техника, эффективность, политика, анализ, фактор, стратегия.*

**MANAGEMENT OF FIXED ASSETS IN ENTERPRISES.**

**Malika Sanayeva Jaxankulovna**

*Uzsanoat Construction bank branch services manager in tokimasi*

[Malika.sanaeva@bk.ru](mailto:Malika.sanaeva@bk.ru) 91 418 79 97

**Annotation.** *The article discusses the issues of managing the main assets of industrial enterprises in the development of the country's economy. as well as features of state development in the context of globalization, problems of deepening integration and proposals for expansion are identified.*

**Key words:** *economics, management, renewal, science, technology, efficiency, policy, analysis, factor, strategy.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiyotida ishlab chiqarish salohiyatini isloh qilishda muammolar yuzaga kelmoqda. Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar va mamlakatni yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari, strategik islohotlarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish hamda amalga oshirishning asosidir. [4].

Globalashgan dunyoda kompaniyalar xalqaro aktivlarni boshqarish, iste'molchilar, texnologiya, xarajatlar va strategik raqobatni o'rganib kelmoqda. Maqsad va rejalarining bir qismi sifatida ular ishlab chiqarish va sotish bo'limlarini turli mamlakatlarda joylashtiradilar va global muhitda o'z sharoitlarini yanada qulayroq qilishga intiladilar [6]. Global iqtisodiy muhit turlicha bo'lib qolmoqda, chunki texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi tafovut kengayishda davom etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar 4-5- avlod texnologiyalaridan, rivojlanayotgan mamlakatlar 2-3 avlod texnologiyalaridan, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar esa sarmoyadan foyda ko'radigan erta sanoatlashtirish texnologiyalaridan foydalanadilar. [20]. Rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyalarga ega bo'lganligi sababli ular past va o'rta rivojlangan davlatlarga sarmoya, bilim talab qiladigan tovar va xizmatlarni eksport qilib, katta foyda olishga intiladi. [5]

O'z navbatida, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va shu asosda "Raqamli O'zbekiston 2030" dasturini amalga oshirish masalasini ko'tardi. [20]. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi ko'p millatli O'zbekiston uchun mo'ljallangan. [21]. Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlarni, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarni sotishni raqamlashtirishni nazarda tutadi [18].

### **O'rganish ob'ekti**

Asosiy aktivlarni yangilash va takomillashtirish orqali ishlab chiqarishda sifat va miqdor o'zgarishlarini ta'minlash, aholi bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, eng kam ishlab chiqarish xarajati bilan yangi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlash, tashqi bozorlarga chiqishni osonlashtirish kabi ko'plab iqtisodiy - ijtimoiy muammolarni hal qilishi mumkin. [11]. Shu munosabat bilan korxonalarining asosiy aktivlarini yangilash muammosi nafaqat nazariy va uslubiy muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan dolzarb bo'lib, balki sanoat korxonalari, shuningdek, butun iqtisodiyot uchun amaliy ahamiyatga ega. Mintaqalar doirasida ayrim mamlakatlar iqtisodiyoti o'zaro integratsiya jarayonida ishlab chiqarish va aktivlarni boshqarishning yagona tizimida ishlaydi. [8]. Mintaqaviy integratsiya doirasida jahon iqtisodiyoti, investitsion faollik va

aktivlarni boshqarishning yuqori, samarali va istiqbolli rivojlanish nuqtasi shakllanib kelmoqda [24].

Metodologiya.

Mavzuni o‘rganish va yoritishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish usullaridan samarali foydalanildi.

Mavzuni o‘rganish darajasi.

Iqtisodiy adabiyotlarda asosiy aktivlarni, shu bilan birga ishlab chiqarish fondlari va asbob-uskunalarini yangilash muammolariga doimo katta e‘tibor berilgan. Bu boradagi tadqiqotlarni mahalliy va xorijiy olimlar: A.D. Sheremet, E.B. Sapritskiy, M.H. Shchadov hamda M.Sh. Sharifxo‘jaev, Iskanderov Ibragimjon, O. Abdullaevning ilmiy ishlarida yoritilgan. Biroq, innovatsion jarayonlar va asosiy aktivlarning eskirish strukturasi, investitsiya resurslarining yetishmasligi va mavjud nazariy tajriba bilan bog‘liq o‘zgarishlar ushbu muammoga printsiplial jihatdan yangi yondashuvlar asosida yanada rivojlantirishni talab qiladi. [7]

### **Tahlil va Natijalar**

Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va shu asosda “Raqamli O‘zbekiston 2030” dasturini amalga oshirishni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning milliy konsepsiyasi ishlab chiqildi. [18]. Asosiy aktivlar mamlakat milliy boyligining tarkibiy qismidir. [4]. Hozirgi bosqichda O‘zbekistonda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni optimallashtirish hamda asosiy aktivlarni yangilash, modernizatsiya qilish, quvvatlardan maqbul foydalanishni taqozo etmoqda, bu asosiy aktivlar aylanishini tezlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni va shu asosda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish jarayonlaridir. [16]. Ishlab chiqarishning pasayishi va inflyatsiyaning yuqori sur‘atlari sharoitida investitsiya faoliyatini tartibga solish tamoyillari dolzarb muammolarni hal etishning ustuvor yo‘nalishlari bilan belgilanadi. [29]. Erkin narx belgilash amaliyotiga o‘tish bilan korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan asosiy aktivlarga markazlashtirilmagan investitsiyalar qisqardi, bu iste‘molchilarning jamg‘arish ehtiyojlaridan ustunligini ko‘rsatdi. [22]. Yuqori samarali iqtisodiyotni ta‘minlash uchun fan va texnikani har tomonlama rivojlantirish va ularning natijalarini iqtisodiyotga joriy etishni ta‘minlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni qo‘llash zarur. [13]

Bugungi kunda ishlab chiqarish omillariga, asosan, mashina va kapitalga doimiy talab tufayli hech bir mamlakat milliy iqtisodiyotining hajmi va rivojlanish darajasidan qat‘i nazar, o‘zini-o‘zi to‘liq yoki yetarli darajada ta‘minlay olmaydi. [16]

Hudud iqtisodiyotiga aktivlar ko‘rinishidagi investitsiyalarni jalb etish barqaror iqtisodiy o‘sinh va moliyaviy daromadlarni ta‘minlashda muhim vazifa hisoblanadi. [30]. Va o‘z navbatida, investitsiya siyosatini shakllantirish uchun investorga kafolatlar darajasi bilan belgilanadigan samarali mintaqaviy investitsiya strategiyasini ishlab chiqish kerak. [17].

Shuningdek, potentsial investorlarni mintaqadagi investitsiya muhitining holati, ya'ni investitsiya salohiyati va investitsiya xatarlari darajasi tashvishga solmoqda. Investorlar uchun mintaqaning investitsiya reytingini, shuningdek, kapital qiymatini baholash juda muhimdir. [19]

Yuqori aylanma, asosiy va investitsiyalarning tez qaytarilishi tufayli investorlar uchun o'z mablag'larini ishlab chiqarishga sarflash foydalidir. Bundan tashqari, oziq-ovqat va yengil sanoat sohasi katta kapital qo'yilmalarni talab qilmaydi. [6].

Yog'-moy sanoatida va qurilishda uskunalarni o'rnatish bir necha oy davom etadi. Binobarin, bunday korxonalar faoliyatining birinchi yilida daromad keltirishi mumkin. Investorlar vaqtinchalik ortiqcha mablag'larni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiya qilishlari mumkin [16].

Bugungi kunda investitsiya tiklanishining manbai ishlab chiqarish korxonalari bo'lib, ular foyda va amortizatsiya kabi o'z resurslaridan oqilona, va samarali foydalanish hisobiga asosiy aktivlarni yangilash uchun mablag' topadi. [33]. Ushbu muammoni hal qilish uchun korxonalar asosiy aktivlardan foydalanish va yangilash bo'yicha maqsadli boshqaruv strategiyasini shakllantirishlari kerak. Asosiy aktivlardan foydalanish va yangilash bo'yicha boshqaruv strategiyasi korxonaning umumiy va hisob siyosatining majburiy qismidir. [5].

Sinov ostidagi qurilma manbadan iste’mol qilgan tokni o‘lchash uchun [A] tugmasi bosiladi. Shunda displey analizatoridagi sinov rozetkasi orqali qurilmaga oqib o‘tgan tok qiymatini ko‘rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elektron raqamli tibbiyotda qo‘llaniladigan chaqaloq tarozisini loyihalash Shakarov Farhod Quvondiqovich Keldiyorov Abrorbek Ahmad o‘g‘li

<https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/issue/view/34> Научный Импульс

2. Stomatologiyada ultratovushdan foydalanish Shakarov Farhod Quvondiqovich Abdukadirov Ramazan Abdujalil o‘g‘li

<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/issue/view/19>

3. Science and innovation international scientific journal

Magnitostriktiv va lazerli innovatsion gibrid Stomatologik skaler qurilmasi

4. Shakarov Farhod Quvondiqovich <https://cyberleninka.ru/article/n/magnitostriktiv-va-lazerli-innovatsion-gibrid-stomatologik-skaler-qurilmasi>

Manba: “High –Efficiency Linear RF power Amplifier. A Class-E.” Based EER Study Case by Dushan Miloshevich

5. Elektron qurilmalarda e– klass(sinf) Kuchaytirgichlarni hisoblash.

Shakarov Farhod Quvondiqovich Ahadov Sanjar Quvondiqovich

---

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA  
INTERAKTIV PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI****D.Baxtiyorova***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti IV-bosqich talabasi*

**Kalit so'zlar:** *metodika, innovatsiya, ingliz tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, pedagogik texnologiya.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalar hamda metodikalar, ingliz tilini o'qitish metodikasida qo'llaniladigan zamonaviy usullar va ulardan foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan.*

Hozirgi axborot asri zamonida ilm-fan, texnika hamda texnologiya shiddat bilan rivovlanib bormoqda. Bu holat o'z navbatida har bir sohani taraqqiyotda orqada qolmaslikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi ham albatta bundan mustasno emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan bu sohada ko'plab qonun, qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2023 yil 26-mayda PF-79-sonli farmoni qabul qilindi.

O'sib kelayotgan yosh avlodda axborot asridagi ba'zi bir salbiy xurujlarga qarshi imunitet shakllantirish, global axborot tizimidan foydali ma'lumotlarni ajrata ola bilish ko'nikmasini shakllantirish bugungi kunda dolzarb mavzu bo'lib turibdi. O'quvchilarda bunday hususiyatlarni shakllantirishda albatta xorijiy, ayniqsa ingliz tilini o'rganish va o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Bu masala albatta hukumat farmon va qarorlarida, hususan 2021 yil 19 maydagi PQ-5117 hamda shu sanadagi Vazirlar mahkamasining 312-sonli qarorlarida o'z aksini topgan.

Bugungi kunda har bir fanni o'quvchilarga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda yetkazib berish ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi kabi qaror va farmonlarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida mamlakatimizda chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Yurtimizda xorijiy tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangi davr boshlandi. Ingliz tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullardan, kommunikativ-axborot texnologiyalaridan



foydalanish zamon talabi bo'lmoqda. Respublikamizda xorijiy tillarning o'qitilishi, fan o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning Umumyevropa standartlariga (CEFR) mos ravishda, yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Bu talablarga asosan umum o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi, hamda talablarga mos ravishda o'quv xonalari jihozlanmoqda.

Xorijiy ayniqsa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga ortib bormoqda. Xorijiy tillar fanini o'rganish to'rt ya'ni-o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kabi turga bo'linib, ularning har biri uchun alohida tushuncha va ko'nikmalar belgilangan.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan texnika zamonidagi ta'lim jarayonida ham albatta zamon talabiga mos ravishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mumkin. Xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni biqiyos bo'lib, ularning bir qancha afzalliklari mavjuddir.

Zamonaviy texnologiyalarni yuqorida qayd etilgan xorijiy tillarni o'rganishdagi to'rt aspektlarning har birida ham qo'llash ijobiy natijalarga olib keladi. Bunga misol qilib, o'rganishning tinglab tushunish turida, kompyuter, noutbuk, planshet yoki turli android qurilmalarisiz bu vazifani bajarish imkonsiz holatdir. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanib, o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatika qoidalariga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda o'quvchilarda ingliz tilida o'quv dasturiga mos ravishda:- turli xil video roliklar, dialoglar, kino yoki multfilmlarni ko'rishi va eshitish; - real vaqt davomida ingliz tilidagi radio eshittirishlar hamda televideniya dasturlarini eshitish va tomosha qilish imkoniyati paydo bo'ladi. O'quvchilarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonlari qiziqarli bo'lishi hamda yaxshi amaliy natijalarga erishishlari uchun kompyuter va android qurilmalari uchun ishlab chiqarilgan bir qancha dasturlarni tavsiya qilish mumkun. Masalan, zamonaviy smartfonlar uchun ishlab chiqilgan "duolingvo" yoki "ibrat farzandlari" dasturlaridan har kuni ma'lum bir vaqt davomida foydalanib turish xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatini oshiradi, albatta o'quvchilarning bunday dasturlardan foydalanishlari ota-onalar nazoratida bo'lishi lozim. Bunday texnik vositalardan foydalanish o'z navbatida o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy- kommunikatsion texnologiyalami olib kirish, ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida xorijiy tilga bo'lgan

qiziqishni orttirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta’limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug‘iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innavatsion ta’limning ko‘plab usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda unumli foydalanilsa, yuqori dars samaradorligi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga erishish mumkin.

Odatda, o‘qituvchi xorijiy tilni o‘rgatish, o‘qitish usulini o‘zi tanlaydi. O‘qitishning mazmuni deyarli o‘zgar olmaydi, ammo uni o‘quvchilarga yetkazish usuli o‘zgarishi mumkin. O‘qitishning bir qancha usullari mavjud. Masalan: ma’ruza, misol keltirish, namoyish qilish, bahs-munozara, savol-javob. Bu usullar o‘quvchilar bilan muloqot qilish, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga yo‘naltirilgan fikrlarni yoritish usuli yoki shaklidir. O‘qituvchi muayyan vaziyat yoki dars uchun mos usulni tanlay bilishi kerak. O‘qitishning mos va samarali usulini tanlash uchun bir qancha omillarni hisobga olish zarur. O‘quvchilarning soni, muayyan vaziyat, usulning qo‘yilgan maqsadga mos kelishi. Agar biror matn muhokama qilinsa, o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib, jamoa yo‘li bilan bahs-munozara o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu usulda texnik vosita-audio yozuvlardan foydalanish mumkin. Bu usullarni qo‘llash jarayonida doimo vaqtni hisobga olish zarur. Savol-javoblar va rasmi o‘yinlar (Discussion) usuli darslarni yanada mazmunli va qiziqarli o‘qitishga imkon beradi. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmay, erkin o‘z fikrini aytish olishi lozimligi hisobga olingan holda, darsda shunday muhit yaratilishi kerak. O‘qitishda turli o‘yinlar qo‘llash texnologiyalarida o‘quvchilariga, kutiladigan javoblar va e’tirozlarni o‘ylash, o‘z bilimiga ishonish kabi vazifalar qo‘yiladi. Dars jarayonida turli o‘yinlarning afzallik tomonlari shundaki, o‘qituvchida o‘quvchilarning erkin holatlaridagi faoliyatlarini kuzatish imkoniyati bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarning faolligi, fantaziyalari, ijodiy qobiliyatlari, ishchanliklari, jamoada o‘zini tutishlari haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. O‘quvchilar bir nechta guruhlariga bo‘linadilar. Guruhlarning har bir a’zosi o‘z vazifalarini aniq bilishlari kerak. O‘yinning vaqti cheklangan bo‘lishi, u yakunlangach esa o‘yin natijalari tahlil qilinishi lozim. O‘yin orqali o‘qitish texnologiyalari ham o‘quv-tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilarning chuqur bilim olishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ingliz tilini o‘rgatishda o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga erishish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Fonetik mashg‘ulotlarda esa, asosan, audiomatndagi qisqa suhbatlar tinglanib, ushbu audiomatndagi suhbatga aynan mos bo‘lgan, so‘zlari tushirib qoldirilgan qog‘ozdagi matn to‘ldiriladi. O‘quvchiga berilgan matn bilan audiomatndagi suhbat bir xil bo‘ladi. Matn o‘ta ziyraklik bilan tinglanib, yangi iboralarni yodda saqlab qolgandagina, o‘quvchi shartni muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Bunda tinglab tushunish orqali og‘zaki nutq, ko‘nikma va malakalar shakllanib boradi. Tinglab tushunish matnni o‘qish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Tinglovchi o‘qigan so‘zlarini yaxshi eslab qoladi va tinglaganida yaxshi

tushunadi. Tinglovchilarga tinglash usullarini o‘rgatish hamda tinglab tushunish texnologiyasi orqali qonun-qoida, tamoyillar, metodlar, vositalar orqali o‘rgatish amalga oshiriladi. O‘qitish jarayonida tinglab tushunish ustida ishlaganda, kundalik yangiliklar, tili o‘rganilayotgan mamlakat xalqlari hayoti, madaniyati, tarixi haqida matnlarning bo‘lishi tinglovchilarning qiziqishlarini yanada orttiradi. Shuni aytish joizki, o‘qituvchi dars davomida vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olishi; dars boshida o‘tilgan mavzularni mustahkamlashi; har bir darsda yangi usullarni qo‘llashi; har bir dars uchun mos tarqatma materiallardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta‘lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o‘quvchilar ma‘lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so‘zlarni joylashtirib chiqishi mumkin.

Ingliz tilini o‘rganishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan bir davrda, ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta‘lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo‘lishiga olib keladi. Innavatsion ta‘lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta‘lim jarayonida to‘g‘ri va unumli foydalanilganidadir. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning og‘zaki nutq, tinglab tushunish, yozuv, o‘qish ko‘nikmalarini oshirishga va erkin muloqot qilishlariga amaliy yordam bera oladi.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T., 2006.
2. Saydaliev S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. Namangan. NamDU 2004
3. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar - T., 2001.
4. <https://lex.uz/ru/docs/6008663>
5. Rahmonova, M. (2024). Badiiy gimnastikada akrobatika mashqlarining rivojlanishi. Research and implementation, 2(5), 129-133.
6. Rahmonova, M. (2024). BADIY GIMNASTIKAGA QIZLARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI. Research and implementation, 2(6), 68-72.
7. Rahmonova, M. (2024). BOLALAR GIMNASTIKASIDA JISMONIY EGILUVCHANLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH. Research and implementation, 2(6), 64-67.
8. Рахмонова, М. (2023, November). ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ДЕВУШЕК К СПОРТИВНОЙ ГИМНАСТИКЕ. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".

## УЙ ҚАМОҒИ ТАРЗИДАГИ ЭҲТИЁТ ЧОРАСИ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ОҚИБАТЛАРИ

**Валижонов Исомиддин Исроилжон ўғли**

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 311-гуруҳ курсанти,*

**Саматов Саматжон Кодир ўғли**

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 311-гуруҳ курсанти,*

**Аннотация:** *Мазкур мақолада уй қамоғи эҳтиёт чораси, ушбу эҳтиёт чорасини қўлланиши, уй қамоғи эҳтиёт чораси қўлланилганда юзага келадиган ҳуқуқий оқибатлар, ушбу эҳтиёт чорасини қўлланишининг ўзига хос хусусиятлари, хорижий давлатларнинг илгор тажрибаси ҳамда фаолиятни такомиллаштириши йўналишлари ёритиб ўтилган.*

**Калит сўзлар:** *статистика, эҳтиёт чораси, эҳтиёт чоралари турлари, уй қамоғи, уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасида назарда тутилган чекловлар, уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллашга доир асосий процессуал қоидалар, хорижий тажрибалар.*

**Ключевые слова:** *статистика, мера пресечения, виды мер пресечения, домашний арест, ограничения, предусмотренные мерой пресечения в виде домашнего ареста, основные процессуальные правила применения меры пресечения в виде домашнего ареста, зарубежный опыт.*

**Key words:** *statistics, preventive measure, types of preventive measures, house arrest, restrictions provided for precautionary measures in the form of house arrest, main procedural rules for applying precautionary measures in the form of house arrest, foreign experiences.*

Бугунги кунда жамиятда барқарорлик, тинчлик ва осойишталикни қарор топтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларига оғишмай риоя этилишини таъминлаш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан янада ривожлан-тириш, аҳолининг фаровонлигини юксалтириш, ҳуқуқий демократик давлат куриш борасида амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлардан қўзланган мақсадларга эришишнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Суд-ҳуқуқ тизимини янада ислох қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони мазкур соҳадаги давлат сиёсатини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариб, қуйидаги учта асосий устувор йўналишларни белгилаб берди:

– фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга тажовуз қилиш ҳолатлари юзасидан барча зарур чораларни кўриш, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш тартибини бузиш ва сансалорликка йўл қўймаслик;

– тегишли ахборотни ўз вақтида жамоатчиликка етказиш орқали фаолиятнинг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ҳамда аҳоли билан ҳамкорлик самарадорлигини ошириш;

– ҳуқуқни қўллаш амалиёти ва амалдаги қонунчиликни такомиллаштириш орқали тизимли камчилик ва қонунбузилишларни аниқлаш ва бартараф этиш, иш фаолиятига илғор илмий-техника воситалари ҳамда ахборот-коммуникация технологияларини жорий қилиш .

Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқий-демократик давлат ва фуқаролик жамияти қуришнинг ҳуқуқий асосларини шакллантириш, энг аввало, ҳаётнинг барча соҳаларини қамраб олувчи ҳамда тартибга солувчи қонунларни ишлаб чиқиш ва амалга татбиқ этиш, шу қаторда ушбу соҳада ислохотларни амалга оширилиши кенг қўламда олиб борилмоқда.

Барча соҳалардаги қонунларни ишлаб чиқишда энг аввало инсон манфаатларини кўзлаш, уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратиш мамлакатмизда олиб борилаётган сиёсатнинг устувор йўналишларидан биридир. Шу муносабат билан қонунчилигидаги ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш жараёнида жиноят содир этган шахсларни жиноят ишларини юритиш жараёнида қамоқ эҳтиёт чораси эмас балки жамиятдан ажратмаган ҳолда эҳтиёт чораларини қўлланилиши номалари такомиллаштирилди.

Уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чораларини қўллашнинг тартиби, қамоққа олиш ҳамда эҳтиёт чоралари тизимига янгидан жорий этилган уй қамоғи эҳтиёт чораларини қўллашнинг процессуал тартиби бўлгани каби уларни назорат қилиш усуллари ҳам ўзига хос хусусиятлари билан фарқланади.

Суднинг уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш тўғрисидаги ажрими асосида ушбу чора қўлланилган шахсни назорат қилиш заруратини келтириб чиқаради.

Уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чораси қўлланиладиган шахсни назорат қилиш ҳудуд профилактика инспекторлари зиммасига юклатилади. Уй қамоғи тарзидаги шахсларни назорат қилиш профилактика инспекторидан катта маъсулият талаб этади. Шу боисдан профилактика инспектори уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўлланилишининг мақсади ва вазифасини билиши, шахснинг ўзига хос хусусиятларини ва у томонидан содир этилган жиноятни ўрганиши ҳамда назорат қилиш жараёнида инобатга олган ҳолда белгиланган тақиқларга риоя этаётганлигини назорат қилиши лозим.

Уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чораси бошқа эҳтиёт чоралари каби айбланувчи, судланувчи суриштирувдан, дастлабки терговдан ва суддан бўйин товлаши, келгусида жиноий фаолиятини давом эттирмаслигига йўл қўймаслик, иш бўйича ҳақиқатни аниқлашга ҳалал берадиган уринишларга йўл қўймаслик, ҳукмнинг ижро этилишини таъминлаш мақсадида қўлланилади.

“Эҳтиёт чораси айбланувчи, судланувчи суриштирувдан, дастлабки терговдан ва суддан бўйин товланининг олдини олиш; унинг бундан буёнги жиноий фаолиятининг олдини олиш; унинг иш бўйича ҳақиқатни аниқлашга ҳалал берадиган уринишларига йўл қўймаслик; ҳукмнинг ижро этилишини таъминлаш мақсадида қўлланилади”.

Эҳтиёт чораларига қуйидагилар киради: муносиб хулқ-атворда бўлиш тўғрисида тилхат; шахсий кафиллик, жамоат бирлашмаси ва жамоанинг кафиллиги; гаров; уй қамоғи; қамоққа олиш; вояга етмаганларни кузатув остига олиш учун топшириш; ҳарбий хизматчининг хулқ-атвори устидан қўмондонлик кузатуви. Бир шахсга нисбатан бир вақтнинг ўзида ана шу чоралардан фақат биттаси қўлланилишига йўл қўйилади.

Эҳтиёт чораси айбланувчига, судланувчига, маҳкумга ва ақли норасо деб эътироф этилган ёки жиноят содир этганидан сўнг рухий касалликка чалинган шахсларга нисбатангина қўлланилиши мумкин.

Уй қамоғи – гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчининг жамиятдан тўлиқ ёки қисман ажратилган холда, ўзи мулкдор, ижарага олувчи сифатида ёки бошқа қонуний асосларда яшаб турган турар жойда тақиқлар (чекловлар) юклатилган шу билан бирга унинг устидан назорат амалга оширилган холда бўлишдир.

Жумладан ЖПКга янги 2421-моддаси киритилиб, унда уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллашга доир асосий процессуал қоидалар белгилаб қўйилди. Унга кўра уй қамоғи эҳтиёт чораси гумон қилинувчига, айбланувчига ёки судланувчига нисбатан қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини танлаш учун асослар мавжуд бўлганида унинг ёшини, соғлиғи ҳолатини, оилавий аҳолини ва бошқа ҳолатларни ҳисобга олган холда қамоққа олиш мақсадга мувофиқ деб топилган тақдирда қўлланилади.

Уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини танлаш тўғрисидаги қарорда гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчи дучор қилинадиган озодлик бўйича аниқ тақиқлар (чекловлар) шунингдек ўрнатилган тақиқларга риоя этилиши устидан назоратни амалга ошириш зиммасига юклатилаётган орган кўрсатилади.

Ушбу моддада ўзига нисбатан уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чораси танланган шахсга нисбатан қўлланилиши мумкин бўлган қуйидаги тақиқлар (чекловлар) назарда тутилган:

- муаёян шахслар билан алоқада бўлиш;
- хат-хабар олиш ва жўнатиш;
- хар қандай алоқа восталаридан фойдаланиш ва улар ёрдамида;

– сўзлашувлар олиб бориш;

– уй-жойни тарк этиш.

Уй қамоғи бўйича қўшимча тақиқлар (чекловлар) белгилаш тўғрисидаги илтимоснома жиноят-процессуал кодекси 243-моддасининг бешинчи, олтинчи ва еттинчи қисмларида назарда тутилган тартибда тегишли суднинг судьяси томонидан кўриб чиқилади.

Уй қамоғи бўйича қўшимча тақиқлар (чекловлар) белгилаш тўғрисидаги илтимосномани кўриб чиқиш прокурорнинг маърузаси билан бошланади, у қўшимча тақиқлар (чекловлар) белгилаш зарурлигини асослаб беради. Шундан сўнг гумон қилинувчи ёки айбланувчи, ҳимоячи, судда ҳозир бўлган бошқа шахслар эшитилади, тақдим этилган материаллар текширилади. Шундан кейин судья ажрим чиқариш учун алоҳида хонага киради.

Суд гумон қилинувчига ёки айбланувчига нисбатан уй қамоғи бўйича қўшимча тақиқлар (чекловлар) белгилаш тўғрисидаги илтимосномани кўриб чиқиб, қуйидаги ажримлардан бирини чиқаради.

Судьянинг уй қамоғи бўйича қўшимча тақиқ (чеклов) белгилаш ҳақидаги ёки қўшимча тақиқ (чеклов) белгилашни рад қилиш тўғрисидаги ажрими ўқиб эшиттирилган пайтдан эътиборан кучга киради ва дарҳол ижро этилиши лозим. Судьянинг ажрими ижро этиш учун прокурорга, маълумот учун эса — гумон қилинувчига, айбланувчига ва ҳимоячига юборилади. Судьянинг ажрими устидан Жиноят-процессуал кодекси 241-моддасининг иккинчи қисмида назарда тутилган қоидаларга биноан апелляция тартибида шикоят қилиниши, протест билдирилиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, инсон ҳақ-ҳуқуқлари ҳимоя қилиш борасида мамлакатимизда демократия сари қўйилган муҳим қадамлардан бири сифатида қонунчилик соҳасида жорий қилинган уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чораси билан боғлиқ масалаларда фуқароларнинг ушбу соҳадаги билими, ҳуқуқий онги алоҳида ўрин тутди. Демократик жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятининг юксак бўлиши қонунийликни таъминлашда алоҳида ўрин эгаллайди.

Қонунийлик эса жамиятда барқарорлик, тинчлик ва осойишталикни қарор топтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларига оғишмай риоя этилишини таъминлаш, мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий жихатдан янада ривожлантириш, аҳолининг фаровонлигини юксалтириш, ҳуқуқий демократик давлат куриш борасида амалага оширилаётган кенг қўламли ислохотлардан кўзланган мақсадларга эришишга хизмат қилади.

---

**ФОЙДАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процессеул кодекси. Т. Адолат. 2022
3. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида. ЎРҚ-345-сон.
4. Ш.М. Мирзиёевнинг "Суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чоратадбирлари тўғрисида"ги Фармонга шарҳи Т. 2016 йил 21 октябр
5. А.А. Султонов «Уй қамоғи эҳтиёт чорасини қўллашнинг процессуал тартиби» Тошкент-2017
6. [http:// akadmvd.uz](http://akadmvd.uz) (Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси)
7. <http://lex.uz> (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси)
8. [http:// www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz) (Ахборот таълим тармоғи)
9. <http://www.tsul.uz> (Тошкент Давлат Юридик Университети)
10. <http://book.uz>.



**ВЕТЕРНАРИЯ-САНИТАРИЯ ҚОИДАЛАРИ ВА НОРМАЛАРИНИ  
БУЗИШ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРИНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИНИ  
ТАШКИЛ ЭТИШ****Саматов Абдулазиз Муроджон-ўғли***ИИВ Академияси 312-гуруҳ курсанти***Саматов Саматжон Кодир ўғли***Ўзбекистон Республикаси ИИВ**Академияси 311-гуруҳ курсанти*

**Аннотация:** *Профилактика инспекторининг ветеринария-санитария ҳуқуқбузарликларни кўриб чиқиши жараёнида бошқа давлат органлари билан ҳамкорликдаги фаоляти, унинг тушунчаси, асосий йўналишлари, ўзига хос хусусиятлари, ташкилий-ҳуқуқий асослари, ушбу йўналишдаги хорижий давлатларнинг илгор иш тажрибалари ёритилган, профилактика инспекторининг маъмурий ҳуқуқбузарликларни кўриб чиқиши жараёнида бошқа давлат органлари билан ҳамкорликдаги фаолятида мавжуд муаммолар таҳлил қилинган ҳамда уларнинг ечимлари юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

**Калит сўзлар:** *ветеринария, санитария қоидалари ва нормалар, эпизоотия қарши тадбирлар, давлат санитария назорати. аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталиги, санитария-эпидемиологик вазият, санитария-эпидемиология хизмати, чекловчи тадбирлар, карантин.*

Аҳолининг тинч ва осойишта ҳаёт кечиришини таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка қарши курашиш, жамоат тартибини сақлаш ҳамда хавфсизлигини таъминлаш масалалари биринчи Президентимиз Ислон Каримов томонидан олиб борилган энг муҳим ва устувор йўналишлардан бири бўлган. Бунга биринчи Президентимиз томонидан ёзиб қолдирилган бир нечта асарларни яъни, “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”, “Юксак маънавият – енгилмас куч”, “Она юртимизнинг бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир” ва шу каби бошқа асарлари орқали, ўзбек халқига шундай мустақилликка эришиш, уни бутун дунё ҳамжамиятида ўз ўрнини топишида ҳаётининг сўнгига қадар амалга оширган ислохотларида бунинг яққол мислини кўрсатиб бўлади. Президентимиз Ш.Мирзиёев ҳам илк бор 2016 йил 4 декабрь куни Президент этиб тайинланганларида биринчи Президентимиз Ислон Каримов олиб борган ислохотларни давом эттириш мақсадида, халқ манфаатлари йўлида, уларнинг дарду-ғами, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний мафаатларини амалга оширишда жамиятнинг барча жабхаларида бир қатор ислохотлар олиб борилди. Бевосита бу ислохотлар Ички ишлар органларида ҳам амалга оширилди. Чунки кекса отахонларимиз, ҳар доим дуога қўл очганларида оллоҳдан сиҳат-саломатлик ҳамда юрт тинчлиги йўлида эзгу ниятлар билдирадидилар. Шундай экан биринчи навбатда юртда тинчлик бўлиб халқимизнинг саломатлиги бўйича ҳеч қандай дарду ғамлари бўлмаса, шунда халқ давлатдан рози бўлади ҳамда юртда тинчлик фаровонлик қарор топади.

Профилактика инспекторларининг ветеринария-санитария соҳасидаги ҳуқуқбузарлик ишларини юритиш фаолиятининг аҳамияти унинг асосий вазифаларини қай даражада ҳал этилишига боғлиқдир. Бу борада ушбу фаолиятнинг олдида қуйидаги вазифалар белгиланганлигини кузатиш мумкин:

–ветеринария-санитария соҳасидаги ҳар бир ишнинг ҳолатини ўз вақтида, ҳар томонлама, тўла ва объектив равишда аниқлаб чиқиш;

–ветеринария-санитария соҳасидаги ишларни қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳал этиш;

–ветеринария-санитария соҳасида чиқарилган қонун ҳужжатларининг ижросини таъминлаш;

–ветеринария-санитария соҳасида ҳуқуқбузарликларнинг содир этиш сабабларини ва шарт-шароитларини аниқлаш;

–ветеринария-санитария соҳасидаги ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш;

–фуқароларни Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига риоя этиш руҳида тарбиялаш;

–ветеринария-санитария соҳасидаги ишларни кўриб чиқишда қонун устунлигини таъминлаш ва мустаҳкамлаш.

Профилактика инспекторлари тегишли қонун ва қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган талабларга мувофиқ, энг аввало ўз фаолиятини ветеринария-санитария соҳасидаги ҳуқуқбузарликнинг сабабларни ва келиб чиқиш механизмларини аниқлашдан бошлаши зарур.

Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 109-моддасида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 200-моддасида курсатилган нормалари бевосита профилактика инспекторлари томонидан ветеринария-санитария соҳасидаги ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, иш юритиш ва кўриб чиқиш бўйича фаолиятини белгилаб беради. Ветеринария-санитария соҳасидаги ишга оид далиллар ҳар қандай фактик маълумотлардан иборат бўлиб, профилактика инспектори томонидан шу маълумотларга асосланиб: а) ветеринария-санитария соҳасидаги ҳуқуқбузарлик ҳолати юз берган ёки бермаганлигини; б) муайян шахснинг уни содир этишда айбдор ёки айбдор эмаслигини; в) ишни тўғри кўриб чиқиш учун аҳамиятли бўлган бошқа ҳолатларни қонунда белгиланган тартибда аниқлайди. Ушбу маълумотлар қуйидаги воситалар: а) баённома; б) маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахснинг тушунтиришлари; в) жабрланувчи, гувоҳларнинг кўрсатувлари, эксперт хулосалари; г) ашёвий далиллар, ашёлар ва ҳужжатларни олиб қўйиш тўғрисидаги баённома; д) овозли ёзувлардан, видеоёзувлардан, кинотасвир ва фотосуратлардан иборат материаллар, шунингдек бошқа материаллар билан белгиланади. Профилактика инспекторлари томонидан ветеринария-санитария соҳасидаги ишларни кўриб чиқиш фаолияти бевосита ветеринария-санитария соҳасидаги ишларни юритиш юзасидан қонунда белгиланган вазифаларни таъминлашга қаратилган бўлиб, улар ҳар бир ишнинг ҳолатини ўз вақтида, ҳар томонлама, тўла ва объектив равишда аниқлаб чиқишдан, бу ишни қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳолда ҳал этишдан, чиқарилган қарорнинг ижросини таъминлашдан, шунингдек ветеринария-санитария соҳасидаги ҳуқуқбузарликларнинг содир этиш сабаблари ва бунга олиб келган шартшароитларни аниқлашдан,

хуқуқбузарликларнинг олдини олишдан фуқароларни Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига риоя этиш руҳида тарбиялашдан, қонунийликни мустаҳкамлашдан иборатдир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев:

“Хуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикаси бўйича ишлар асосан, содир этилган ғайриқонуний қилмишларнинг оқибатларига қарши курашишдан иборат бўлиб қолмоқда, хуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, уларни содир этиш сабаблари ва шарт-шароитларини чуқур таҳлил қилиш, аниқлаш ва бартараф этиш бўйича тизимли ва самарали чора-тадбирлар кўрилмаяпти; ўсиб келаётган авлодни бузғунчи ғоялардан ҳимоя қилишга, ёшлар жиноий фаолиятга, авваламбор, терроризм ва диний экстремизмга жалб этилишининг олдини олишга етарлича эътибор қаратилмаяпти, ички ишлар органларининг тарбиявий ўрни сезилмаяпти”, - деб таъкидлаб жиноятчиликка қарши кураш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан эканлигини кўрсатиб берди .

Юридик адабиётларда ветеринария-санитария соҳасидаги хуқуқбузарликларга оид ишларни кўриб чиқиш профилактика инспекторларининг бошқа давлат органлари билан ҳамкорликдаги фаолияти жиноятчиликка қарши курашишнинг асосий ва устувор йўналиши сифатида хуқуқий тартибга солинган бўлиб, уларни бир қатор гуруҳларга бўлиб ўрганиш мумкин<sup>2</sup>. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг норматив ҳужжатлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг қарорлари киради.

Ўтган давр мобайнида профилактика инспекторлари ветеринария-санитария соҳасидаги хуқуқбузарликлар ишларни кўриб чиқиш фаолияти ҳам бу жараёнда бошқа давлат органлари билан ҳамкорлигининг ташкилий-хуқуқий асослари яратилди. Республикамиз мустақиллигини мустаҳкамлаш мақсадида, минглаб қонунлар ва қонуности норматив-хуқуқий ҳужжатлари қабул қилингани баробарида, ветеринария-санитария соҳасидаги хуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш бўйича профилактика инспекторлари фаолияти ҳамкорлигини белгилаб берувчи хуқуқий асосларитакмиллаштирилиб борилмоқда. Ушбу хуқуқий асосларда профилактика инспекторларининг ҳамкорликдаги фаолиятининг энг асосий ва муҳим фаолият йўналишлари белгилаб берилди. Хусусан, профилактика инспекторларининг энг асосий фаолият йўналишларидан бири ветеринария-санитария соҳасидаги ишларни юритиш бўйича фаолияти бўлиб, унинг самарадорлиги бевосита бошқа давлат органлари билан ҳамкорликдаги фаолиятини қай даражада ташкил этилишига боғлиқдир.

**Фойдаланилган адабиёт:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.–Т.:Ўзбекистон, 2023
2. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хукукбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни.// URL: <http://www.lex.uz>.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон
5. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
6. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. *JournalNX*, 7(1), 311-314.
7. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The Pedagogical System Of Preparing Boys For Family Relationships In General Secondary Schools. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(8), 8.
8. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

**ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ  
ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ****Маҳмудов Муҳаммадқодир Қобилжон ўғли***Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси 306- гуруҳ курсанти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада профилактика инспекторининг ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикасини ташкил этишининг асосий йўналишлари, усул ва шакллари, илғор хорижий тажриба, ушбу йўналишдаги мавжуд муаммо ва камчиликлар ҳамда уларнинг ечимлари юзасидан таклиф ва тавсиялар ёритилган.

**Annotation:** This article has been carried on the importance of scientific research, the notion of the carrying process of prophylaxis inspector in terms of prevention of victims, and the condition of this process along with the role of prophylaxis inspector in this sphere. The constituting process of prophylaxis inspector in the condition of prevention of victims, and reinforcing requirements have been observed by using above mentioned standpoint.

Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонунида ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикаси бўйича чора-тадбирлар белгиланган бўлиб, улар қуйидагилар:

- ҳуқуқбузарликлардан жабрланишнинг сабаблари ва унга имкон берган шарт-шароитларни ўрганиш, таҳлил қилиш ҳамда жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган шахслар тоифаларини аниқлаш;

- ҳуқуқбузарликлардан жабрланганларнинг индивидуал ва ижтимоийпсихологик хусусиятларидан келиб чиқиб профилактика тадбирларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

- ҳуқуқбузарликлардан жабрланувчиларни ўз вақтида аниқлаш ва ҳимоя қилиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

- ҳуқуқбузарликлардан жабрланувчиларга ёрдам кўрсатувчи ихтисослаштирилган муассасаларни ташкил этиш бўйича асослантирилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш;

- ҳуқуқбузарликдан жабрланувчининг жисмоний ва психологик хавфсизлигини таъминлашга қаратилган махсус комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, шунингдек ишлаб чиқишда иштирок этиш ва амалга ошириш;

- ҳуқуқбузарликдан жабрланувчиларни умумий ва яқка тартибда қонунда назарда тутилган ўзини ўзи мудофаа қилиш усуллари ва воситалари тўғрисида хабардор қилиш;

- ғайриижтимоий хулқ-атвор нисбатан тез-тез кузатиладиган ёки ҳуқуқбузарликлар тез-тез содир бўлиб турадиган жойларга (ҳудудларга) патрульпост хизмати ва жамоат тартибини сақлаш хизматини жалб этиш;

- ҳужум қилинган тақдирда зарурий мудофаа ва охирги зарурат чегаралари ҳақидаги маълумотларни тарғибот-ташвиқот қилиш орқали аҳолида қилинган ҳужумни бартараф этиш кўникмаларини шакллантириш;

- ғайриижтимоий хулқ-атвор, тайёрланаётган, содир этилаётган ёки содир этилган ҳуқуқбузарликлар тўғрисида ахборотни тезкорлик билан олиш, уларни бартараф этиш;

- ички ишлар органларида ташкил этилган жаҳон Интернет ахборот тармоғида веб-сайтлар, блоглар, чатлардаги маълумотларни ўз вақтида ўрганиб чиқиш, таҳлил қилиш;

- профилактика дастури ва тадбири лойиҳаларининг оммавий муҳокамаларини ташкил этиш, уларни амалга ошириш жараёнидаги мавжуд муаммолар ва камчиликларни аниқлаб, бартараф этиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш;

- ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг замонавий усуллариغا доир электрон адабиётларни яратиш ҳамда тарқатиш;

- ҳуқуқбузарликларни содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт шaroитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимномалар киритиш ва бошқа чора тадбирлардан иборат.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид давлат дастурларини ва бошқа дастурларни ишлаб чиқилиши.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2017 йил 25 августдаги “Ички ишлар органлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида”ги 191–сонли буйруғида ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир тасдиқланган давлат дастурлари асосида Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг идоравий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишини ташкиллаштириш вазирлик ташкилий инспекторлик ва ахборот таҳлил бош бошқармаси томонидан амалга оширилади ҳамда прокуратура органлари ҳузуридаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича мувофиқлаштирувчи кенгашлар билан ҳамкорлик таъминланади.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид ҳудудий дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга оширилишини ташкиллаштириш Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси ва вилоятлар Ички ишлар бошқармалари томонидан амалга оширилади ҳамда прокуратура ҳузуридаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича мувофиқлаштирувчи кенгашлар билан ҳамкорлик қилинади.

Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир идоравий дастури асосида вазирлик соҳавий хизматлари ўз дастурларини ишлаб чиқиши мумкинлиги белгилаб ўтилган.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш юзасидан вазирликда идоравий дастур ишлаб чиқилиб тасдиқланади ҳамда ижро этиш учун ҳудудий ички ишлар органларига юборилиши мумкин.

Ҳуқуқбузарликларнинг виқтимологик профилактикаси юзасидан вазирликнинг идоравий дастури асосида соҳавий хизматлар ҳамда жойлардаги Ички ишлар органлари ҳам ўз дастурларини ишлаб чиқишлари мумкин.

Тасдиқланган дастурлар ижросини таъминлаш мақсадида Ички ишлар органларида ишчи гуруҳлар ташкил этилиши мумкин. Ишчи гуруҳлар дастурда белгиланган тадбирлар ижросини мониторинг қилиб боради ва натижаларини таҳлил

қилади. Шунингдек, ижросини таъминлаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ҳамда ҳисоботлар тайёрлайди<sup>1</sup>.

Аҳоли орасида ҳуқуқий тарғибот.

Ички ишлар органлари шу жумладан профилактика инспекторлари ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикасини оммавий ахборот воситаларида чиқишлар қилиш, конференциялар, давра суҳбатлари, илмий амалий семинарлар ва учрашувлар ташкил этиш, аҳоли гавжум жойларида ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикаси мазмунига эга бўлган плакатлар, эълонлар ўрнатиш, видео рўликлар намоиш қилиш, огоҳликка чақирувчи овозли матинни эшиттириш каби чора-тадбирлар асосида малга оширади.

Ички ишлар органлари хусусан профилактика инспектори ўз хизмат фаолияти йўналишлари бўйича виктимологик профилактика ишларини олиб боради. Виктимологик профилактика олиб бориш юзасидан ташкил этилган тадбирларга бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларни белгиланган тартибда жалб этиши мумкин.

Ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикаси қуйидаги шаклларда амалга оширилади:

- оғзаки; ёзма; кўргазмали; электрон.

Оғзаки шаклнинг қуйидаги кўринишлари мавжуд:

- а) маърузали ҳуқуқий тарғибот;
- б) илмий амалий конференциялар;
- в) давра суҳбатлари;
- г) семинарлар;
- д) ҳуқуқий учрашувлар;
- е) телерадио орқали ҳуқуқий мазмундаги эшиттиришлар.

Ёзма шаклда:

2. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг Ички ишлар органлари ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақидаги 191 сонли буйруғи.Т.2017 йил 25 август

- а) дарсликлар;
- б) ўқув услубий қўлланмалар;
- в) рисола ва савол жавоб шарҳловчи қўлланмалар;
- г) маъруза ва мақолалардан иборат тўпламлар;
- д) қонун ҳужжатлар тўпламлари
- е) оммабоп газета ва журналларда ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикасига хизмат қилувчи мақолалар; Кўргазмали шакл:

а) телевидения орқали виктимологик профилактикасига оид телекўрсатувлар, виктимологик профилактика масалаларига бағишланган ҳамда шахсларда ҳуқуқбузарликдан жабрланувчига айланиши хавфини камайтиришга қаратилган, кинофилмлар намоиш этиш;

б) буклетлар ва плакатлар орқали турли мазмундаги ҳуқуқбузарликдан жабрланган ёхуд фуқароларни огоҳликка чақирувчи ҳуқуқий мазмундаги реклама роликлар орқали аҳолининг ҳуқуқбузарликдан жабрланувчига айланиши хавфини камайтиришга қаратилган ишлар амалга оширадилар.

Профилактика инспекторлари ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикасини маҳалла фуқаролар йиғинларни, жамоатчилик инситутлари, нодавлат нотижорат ташкилотлар оммавий ахборот вситалари, бошқа орган ва сохавий хизматлар билан ҳамкорликда амалга оширишлари мумкин. Профилактика инспекторлари ўтказилган виктимологикага оид тарғиботларни баённомаларга расмийлаштириб бориб уларни ўз хисоботларида кўрсатиб борадилар. Баённомалар расмийлаштирилганда баённомага фото, видео тасмалар илова қилиниши мумкин. Виктимологик профилактикага оид тарғибот баённомалари расмийлаштирилиб ички ишлар органлари

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлимига топширилади. Ушбу баённомалар Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлимида йиғилиб уларни статистикаси юритилади.

Тақдимномалар:

Профилактика инспекторлари муайян шахсда ғайриижтимоий хулқ атворнинг шаклланишига ёки муайян ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишига, шунингдек бир гуруҳ шахсларда ғайриижтимоий хулқ-атворнинг шаклланишига ёки алоҳида турдаги ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишига тутки бўлган сабабларни ва уларга имкон бераётган шарт-шароитни аниқлайдилар, уларни бартараф этиш юзасидан вазирликлар, қўмиталар, идоралар. корхоналар, муассасалар, ташкилотлар ҳамда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига тақдимномалар киритади.

Ҳуқуқбузарликларнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилиш тўғрисидаги тақдимномалар Ҳуқуқбузарликларнинг турига қараб 2 га бўлишимиз мумкин.

Маъмурий ҳуқуқбузарликлар олдини олиш бўйича, Ўзбекистон

Республикаси Маъмурий Жавобгарлик тўғрисидаги Кодексининг 313-моддасига биноан ишни кўриб чиқувчи орган (мансабдор шахс) хусусан профилактика инспектори маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этиш сабаблари ва уларга имкон берган шарт-шароитларни аниқлаганда бу сабаблар ва шартшароитларни бартараф қилиш юзасидан чоралар кўриш тўғрисидаги тақдимномани тегишли корхона, муассаса, ташкилот раҳбарига киритади. Раҳбар тақдимнома келиб тушган кундан бошлаб бир ой ичида уни киритган органга (мансабдор шахс) га кўрилган чоралар тўғрисида маълум қилиши шарт .

Жиноятнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шартшароитларни бартараф қилиш бўйича, Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал Кодексининг 297-моддага биноан Жиноятнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилиш тўғрисида суриштирувчининг, терговчининг, прокурорнинг тақдимномаси. Суриштирувчи, терговчи, прокурор жиноят ишини тергов қилиш чоғида жиноятнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шартшароитларни аниқлаб чиқиб, тегишли давлат органига, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органига, жамоат бирлашмасига, жамоага ёки мансабдор шахсга ана шу сабаб ва шарт-шароитларни бартараф қилиш чораларини кўриш тўғрисида тақдимнома киритади. Тақдимноманинг нусхаси ишга қўшиб қўйилади.



1. Ушбу Кодекснинг 196-моддасига мувофиқ ҳуқуқбузарликларнинг содир этиш сабабларини ҳамда уни содир этишга олиб келувчи шарт-шароитларни бартараф этиш юзасидан Ички ишлар органларининг ёзма тақдимномаларини бажариш чораларини кўрмаслик, мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг икки бараваридан беш бараваригача жарима солишига сабаб бўлиши белгилаб қўйилган<sup>12</sup>.

Маҳалла фуқаролар йиғини йиғилиш муҳокама баённомалари.

Профилактика инспекторлари маъмурий ҳудудда ҳуқуқбузарликларни олдини олиш, бартараф этиш, ҳуқуқбузарликлар содир этилиш сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш, ҳуқуқбузарлик, жиноят содир этиб жазони ижро этиш муассасасаларидан бўшатишган шахслар, ҳуқуқбузарлик ва жиноят содир этишга мойил бўлган шахсларни келгусида ҳуқуқбузарлик ва жиноятлар содир этишларини олдини олиш, жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормаларига оғишмай риоя қилишларини таъминлаш мақсадида, ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикаси чоратадбирларидан келиб чиқиб, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари билан биргаликда маҳаллаларда йиғилиш муҳокамаларида иштирок этиб, йиғилиш баённомасини тузишда иштирок этади.

2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал Кодекси. Адолат. 2021.

1 Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекси. Адолат. 2021.

Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг Ички ишлар органлари ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақидаги 191 сонли буйруғи. Т.2017 йил 25 август

Маҳалла фуқаролар йиғини йиғилишда ҳуқуқбузарликларни олдини олишга қаратилган баённомасини тузишда қуйидаги шахслар иштирок этади: Маҳалла фуқаролар йиғини (оқсоқоли) раиси, унинг котиби, маслахатчилари, профилактика инспектори, жамоатчилик вакиллари, маҳалла фаоллари ва бошқа шахслар иштирок этиши мумкин. Маҳалла фуқаролар йиғини ҳуқуқбузарликларни олдини олишга қаратилган баённомада кун тартибига қўйилган муҳокама юзасидан юқоридаги шахслар ўз фикр мулохазаларини ва таклифларини берадилар. Йиғилиш муҳокамаси маҳалла раиси томонидан олиб борилади. Йиғилиш муҳокамасида кун тартибидаги масала юзасидан муҳокамада иштирок этаётган шахсларнинг фикрлари эшитилиб якуни бўйича қарор қабул қилинади ва тегишли шахслар томонидан имзоланади.

Профилактика инспекторининг кунлик иш юритув режаси.

Профилактика инспекторлари ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикасини амалга ошириш ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилиш фаолиятини янада такомиллаштириш учун ўзининг кунлик иш юритув режаларини расмийлаштириб боради.

Кунлик иш юритув режасини тузиш тартиби қуйидагича:

Профилактика инспекторлари кунлик иш юритув режасини жадвал кўринишида икки қисмга ажратилиб чизилади. Биринчи қисмида ўтган сутка давомида маъмурий ҳудуддаги ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, криминоген вазиятни таҳлилидан келиб чиқиб, раҳбарнинг кўрсатмаси асосида вазифалар белгиланади. Иккинчи қисмида эрталабки йўриқномада ички ишлар бўлими навбатчилик қисми тезкор навбатчи

инспектори томонидан етказиладиган хабарлар туман ҳудудидаги тезкор вазият ҳақидаги маълумотлар, раҳбариятнинг кўшимча кўрсатмаларини ёзиш учун бўш қолдирилади. Кун давомида бевосита раҳбарият томонидан ёки шунингдек, алоқа воситалари орқали кўпинча етказиладиган турли тезкор профилактик маълумотлар ҳам иккинчи қисмда қайд этилади.

Кунлик иш юритув режа лойихаси ИИБ ХПБ бошлиғи ёки унинг ўринбосари томонидан эрталабки йўриқнома даврида тасдиқланади.

Режалаштирилган тадбирлар бирор бир сабабларга кўра амалга оширилмай қолган холларда тадбир кейинги кун режа лойихасига киритилади.

Кунлик иш юритув режаси, иш кунининг тугаши, режада бажарилиши кўзда тутилган вазифаларнинг қай даражада бажарилганлиги ҳақидаги қисқача маълумотнома ёзиш орқали яқунланади.

Профилактика инспекторининг кунлик иш режалари вароқлари рақамланиб, тикилган ва муҳрланган профилактика инспекторининг имзоси билан тасдиқланган битта катта дафтарга тузилади.

### Фойдаланилган адабийотлар:

2.3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал Кодекси. Расмий нашр. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 2020 й.

2.4. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекси. – Т.: Расмий нашр. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 2020 й.

2.5. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 май қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2014. – № 20. – 221-м.

2.6. Ўзбекистон Республикасининг «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги 2016 йил 16 сентябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2016. – № 38. – 438-м.

2.7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2022. – № 6. – 70-м.

2.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва ҳуқуқбузарликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2833-сонли Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.–2017.– № 12.– 134-м.

2.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6196-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й

2.10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги «Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-

тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-2883-сонли Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.–2017.– № 15.– 247-м\.

2.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ2896-сонли Қарор// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017.-№ 17.-249-м.

2.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сонли фармони.Т.:2021 й.

2.14. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги 2017 йил 11 сентябрдаги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2011.

2.15. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги 2017 йил 3 январь қонуни. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. ЎРҚ-419-сон.

2.14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли Фармони (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) 18.02.2020 й.

2.15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сонли Қарори.

---

**ANALYSIS OF MODERN METHODS OF EFFECTIVE USE OF RAW MATERIAL RESOURCES****Olimova Dilnavoz Rajabovna***Graduate student of Asian International University*

**Abstract.** *Raw material consumption refers to the raw material that is used – or consumed – during a production cycle or any defined period of time. It's an important metric for manufacturers to track, especially when it comes to material management and waste management. Raw materials are the sources of nutrients on which the development of the functional foods and nutraceuticals is based. The main criterion for the applicability of a particular type of raw material is the availability of its complete and accurate specifications from the standpoint of quality, safety, and authenticity. Raw materials are used in a multitude of products and can take many different forms. Raw materials are the input goods or inventory that a company needs to manufacture its products. For example, the steel used to manufacture vehicles would be a raw material for an automobile manufacturer.*

**Key Words:** *raw materials, economic condition, performing works, assembly of parts, agricultural produce, semi-finished products, technical dependency, management decision.*

**Introduction.** Current economic conditions, based on the laws of the market, laws of supply and demand and competition, force Ukrainian enterprises to adapt quickly to changes in the market environment and avoid unreasonable risk making managerial decisions as for the use of all available production resources and in particular material. Any household decision is evaluated by their final result, which is profit. One of the main factors affecting the profit is the level of material stocks. Revenues from sales and profit appear only when the subjects of labor used in the production, transfer their value to the cost of manufactured product and find the final user. Therefore, stable supply of material resources is a precondition for the functioning and development of any company.

Stocks, according to the principle (standard) of accounting (P(S)A) №9 "Stocks", an asset is recognized if it is probable that the company / institution will receive future economic benefits associated with their use, and their value can be reliably measured. For accounting purposes, stocks include:

- raw materials, basic and additional materials, components and other tangible assets intended for the production of goods, performing works, rendering services, distribution, transmission, service of production and administrative needs;

- unfinished production in the form of not completed processing and assembly of parts, components, products and unfinished technological processes. Unfinished production at enterprises, institutions, performing works and rendering services consists of expenses to perform unfinished works (services) as for which enterprise institution did not acknowledged revenue;

- 
- finished products produced by the company, institution intended for sale and which meets technical and quality characteristics foreseen by the contract or other normative and legal act;
  - goods in the form of tangible assets, purchased (received) and held by enterprise / institution for the purpose of further sale;
  - low value items used for up to one year or a normal operating cycle, if longer than one year;
  - current biological assets, assessed by P(S)A №9, agricultural produce and forest products after its initial recognition.

An important condition for enterprise development and intensification of production is stable supply of material resources (material current assets) and its efficient use. This is because the cost of material resources makes a significant share in expenses of production, respectively, saving and rational use of raw materials, semi-finished products or components helps to improve the financial situation of the company.

Impact of material resources on enterprises' results on production is determined using the method of factor analysis. The impact of the efficiency of material resources usage on the scope of produced production determine with different levels of detailing. Factor of the first level is change of material expenses and effectiveness of their use (or material return or material capacity). An important role in the fulfillment of analysis efficiency of the effectiveness of material resources usage has the content and quality of information base of analytical research. To information sources of material resources analysis include: planned, accounting and reporting and not accounting documents. Planned information for assessing the supply of enterprise needs in material resources is contained in the prospective and current plans of material and technical supply, specifications, planned cost estimates of products and so on. Planned data is used for the analysis of enterprise supply by tangible assets: planned stocks' scopes and flow volumes (portfolio of orders), contracts, agreements for the supply of raw materials.

Raw material criticality is the field of study that evaluates the economic and technical dependency on a certain material, as well as the probability of supply disruptions, for a defined stakeholder group within a certain time frame. Criticality assessments play an indispensable role for industry and policymakers alike, e.g., in material selection, product and process design, investment decisions, trade agreements, collaboration strategies, as well as in the prioritization of research projects, policy agendas, and undertakings towards increasing transparency in value chains.

Determination of absolute and relative deviation of actual value of material resources from estimated (planned) cost or cost of prior periods in general for enterprise or for certain types characterize the tendency of their changes. The composition and structure of material resources depend on the industry to which the enterprise belongs; type of product which it produces and features of material and technical supply. The composition of material resources is their distribution into separate groups and types, and structure is a quantitative ratio between cost of certain groups and types of material resources in their total cost. Analysis of composition and structure of material resources allows identifying: what deficit and expensive materials enterprise uses; consumption of which of them is dominant in the production of a specific type of product; whether products differ by material capacity. To do

this, calculate the following indicators: the share of material expenses (cost of material resources) in total expenses on production; share of certain types of material resources, mostly raw materials, basic materials, fuel, energy in their total cost; the share of material expenses on production of certain products in their total cost and its change for the analyzed period. This retrospective analysis makes it impossible to draw conclusions about the completeness of enterprise needs in material resources coverage, that's why it is important to pay attention to the correct calculation of planned need, level of need fulfillment according to concluded contracts for the supply of material resources, their actual implementation.

A more detailed analysis foresees the characteristics of sources of need coverage (both external and internal). External sources include supply under concluded contracts, and internal – reducing materials waste, use of recycled materials, own manufacture of semi production, introduction of advanced energy-saving technologies. The real need for the acquisition of materials is defined as the difference between total demand in a certain kind of material resources and the possibility of covering from internal sources. Obviously, the accuracy of defining internal sources predetermines objectivity of calculating the need in external sources.

Sources of material resources inflow may be commodity and raw materials exchange, other enterprises as well as own production and wastes usage. Analysis of plan fulfillment on logistics analyzes to determine the correctness of the determination of needs in material resources. Needs should be determined on the basis of data on planned production volumes, norms and standards of expenses and stocks. The real need in external material resources is defined as the difference between the total need in materials and the amount of own internal sources of coverage.

As a result of replacing one material by another appears the difference in norms of these materials use for production. To calculate the loss of the company as a result of this change, it is necessary to multiply material overspending per unit by the actual volume of output from this material and by the price of the unit of material. In addition, other materials (not foreseen in the contract) may require additional processing, which, in turn, involves additional labor costs, which are calculated by multiplying wages per unit of processed materials by the quantity of these materials. The resulting amount should multiply by percentage of charges on social needs. Replacing one material by another also foresees the difference in price of these materials. Losses caused by increase of prices on materials are determined by multiplying difference in price by the quantity of replaced material. Material resources of the enterprise are in constant motion: they come to the warehouse from suppliers and then transfer them to production, where gradually, during processing, they take the form of finished products.

In the analysis of material resources, a great importance has determination of the limit, further which it is not reasonable to dismember a study of the general in order to avoid losing of its specificity. In this regard, the limit of the analysis of effective use of material resources is usually defined by its goals and objectives, and program and content of analysis by features of researched object and its target orientation.

Objective of the analysis of effective use of material resources is to obtain the most informative key parameters that give an objective and accurate assessment of the

availability of different types of material resources at enterprise in terms of ensuring its competitiveness, enabling assessment of the effectiveness of management decisions as for portfolio of orders for material resources, identifying reserves of increase the efficiency of resource usage, development of measures for their mobilization.

Conclusion. The rational management of material resources is one of the reserves to reduce the cost of products, and therefore a factor in increasing profits and profitability at the enterprise. In addition, the efficient management of material resources movement provides the enterprise with additional benefits such as reducing production downtime, creating adequate reserves of stocks to ensure its rhythm, minimizing losses from freezing funds in inventories, saving costs from the proper use of storage facilities, etc. That is, effective management of material resources creates real preconditions for economic growth and determines the competitiveness of industrial enterprises.

#### REFERENCES:

1. P(S)A № 9 "Stocks": order of the Ministry of Finance of Ukraine from 20.10.1999. №246. [in Ukrainian]
2. Bubela, A.V. (2013). Research of inventory management. *Visnyk Natsionalnoho transportnoho universytetu*, vol. 26, part 2, 68-72. [in Ukrainian]
3. Kasych, A.O., & Chubka, O.Y. (2015). Ways to reduce material consumption and product profitability wagons enterprises. *Naukovyi visnyk Khersonskoho derzhavnoho universytetu. Ekonomichni nauky*, 10, 99-103.
4. Orlova, V.S. (2014). Search for reserves to reduce material costs. *Molodyj vchenyj*, 4-2(63), 141–143.
5. Kolmakova, O.M., & Brjukhovetska, T.V. (2018). Factors affecting the efficiency of material resources in the enterprise and ways to increase it. *Molodyj vchenyj*, 5.1 (57.1), 42-45.
6. Kashchena, N.B., & Zukonova O.V. (2011). Improvement of the method of analysis of the manufacturer of stocks of the enterprise. *Economic strategy and prospects for development of trade and services*, 2, 128-135.

## ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА ПРОФИЛАКТИК СУХБАТНИ АХАМИЯТИ

Ахмадов Элбек Суннатулло ўғли

Ички ишлар вазирлиги Академияси

3-ўқув курси курсанти

**Аннотатсия.** Ушбу мақолада тадқиқот мавзусининг долзарблиги, профилактика инспекторларининг профилактика суҳбатини амалга ошириш тушунчаси, бугунги кундаги ҳолати, профилактика инспекторларининг профилактика суҳбатини амалга ошириш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, профилактика инспекторларининг профилактика суҳбатини амалга оширишни қўллашнинг амалёти таҳлили ҳамда ушбу фаолият доирасида юритиладиган процессуал хужжатлар, ҳамда ҳуқуқбузарликлар профилактикасида профилактика инспекторларининг профилактика суҳбатини амалга ошириш фаолиятининг ташкилий ҳуқуқий асослари, шунингдек юқорида кўрсатиб ўтилган жиҳатлардан фойдаланган ҳолда ушбу фаолиятни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари ёритиб ўтилган.

**Annotation.** In this article, the relevance of the research topic, the concept of prevention interview of prevention inspectors, the current situation, the specific features of the activity of prevention inspectors, implementation of prevention interview, the analysis of the practice of implementation of prevention interview of prevention inspectors, procedural documents conducted within the scope of this activity, and prevention in the prevention of crimes. The organizational and legal basis of the activity of conducting preventive interviews of inspectors, as well as the main directions of improvement of this activity using the above-mentioned aspects, are highlighted.

### Кириш.

Бугунги кунда кенг қўламли ислохотлар жараёнида ички ишлар идоралари ходимларини халққа яқинлаштириш, жиноятчилик ва маъмурий ҳуқуқбузарликларни ҳар қандай кўринишига қарши курашиш, уларнинг содир этилишининг олдини олиш каби эзгу мақсадларни амалга оширишда профилактика инспекторларига ҳар доимгидан ҳам каттароқ вазифа ва масъулият юкланмоқда. Бу борада муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: ”Бугунги кунда профилактика инспекторининг асосий вазифаси - фақат содир этилган жиноятларни ҳисобга олиш, уларнинг оқибати билан курашиш эмас, балки, ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шароитларини чуқур таҳлил қилиш асосида уларнинг барвақт олдини олишга қаратилган чораларни ўз ҳудудида амалга оширишдан иборат, Мен бу масалага алоҳида эътибор қаратмоқчиман” деб таъкидлаб ўтдилар.



Хозирги глобаллашув даврида содир этилган ҳуқуқбузарлик ва жиноятиликга қарши курашиш билан бтр қаторда ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олишда профилактик суҳбат алоҳида ахамият касб этади.

Профилактика суҳбати - бу давлат бошқаруви соҳасида маъмурий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жамоат тартиби ва фуқаролар хавфсизлигига таҳдид солувчи ҳолатларни бартараф этиш мақсадида қўлланиладиган якка тартибдаги профилактиканинг чора тадбирларидан биридир. Профилактика суҳбатини амалга ошириш фаолиятини такомиллаштириш чоралари маъмурий ҳуқуқбузарликка йўл қўймаслик мақсадида қўлланилади. Шунинг учун кўпинча ҳуқуқбузарлик факти ҳали содир этилмасдан олдин, асосан фавқулодда вазиятлар, ҳодисалар содир бўлганда, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, қонуний манфаатларини химоя қилиш, жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқ-тартиботни таъминлаш ҳамда зарарли, оғир оқибатларни келиб чиқишини олдини олиш учун хизмат қилади.

Профилактика суҳбатини амалга ошириш фаолиятини такомиллаштириш чоралари, ишлаб чиқаришда, йўл-транспорт ҳаракатида тўқнашувлар, ёнғинларнинг олдини олиш, аҳолининг санитарияэпидимиология, ҳаво ва темир йўлдаги хавфсизлигини таъминлаш, табиий офатларда ва фавқулодда ҳолатларда фуқароларнинг ҳаёти, соғлиғи ва хавфсизлигини таъминлаш мақсадида қўлланилади.

Асосий қисм.

Профилактика суҳбати шахсни жамиятда қабул қилинган ҳуқ-атвор нормалари ва қоидаларига риоя этишга ишонтиришдан, ғайриижтимоий ҳуқ-атворнинг ижтимоий ва ҳуқуқий оқибатларини ҳамда ҳуқуқбузарлик содир этганлик учун қонунда белгиланган жавобгарликни тушунтиришдан иборат бўлади.

Профилактика суҳбати шахсни профилактик ҳисобга қўйишда ҳам ўтказилади.

Профилактика суҳбати ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи орган ёки муассасанинг ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикасини амалга оширишга масъул бўлган вакили томонидан ўтказилади.

Профилактика суҳбати ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи орган ёки муассаса жойлашган ерда, шунингдек шахснинг яшаш, ўқиш, иш жойида ёхуд бевосита ғайриижтимоий ҳуқ-атвор ёки ҳуқуқбузарлик аниқланган жойда ўтказилади.

Профилактика суҳбати давомида шахснинг ўзига хос хусусиятлари, унинг турмуш тарзи ва ижтимоий-маиший яшаш шароитлари, шунингдек ғайриижтимоий ҳуқ-атворнинг ёки содир этилган ҳуқуқбузарликнинг сабаблари ва шарт-шароитлари аниқланади.

Профилактика суҳбатини амалга ошириш чораларига қуйидагилар киради:

1. Ҳужжатларни текшириш.

2. Ички ишлар органларига фуқароларни олиб келиш, рўйхатдан ўтказиш ва расмий огоҳлантириш.

3. Жазони ижро этиш муассасаларидан бўшатишган шахслар билан профилактик суҳбат ўтказиш ва бошқалар киради.

Хужжатларни текшириш – Ички ишлар органлари ходимлари томонидан жамоат тартибини сақлаш, фуқароларнинг ҳуқуқлари эркинликлари ва қонуний манфааларини ҳимоя қилиш, шубхали шахсларни шахсини аниқлаш, қидирувдаги шахсларни топиш, фуқароларнинг кимлиги, текширилаётган ҳужжатларнинг ҳақиқатдан шу шахсга тегишли эканлиги ҳамда ҳужжатларнинг ҳақиқийлигини аниқлаш мақсадида амалга ошириладиган чорадир. Ички ишлар органи ходимлари бирор бир шахсни жиноят содир этганликда гумон қилса, фуқаролардан ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжатни кўрсатишни талаб қилади.

Илгари ўтказилган профилактика суҳбати ижобий натижа бермаган ва шахс ғайриижтимоий хулқ-атворни ёки ҳуқуқбузарлик содир этишга мойилликни давом эттирган ҳолларда, унга нисбатан расмий огоҳлантириш қўлланилади.

Расмий огоҳлантириш шахсга унинг ғайриижтимоий хулқ-атворни давом эттиришига йўл қўйиб бўлмаслиги тўғрисида ёзма равишда тушунтиришдан, шунингдек ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган шахсни ҳуқуқбузарлик содир этганлик учун жавобгарлик ҳақида огоҳлантиришдан иборат бўлади.

Жазони ижро этиш муассасаларидан бўшатишган шахслар устидан маъмурий назорат ўрнатиш - Ўзбекистон Республикасининг 1992-йил 9- декабрдаги “Жазони ижро этиш муассасаларидан бўшатишган шахслар устидан ички ишлар идораларининг маъмурий назорати тўғрисида”ги қонунига ва Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2002-йил 26- февралдаги 51-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Жазони ижро этиш муассасаларидан бўшатишган шахслар устидан ички ишлар идораларида маъмурий назорат ўрнатиш ва уни амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги йўриқнома билан тартибга солинади ва ташкил қилинади. 2019 йил 2 апрель ЎРҚ-532 “Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат ўрнатиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига асосан маъмурий назорат ўрнатишга оид асосий тушунчалар берилган.

Маъмурий назоратга олинган шахслар билан профилактик суҳбат ўтказишнинг асосий мақсади, илгари судланган шахслар томонидан такрор жиноятлар содир этилишининг олдини олиш, уларнинг ижобий йўлга кириб олишига ёрдам беришдан иборатдир. Маъмурий назорат остидаги шахс билан профилактик суҳбат ўтказилаётган вақтда унинг бошқа ҳуқуқ ва қонуний манфаатларига путур етказилмаслиги ва иш, ўқиш ва яшаш жойида обрўси тўқилмаслиги лозим.

### Хулоса.

Хозирги кунда хизмат қилаётган шунингдек, бўлажак ички ишлар идоралари ходимларидан профилактика суҳбатини амалга ошириш чоралари тушунчаси, турлари, уларни қўллаш асослари ва тартибларини аниқ, пухта ўзлаштириб олиш талаб этилади.

Профилактика инспекторларининг ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш, аҳоли муаммоларини ўрганиш, хал этишларига янада қулай шароитлар яратиш учун уларни бошқа ҳар қандай ортикча тадбирларга жалб қилмасдан амалий иш фаолиятига кенг йўл очиш лозим.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 187-моддаси яъни “жамоат жойларида алкоголь маҳсулотини истеъмол қилиш” ҳуқуқбузарлигини биринчи марта содир этган шахсларни бугунги кун талабидан келиб чиқиб ҳамда инсонпарварлик, одиллик принципларига таянган ҳолда профилактик суҳбатдан ўтказиб профилактик ҳисобга олмаслик лозим деб ҳисоблаймиз.

Мазкур ҳуқуқбузарликни фақат спиртли ичимликка ружу қўйган шахслар содир этмайди, масалан иш жойи тайин бўлган, муносиб хулқатвордаги шахс ҳам айрим тадбирларда алкоголь маҳсулотини қўйиб реализация қилишга рухсат этилмаган объектларда спиртли ичимлик истеъмол қилиши мумкин, бундай вазиятларда шахсга маъмурий таъсир чораси қўллашнинг ўзи етарли, бундай шахсларни бир йил муддатга профилактик ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ эмас балки уларни профилактик суҳбатдан ўтказиб қўйиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

### Фойдаланилган адабийотлар:

1. Дамирович, М. Р., Ибрагимович, Т. И., & Саттарович, А. У. (2022). Роль духовных и образовательных событий в поощрении идей религиозной терпимости и международного здоровья. Бразильский журнал имплантологии и здравоохранения, 4(5), 42-47.

2. ДАМИРОВИЧ, М. Р., ИБРАГИМЖАНОВИЧ, Т. И., & УГЛИ, К. Н. К. (2021). Роль семьи, общества и образования в развитии патриотического духа у молодежи. JournalNX, 7(1), 311-314.

3. Туйчиева, И., Арипов, С., Мадаминова, Д., & Мустаев, Р. (2021). Педагогическая система подготовки мальчиков к семейным отношениям в общеобразовательных школах. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8), 8.

4. Туйчиева, И., Арипов, С., Мадаминова, Д., & Мустаев, Р. (2023, июнь). Язык и компьютер в развитии коммуникативной компетентности школьников. В сборнике трудов конференции АИР (Том 2789, № 1). Издательство АИР.

---

5. Эркинжон о’ғли, Л. А. (2024). СУЯК ҚАДИГЪИ ҲОСИЛ БЎЛИШ ПАТОЛОГИЯЛАРНИ ЭРТАНГИ ДАВРЛАРДА АНИҚЛАШ ВА ДАВОЛАШ. ЯНГИ Ў‘ЗБЕКISTON, ЯНГИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ, 1(3), 143-147.

6. Эминов, Р. И., Латибжонов, А. Е., Гуломов, Қ. Қ., & Умарова, С. Д. (2022). ОЦЕНКА РОЛИ МУЛЬТИМЕДИИ В ОБУЧЕНИИ ЭМБРИОЛОГИИ. Экономика и социум, (12-1 (103)), 59-62.

7. ЭМИНОВ, Р., ЛАТИБЖОНОВ, А., ГУЛОМОВ, Қ. Қ., & УМАРОВА, С. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 59-62.

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK  
O‘QITUVCHILARNING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI  
RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA‘LIM TEXNOLOGIYALAR-  
DAN FOYDALANISH.**

**Tojiyev Xakimjon Xoliqovich**

*Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi +998944960434*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada zamonaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak harbiy ta‘lim fani o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish, talaba yoshlarga muntazam ravishda ta‘lim va tarbiya berish hamda ularni doimo harbiy vatanparvarlik ruhini oshirib borishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek harbiy ta‘lim fani o‘qituvchilarining asosiy maqsadi talaba yoshlarga bilim va tarbiya berishni muvaffaqiyatli olib borishga hamda o‘z kasbiy-pedagogik tayyorgarliklarini muntazam ravishda rivojlantirib borishlari belgilab o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Harbiy ta‘lim, taxlil, zamonaviy yondashuv, kasbiy- tayyorgarlik, talaba yoshlar, kompyuter texnologiyasi, axborotlashtirish, modul, ta‘lim, tarbiya.*

Bugungi kunda harbiy ta‘lim jarayoni murakkab ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib uning mohiyati bo‘lajak harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishni, yoshlarga ta‘lim tarbiya berishni, o‘qitishda zamonaviy innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishni hamda o‘qitish jarayonini yaxshi tashkil etishni taqazo etadi. Ushbu jarayonlar bo‘lajak harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining ta‘lim va tarbiyaga qaratilgan faoliyati bo‘lib, uning doirasida nafaqat ularning harbiy mahorati shakllantiriladi, balki o‘zida ma‘naviy-axloqiy xislatlarni mujassam etgan, aqlan va jismonan yetuk, ijtimoiy faol komil inson shaxsi tarbiyalanadi.

Vatanimizning istiqloq va taraqqiyoti harbiylarning har tomonlama yetuk, ongli, yuksak axloqli bo‘lishiga bog‘liqdir. Vatanparvarlik, milliy g‘ururi, fidoiylilik, o‘z xalqi tarixi, uni madaniyati bilan faxrlanish, insonga hurmat, ehtirom shularning hammasi ofitser ma‘naviyatiga borib taqaladi. Ma‘naviyat esa bugungi kunda erishgan mustaqil-ligi-mizning poydevori hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay, Jaloliddin Manguberdilar ham ana shu tuyg‘u bilan yashaganlar.

Uzoq yillarda milliy tarbiyamizning yillik urf-odatlar, qadriyatlarimiz kamsitilib, donishimiz, tilimiz oyoqosti qilinishi oqibatida harbiylar orasida mehr-oqibat, diyonat, sharm-hayo, andisha, or-nomus, halollik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat-e‘tibor susayib ketdi. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, bezorilik, xiyonatchilik, qalloblik, kashandalik va buzuqliklar bir muncha ko‘paydi. Milliy urf-odatlarimiz o‘rniga ovro‘pacha urf-odatlar singdirilganiga, tarbiya milliylikdan chekinganiga urg‘u beradi.

O‘zbekiston Respublikasida Mustaqillikka erishgandan so‘ng umumiyinsoniy qadriyatlarga sodiqlik, birinchidan adolat va tenglikda ko‘zga tashlanadi. Inson qadr-qimmatini baholashda ana shu adolat va tinchlik muhim rolni bajaradi. Harbiy ta‘lim tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarni axloqiy mukammallashtirish bilan bog‘lab olib boriladi.

Axloqiy fazilatlarga baho berish mezonlari ham aniq tarixiy jarayonlar, sharoitlar bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. O‘zbek xalqining axloqidagi oriyat, diyonat, kattalarga hurmat, mehnatdo‘stlik kabi sifatlarga ularning ruhiyatidagi samimiylik, insof, bag‘rikenglik, sharm-hayolik xususiyatlari jihatlari milliy adabiyot va san‘ati qo‘shilib o‘zbek ma‘naviyatining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish bevosita zamonaviy innovatsion ta‘lim texnologiyalariga bog‘liqdir.

Hozirda jahon ta‘limi amaliyotida qo‘llanilayotgan asosiy zamonaviy o‘qitish texnologiyalari quyidagilardan iborat;

- O‘yinli texnologiyalar.
- Muammoli o‘qitish texnologiyasi.
- Tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
- Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
- Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
- Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi.
- Modulli o‘qitish texnologiyasi.
- Keys stadi o‘qitish texnologiyasi.
- Kreativ o‘qitish texnologiyasi.
- Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyasi.
- To‘liq o‘zlashtirish texnologiyasi.
- Tizimli faoliyat yondashuvi asosida o‘qitish texnologiyalari.
- Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosida o‘qitish texnologiyalari.
- Bilimlarni to‘la o‘zlashtirish texnologiyasi va boshqalar.

Bugungi kunda kompyuterli o‘qitish texnologiyasi asosan elektron ta‘lim resurslari orqali amalga oshiriladi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining xususiyati shundaki:

- ta‘lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan;

- o‘qituvchi ta‘lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o‘qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslari faol integratsiyasi ta‘minlanadi;
- o‘qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ta‘limning intensivligi va natijaviyligini oshiradi;
- ta‘lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi.

Kompyuterli o‘qitish jarayonini samarali tashkil etilishi o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta‘minlaydi. Agar o‘qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, ilg‘or o‘qitish texnologiyalari ham samara bermaydi. Bu texnologiya o‘quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon etish, o‘qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkonini beradi. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, o‘qituvchi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida qatnashadi va talabalarning kompyuter bilan ishlagandagi rasmiy ko‘nikmalariga faqat tuzatishlar kiritish va nazorat qilish bilan cheklanadi.

Ta‘limda axborot texnologiyalari multimediya, prezentatsiya, audio-video materiallar, internet, masofaviy ta‘lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar, video konferensiya va o‘rgatuvchi mobil ilovalardan iboratdir.

Modulli o‘qitish texnologiyasi modul fanning fundamental tushunchalarini - ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini o‘z ichiga oladi. Modulli o‘qitish - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarining bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi;

- modul - faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi;

- o‘qitishni individuallashtirish;

- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;

- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;

- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;

- talabalar tayyorgarligi darajasiga;

- kutiladigan natijalar bahosiga;

- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;

- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitish texnologiyasini afzalligi shundaki, modulni o‘rganish o‘zlashtirish jarayonining asosini mustaqil bajariladigan ish-harakatlar tashkil qiladi, modulni o‘rganish mobaynidagi ish-harakatlar talabalar tomonidan mustaqil ravishda rejalashtiriladi, amalga oshiriladi, tekshiriladi va baholanadi, ish harakatlar o‘zida texnikaviy, mehnat xavfsizligi, huquqiy, ekologik kabi masalalarni qamrab olishi kerak. Kasbiy tayyorgarlikning muayyan darajasiga erishish uchun mustaqil o‘quv-bilish faoliyatini kengaytirishga imkon beruvchi egiluvchan modulli texnologiyaga asoslangan o‘qitish usuli katta ahamiyatga ega.

Modulli o‘qitish texnologiya asosida ta’lim jarayonini tashkil etish shundan iboratki, unda ta’lim mazmuni avtonom tashkiliy metodik bloklar (modullar) da tuzilmalashtiriladi. Modullar mazmuni va hajmi ta’lim oluvchilarning ixtisosligi va darajali tabaqalanishiga hamda didaktik maqsadlarga bog‘liq ravishda variatsiyalanadi. Modulli texnologiyaning markaziy tushunchasi “modul” bo‘lib, uning mohiyatini nazariyachi va amaliyotchilar bir xil tarzda talqin etmaydilar. Modul-bu bir fan doirasidagi tashkiliy-metodik tuzilmaviy birlikdir .

Olimlardan R.S.Bekirova va M.A.Choshanovlar modulni didaktik maqsadlar, o‘quv materialining tugallangan mantiqiy birligi (fanlararo bog‘lanishlarni hisobga olgan holda), metodik yo‘riqnoma (didaktik materiallarni qo‘shib hisoblaganda) va nazorat tizimini o‘z ichiga olgan “o‘quv fanining avtonom tashkiliy-metodik tuzilmasi” sifatida tasniflaydi.

Ta’lim jarayonini tashkil etishning modulli texnologiyasi ta’lim maqsadlarini, mazmuniy-protsessual jihatini, modul elementlari bo‘yicha taqsimlangan o‘quv materialini taqdim etadi, reyting bo‘yicha amalga oshirilgan yakuniy nazoratni aks ettiradi.

Modulda mazmun, o‘qitish metodlari, mustaqillik darajasi hamda o‘zlashtirish jadalligi bo‘yicha individuallashtirilgan o‘qitish dasturi aks ettiriladi. Har bir o‘quv moduli aniq

o‘qitish maqsadi, o‘z mazmuni, didaktik ta‘minotiga ega. O‘qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, modulda o‘qitishning tashkiliy shakllari (ma‘ruza-maslahat, laboratoriya ishi, hisob-grafik topshiriq, mustaqil ish, yakuniy nazorat va boshqalar) rejalashtiriladi, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga zaruriy tuzatish kiritish ko‘zda tutiladi. Modulni qurishning muhim mezonlari bilimlarni o‘zlashtirish darajalari mantiqini ta‘minlovchi faoliyatni (idrok qilish, tushunish, anglash, qo‘llash, umumlashtirish, tizimlashtirish) tuzilmashtirish hisoblanadi.

“Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘quv materialini talabalar tomonidan o‘zlashtirish moduldan-modulga ketma-ket amalga oshiriladi va har bir talabaga belgilangan o‘quv-bilish faoliyati maqsadlariga erishish imkonini beradi. Ma‘ruzalar umumlashgan shaklda ilmiy bilimlar asosi bo‘lib hisoblanadi va kasbiy faoliyatning yo‘naltiruvchi asosi sifatida uning nazariy bazasini yaratadi. Amaliy mashg‘ulotlar amaliy masalalarni yechishning hisoblash ko‘nikmalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bir necha muhim funktsiyalarni bajaradi. Amaliy mashg‘ulotlarda qayta ishlanadigan o‘quv materiallari mazmunini namunaviy masalalarning umumlashgan tizimi orqali taqdim etish mumkin.

Modulli o‘qitish texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, o‘quv fanining mazmuni dastur ko‘rinishida rasmiylashtiriladi, uni loyihalash umumqabul qilingan quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- o‘quv predmeti mazmunini asosiy tushunchalar va metodlar atrofida shakllashtirish;
- o‘quv materialini bayoni qilish ketma-ketligining tizimlili va mantiqiyli;
- mazmunning bir butunligi va amaliy ahamiyati;
- o‘quv materialini taqdim etishning ko‘rgazmaliligi.

O‘quv jarayonini moduli-reyting texnologiyasi asosida loyihalash quyidagilarga imkon beradi:

- o‘quv materialining muammoli modulini guruhlash orqali o‘qitish mazmunini integratsiyalash va tabaqalashtirish-ning didaktik birligi amalga oshiriladi;
- o‘quv modullarini variativ konstruksiyalash (qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko‘rinishda);

bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchilarning modul dasturi variantini mustaqil tanlashini va dasturni o‘zlashtirishlarining individual sur‘atini ta‘minlash;

bo‘lajak o‘qituvchining bilish faoliyatini boshqarishda o‘qituvchi edvayzer (maslahatchi) va moderator (yo‘naltiruvchi) bo‘lishi kerak.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi - bu rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, faol bilim ortirish jarayonini rag‘batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketmaketlik stilini shakllantiradi. Muammoli o‘qitish mohiyati o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘qishida muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o‘quv (yaxshisi, hayotiy) masalalar, muammolarni savollar va topshiriqlarni yechish yo‘li bilan yangi bilimlarni o‘zlashtirish faoliyatini boshqarishdan iboratdir.

Bilimlarni to‘la o‘zlashtirish texnologiyasi o‘quv materiallari bir necha bo‘laklarga bo‘linadi: o‘zlashtirilishi tegishli bo‘lgan o‘quv unsurlari, undan so‘ng bo‘limlar bo‘yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so‘ng o‘qitish, tekshirish – joriy nazorat, tuzatish va qayta, o‘zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o‘qitish.



Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik kasbiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi. Kontekstli yondashuv o‘qitish shakli va metodlari tizimi yordamida kelgusidagi kasbiy faoliyat kontekstini yaratishga imkon beradi. Faol o‘qitish texnologiyasi sifatida kontekstli o‘qitish texnologiyasini qo‘llashda bo‘lajak mutaxassisda ijodkorlikni rivojlantirish hamda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi algoritmlar va kasbiy faoliyatning yaxlit tuzilmasi vositasida shakllantrishni nazarda tutiladi.

Hozirda ta‘lim texnologiyalarining yuqorida aytilganlardan tashqari mutaxassislar tomonidan tajriba-sinovlar olib borilayotgan boshqa yo‘nalishlari ham mavjud.

Interaktiv o‘qitish texnologiyalari. Bugungi kun pedagoglarining asosiy vazifasi talabada erkin fikrlash, mustaqil faoliyat, tashabbuskorlik, faollik, mustaqil o‘qish va rivojlanish malakasini hosil qilishdir. Ma‘lumki, materialni yaxshi o‘zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o‘tirish yetarli emas, balki ushbu material ustida faol ishlash, o‘ylash, muhokama qilish, takrorlash, yordamchi vazifalarni bajarish kerak.

Interaktiv (ingl. “interaction”, “inter” – o‘zaro, “action” – harakat, faollik bo‘lib, o‘zaro faoliyat, o‘zaro harakat) o‘qitishda o‘qituvchidan mashg‘ulot davomida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir darajasining bir ko‘rinishidan ikkinchisiga mavzu maqsadiga bog‘liq holda ustamonlik bilan ravon o‘tishi talab etiladi. Ta‘lim oluvchi mashg‘ulotda “passiv” tinglovchi sifatida emas, balki “aktiv” ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi, jamoa bo‘lib fikrlashi va ishlashi orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv faoliyat turlari quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi:

- pedagog – talaba
- talaba–talaba
- pedagog–talabalar guruhi
- talaba – guruh
- guruh – guruh
- talaba – kompyuter

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchisini mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va izlaishga undaydi, shuningdek, talabalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyasini ta‘minlaydi.

Interaktiv usullardan foydalanilganda shaxsning barcha psixik bilish jarayonlari (sezgi, diqqat, idrok, tasavvur, xotira, aql, tafakkur, nutq, xayol), psixik holatlar (his-tuyg‘u, emotsiya, qiziqish, iroda, ruhlanish) faol ishga tushib, talaba vazifani bajarish, muammoni yechish uchun mustaqil ravishda izlanishga, qidirishga, fikrlash doirasini kengaytirishga va rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda 100 dan ortiq interaktiv metod, texnologiya va strategiyalar bayon qilingan. Xususan:

- “Miya hujumi” (“Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”)
- “Kim ko‘proq, kim tezroq?” “Blits-so‘rov”
- “Muammoli vaziyat”
- “Akademik munozara”
- “Bahs-munozara” “Debat”
- “Buni bilasizmi?” “Differensial diagnostika”

- “Rolli o‘yin”
- “Bumerang” “Charxpalak”
- “Qor bo‘ron”
- “Akvarium”
- “Uch bosqichli intervyu va boshqalar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda texnologik yondashuv asosida innovatsion ta‘lim texnologiyalardan samarali foydalanish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivollantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababi interfaol o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati yuzaga keladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar mashqni bajarishlari, me‘yorlar va harakat usullarini bajarish texnikasini o‘rganishlari va mustahkamlashlari, shuningdek, qurilmalar, jihozlangan maydonchalar, mashg‘ulot joyi va qurol-aslahalar, muhandislik vositalari, shaxsiy himoya vositalari, sport snaryadlari va anjomlaridan foydalangan holda o‘tkazishlari lozim. Amaliy mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil qilish va o‘tkazishda mashg‘ulot rahbarining darsga munosabati, talabalarga ta‘sir o‘tkaza olishi hamda shaxsiy namunasi muhim ahamyatga egadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva K.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Ped.fan.nom.diss. avtoreferati. –T.: -2006.[Abdullaeva K.M. Methodological basis of the formation of professional knowledge and skills of teachers: Ped.fan.nom.diss. avtoreferati. - T.: - 2006.
2. Чошанов, М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие / М.А. Чошанов. – М.: Народное образование, 1996. – 160 с.[2]
3. Махмутов М.И. Проблемное обучение. - М.: Педагогика, 1975. – 11 с.[3]
4. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии Текст. : в 2-х томах. Т.2. / М.: Педагогика, 1989. -382 с.[4]
5. Кларин М.В. Развитие педагогической технологии и проблемы теории обучения Сов.педагогика.-Москва , 1984. - №4. – 3 с. [Klarin M.V. Development of pedagogical technology and problems of teaching theory // Sov.pedagogika.-Moscow, 1984. - №4.-3 h.]
6. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2-х т.,Т.2.– М.: Педагогика,1982. [Comensky Ya.A. Selected pedagogical works: Volume 2, - М.: Pedagogika, 1982.]
7. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.
8. Бўтаев А. «Чақирикқача ёшларни тайёрлаш». ўқув кўлланма. Дарслик. Андижон нашриёти -2004 й.
9. Гафуров Б.Б. “Бошлангич умумқўшин харбий тайёргарлик бўйича” ўқув кўлланма II - қисм, 2005 йил.

---

**MATEMATIKA VA INFORMATIKA FANI O‘RTASIDAGI UZVIY  
BOG‘LIQLIKNI SHAKLLANTIRISH****Tashbaeva Dildora Ravshanovna***Toshkent shahar, Uchtepa tumani 296-maktab Informatika va axborot texnologiyalar  
fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada matematika va informatika fanlarini o‘qitishni yanada faollashtiruvchi, qiziqarli va kelajagi porloq yo‘nalishlardan bir tarmog‘i fanlar orasidagi integratsiyani, integrallashgan o‘qitish tizimlarini, hamda bunday tizimlarni qo‘llab quvvatlovchi maxsus axborot texnologiyalarini, tizimlarini yaratish haqida bayon etiladi.

**Tayanch so‘slar.** Matematika, Informatika, axborot texnologiyalari, integratsiya, o‘qitish tizimlari.

Hozirgi paytda har qanday kasb egasi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) turli tuman usul va metodlaridan kasbiy faoliyati doirasida samarali foydalanishi zarur. Oliy ta‘lim muassasalaridagi Matematika va Informatika kafedralarining ko‘p yillik ish tajribalariga asoslanib bu fanlar orasidagi bog‘liqlikni o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishda deb qarash mumkin. Demak, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari matematika va informatika fanini bir-biri bilan ikki tomonlama uzviy bog‘lovchi vosita hisoblanadi. SHu boisdan ham matematik, xuddi shunday fizik, iqtisodchi va boshqa mutaxassislar ham axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha ba‘zi ma‘lumotga ega bo‘lishlari zarur.

Matematika va informatika fanlarini o‘qitishni yanada faollashtiruvchi, qiziqarli va kelajagi porloq yo‘nalishlardan bir tarmog‘i fanlar orasidagi integratsiyani, integrallashgan o‘qitish tizimlarini, hamda bunday tizimlarni qo‘llab quvvatlovchi maxsus axborot texnologiyalarini, tizimlarini yaratishdir. Buning uchun hozirgi ta‘lim jarayonida o‘quvchining dunyoqarashini o‘sishiga, shakllanishiga ilmiy asoslangan trazda ta‘sir qilishning bir qancha asoslari mavjud, jumladan:

1) hozirgi payt, yangi qurilish industriyasiga asoslangan axborotlashgan jamiyatga o‘tish bilan xarakterlanadi, moddiy borliqni, real dunyoni o‘rganish bir-biri bilan chambarchas, uzviy bog‘langan uchlik asosida (modda, energiya, axborot) olib boriladi;

2) bunday jamiyatda har qanday ta‘lim tizimining dolzarb masalalaridan bittasi axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rnini topaoladigan, tez moslashib ishlab ketaoladigan, ya‘ni junyoqarashi to‘liq shakllangan, real hayotga axborot kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda yondashadigan komil insonni, zamonaviy mutaxassisni tayyorlab berishdir;

3) shuning uchun ham, xalq ta’limi hamda oliy ta’lim tizimida informatika fanini, birinchi navbatda nazariy tashkil etuvchilarining asosiy, bazoviy elementlarini o’qitishga, o’zlashtirishga, ko’nikmalar hosil qilishga juda katta e’tibor qaratilgan;

4) informatika, xuddi shunday axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanlarni integratsiyalovchi distsiplina sifatida shakllanmoqda, uning biz tasavvur etadigan, tushuntiradigan apparati ta’lim tizimidagi tabiiy ilmiy, kasbiy va gumanitar fanlarni bilish, o’zlashtirishning yagona tizimli kartinasini bog’lovchi bo’lib xizmat qiladi. Informatika fani, ma’lumki, nazariy jihatdan kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi natijasida matematika fani bag’rida “unib” chiqdi, shu boisdan ham matematik apparatsiz faoliyat ko’rsata olmaydi. Informatika fanining juda ko’p tarkibiy qismlarini “toza matematikasiz” tasavvur qilish qiyin: matematik mantiq asoslari; arifmetik asoslari; hisoblash sistemalari; ehtimollar nazariyasi elementlari va matematik statistika; algoritmlar nazariyasi; graflar nazariyasi; matematik modellashtirish asoslari; taqribiy hisoblash metodlari va boshqalar. Informatika fanining bunday tarkibiy qismlarini o’rganish tajribasi shundan dalolat beradiki, talabalar (o’quvchilar) matematika fanini sistema darajasida tasavvur etishadi, uning yangi elementlarini, metodlarini, uslublarini yengil va chuqur o’zlashtiraoladilar.

Shuni ta’kidlashimiz mumkinki, texnika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar amaliy matematikaning axborotlashgan jamiyatdagi juda katta rolini tushunib yetadi va bu esa, o’z navbatida, talabada amaliy matematikaning usul va metodlarini amaliy jihatdan puxta o’zlashtirishiga, amaliyotga qo’llash bo’yicha ko’nikmalar hosil qilishga, va natijada bilim olish jarayonini faollashtirishga, jadallashtirishga imkoniyat yaratadi. Demak, matematika quruq, abstrakt fan darajasidan kasbiy faoliyat doirasida, real hayotdagi turli-tuman murakkab masalalarni yechish uchun maqsadli yo’naltirilgan instrumental vositalar majmuasi fani darajasiga aylanmoqda. Shu boisdan ham matematika va informatika fanlari orasidagi bog’liqlikni, uzviylikni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida samarali hal qilish talabalarda kommunikativ ko’nikmalarning shakllanishiga, rivojlanishiga olib keladi. Bularni hisobga olgan holda matematika va informatika fani o’qituvchilariga talabalarga mazkur fanlarning mavzularini faol o’rgatish, hamda ularda ilmiy dunyoqarashini to’liq shakllantirish bo’yicha o’zaro hamkorlik qilishning quyidagi yo’nalishlarini taklif qilish mumkin:

- matematika va informatika fanlari orasidagi o’zaro ikki tamonlama bog’lanishlarni aniqlash (alohida aniqlangan mavzularni parallel o’zlashtirish);

- matematika fanini o’zlashtirishni faollashtirishda AKT dan samarali foydalanish bo’yicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borish; matematika va informatika fani bo’yicha talabalarda kommunikativ ko’nikmalarni hosil qilish bo’yicha ilmiy-metodik izlanishlarni davom ettirish va boshqalar.

Zamonaviy psixologiya-didaktika ilmidagi, o’quv jarayonini ilmiy texnikaviy taraqqiyotining gurkirab rivojlanayotgan axborot va kompyuter texnologiyalarining

imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilishda, ilmiy metodologik asosda o‘quv materialini tarkibini tanlashda hamda uni axborot kommunikatsiya texnologiyalariga mos ravishda strukturalashtirishga, yondashishga yetarlicha metodologiya va texnologiya ishlab chiqilmagan. Hozirgi sharoitdagi hech bir o‘quv predmeti (fani) integrallashgan avtomatlashtirilgan intellektli o‘qitish kontsepsiyasiga to‘laqonli javob bera olmaydi. Natijada axborot kommunikatsiya vositalaridan (AKV) o‘quv amaliyotida foydalanish juda katta qiyinchiliklar tug‘dirmoqda yoki umuman olganda bunday yondashuvlar samarasiz bo‘lib chiqmoqda, chunki o‘quv materialini to‘g‘ridan-to‘g‘ri AKV zimmasiga yuklashdan hech qanday naf yo‘q. O‘quv predmetining ilmiy jihatdan mantiqiy asoslanganligi, aniqlik, tushunarlilik, mantiqiy izchillik hamda AKVdan unumli foydalanish darajasining mukammallashganligi ta‘minlanadi, yana shuni ta‘kidlash joizki, predmetning strukturalashtirilgan mantiqli sxemasi elektron darsliklar yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khamidovna P. O. The Role of Intellectual Thinking in the Maturation of a Student's Personality //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 85-87.

2. Khamidovna P. O., Zilola K. REGULATORY FRAMEWORK ISSUED IN UZBEKISTAN TO ENSURE THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 52-55.

3. Khamidovna P. O. Issues of development of the communication culture of technical students //world of science: journal on modern research methodologies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 32-35.

4. Пулатова О. Х. ТАЛАБА ШАХСНИНГ КАМОЛ ТОПИШИДА ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ //MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 6-14.

5. Khamidovna P. O. On the Issues of Studying the Problems of Unorganized Youth //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 316-318.

6. Khamidovna P. O. Features of the Use of Modern Didactic Tools in Technical Higher Educational Institutions //Telematique. – 2023. – C. 7630–7634-7630–7634.

7. Khamidovna P. O., Zuhra Y. DEVELOPMENT OF YOUTH COMMUNICATION THROUGH THE MEDIA IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 71-83.

---

8.P.O Khamidovna. COMMUNICATION CULTURE OF INDIVIDUALS // European Journal of Humanities and Educational Advancements // EJHEA – 2023.-Т.4.- №4 С-32-36

9. Pulatova O. ISSUES OF ORGANIZING INNOVATIVE ACTIVITIES OF FUTURE SPECIALISTS //International Conference on Education and Social Science. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 164-168.

10. Пулатова О. Х. ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ОРҚАЛИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 53-62.

---

**DASTLABKI TRASOLOGIK TADQIQOTNI O'TKAZISH VA UNING  
EKSPERTIZADAGI AHAMIYATI****Rismetov Abduljalil Abdurashid o'g'li***O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** *Dastlabki trasologik tadqiqotlar turli kontekstlarda, jumladan, jinoyat joylarida, arxeologik obidalarda va atrof-muhit monitoringida qoldirilgan izlarni tushunish va tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada dastlabki trasologik tadqiqotlarning sirlarni ochish va tergovlarni xabardor qilishdagi ahamiyati, usullari va oqibatlari o'rganiladi.*

**Annotation:** *Early thrasological research forms the basis for understanding and analyzing traces left behind in various contexts, including crime scenes, archaeological sites, and environmental monitoring. This article explores the importance, methods and implications of early tracological research in uncovering secrets and informing investigations.*

**Kalit so'zlar:** *Trasologiya, dastlabki tadqiqotlar, sud ekspertizasi, arxeologiya, atrof-muhit monitoringi, iz dalillari, tergov.*

**Keywords:** *Tracology, preliminary research, forensic science, archaeology, environmental monitoring, trace evidence, investigation.*

**Kirish:** Izlar, xoh ular qumdagi oyoq izlari, xoh yuzadagi barmoq izlari yoki ortda qolgan mikroskopik zarralar bo'ladimi, o'tmishdagi voqealar, xatti-harakatlar va o'zaro ta'sirlar haqida bebaho tushunchalar berishi mumkin. Dastlabki trasologik tadqiqotlar sud tibbiyoti, arxeologiya va atrof-muhit fanlari kabi sohalardagi usullardan foydalangan holda ushbu izlarni o'rganish uchun multidisipliner yondashuvni o'z ichiga oladi. Izlangan dalillarni sinchkovlik bilan tahlil qilish va sharhlash orqali tadqiqotchilar voqealarni qayta qurishlari, jinoyatchilarni aniqlashlari va hatto qadimgi tsivilizatsiyalarni ochishlari mumkin.

Asosiy qism: Trasologiyaning ahamiyati. Trasologiya, izlarni o'rganish, turli sohalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sud-tibbiyot ekspertizasida tolalar, sochlar va DNK kabi izlar gumonlanuvchilarni jinoyat sodir bo'lgan joylarga bog'lashi yoki aybsizlarni oqlashi mumkin. Arxeologik trasologiya o'tmishdagi jamiyatlarning turmush tarzi va faoliyatini birlashtirish uchun artefaktlar, tuzilmalar va atrof-muhit qoldiqlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Atrof-muhit trasologiyasi ifloslantiruvchi moddalar, mikroorganizmlar va boshqa atrof-muhit izlarini tahlil qilish orqali ekologik tizimlarni kuzatish va tushunishga qaratilgan.

Dastlabki trasologik tadqiqotlar iz dalillarini to'plash, tahlil qilish va sharhlash uchun turli xil usullar va usullardan foydalanadi. Sud tibbiyotida bular barmoq izlarini tahlil qilish, DNK profilini aniqlash va ballistik tekshiruvni o'z ichiga olishi mumkin. Arxeologik trasologlar o'tmishdagi inson faoliyatining izlarini ochish va izohlash uchun qazishma, stratigrafiya va artefakt tahlilidan foydalanadilar. Atrof-muhit trasologiyasi ifloslantiruvchi moddalar va mikroorganizmlar kabi atrof-muhit izlarini kuzatish va baholash uchun namuna olish, kimyoviy tahlil va masofadan zondlashdan foydalanadi.

Dastlabki trasologik tadqiqotlar natijalari tergov va tadqiqotlar uchun keng qamrovli ta'sirga ega. Sud-tibbiyot fanida iz dalillari muhim dalillarni berishi, guvohlarning ko'rsatmalarini tasdiqlashi yoki ayblanuvchining aybsizligini aniqlashi mumkin. Arxeologiyada dastlabki trasologik tadqiqotlar natijasida topilgan izlar o'tmish madaniyatlari, texnologiyalari va muhitini tushunishimizga yordam beradi. Atrof-muhit fanida izlarni tahlil qilish siyosatchilarni xabardor qiladi, ifloslanishni yumshatish bo'yicha harakatlarni osonlashtiradi va ekotizimlarning sog'lig'ini kuzatishga yordam beradi.

Uning ahamiyatiga qaramay, dastlabki trasologik tadqiqotlar bir qator qiyinchiliklar va cheklovlarga duch keladi. Sud-tibbiyotda iz dalillari osongina ifloslanishi yoki buzilishi mumkin, bu esa puxta yig'ish va saqlash texnikasini talab qiladi. Arxeologik trasologlar ko'pincha topilmalarning ishonchliligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan saqlash muammolari, saytning buzilishi va talqin qilishning noto'g'riligiga duch kelishadi. Atrof-muhit trasologiyasi atrof-muhit tizimlarining murakkabligi va tabiiy o'zgaruvchanlik sharoitida o'ziga xos izlarni ajratib olish qiyinligi bilan bog'liq.

Dastlabki trasologik tadqiqotlarning kuchli tomonlaridan biri uning fanlararo yondashuvidadir. Turli sohalardagi mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik iz tahlilining sifati va chuqurligini oshiradi. Sud-tibbiyot ekspertlari jinoyat joylarini har tomonlama tahlil qilish uchun antropologlar, entomologlar va kimyogarlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Arxeologik trasologlar ko'pincha geologlar, botaniklar va tarixchilar bilan arxeologik izlarni kontekstualashtirish va izohlash uchun ishlaydi. Atrof-muhit trasologiyasi biologlar, kimyogarlar va ekologlarning atrof-muhit salomatligi va ifloslanishiga ta'sirini baholash bo'yicha hamkorlikdan foyda oladi.

Texnologik taraqqiyot dastlabki trasologik tadqiqotlarni inqilob qilib, tadqiqotchilarga izlarni tahlil qilish uchun kuchli vositalarni taqdim etdi. Sud tibbiyotida DNK ketma-ketligi, mikroskopiya va kimyoviy tahlil sohasidagi yutuqlar iz dalillarini tahlil qilishning aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirdi. Arxeologik trasologlar yashirin izlarni ochish va arxeologik joylarni noinvaziv ravishda xaritalash uchun LiDAR (yorug'likni aniqlash va masofani aniqlash) va yerga kiruvchi radar kabi texnologiyalardan foydalanadilar. Atrof-muhit trasologiyasi masofaviy zondlash texnologiyalari, sensor tarmoqlari va atrof-muhit izlarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish uchun ilg'or analitik asboblardan foyda oladi.



Dastlabki trasologik tadqiqotlarning kelajagi keyingi yutuqlar va innovatsiyalar uchun va'da beradi. Davomli texnologik rivojlanish, fanlararo hamkorlik va metodik takomillashtirish trasologlarning sirlarni ochish va tergovlarni xabardor qilish imkoniyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, trasologiya bo'yicha ta'lim va o'qitishga ko'proq e'tibor turli kontekstlarda iz bilan bog'liq murakkab muammolarni hal qila oladigan malakali mutaxassislarning yangi avlodini tarbiyalaydi.

Dastlabki trasologik tadqiqotlarni o'tkazishda tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarining yaxlitligi va adolatliligini ta'minlash uchun axloqiy me'yorlarga rioya qilishlari kerak. Sud-tibbiyot ekspertizasida iz dalillari uchun qamoqqa olish zanjirini saqlash uning sud protsessida qabul qilinishini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Axloqiy mulohazalar, shuningdek, jinoiy tergovlarda yuzni tanib olish va genetik nasl-nasab kabi rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanishga ham taalluqlidir, bunda maxfiylik muammolari va potentsial noto'g'ri foydalanish ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqilishi kerak.

Arxeologik trasologlar madaniy meros ob'ektlarini qazish va saqlash bilan bog'liq axloqiy dilemmalarga duch kelishmoqda. Arxeologik tadqiqotlarni mas'uliyat bilan olib borishda mahalliy aholi, ularning madaniy an'analari va ajdodlar qoldiqlarini hurmat qilish muhim ahamiyatga ega. Atrof-muhit trasologlari atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq axloqiy mulohazalarni ko'rib chiqishlari kerak, bu esa ifloslanishdan nomutanosib ravishda zarar ko'rgan marginallashtirilgan jamoalarning tadqiqot amaliyotlari yoki siyosat qarorlari tufayli zarar ko'rmasligini ta'minlashi kerak.

Aholining xabardorligini oshirish va dastlabki trasologik tadqiqotlarga jalb qilish ishonch, shaffoflik va javobgarlikni oshirish uchun juda muhimdir. Izlanish dalillarining ahamiyati, trasologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodologiyalar va tadqiqot natijalarining oqibatlarini to'g'risida jamoatchilikka ma'lumot berishga qaratilgan tushuntirish ishlari jamoalarga trasologik tadqiqot tashabbuslarida ishtirok etish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatini berishi mumkin.

Manfaatdor tomonlar, jumladan huquqni muhofaza qilish idoralari, arxeologiya institutlari, atrof-muhitni himoya qilish guruhlari va siyosatchilar bilan hamkorlik hamkorlik va bilim almashishni osonlashtiradi, bu esa dolzarb ijtimoiy muammolarni yanada samarali hal qilishga olib keladi. Dastlabki trasologik tadqiqotlarga turli xil ovozlar va istiqbollarni jalb qilish orqali tadqiqotchilar o'zlarining tadqiqotlarini boyitishi va topilmalarining foydalari adolatli taqsimlanishini ta'minlashi mumkin.

Dastlabki trasologik tadqiqotlarning traektoriyasi rivojlanayotgan texnologiyalar va fanlararo hamkorlik tufayli davom etayotgan yutuqlar va innovatsiyalarga ishora qiladi. Sud tibbiyotida sun'iy intellekt va mashinani o'rganish algoritmlarining integratsiyasi izlarni tahlil qilish jarayonlarini soddalashtirish, naqshni aniqlashda aniqlikni oshirish va tergov samaradorligini oshirishni va'da qiladi. Xuddi shunday, izotopik tahlil va qadimgi DNK ketma-ketligidagi o'zgarishlar arxeologik trasologiyada inqilob qilmoqda, bu

tadqiqotchilarga qadimgi populyatsiyalarning harakatlarini kuzatish va shaxslar va madaniyatlar o'rtasidagi genetik munosabatlarni aniqlash imkonini beradi.

Atrof-muhit trasologiyasi atrof-muhit izlarini real vaqt rejimida kuzatish va atrof-muhit dinamikasini bashoratli modellashtirishni osonlashtiradigan sensor tarmoqlari, masofadan zondlash texnologiyalari va katta ma'lumotlar tahlilining tarqalishidan foyda ko'radi. Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasini qo'llash iz ma'lumotlarini boshqarish tizimlarining yaxlitligi va shaffofligini oshirish, iz dalillari yozuvlarining tekshirilishi va o'zgarishini ta'minlash uchun potentsialga ega.

Dastlabki trasologik tadqiqotlar geografik chegaralar va madaniy kontekstlardan oshib ketganligi sababli, global hamkorlik va standartlashtirish sa'y-harakatlari metodologiyalarni uyg'unlashtirish, eng yaxshi tajribalarni almashish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro sud-genetika jamiyati va yodgorliklar va diqqatga sazovor joylar bo'yicha xalqaro kengash kabi tashabbuslar butun dunyo bo'ylab trasologlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi, turli tadqiqot sharoitlarida bilim almashish va salohiyatni oshirishga yordam beradi.

Terminologiyani, ma'lumotlarni yig'ish protokollarini va tahliliy protseduralarni standartlashtirish trasologik tadqiqotlarning takrorlanishi va taqqoslanuvchanligini oshiradi, bu esa tadqiqotchilarga bir-birining ishlariga asoslanish va ishonchli ilmiy dalillar yaratish imkonini beradi. Trasologik tadqiqotlar uchun umumiy asosni yaratish orqali global hamkorlik va standartlashtirish harakatlari huquqiy, arxeologik va ekologik kontekstda iz dalillarini tahlil qilishning ishonchliligi va ishonchliligiga hissa qo'shadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dastlabki trasologik tadqiqotlar texnologik taraqqiyot, fanlararo hamkorlik va global hamkorlik asosida rivojlanish va kengayishda davom etmoqda. Axloqiy fikrlarni qabul qilish, jamoatchilik xabardorligini oshirish va rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish orqali trasologlar sirlarni ochishga, jinoyatlarni ochishga va dolzarb ijtimoiy muammolarni yanada aniq va ta'sirli tarzda hal qilishga tayyor. Biz zamonaviy dunyoning murakkabliklarini kezar ekanmiz, dastlabki trasologik tadqiqotlarning fanlararo tabiati yashirin haqiqatlarni ochish va insoniyatning farovonligi uchun bilimlarni ilgari surish uchun umid chirog'ini taqdim etadi.

Dastlabki trasologik tadqiqotlar turli kontekstlarda izlarni tahlil qilish va izohlashga qaratilgan keng ko'lamli fanlar va metodologiyalarni o'z ichiga oladi. Soha rivojlanishda davom etar ekan, tadqiqotchilar axloqiy muammolarga qarshi turishlari, jamoatchilik xabardorligini oshirishlari va trasologik tadqiqotlarning mas'uliyatli va ta'sirli o'tkazilishini ta'minlash uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishlari kerak. Axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlash, hamkorlikni rivojlantirish va jamoatchilik ishtirokiga ustuvor ahamiyat berish orqali trasologlar o'zlarining sirlarni ochish, jinoyatlarni hal qilish va jamiyatni yaxshilash uchun bilimlarni rivojlantirish missiyasini bajarishlari mumkin.

Dastlabki trasologik tadqiqotlar ilm-fan, tadqiqot va kashfiyot chorrahasida joylashgan bo'lib, o'tmish, hozirgi va kelajak haqida chuqur tushuncha beradi. Fanlararo yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar va hamkorlikdagi sa'y-harakatlardan foydalangan holda, trasologlar sirlarni ochish, jinoyatlarni hal qilish va atrofimizdagi dunyoni tushunishimizga hissa qo'shishni davom ettirishga tayyor. Zamonaviy davrning murakkabliklarini kezar ekanmiz, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilish va yashirin haqiqatlarni ochishda dastlabki trasologik tadqiqotlarning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi.

Dastlabki trasologik tadqiqotlar sirlarni ochish, jinoyatlarni ochish, o'tmish va bugungi kuni tushunish uchun zarurdir. Turli kontekstlarda qoldirilgan izlarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, tadqiqotchilar voqealarni qayta qurishlari, shaxslarni aniqlashlari va inson xatti-harakati va atrof-muhit dinamikasi haqida tushunchalarni to'plashlari mumkin. Texnologiya taraqqiyoti va fanlararo hamkorlik o'sib borishi bilan trasologiya sohasi kengayishda davom etmoqda va tadqiqot va kashfiyotlar uchun yangi yo'llarni taklif qilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
2. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. *JournalNX*, 7(1), 311-314.
3. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The Pedagogical System Of Preparing Boys For Family Relationships In General Secondary Schools. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(8), 8.
4. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In *AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1)*. AIP Publishing.

**SHAXSNI TASDIQLOVCHI HUJJATLARNING ALBAKILASHTIRILISH  
HOLATI, TENDENSIYASI VA KRIMINALISTIK MUAMMOLAR****Tulamatov Doniyor Shuxrat o‘g‘li***O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi  
3-o‘quv kursi 325-guruh kursanti, safdor.***Farmonov Javohir Asliddin o‘gli***O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi  
3-o‘quv kursi 325-guruh kursanti, safdor.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hujjatlarning texnik-kriminplastik ekspertizasiga oid ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, hujjatlar tushunchasi va tuzilishi, hujjatlarning texnik-kriminplastik ekspertizasining ob‘yektlari haqida asosiy tushunchalar, Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar tushunchasi va tuzilishi, Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning ekspert-kriminalistik tadqiqotlarida uchraydigan muammo va tavsiyalar, zamonaviy Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari hujjatlarning texnik-kriminplastik ekspertizasining hozirgi kundagi zamonaviy imkoniyatlari hamda ilmiy asoslari, amaliyotidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** hujjat, Shaxsni tasdiqlovchi hujjat, pasport, qalbaki hujjat, identifikatsiya, soxtalashtirish, rekvizitlar, kriminalistik tadqiqot

**FALSIFICATION OF IDENTITY DOCUMENTS , TREND AND  
CRIMINALISTIC PROBLEMS.**

**Annotation:** This article provides information on technical-criminoplastic examination of documents, provides information on the concept and structure of documents, basic concepts about objects of technical-criminoplastic examination of documents, the concept and structure of identity documents, problems and recommendations found in expert-criminalistic studies of identity documents, the structure of modern identity documents. In addition, the modern capabilities of the technical-criminoplastic examination of the documents and the scientific basis, the existing problems in their practice and recommendations for their elimination are given.

**Key words:** document, identity document, passport, forged document, identification, forgery, props, criminalistic research

**СОСТОЯНИЕ, ТЕНДЕНЦИИ И КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ  
ПОДДЕЛКИ ДОКУМЕНТОВ, УДОСТОВЕРЯЮЩИХ ЛИЧНОСТЬ**

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения, относящиеся к технико-криминалистической экспертизе документов, даны Основные понятия о понятии и структуре документов, об объектах технико-криминалистической экспертизы документов, о понятии и структуре документов, удостоверяющих личность, о проблемах и рекомендациях, встречающихся в экспертно-криминалистических

*исследованиях документов, удостоверяющих личность, о структуре современных документов, удостоверяющих личность. Кроме того, даны современные возможности и научные основы технико-криминалистической экспертизы документов, а также рекомендации по их устранению.*

**Ключевые слова:** документ, удостоверение личности, паспорт, поддельный документ, удостоверение личности, подделка, реквизиты, криминалистическое исследование

**Kirish:** Ichki ishlar organlarining tergov va operativ-qidiruv amaliyoti soxasida jinoyatning ayrim turlarini ochish va tergov qilishda odatda, qalbakilashtirilgan hujjatlar, ayniqsa Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning soxtalashtirilishi yoki qalbakilashtirilishi uchraydi.

Sud va tergov tamaliyotining taxlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarni ochish va tergov qilishda xamda fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda, hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizalarini o'tkazishga zarurat mavjud. Ekspertiza tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar sodir etilgan qilmishning alohida sharoitlarini aniqlashtirishga, jinoyatchini fosh etishga, jabrlanuvchining shahsini va huquqbuzarlar tomonidan yetkazilgan zararning miqdorini aniqlashga imkon yaratadai.

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi va hujjatlar tadqiqotlarining natijalari ko'rilayotgan jinoyat ishi bo'yicha isbotlov va qidiruvga oid ma'lumotlarning manbaalaridan biri hisoblanadai. Hujjatlarning rekvizitlari va materiallari, shuningdek, ularni tayyorlashda ishlatilgan texnik vositalarni o'rganar ekan ekspert, ko'rilayotgan jinoyat ishi doirasida hujjatlarning qalbakilashtirish holati va usullarini o'rganish bilan chegaralanib qolmaydi. Ekspertiza xulosalari turlicha ma'lumotlar, masalan, tahminiy ijrochi yoki jinoyatchining tasmol qilinayotgan kasbi, poligrafiyalarni o'z ichiga oladi. Qog'oz ishlab chiqarish sohasidagi maxsus bilimlardarajasi yoki jinoyatchilarni qidiruv faoliyatini maqsadga yo'nalgan tarzda olib borishga imkon beruvchi boshqa shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

2.Asosiy qism: Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar va ularni tadqiq qilish.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (shuningdek, identifikator va boshq.) insonning shaxsini tasdiqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday hujjatdir. Kichik, standart kredit karta o'lchamidagi shaklda chiqarilgan bo'lsa, u odatda shaxsiy guvoxnoma ( ID karta, fuqarolik kartasi ) yoki pasport kartasi deb ataladi. Ba'zi mamlakatlar majburiy yoki majburiy bo'lmagan milliy identifikatsiya kartalari sifatida rasmiy Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni chiqaradi, boshqalari esa mintaqaviy identifikatsiya yoki norasmiy hujjatlar yordamida Shaxsni tasdiqlashni talab qilishi mumkin. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat shaxsning fotosuratini o'z ichiga olgan bo'lsa, uni ID-foto deb atash mumkin.

Rasmiy shaxsni tasdiqlovchi hujjat bo'lmagan taqdirda, haydovchilik guvoxnomasi shaxsni tasdiqlash uchun ko'plab mamlakatlarda qabul qilinishi mumkin. Ba'zi mamlakatlar haydovchilik guvoxnomalarini identifikatsiya qilish uchun qabul qilmaydi, chunki bu mamlakatlarda ular hujjat sifatida muddati tugamaydi va eski yoki osonlikcha qalbakilashtirilishi mumkin. Aksariyat mamlakatlar pasportni identifikatsiya shakli sifatida qabul qiladi. Ba'zi mamlakatlar barcha odamlardan har doim shaxsini tasdiqlovchi hujjatga

ega bo'lishini talab qiladi. Ko'pgina mamlakatlar barcha xorijliklardan pasport yoki ba'zan o'z mamlakatining milliy shaxsiy guvoxnomasi bo'lishini talab qiladi.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat shaxsning u haqidagi uning shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ishlatiladi. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat va ma'lumotlar bazasi o'rtasidagi aloqa hujjatida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarga asoslanadi, masalan, hujjat egasining to'liq ismi, yoshi, tug'ilgan sanasi, manzili, identifikatsiya raqami, karta raqami, jinsi, fuqaroligi va boshqalar. Noyob milliy identifikatsiya raqami eng xavfsiz usuldir, lekin ba'zi mamlakatlarda bunday raqamlar yo'q yoki Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilmaydi.

Insonning shaxs sifatida kim ekanligini isbotlovchi va tasdiqlovchi, o'zida ushbu shaxsning suratini, familiya, ism-sharif, tug'ilgan yil va joy kabi asosiy demografik ma'lumotlarni aks ettiruvchi, vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan, belgilangan tartibda, belgilangan materiallar yordamida ishlab chiqarilgan, barcha zaruriy rekvizit va himoya belgilariga ega bo'lgan xujjatlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar deyiladi. SHaxsni tasdiqlovchi hujjatlar turli maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Jumladan, davlat idoralariga ishga kirish, ta'lim muassasalariga ariza topshirish, avtotransport vositasini boshqarishga bo'lgan huquqni aks ettirish, sayoxat qilish, muayyan rasmiy davlat idorasi xodimi ekanligini tasdiqlash va boshqalar bunga misol bo'la oladi. SHaxsni tasdiqlovchi xujjatlar muxim ahamiyatga ega bo'lgan xujjatlar xisoblanadi. SHu sababli, shaxsni tasdiqlovchi xujjatlar boshqa rasmiy xujjatlarga nisbatan bir muncha ishonchli, ishlab chiqarilishi murakkab xisoblanadi. Bundan tashqari, shaxsni tasdiqlovchi xujjatlarda boshqa rasmiy xujjatlarda uchramaydigan ximoya belgilarini uchratish mumkin. Bular jumlasiga gilyosh naqshlari, suv belgilari, tasvir ximoyasi, ultrabinafsha nurlarida ta'sirlanuvchi belgilar va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Gilyosh naqshlari. Bu juda aniq, murakkab va takrorlanuvchi naqshlardan iborat dekorativ texnika. YAshirin mikromatnli nozik chiziqli Gilyosh naqshlari qalbakilashtirish va mikro-bosib chiqarishni oldini-olishga qaratilgan. Odatda bunday naqshlar egri chiziqlarida mikro o'lchamdagi yozuvlar mavjud bo'ladi. Ximoya belgilarining turli tumanligi qalbakilashtirish usullarining turlicha va xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Gilyosh naqshlari asosan qalbakilashtirish usullari ichida eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lgan nusha ko'chiruvchi apparatlar yordamida shaxsni tasdiqlovchi xujjatlarning nushasini ko'chirishga qarshi vochita sifatida foydalaniladi. Gilyosh naqshlari mavjud bo'lgan hujjat nusha ko'chiruvchi uskuna orqali nushalanganda, ko'chirilgan nushada naqshlarning aniqligi, naqsh chiziqlari orasidagi masofaning bir xilligi aks etmaydi.

Suv belgilari. Bir nesa asrlar ilgari moybo'yoqli qog'ozlar qog'oz tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan identifikatsiya belgilari sifatida boshlangan. Qog'oz ishlab chiqarish vaqtida nam qog'oz belgi bilan muxrlanadi. Belgilangan joy atrofidagi qog'ozga qaraganda ingichka bo'lib qoladi va shuning uchun suv belgisi deb nomlanadi. Ushbu qog'oz quruq va nurga yaqinlashganda suv belgisini ko'rsatadi. Keyinchalik bu jarayon rasmiy hujjatlar, pullar, shtamplar haqiqiylikini tekshirish va umuman qalbakilashtirishni oldini olish uchun foydalanila boshlandi. Suv belgilari soxta xujjat ishlab chiqarilishini oldini olish maqsadida hamda fuqarolar tomonidan valyutaning haqiqiylikini bilishda yordam berishi uchun qo'llaniladi.

3.Xulosa. Pasportlarning kriminalistik tadqiqotlaridagi zamonaviy muammolar texnologiya, globallashtirish va jinoyatchilarning rivojlanayotgan taktikasidagi yutuqlardan kelib chiqadi. Mana ba'zi zamonaviy muammolar:

a) murakkablashtirilgan qalbakilashtirish texnikasi Jinoyatchilar asl hujjatlarga o'xshash soxta pasportlarni yaratish uchun ilg'or bosib chiqarish texnikasi va materiallaridan foydalanadilar. Ushbu qalbakilashtirishni an'anaviy autentifikatsiya usullari yordamida aniqlash qiyin bo'lishi mumkin.

b) raqamli manipulyatsiya va firibgarlik - raqamli tahrirlash dasturining paydo bo'lishi bilan jinoyatchilar pasport rasmlari va ma'lumotlarini elektron shaklda o'zgartirishi, qonuniy ko'rinadigan soxta hujjatlarni yaratishi mumkin. Ushbu raqamli manipulyatsiya hujjatning haqiqiylikini tekshirish uchun topshirilgan sud ekspertlari uchun katta qiyinchilik tug'diradi.

c) shaxsni o'g'irlash va ushbu shaxsga taqlid qilish - o'g'irlanishi borayotgan bir tashvish, jinoyatchilar firibgarlik yo'li boshqalarning nomlari pasport olish uchun shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash orqali. Bu holatlarga olib kelishi mumkin shaxsni taqlid qilish, bu yerda shaxslar sayohat qilish yoki noqonuniy faoliyat yuritish uchun o'g'irlangan shaxslardan foydalanadilar.

d) hujjatlarni legallashtirish va odam savdosi - jinoiy tashkilotlar hujjatlarni yuvish va odam savdosi bilan shug'ullanadi, noqonuniy yo'llar bilan haqiqiy pasportlarni oladi yoki o'g'irlangan pasportlarni kelib chiqishini yashirish uchun o'zgartiradi. Keyinchalik ushbu hujjatlar qora bozorda sotiladi yoki jismoniy shaxslar tomonidan chegara nazorat punktlarida aniqlanishdan qochish uchun foydalaniladi.

e) biometrik va chip manipulyatsiyasi - raqamli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan chiplar bilan jihozlangan biometrik pasportlar manipulyatsiya va buzilishlarga qarshi himoyasiz. Jinoyatchilar biometrik tekshirish tizimlarini chetlab o'tadigan soxta pasportlarni yaratish uchun biometrik ma'lumotlarni o'zgartirishga yoki klonlashga urinishlari mumkin.

f) ichki tahdidlar va korrupsiya - pasport berishga vakolatli organlar ichidagi ichki tahdidlar katta xavf tug'diradi, korrupsiyaga moyil amaldorlar soxta pasport berish yoki shaxsiy manfaatlari uchun pasport yozuvlarini boshqarish vakolatlaridan suiiste'mol qiladilar.

g) transchegaraviy jinoyat tarmoqlari - jinoiy tarmoqlar chegaralar bo'ylab ishlaydi, shaxni tasdiqlovchi hujjatlarni qalbakilashtirish va odam savdosini yengillashtirish uchun pasport xavfsizligi choralari va yurisdiksiya chegaralaridagi farqlardan foydalanadi.

h) rivojlanayotgan texnologiyalar va xavfsizlik kamchiliklari - 3D bosib chiqarish va deepfake texnologiyasi kabi texnologiyalarning jadal rivojlanishi pasportni autentifikatsiya qilish uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu rivojlanayotgan texnologiyalar an'anaviy xavfsizlik choralari bilan aniqlanishdan qochadigan juda real soxta hujjatlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Ushbu zamonaviy muammolarni hal qilish texnologik innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va sud ekspertizasini birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Rivojlanayotgan tahdidlarning oldini olish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish orqali hujjatlarning kriminalistik tadqiqotchilari shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning qalbakilashtirilishi holatlari bilan samarali kurashishlari va sayohat hujjatlarining yaxlitligini saqlashlari mumkin.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni
3. T.B.Mamatqulov, A.D.Xusanov, S.A.Nurumbetova, A.A.Zulfiqorov: Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi: Ma‘ruzalar kursi
4. T.B.Mamatqulov: Kriminalistika: Darslik
5. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
6. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. *JournalNX*, 7(1), 311-314.
7. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The Pedagogical System Of Preparing Boys For Family Relationships In General Secondary Schools. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(8), 8.
8. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In *AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1)*. AIP Publishing.



**JAZONI IJRO ETISH KOLONIYALARIDA MAHKUMLAR BILAN SAYYOR QABULLAR O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI****Egamberdiyev Zafar To‘lqin o‘g‘li***IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** *Jazoni ijro etish koloniyalarida mahkumlar bilan sayyor qabullar o‘tkazish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha fikr va mulohazalar, ushbu borada amalga osirilayotgan chora tadbirlar va kamchiliklar, muammolar, amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, sayyor qabullar jarayonini takomillashtirish tajribasidan kelib chiqqan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Shuningdek Koloniyalarda o‘tkazilayotgan sayyor qabullarni bugungi kun zamon talablariga mos ravishda o‘tkazish va murojaatlar qabul qilish, ularga yechim topish jarayonida ochiqlik va shaffoflik prinsplariga amal qilish tizimini takomillashtirishdan iborat.*

**Annotation:** *Opinions and comments on improving the process of mobile receptions with convicts in penal colonies, measures and shortcomings, problems, reforms being implemented and their characteristics, based on the experience of improving the mobile receptions process proposals and recommendations have been developed.*

*Also, it is to conduct mobile receptions held in the Colonies in accordance with the requirements of today's times and to improve the system of following the principles of openness and transparency in the process of receiving appeals and finding solutions to them.*

**Аннотация:** *На основе опыта совершенствования процесса выездных приемов с осужденными в исправительных колониях разработаны мнения и комментарии по совершенствованию процесса выездных приемов, мерам и недостаткам, проблемам, реализуемым реформам и их характеристикам, предложения и рекомендации. Также предстоит провести мобильные приемы, проводимые в Колониях, в соответствии с требованиями сегодняшнего времени и усовершенствовать систему следования принципам открытости и прозрачности в процессе приема обращений и поиска по ним решений.*

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish bo‘yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini zamon talablariga mos ravishda tubdan isloh qilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2016-yil 28-dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlash” bo‘yicha Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi va virtual qabulxonasi fuqarolar bilan mutasaddi idoralarni bog‘lovchi tizimga aylandi. Joylarda barcha darajadagi rahbarlar bilan joni muloqotlar va sayyor qabullar qo‘yilgani, odamlarda muammolarni hal qilish mumkinligigakatta umid va ishonch uyg‘otdi. Davlat idoralari quyi tushib, aholi talablari va ehtiyojlari asosida ishlay boshladi. Xalq qabulxonalari orqali va sayyor qabullarda ko‘tarilgan ko‘pgina dolzarb muammolar tahlili ko‘plab islohotlarga sabab bo‘ldi. Masalan 4 yil oldin valyuta ayiraboshlash, ro‘yhatga olish, pensiya va nafaqalarni olish masalalari bo‘yicha har oyda o‘tacha yuz mingga yaqin murojat kelib

tushgan. Bus sohalarda qulayliklar yaratilib, muammolar tizimi hal etilgani tufayli ularga oid murojatlar butunlay to'xtadi.

Mamlakatda jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta'minlash, qayat jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni axloqan tuzatish bo'yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lib dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek jinoyat-ijroiya amaliyotini o'rganish natijalari mahkumlarning huquqlariga rioya etish, ularning shani va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlash, kelgusida jamiyatga ijtimoiy moslashtirish uchun axloqan tarbiyalash va mehnatga o'rgatishning shaffof va yanada samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish zarurligidan dalolat bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning takidlashicha: "Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik va totuvlik, barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir", deb o'z ma'ruzasida ta'kidlab o'tganida bilishimiz mumkinki, qonun ustuvorligini ta'minlash, mamlakat tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bugungi kundagidolzarb vazifalardandir.

Ayni vaqtda mahkumlarning murojaatlarini tez va oson joyida qabul qilish yuzasidan Jazoni ijro etish koloniyalarida mahkumlar bilan sayyor qabullar o'tkazish, yuqorida keltirilgan barcha islohotlarning poydevori bo'lib kelmoqda. Shuning uchun davlat hokimiyatiga hayotni xalq ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltirish imkoniyati berildi. Bu esa ko'plab xatolarning o'z vaqtida oldini olish va uchraydigan muammolarni hal qilishga olib keladi. Sayyor qabul — davlat organlari va davlat tashkilotlari rahbarlarining tasdiqlangan jadval asosida joylarga chiqqan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishi bilan bog'liq tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar majmui.

Biz jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar haqida so'z olib borar ekanmiz, ularning boshqa fuqarolardan farqi shundan uiboratki, ular yopiq joylarda saqlanayotganliklari uchun ayrim cheklanishlarga majburdirlar. Aynan bu holat mahkumlarning murojatlari bilan bo'g'liq hollarda yaqqol aks etadi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan ham mahkumlar boshqa fuqarolar kabi davlat organlariga va tashkilotlariga o'z ariza va taklif, shikoyatlari bilan murojaat qilishlari mumkin. Bu sohada fuqarolarimiz uchun qabul qilingan barcha normativ hujjatlar mahkumlar uchun ham amal qiladi. Prezidentimizning murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish borasidagi farmon va qarorlariga asosan Xalq qabulxonalariga alohida e'tibor qaratilib, yangi vakolatlar berilishi, shubhasiz shu soha vakillariga katta mas'uliyat yuklaydi. Fuqarolar murojaatlarida ko'tarilgan muammolar, quyilgan masalalar va berilgan takliflarni umumlashtirib, muntazam ravishda chuqur tahlil etish, chiqarilgan xulosalarni tegishli vazirliklar, boshqa davlat organlari va idoralarga yuborish, kerakli chora-tadbirlar belgilashini diqqat bilan kuzatib boorish ziyraklik, chuqur diqqat e'tibor va yuksak mas'uliyatni talab etadi. Bu institut jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabarlarning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, fuqarolar, davlat organlari o'rtasidagi o'zaro muloqotning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bunday muloqotning zaiflashishi davlatning barqarorligiga zarar keltiradi va fuqarolarning noroziligiga olib keladi. Masalan, fuqarolarning murojaatlari ko'pincha davlat mansabdor shaxslari yoki umuman biror-bir hokimiyat e'tiboridan chetda

qolgan muammoning yechimini toppish, uning kamchiligini ko'rsatib kelgusida takomillashtirishga yordam beradi. Qonunchilikka nisbatan o'zgartirish va qo'shimchalar bevosita taklif qilinmasa ham murojaatlarda ko'tarilgan muammolar qonun hujjatlarini takomillashtirishga sabab bo'lishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har bir adresat talabgorga ham tegishli bo'lgan qarama-qarshi majburiyat yuklaydi. Adresatlar murojaatlarni belgilangan muddatda ko'rib chiqishi va talabgorga qonunda belgilangan tartibda javob qaytarishi shart. Aynan jazoni ijro etish koloniyalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning murojaatlari ham muassasa ma'muriyati tomonidan belgilangan vaqtda va belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va hal etiladi. Muassasaning burchi shundaki, ular tuhmat, haqorat, milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan murojaatlarni kiritmaydilar, aks holda ular Fuqarolik, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksi normalarida belgilangan javobgarlikka tortilishi mumkin. Mahkumlarning murojaat qilish huquqini tushunishda, avvalo, ushbu huquqning xususiyatlarini belgilash lozim. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, normativ huquqiy hujjatlari manbalar tahlil va boshqa fuqarolar murojaatlari huquqning quyidagi xususiyatlari haqida so'z yuritishga imkon beradi. Har bir mahkum murojaatida biror bir masala yoki muammoning yechimini so'ragan bo'lsada, shu orqali ham mahkumlarning kayfiyati, sharoiti, turmush darajasini yaxshilash borasidagi muammolarini, xodimlarining mas'uliyati, mahkumlar bilan olib borilayotgan islohotlarga bo'lgan munosabatini bilish mumkin. Shuning uchun ham murojaatlar mahkumlar bilan Jazoni ijro etish koloniyasi o'rtasida muhim bir aloqa vositasi bo'lib, ular orqali mahkumlarning davlat olib borayotgan siyosatdan roziligi, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlardan mamnunligi yoki aksincha munosabatini bilish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rnida shuni takidlab o'tish joizki, bugungi fan texnika va texnologiyalar rivojlangan bir paytda, hali ham qo'llanilib kelinayotgan eski ko'rinishdagi ishlash tizimidan voz kechish va mahkumlarning murojaatlari bilan bog'liq sayyor qabullar tizimini mutlaqo yangicha bosqichga ko'tarish lozim. Shundan kelib chiqib, Jazoni ijro etish koloniyalarida mahkumlar bilan sayyor qabullar o'tkazish tizimini to'liqligicha ochiqLashtirish va shaffofligini ta'minlash shuningdek mahkumlarning murojaatlarini qabul qilishda qonun talablarida belgilangan muddatlarga so'ssiz amal qilish, davlat organlari va tashkilotlarga to'gridan to'g'ri, elektron murojaat qilish tizimini yo'lga qoyishni taklif beraman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
2. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. *JournalNX*, 7(1), 311-314.

3. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The Pedagogical System Of Preparing Boys For Family Relationships In General Secondary Schools. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8), 8.

4. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

5. Erkinjon o'g'li, L. A. (2024). SUYAK QADIG'I HOSIL BÒLISH PATOLOGIYALARNI ERTANGI DAVRLARDA ANIQLASH VA DAVOLASH. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 143-147.

6. Eminov, R. I., Latibjonov, A. E., G'Uloomov, Q. Q., & Umarova, S. D. (2022). EVALUATION OF THE ROLE OF MULTIMEDIA IN TEACHING EMBRYOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (103)), 59-62.

7. EMINOV, R., LATIBJONOV, A., G'ULOMOV, Q. Q., & UMAROVA, S. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 59-62.

## LUG‘ATSHUNOSLIK TERMINLARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI LUG‘ATLARIDA BERILISHI

**Sh.D. Saidova**

*Uzbekistan State World Languages University, Master`s department, Linguistics  
(English language)*

**Abstrakt:** *Ingliz va O‘zbek tillarini barcha sohalarida taqqoslab o‘rganish zamonimiz talab etayotgan hodisalardan biridir. Ushbu maqola ham lug‘atshunoslik sohasidagi muammolardan biri bo‘lgan lug‘atshunoslikka oid terminlarni shu ikki tilda tuzilgan lug‘atlarda qay tartibda berilishi haqida so‘z yuritadi.*

**Kalit so‘zlar:** *lug‘atshunoslik, lug‘at maqolasi, so‘z boshi, kirish qism, baynalmilal termin.*

O‘zbek tili lug‘atlarida lug‘at nomi, so‘z boshi, lug‘atning hajmi va tuzilishidan so‘ng lug‘at maqolasi keltirilgan bo‘ladi. Shu lug‘at maqolasida lingvistik terminlari bilan birga lug‘atshunoslik atamaları ham ta‘riflari bilan berilgan. Bunga misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi Azim Hojiyev tomonidan tuzib chiqilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atini” aytib o‘tishimiz mumkin. Ushbu lug‘atda ta‘kidlanishicha lug‘at maqolasining tarkibiy qismlaridan biri terminga beriladigan izohdir. Har bir termin ma‘lum bir lingvistik tushunchani bildiradi, ma‘lum bir ma‘noga (ayrimlari birdan ortiq ma‘noga) ega. Lug‘at maqolasida terminning ana shu ma‘nosi, ko‘p ma‘noli bo‘lsa barcha ma‘nolari izohlanadi. Namuna:

Sheva. Mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik, jihatdan umumiylikka ega bo‘lgan, bir yoki bir necha qishloqni o‘z ichiga oladigan qismi. Masalan, o‘zbek tilining Qorabuloq shevasi, o‘zbek tilining Niyozboshi shevasi.

Leksika (yunoncha lexikoz – so‘zga oid, lug‘aviy), 1. Tilning lug‘at tarkibi: O‘zbek tilining leksikasi. 2. Lug‘at tarkibining qo‘llanish sohasi uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatdan yondashib ajratiladigan guruhlari: Og‘zaki nutq leksikasi. Ijtimoiy-siyosiy leksika, kasb-hunar leksikasi, ekspressiv leksika, Oybek asarlari leksikasi va boshqalar. Ayni bir til hodisasi uchun ba‘zan birdan ortiq termin ortiq termin qo‘llanadi. Bunday terminlarning har biri lug‘atda berildi. Lekin izoh shulardan qaysi biri asosiy deb hisoblansa, ana shu terminga berildi. Masalan, tasviriy so‘z, taqlidiy so‘z, taxlid so‘z terminlaridan faqat taqlid so‘z terminiga izoh berilib, qolganlari q, (qarang), ayn, (aynan) kabi belgilar bilan taqlid so‘z terminiga havola etildi.

“So‘z boshi”da aytilganidek, ko‘pgina ruscha va rus tili orqali o‘zlashgan terminlar bu lug‘atda o‘zbekchalashtirildi. Lug‘atda bunday terminlarning ruscha, ruscha-baynalmilallaridankopi berildi. Chunki, birinchidan, ular hozirgi lingvistik adabiyotlarda qo‘llanyapti, lug‘atlarda berilyapti. Ikkinchidan, bunday terminlarni lug‘atda bermasak o‘quvchi bu terminlar ifodalaydigan hodisalar uchun olingan yangi (o‘zbekcha) termini lug‘atdan topishga qiynaladi (balki topolmaydi ham). Bundan terminlarning lug‘atga kiritilishi uning (terminning) o‘zbekchasini topishga yordam beradi. Keyinchalik esa yangi terminning o‘zbekcha varianti butunlay o‘zlashib, ommalashib ketgach, ruscha yoki ruscha-baynalmilal termini qo‘llashga, lug‘atlarda berishga ehtiyoj qolmaydi. Lekin shuni qayd

etish kerakki, bu lug`atda izoh asosan bunday terminlarning o`zbekchasiga berildi, ruscha, ruscha-baynalmilal muqobillari esa ularning o`zbekchasiga havola etildi. Misol uchun 1985-yil nashr etilgan lug`atimizda bir hodisani (bir tushunchani) ifodalovchi aktiv konstruksiya, aniq oborot terminlarining uchalasi berilib, faqat aktiv konstruksiya termini izohlangan, qolganlari unga havola etilgan edi. Bu narsa yuqorida ko`rilgan terminlardan faol tuzilma termini ekanini qayd etadi. Bu termin o`zlashib (ommalashib) ketgach, keyingi lug`atlarda aktiv konstruksiya, aktiv oborot terminlarini berishga ehtiyoj qolmaydi. Lug`at maqolasidagi tarkibiy qismlardan yana biri terminga berilgan izohni tasdiqlovchi misollardir. Lekin izohni isbotlovchi misol barcha lug`at maqolalarida bo`lavermaydi, balki ma`lum terminlar uchun tuziladigan lug`at maqolalarigina misol talab etadi. Masalan, lingvistika, umumiy tilshunoslik terminarining izohi hech qanday misol talab etmaydi. Jo`nalish kelishigi, ergash gap terminlarining izohidan so`ng esa tasdiqlovchi misol berilishi shart. Shunga ko`ra lug`atda faqat zarur hollardagina tasdiqlovchi misollar berildi.

[ Azim Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1985].

1998-yilda R.R.K Hartmann va Gregory James tomonidan tuzilgan va nashrdan chiqarilgan “Ingliz lug`atshunosligi lug`ati”da ushbu lug`atni vujudga kelishida o`z hissasini ayamagan insonlarga, olimlarga aytilgan tashakkur qismidan so`ng kirish o`rin olgan. Ayni chog`da kirish qismining o`zi ham bir necha sarlavhali bo`laklardan tashkil topgan. Bular: “Nazariya va amaliyot”, “Lug`at tipologiyasi”, “Chop etishdan kompyuterlashtirishgacha”, “Foydalanuvchi nuqtai nazari”, “Lug`at va lingvistik dalillar” “Lug`at kompilyatsiyasi”, “Qoplash va sifat” kabi turli xil ma`lumotlarni o`z o`quvchisiga ulashadigan qismlardir. Misol uchun “Lug`at tipologiyasi” qismida “Leksikografiyaning asosiy materiali "lug`at" yoki "so`z kitobi", bir vaqtning o`zida leksikografiya nazariyasi (lug`at tadqiqoti) mavzusi va leksikografik amaliyotning mahsuli (lug`at yaratish) eng keng tarqalgan ma`lumotnomadir “mazmunidagi ma`lumot berilgan. Lug`at sifatida lug`at tuzilmaviy jihatdan tasniflanishi mumkin bo`lgan ko`p janr yoki turlarni qamrab oladi. Masalan, fenomenologik tipologiya yoki rasmiy belgilarga asoslangan turkumlashtirish o`lcham ('cho`ntak lug`ati', 'qisqartirilgan lug`at') kabi kompozitsion xususiyatlarni hisobga olishi mumkin. , yoki ish mazmunini yorituvchi ('umumiy lug`at', 'ixtisoslashtirilgan lug`at' va boshqalar). Taqdimot yoki tektonik tipologiya lug`atning formatiga ("alifbo", "tasniflangan", "tematik" va boshqalar) yoki vositaga ("qo`lyozma", "bosma", "elektron" va boshqalar) qaratiladi. Kirish qismi yakunlangandan so`ng ushbu lug`atda “Lug`atda foydalanilgan ishlash metodlari” qismi mavjud bo`lib, bu yerda lug`atshunoslikda ham qo`llaniladigan bir nechta belgilar berilgan. Shu jumladan, oxirgi yigirma yillikda ingliz tilida nashr etilgan lug`atlardagi berilgan so`zlarga qo`shimcha ma`lumotlar ko`p hollarda bibliografik manbalar bilan to`ldirilgan bo`lib, ular belgisi orqali ko`rsatib ketiladi. Bundan tashqari ba`zi qo`shimcha ma`lumotlarda berilgan belgisi esa bosh so`z tushunchasining leksikografik amaliyotda qo`llanilishini ko`rsatishga xizmat qiladi, shuningdek bizga ma`lum bir so`z haqida qo`shimcha ma`lumot olish uchun internet veb-saytlariga yoki elektron ma`lumotlarga havolalar zarur bo`lgan taqdirda biz uni shu belgidan so`ng topishimiz mumkin. Misol tariqasida Gregory James va Hartmann tomonidan tuzib chiqilgan lug`atdan keltirishimiz mumkin:

Abbreviation A shortened form of a word, phrase or term which represents its full form. Abbreviations can be subdivided into ‘clippings’ (vet for veterinary surgeon), ‘contractions’ (don’t for do not), ‘acronyms’ (EURALEX for European Association for Lexicography), ‘initialisms’, ‘aerophones’ or ‘alphabetisms’ (DRC for Dictionary Research Centre, VIP for very important person) and ‘blends’ (brunch for breakfast/lunch). Reference works vary in their treatment of abbreviations. In general dictionaries, they may be given HEADWORD status, or be covered in separate lists in the front or back matter. Abbreviations are often used in dictionaries to indicate a word’s grammatical role (e.g. vt for transitive verb) or morphological features (e.g. m or masc for masculine) or to label a particular usage (e.g. obs for obsolete). Annotated lists of the abbreviations used are normally given in the USER’S GUIDE or elsewhere. CODE (2), EXPANSION, TEXT COMPRESSION. Landau 1984, Cannon 1990, ISO 1990, McArthur 1992, Svensén 1993. Acronyms, Initialisms and Abbreviations Dictionary (J.E.Towell), Detroit MI, 1989; The Oxford Dictionary of Abbreviations, Oxford, 1992. WWW Acronym and Abbreviation Server. [www.ucc.ie/info/net/acronyms/index.html](http://www.ucc.ie/info/net/acronyms/index.html);

[R.R.K Hartmann, Gregory James. - London, 1998.]

O‘zbek tilida yaratilgan lug‘atlar esa bundan mutlaqo boshqacha. O‘zbek tilida tuzib chiqilgan lug‘atlarda ko‘pincha ma‘lum bir belgilar emas balki, so‘zlar, qisqartmalar keltirib o‘tiladi. Bulardan lug‘atshunoslikka oid bo‘lgan bir nechtasini Azim Hojiyev tomonidan tuzilgan lu‘at misolida tahlil qilib olamiz.

KATTA HARF- ayn. Bosh harf

TASVIRIY SHAKL- ayn. Analitik shakl.

Q. belgisi shu terminga aloqasi bo‘lgan terminlar uchun tuzilgan lug‘at maqolasiga qarashga undaydi. Bu terminlar uchun tuzilgan lug‘at maqolasiga qarash bilan izohlanayotgan terminning mazmunini, u bildirgan lingvistik mohiyatini oson, aniq va to‘la tushunish imkoni tug‘iladi. Mas., sof bog‘lama terminiga tuzilgan lug‘at maqolasi bilan ko‘rsatilgan bog‘lama termini uchun tuzilgan lug‘at maqolasini qiyoslab ko‘ring.

BIRLIK SON. Son kategoriyasining bir turdagi predmetlardan birini (yakkalikni) bildiruvchi shakli. Birlik sonning bir turdagi maxsus yasovchi affiksi yo‘q. mas., kitob, o‘quvchi, uy, va boshqalar. Zid. ko‘plik son. Ba‘zi lingvistik terminlar o‘zaro farqlansa-da, lekin ma‘lum umumiylikka ega bo‘lgan lingvistik tushunchalarning atamasi bo‘ladi. Bunday terminlarni lug‘atda berish, izohlash bilan birga, ularni bir-biriga qiyoslashni tavsiya etish har birining ma‘no va mohiyatini to‘g‘ri va oson tushunishga yordam beradi. Xuddi shu maqsadda, qiyoslashga undash uchun lug‘atda qiyos. belgisi ishlatildi. Mas., shu lug‘atda lingvistik lug‘at va qomusiy lug‘at terminlariga tuzilgan lug‘at maqolalariga qarasa ko‘rishimiz mumkin. Rus tilida yozilgan adabiyotlardan, lingvistik lug‘atlardan foydalanish-1M 1, shuningdek, ruscha va o‘zbekcha lingvistik terminlarning o‘zaro muqobillarini to‘g‘ri belgilab (bilib) olishni osonlashtirish maqsadida lug‘atda o‘zbekcha terminlarning ruscha muqobillari ko‘rsatkichi ilova qilindi.

BOG‘LAMA.-Fe‘l bo‘lmagan so‘zni fe‘lga xos ma‘no va vazifaga moslovchi yordamchi fe‘l. Mas., Tolib rassom bo‘ldi, Tolib rassom bo‘lyapti, Tolib rassom bo‘lmoqchi bo‘l yordamchisi rassom so‘zi bilan qo‘llanib mayl, zamon, shaxs-son ma‘nolarini ifodalash uchun xizmat qilyapdi. Bog‘lama vazifasini bajaruvchi birlik o‘z leksik ma‘nosini qisman

saqlashi yoki faqat bog`lama vazifasini bajarishi mumkin. Shunga ko`ra bog`lamaning ikki turi farqlanadi: 1) sof bog`lama (q.), 2) yarim mavhum bog`lama (q.).

SOF BOG`LAMA. -leksik ma`nosini yo`qotgan, sof grammatik vazifa bajaruvchi bog`lama. Mas., edi, ekan to`liqsiz fe`llari... Q. bog`lama.

Demak, q. belgisi ishorasida bog`lama termini lug`at maqolasiga qarab, avvalo, bog`lama va uning turlari haqida tasavvur hosil qilinadi. Natijada sof bog`lamaning mohiyatini tushunish osonlashadi. O`zaro antonim bo`lgan terminlar ma`nosini bir-biriga qiyoslab ko`rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to`g`ri va aniq tushunishga yordam beradi. Shu sababli o`zaro antonim bo`lgan terminlarning har biri uchun tuzilgan lug`at maqolasida zid. belgisi bilan uning antonimi keltirildi. [ Azim Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1985]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.R.K Hartmann, Gregory James. Dictionary of Lexicography. - London, 1998.
2. [ Azim Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1985]
3. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.
4. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. JournalNX, 7(1), 311-314.
5. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The Pedagogical System Of Preparing Boys For Family Relationships In General Secondary Schools. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8), 8.
6. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.



Huquqiy savodxonlik deb ham ataladigan huquqiy ong, qonuniy huquq va majburiyatlarni tan olish va tushunishni o'z ichiga oladi. Bu shaxslarga huquqiy tizimda harakat qilish, adolatni izlash va o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatini beradi. Huquqiy ongning yuqori darajasi quyidagilar uchun juda muhimdir:

- Imkoniyatlarni kengaytirish: fuqarolarni o'z huquqlarini himoya qilish uchun bilimlar bilan jihozlash.
- Adliyaga kirish: huquqni himoya qilish va qonuniy himoya vositalarini izlash imkoniyatini ta'minlash.
- Qonun ustuvorligi: qonunlarni hamma bilishi, tushunishi va ularga rioya etilishini ta'minlash.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'zaro chambarchas bog'liqdir. Huquqiy ongning yuqori darajasi fuqarolarning faol va faol bo'lishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, huquqiy madaniyatni mustahkamlaydi. Aksincha, mustahkam huquqiy madaniyat huquqiy bilimlarning keng tarqalishiga yordam beradi va huquqiy savodxonlikni rag'batlantiradi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholining huquqiy ongi va

huquqiy madaniyatini oshirishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Jamiyatda

huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko‘p jihatdan bog‘liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag‘batlantirish, ijtimoiy – huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish norm.uz va boshqa masalalar o‘z aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon o‘zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi o‘zgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qo‘yilmoqda. Bundan tashqari 2017 –yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya orgnlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag “ Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko‘rish mumkin.

Aholining qonunlarga huquqiy jarayonlarga ishtirokini va ularning xabardorlik darajasini aniqlash uchun alohida jamoatchilik fikri so‘rovlari ham o‘tkazilib turiladi. Misol tariqasida 2017-yilda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi “ mavzusida jamoatchilik fikri so‘rovi o‘tkazilgan edi. O‘tkazilgan so‘rov ma‘lumotlariga ko‘ra, fuqarolarning mutlaq ko‘pchiligi, ya‘ni 90,5 foizi O‘zbekiston Konstitutsiyasini “mamalakatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat”, deb hisoblaydi, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning fundamental asoslari, inson huquqlarini himoya qilish va mustahkamlashga, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga, fuqarolar osudaligi va millatlararo totuvlikni ta‘minlashga sodiqlik mustahkamlab qo‘yilgan. Mutlaq ko‘pchilik fuqarolarning – 86,3 foizining fikricha , asosiy qonun nafaqat davrning zamonaviy talablariga javob beradi, balki istiqbolga mo‘ljallangandir deya fikr bildirishgan. Mazkur so‘rovda aholining o‘z fuqarolik huquqlari to‘g‘risida xabardorlik darajasi aniqlandi. “Siz o‘z fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?”, degan savolga fuqarolarning mutlaq ko‘pchiligi – 92,6 foizi tasdiqlovchi ovoz berdi. xuddi shunday ijtimoiy so‘rovlar tez-tez o‘tkazilib turilishi aholining fikrini o‘rganish va ularda mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak” nomli ma‘ruzasida siyosiy partiyalar,ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: “Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish,

aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: “Markaz - viloyat - tuman” tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo‘lar edi”,- degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo‘lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o‘rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qonunlarni yaratishlari shart va zarur. Bekorga “Markaz-viloyat-tuman” tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday siyosatda bo‘ladigan o‘zgarish va qo‘shimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlargacha yetib borishi xalq xabardor bo‘lishi va o‘z fikr –mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yaratish kerakligini aytib o‘tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo‘naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy

hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Huquqiy ongning yuqori darajasi fuqarolarning yanada xabardor va faol bo‘lishiga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida huquqiy madaniyatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy madaniyat huquqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni kuchaytirishi mumkin. Masalan; misol uchun:

- Ta‘lim tashabbuslari: Ta‘lim va xabardorlikni qadrlaydigan madaniyat yanada samarali huquqiy savodxonlik dasturlariga olib kelishi mumkin.
- Jamoatchilik ishtiroki: Ishtirokchi huquqiy madaniyatga ega jamiyatlar ko‘pincha fuqarolarning faolligi va xabardorligining yuqori darajasini ko‘radi.

#### **XULOSA.**

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni anglash va tarbiyalash adolatli va adolatli jamiyatni rivojlantirish uchun zarurdir. Huquqiy ta‘limni rivojlantirish, jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirish va madaniy to‘siqlarni bartaraf etish orqali jamiyatlar o‘zlarining huquqiy tizimlarini yaxshilashlari va qonun ustuvorligini ta‘minlashlari mumkin. Shunday qilib, manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumatlar, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari mustahkam huquqiy ong va ijobiy huquqiy madaniyatni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun hamkorlik qilishi kerak. Ushbu jamoaviy sa‘y-harakatlar huquqlarni himoya qilish, adolatni ta‘minlash va uyg‘un ijtimoiy tartibni mustahkamlash uchun juda muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi.“ O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.- T.: Adolat 2011, 7-b
2. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b
3. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan.
4. Nrm.uz “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o`rganish Markazi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi” mavzusida jamoatchilik fikri so`rovi.
5. Kun.uz 24.11.2017

---

**RAMZ VA MAJOZDA HAYOT TASVIRI****Tog‘ayeva Sayyora Nodir qizi***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**2-kurs magistri*

O‘zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlardan biri Normurod Norqobilovdir. Uning asarlarida ramz, majoz asosida insonni kashf etish, inson va tabiat birligini talqin etish holatini ham kuzatish mumkin. Badiiy adabiyotda inson obrazi muhim. Chinakam ijodkor hamisha obrazga diqqat qaratadi va uni turli ramzlarda tasvirlaydi. Ruhiiy iztiroblar og‘ushidagi obraz nisbatan murakkab bo‘ladi. Ammo N.Norqobilov inson tabiatidagi murakkablik bilan tabiat hodisalarini bir butunlikda ko‘rsatadi. “Qoyalar ham yig‘laydi” qissasida qoya, buloq, tosh, archa, ayiq, it, inson aro uzviy, tabiiy bog‘liqlikda beriladi. Qissada Ernazar polvon borlig‘i, o‘y-fikrlari bilan tabiat odami. U jamiyat tartibotini biladi, fan-texnika taraqqiyotini angalaydi, zamon va odamlar o‘zgarib borayotganini ko‘radi. Lekin, baribir, tabiatning azaliy tartiblari asosida yashashni yoqtiradi. Ernazar polvon katta oilaning qoyaday mustahkam tayanchi, qishloqdoshlarining etakchisi, G‘aybulla merganday aqlli odamning do‘sti. U zaifayu ojizalarni e‘zozlaydi, lekin ular bilan hisoblashishni xayoliga ham keltirmaydi. Uning qalb tuzuklari bor, ularga qat‘iy rioya qiladi. Er yigitning go‘zalligi qalbidan. Ernazar polvonning ayoli o‘g‘illar sonini yana bittaga orttirganida, uning yuragidan quyosh chiqqanday bo‘ldi. Chaqaloqni ko‘rdiyu uning kapalagi uchib ketdi. Yo‘q, bola ta‘viya, nogiron emasdi.

Aksincha, qosh-ko‘zlari popukday, kipriklari to‘sday qop-qora, betlari, dahani kelishgan. Ota ko‘nglidan zimda xayol kechdi: “Qizbet”. Shu beozorgina fikr ota va o‘g‘il ziddiyatiga, oilaviy fojiga sabab bo‘ldi. Xushbichim chaqaloqqa O‘sar deb ism qo‘yishadi. U aqlli, tadbirkor yigitcha bo‘ldi, tuman markazida vaqtini o‘tkazdi. Aka-ukalariday kurash tushmaydi. Otasi har qancha gapirmasin, davraga kirmaydi. Tumanda allaqanday sport bilan shug‘ullanadi. Mototsiklda g‘ir etib qishloqqa keladi, g‘ir etib shaharga ketadi. O‘sar beboshlik ko‘chasiga kirib, nasl-nasabining tayini yo‘q ayol bilan tanishadi. Harom-xarishni farqlamay qo‘yadi. Ota erinmasdan markazga borib, o‘sha ayolni ko‘rib qaytdi. Ernazar polvonning dardi-dunyosi zim-ziyo bo‘ldi.

“Ichki kechinmalar, tuyg‘ular, hislar in‘ikosi orqali inson qiyofasining to‘la namoyon bo‘lishi badiiylikning muhim mezoni. Bu hol, o‘z navbatida, istiqloq adabiyotining o‘ziga xosligini belgilaydi. Normurod Norqobilovning “Qoyalar ham yig‘laydi”, ”Tog‘ odami” qissalari buning yorqin misolidir” [1, 208-bet].

“Qoyalar ham yig‘laydi” qissasining qahramoni Ernazar polvonning har bir harakati, qadam bosishi, o‘tirishi, atrofiga nigoh solishi, gapirish yo‘sini maqsad sari yo‘naltirilgan, ya‘ni bu narsalar u qanday odam ekanligidan dalolat beradi. U o‘z e‘tiqodi va aqidasi ega

shaxs. Uningcha, jo‘mardlikning asosi oila, shundan unga qilcha xiyonat aralashishi kerak emas. Shundagina nasl toza bo‘ladi. Nasli toza inson go‘shasiga mehr qo‘yadi. Uni muqaddas deb biladi. Irodasi kuchli, ruhan sog‘lom bo‘lib etishadi. Uning etti pushti shu aqidaga amal qilgan va bu aqidani buzish uning ajdodlari ruhiga xiyonatdir. Lekin o‘g‘li O‘sar bobolaridan meros bu an’anani buzadi. Hatto otasiga qo‘l ko‘taradi. Bundan qoyalar ham g‘azabga kelib, ko‘chkisini ko‘chiradi, qal’aday toshlardan biri uni yiqitadi, so‘ng, chog‘roq xarsang belidan bosadi.

Yozuvchining bu asarida hayotiy haqiqatning badiiy talqini vositasida insoniy falsafadan saboq beradi, kishini ko‘p narsadan ogoh qiladi. Qissa nomidagi ramz bosh obraz tabiatida kechgan iztiroblarga mos tushadi. Ernazar polvon qoyaga taqqoslanadi. Tog‘ qoyalarining o‘pirilishi – tabiat hodisasi. Ernazar polvon oilasidagi noloyiq farzand ham shu holga o‘xshaydi.

Inson qo‘li bilan yaratilgan, yuzaga keltirilgan barcha narsani yo‘qotish mumkin. Lekin nohaqlik va adolatsizlik tufayli insoniy g‘urur va sha‘ning toptalishi oqibatida, qalbda yuzaga kelgan suvaydoni yo‘qotib ham, o‘chirib ham bo‘lmaydi. Chunki u insonning vujudiga joylashadi. Uni yo‘qotish o‘zini ham jisman yo‘q qilish demakdir. Tabiiyki, suvaydo yurakda bo‘lgach, kishini bezovta qiladi. Basharti insonning insoniyligini belgilab beradigan shu tuyg‘u ustidan kulinsa, mazax qilinsa, bu hol dunyodagi barcha yovuzliklardan ko‘ra ham battar sanaladi. Ko‘ngil tuyg‘ulari pora-pora qilingan qalb iztirobi esa, barcha azoblardan ham azoblidir. Chunki unda insonning ko‘ngil mayli bilan ma’naviy olami, odamiylik va insoniy qismat, taqdir yuzma-yuz keladi. Albatta, bunday xususiyat barcha odamlar uchun emas, balki jo‘mard insonlargagina xos xususiyatdir. Bu jihatlar Normurod Norqobilovning “Bekatladi oq uycha” “Tog‘ odami”, “Qoyalar ham yig‘laydi” kabi qissalarida o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Bu qissalar o‘zbekning oriyati, milliy an‘ana va qadriyatlarining ehtiromi to‘g‘risida bitilgan “Qoyalar ham yig‘laydi” qissasidagi Ernazar polvon nafaqat o‘g‘illari, nabiralarining pokdomon, jasur bo‘lishini istardi. Uning itlari ham yovqurlik, jasurlik imtihonidan o‘tardi. Ernazar polvon atay yilda bir, shu yil tug‘ilib voyaga etgan sara itlarini ayiqqa ro‘baro‘ qiladi. Ayiqqa duch kelgan itlarning saragini sarakka, puchagini puchakka birdan ajratadi va tabiatan yovqur bo‘lgan itgina ayiqqa hamla qila oladi. Jur‘atsiz itlar esa nari-berida akillab turaveradi. Va nihoyat, kuchlar teng bo‘lmagan bu to‘qnashuvda, ayrim hollarda, tabiiy ravishda hujumkor it jarohat topadi.

Asardagi Ernazar polvon keyinchalik ayni shu itni asrab qoladi, qolganlarini esa jur‘atsiz itlar soni ko‘paymasligi uchun yo‘q qiladi. Ernazar polvon ushbu qadimiy odat bo‘yicha itlarini sinovdan o‘tkazib keladi. Bunaqa paytda, ayiqqa daxl qilinmaydi, u sinovchi ob’ekt sifatida xizmat qiladi. To‘qnashuvda jarohat topgan yovqur it esa alohida parvarishlanadi. Chunki u nasli toza, noyob it hisoblanadi. Adib tabiat hodisalarini qaysidir ma’noda oilaviy muhiti bilan zimdan taqqoslaydi.

Asar qahramoni Ernazar polvonning kichigi O‘sar bo‘lsa oilaning muqaddas tartibini buzmoqchi. Ota qishloqqa sig‘madi, toqqa chiqib ketdi: kuydi, yondi, o‘rtandi. Uning holini ko‘rib qoyalar yum-yum yosh to‘kdi. Yana bir safar ota nobakor o‘g‘lini toqqa olib chiqdi. Yuragini “yordi”. Gap-gapga to‘g‘ri kelmadi. Ota o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Keyin tuyqusdan ich-ichidan qo‘zg‘algan achchiq alamga chidayolmay, boya ko‘z oldiga olib qo‘ygan kalladay toshni changallab, bor kuchi bilan pastga uloqtirdi. Tosh pakana archa tanasiga borib urilib, qasir-qusurlaganicha quyiga yumalab ketdi. Qissada qiziq holat ro‘y bera boshladi: tosh, daraxt, atrofdagi narsalarga jon bitadi. Ernazar polvon jon-jahdi bilan quyiga itqitgan kalladay tosh ramz-timsol darajasiga etdi. Ota va o‘g‘il munosabatlari o‘ta keskinlashdi.

Tabiat ham o‘zini arang tutib turibdi. O‘g‘il beixtiyor otaning quloq-chakkasiga musht tushirdi. Ota karaxt bo‘lib qoldi. Tabiat quturdi. O‘g‘il borlig‘ini azobli, titroq junbushga keltirdi. U o‘zidanmi, jonu jahonini o‘rtayotgan holatdanmi, tog‘ tomon qocha boshladi. Otaning: “To‘xta, oqpadar!” degan na‘rasi eru ko‘kni titratdi, bunga yana vahimali shovqin-suron qo‘shilib, borliq silkinib ketdi. Birdan hushyor tortgan ota beixtiyor boshini ko‘tardi. Shundoq tepada xo‘mrayib turgan baland qoya qoshidagi xarsang toshlar uyumi qo‘zg‘alib, yigitning ustiga bostirib kelmoqda edi. Ne hodisot ro‘y berdi, yo qodir egam? Qattiq iztirob va qo‘rquvga tushgan ota bir lahza qotib qoldi-da, so‘ng bor ovozda:

“– Chapga o‘t, chapga!.. Ernazar polvon eng oldinda misoli koptokday sakrab kelayotgan kalladay-kalladay toshlardan biri o‘g‘lini urib yiqitganini aniq ko‘rdi. Undan keyingi chog‘roq xarsang boshidan bosib, yanchib o‘tayotganini ham ilg‘adi. Saldan so‘ng O‘sar toshlar oqimi orasida butunlay ko‘zdan yo‘qoldi. Ota jonholatda bo‘kirib yubordi: “Uli-im!” [2, 378-bet]. O‘sarni urib yiqitgan tosh boya g‘azab alangasida qovrilib, yurak-bag‘ri o‘rtanib turganida Ernazar polvon jon-jahdi bilan pastga uloqtirgan “kalladay tosh” bo‘lib tuyulaveradi. Yozuvchi qalamning kuchi tog‘u qoyaga, asrlar bo‘yi qimir etmay yotgan toshga jon, ya‘ni harakat ato etganday bo‘ldi.

Yozuvchining “Qoyalar ham yig‘laydi” qissasida jamodot xilqati va polvon kelbatli kishilarning o‘zaro munosabati ifoda topgan. Muhimi, Ernazar polvon, Ko‘char polvon, Turkman polvon singari obrazlar tabiati toshlar, xarsanglar bilan uyg‘unlikda ifoda etiladi. Ernazarning polvonlarga xos tushunchalari oddiy, sodda, ta‘bir joiz bo‘lsa, hatto eskirib ketganday. Aslida esa, tabiatning tuzilishi, ming-ming yillik hayoti oddiy, sodda, nihoyatda teran qonun-qoidalarga asoslangan. “Qoyalar ham yig‘laydi” qissasida borliq insonlar fe‘li-atvoriga mengzab ko‘rsatiladi.

Asarda Ernazar polvon O‘sardan ranjigan, uni yaxshi so‘z, pand-nasihati bilan haq yo‘lga tushirmoqchi bo‘lgandi. Kutilmaganda, voqealar selday davom etdi. Vaziyat inson inonixtiyoridan ustun keldi. Qissadagi ushbu tasvirda ong oqimi ham, qudratli tashqi kuchning ta‘siri ham, sinergetika qonuniyati ham lahzada o‘zini namoyon qildi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, chaqilgan chaqmoq O‘sarni yo‘qlik dunyosiga olib ketdi, tabiatni alg‘ov-dalg‘ov qilib



tashladi; Ernazar polvon qalbida bitmas ruhiy jarohatni boshlab berdi. Normurod Norqobilov asarlarini o‘qigan har bir o‘quvchining qalbiga nabotot olamiga bo‘lgan o‘zgacha bir mehr tuyg‘usi uyg‘onadi. Uning qissalarida obraz tabiatining individual talqini bilan hamohang, holda nabotot olamining qorong‘u jihatlari namoyon bo‘ladi. Insonlar orasida nisbatan kamayib borayotgan mehr-muhabbat, o‘z juftiga vafodorlik, sodiqlik, mardlik, shijoat, tirishqoqlik kabi ezgu fazilatlarni maromiga etkazib ko‘rsatiladi.

Adabiyotshunos U.Normatov qayd qilganidek: “Badiyat asosidagi eng asosiy o‘zgarish shundan iboratki, san‘at, adabiyot, adabiyotshunoslik yakka hokim iskanjasidan xalos bo‘ldi, san‘at va adabiyotning erkin, xilma-xil falsafiy-estetik o‘zanlar bo‘ylab rivojlanishi uchun keng yo‘l ochildi. Eng muhimi, qadimiy va ilg‘or zamonaviy qadriyatlarni ardoqlash, ularni yangi asosda qaror toptirish bosh masalaga aylanmoqda”. Darhaqiqat, badiiy adabiyotdagi tasvir usulidagi o‘zgarishlarga jahon adabiyotidagi mavjud an‘analar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi tabiiy, albatta.

Sakllanib kelgan badiiy nasriy asarlarda inson va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatlar turfa xil ohanglarda o‘z ifodasini topadi. Badiiy adabiyot yaralibdiki, yaxshilik va yovuzlik, adolat va adolatsizlikni turli vositalar, ramzlar, majozlar orqali ifodalashga intiladi. Mavjud ziddiyatlar hech bir insonni chetlab o‘tmaydi. U ko‘pincha uzoq muddat o‘zaro birga bo‘ladigan inson va inson, inson va muhit, inson botinidagi ziddiyatlar zamirida sodir bo‘ladi. Odatda shunday tasavvurlar mavjudki, konflikt – bu doim tahdid, dushmanlik, araz, tushunmovchilik uyg‘otadigan salbiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida esa, inson tafakkuridagi evrilishlar, jamiyatdagi ziddiyatlar konflikt vositasida poetik ifoda qilinadi.

Normurod Norqobilov asarlariga murojaat qilinganda, uning barcha nasriy asarlari roman, qissa, hikoyalarda badiiy konfliktning asar syujetiga mahorat bilan singdirilgani kuzatiladi. “G‘animlar” qissasi bu fikrga yorqin misol bo‘ladi. Asardagi voqealar oddiy qishloq hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Inson va nabotot olami dialektik birlikda yashab kelgani singari, adib majoziy obrazlar orqali hayotiy ziddiyatlarni ifodalashga harakat qiladi: “Suyukli iti Dikkiquloq o‘ldirib ketilgandan so‘ng, g‘azabi ko‘kka o‘rlagan Sarvar, itning qotili bo‘lmish Yoldor bo‘rining jonini olmoqqa qat‘iy ahd qildi. Shu tog‘da yo sen turasan, yo men, deya bor ovozda baqirdi” [3,125-bet]. Sardordagi nafrat hissi, sevimli itining Yoldor bo‘ri tomonidan o‘ldirilishidan boshlanadiki, bu esa har ikkisi o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Inson qalbidagi iztiroblarni yozuvchi asar syujetiga mahorat bilan singdirib yuboradi. Konfliktlar, insonlarning o‘zaro bir-biriga ta‘sir ko‘rsatishi, o‘zaro munosabatlar jarayonida vujudga kelishi bilan bir qatorda, muhitning ta‘sirida obraz tabiatining shakllanishini ham kuzatish mumkin.

Badiiy asardagi konflikt hodisasi faqat insonlar o‘rtasida mavjud bo‘lib qolmay balki, bir insonning o‘zida, ya‘ni botinida ham mavjud bo‘ladi. SHuning uchun badiiy asar tarkibida konfliktning bir qancha ko‘rinishlari farqlanadi. Bu haqida adabiyotshunos olim H.Umurov quyidagicha yozadi: “Psixologik (ruhiy) konflikt qahramon qalbidagi hissiyotlar,

tushunchalar, ojiz va kuchli jihatlar kurashidir. Ijtimoiy konflikt – asar qahramonlari bilan ular yashayotgan sharoit o‘rtasidagi kurash. Shaxsiy – intim konflikt – bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar, guruhlar o‘rtasidagi kurash” [4, 45-bet].

Badiiyatdagi ijtimoiy konflikt – bu taraflardan biri ikkinchisi bilan qarshilik yoki ochiq kurashga kirgan holati sifatida qaraladi. Ijtimoiy konfliktlar bilan bir qatorda konfliktning ijtimoiy-psixologik va psixologik kategoriyalari ham ajratiladi. Konfliktning asosiy ko‘rinishlari yozuvchining yuqorida qayd qilgan qissasida mahorat bilan o‘z aksini topgan: “Bularda faqat jasad bor, fahm-farosatdan zig‘ircha yo‘q, deydi. Tulkisimon Dikkiquloqni esa dunyodagi barcha itlardan afzal ko‘radi. Bunda bor yo‘g‘i zabon yo‘q, qolgan hamma narsani odamday ilg‘aydi, odamday fahmlaydi, ishonmasangiz sinab ko‘ring” [2, 125-126-betlar]. Bu talqinlardan ko‘rish mumkinki, Sarvar o‘z itidagi xislatlarni sanar ekan, botinida o‘zi bilan o‘zi kurashadi. Ruhiy konflikt asar obraz tabiatini yoritishga asos bo‘lgan.

Yozuvchi Normurod Norqobilovning ko‘plab asarlarida hayvonlar insoniy fazilat, fahm-farosat bilan ko‘rsatiladi. Gohida itlar yoki bo‘rilar bilan inson o‘rtasidagi ziddiyatlarida ongli mavjudot atalmish odamning tubanlashgani ko‘rinadi. Har qanday konfliktning qamrov doirasi juda keng bo‘lib, ichki va tashqi holatlarga, omillarga, hayot voqeligiga bog‘liqdir. Bu holatlar qanchalik o‘zgaruvchan va o‘ziga xos bo‘lishini asardagi voqealar rivoji namoyon qiladi. Shuning uchun badiiy matndagi konflikt predmeti deganda, tomonlar o‘rtasida ob‘ektiv jihatdan mavjud bo‘lgan yoki biror maqsadni ko‘zlab yuzaga keltirilgan muammolar majmuasi tushuniladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Каримов Х. Истиклол даври адабиёти. –Тошкент, “Янги нашр” нашриёти. 2010 йил. – 420 Б.
- 2.Норқобилов Н. Бекатдаги оқ уйча. –Тошкент, Шарқ нашриёти, 2000 йил. – 468 Б.
- 3.Норқобилов Н. Ғанимлар. Қисса. Қаранг: Бўрон кўпган кун. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент, Шарқ, 2007. – 288 Б.
- 4.Умуров Х. Сайланма. 4 томлик. 2-том. – Тошкент, Фан, 2010. – 360 Б.
- 5.N.A.Normamatovich. International Jurnal on Orange Technologies. 3(3), 71-76, 2021.
- 6.N.A.Normamatovich, J.Elmira. Notel thinking and artistik conflict in shoyim butayev’s novels. International Jurnal on Orange Technologies 2 (6), 1011-1022, 2021.
- 7.N.A.Normamatovich. Features of Symbolic Interpretation. International Jurnal on Orange Technologies 3(3), 71-76, 2021.

---

8.N.A.Normamatovich. Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. International Journal of social science Interdisciplinary Research. 2023.

1. Ikromjon, Y., & Shaxnoza, P. L. (2022, November). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI KASBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TALABLARI. In E Conference Zone (pp. 67-78)..

2. Yo‘ldashev, I. (2023). UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(15), 39-45.

3. Yo‘ldashev, I. (2023). O‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo‘naltirish pedagogik-psixologik, ijtimoiy muammo sifatida. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(19), 7-15.

**“BOZOR” ROMANI RAMZ VA MAJOZ IFODASI****Nazarova Nilufar Ne’mat qizi***Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali boshlang‘ich ta’lim**2-kurs talabasi***A.N.Nasirov***Ilmiy rahbar: prof.*

Mustaqillik davri nasri o‘zbek adabiyotida tub burilishlarni yuzaga chiqarish imkonini yaratdi. Bu davr adabiyoti sharq va g‘arb ijodiy an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan davr adabiyotini shakllanishiga ham bevosita xizmat qildi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev qayd qilganidek: “Davr va adabiyot munosabati g‘oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o‘zgarib turishi bo‘lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o‘zi yaratgan zamonga qaraganda ko‘proq yashashga intilishi, barqarorroq bo‘lishga urinishidir” (1, 15-bet).

Haqli ravishda qayd qilinganidek, adabiyotning turfa ohanglarda taraqqiy etishi ham asosan istiqloq yillariga to‘g‘ri kelishini alohida ta’kidlash joizdir. Istiqloq davriga kelib adabiyotimizda shunday salmoqli badiiy poetik asarlar maydonga keldiki, bu davr yutuqlarini hech qanday dalillar bilan inkor etib bo‘lmaydi. Har bir davrning o‘ziga xos talqinlari bo‘lgani kabi istiqloq yillariga kelib badiiyat mezonlarining ifoda shakllarida yangicha talqinlar maydonga keldi.

To‘g‘ri, biz bu bilan o‘tgan asardagi asarlarda yangilanish, poetik ifodadagi o‘zgarishlarning mavjudligini inkor etmoqchi emasmiz. Chunki, har qanday yangilikning kurtaklari mavjud ediki, faqat shu xususiyat teranroq badiiy matndan o‘rin olganligini ham qayd etmoqchimiz.

Istiqloq yillariga kelib badiiy adabiyot, dunyoni tushinish va tushintirish, inson psixologiyasi, xalq saviyasini yuksaltirishga intilish adabiy jihatdan yangilanish bosqichiga qadam qo‘yganligini ham qayd etish lozim deb hisoblaymiz.

Mustaqillik davri adabiyotida turfa xil janrlar taraqqiyoti o‘zgarishlar etakchilik qilmoqda. Bu o‘zgarishlar ham shkl, ham mazmun jihatdan mukammallashib borayotganligi qayd qilingan fikrlarni isbotlaydi. O‘z navbatida, jamiyatning barcha sohalarida kuzatilayotgan demokratik yangilanish-millatning ozodlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lidagi intilishlari adabiyotshunoslik tizimi oldiga ham muhim vazifalarni, muammolarni ko‘ndalang qo‘ydi.

Adabiyotshunos olim U.Normatov qayd etganidek: “Yangi o‘zbek adabiyoti mamlakat, xalq hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan mustahkam aloqadorlikda tug‘ildi, shakllandi va rivojlandi. Ko‘p asrlik tariximizda so‘z san‘atiga bu qadar yaqin aloqada bo‘lgan emas” (2, 8-bet).

Hayotning murakkab qirralarini badiiy talqin etish jarayonida ham ramziylik, majoziylik yetakchilik qila boshladi. “Bozor” romanida yozuvchi qo‘llagan shartli ramziy uslublar Nafsning jonli mahluq-badiiy obraz sifatida talqin etishi, olam va jamiyat soat murvatiga o‘xshab betinim harakatdagi bozor ramzida berilishi, jon talvasasida yotgan bozorboshini kimdir chaqirib kelishi – ilohiy tushuncha Azroil ekanligini anglashdir (3,84-bet) degan fikrlar ham qayd qilingan. Fikrlardan ko‘rinadiki, o‘zbek adiblari g‘arb so‘z san‘atining ilg‘or tajriba va etakchi tamoyillarini, milliy an‘analarga bo‘ysindirgan holda, badiiyatga singdirayotganligidan dalolat beradi.

Shu nuqtaiy nazardan, milliy istiqlol davri o‘zbek romanlarining taraqqiyotiga quyidagi omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatganligini kuzatish mumkin: milliy istiqlol natijasida yuzaga kelgan badiiy so‘z va ijod erkinligi, oldingi davr o‘zbek romanlarining mantiqiy davomiyligi va vorsiyligi bilan izohlash mumkin. Adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov esa roman haqida quyidagi mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi: “Bozor” romanida bozor timsoli inson hayotining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi” (4, 4-bet). Ramziylik romanning asosiy xususiyati ekanligini alohida ta‘kidlab, o‘tishining o‘ziyoq, roman poetikasidagi o‘ziga xos xususiyat ekanligidan dalolat beradi.

Xurshid Do‘stmuhammadning shartli-ramziy badiiy talqin yo‘lida yaratilgan noan‘anaviy romanlari milliy istiqlol davri romanchiligimizda shakllanayotgan va yangilanayotgan o‘zbek romani janriga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatar ekan, zamon bilan hamnafas roman janri talabidan kelib chiqib, o‘zbek romanchiligida o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishni yuzaga chiqaradi.

Milliy istiqlol davri romanchiligida ravnaq topayotgan an‘anaviy romanlar qatorida, noan‘anaviy romanlar ham taraqqiyot sari yuzlandi. Janr taraqqiyoti noan‘anaviy romanlar misolida ochib berilar ekan, tub islohatlar ta‘sirida yashayotgan zamonda yangicha ruh, yangicha tafakkur hosilasi o‘laroq, yangi-yangi romanlarni yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Muallif butun jamiyat tasvirini qamrab olish uchun epik turning keng imkoniyatiga ega bo‘lgan roman janriga murojaat qiladi. Bundan tashqari, hayot modelini badiiy talqin etish uchun majoziy-falsafiy tasvir tamoyillariga tayanadi. Umuman olganda, adib bozor orqali hayotning ramziy shaklini tasvirladi.

Jamiyat modelini turli ramziy obrazlar orqali ifoda etish adabiyot uchun yangilik emas edi, ammo yozuvchi bu borada original ramzga murojaat etadi-insonlar ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutuvchi bozor timsolidan foydalanadi. “Odamlarning ichini ko‘rib, tomosha qilib yurish borasida bozordan qulayroq joy yo‘q dunyoda. Bozor-dunyo...” (5, 11-bet).

Bu borada Fozilbekning bozor haqidagi mulohazalari ham e‘tiborga molikdir: “Bozorni anglab yetmog‘imiz darkor!... Bozor hyech zamonda o‘zgarishdan to‘xtamagan, lekin bozorning o‘zgarishlariga yarasha odamlar ham o‘zgargan, o‘zgarishga moslashishga ulgurishgan. Endi esa oddiy odam tugul, sizni bizga o‘xshash yetti pushti bozorchi o‘tganlar

ham o‘zgarishda, yaniglanishda bozordan anchagina orqoda qolib ketyapti” (5, 37-38-betlar).

Ko‘rinadiki, asar qahramonlari ham zamonga xos tafakkur yuritadi, yanigcha qarashlar bilan atrofiga bir qur nazar tashlaydi, mulohazalaydi, tushunganidek harakat qiladi. Badiiy asarda qahramonning ruhiyati tasvirisiz kitobxonning ishonch va e‘tiborini qozonib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bugungi zamonaviy romanlarda davrga xos shaxslarining xarakterini yaratish yozuvchidan alohida mahorat talab etadi.

Xullas, “Bozor” romanida majoz va ramz asosida, davrning shiddatli voqealari, inson ruhiyatidagi, sizimlaridagi kechinmalarni badiiy talqin etganligini kuzatish mumkin. Adib roman suyujetini shakllantirishda ham bu poetik xususiyatlardan unumli foydalanadiki, bu esa asar qahramonlarining nomlanishida ham namoyon bo‘lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Йўлдошев Қ. Ёنيқ сўз. – Тошкент, “Янги аср авлоди” 2006. 15-бет.
2. Норматов У. Янги давр ўзбек адабиёти. – Тошкент, “Университет”, 2007. 8-бет.
3. Пардаева З. Бадий-эстетик тафаккур ривожии ва ўзбек романчилиги. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2002. 84-бет.
4. Солижонов Й. “Бозор” романида рамзийлик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2000. 8-декабрь.
5. A. Nasirov Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels. *Akademica: An International multidisciplinary Research journal* ISSN 222-49, 2020.
6. Nasirov A. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasii” romanida obrazlar yaratish. *Uluslarsi Turk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD)* 4(2), 200-205, 2020.
7. N.A. Normamatovich. *International Journal on Orange Technologies*. 3(3), 71-76, 2021.
8. N.A. Normamatovich, J. Elmira. Novel thinking and artistic conflict in Shoyim Butayev’s novels. *International Journal on Orange Technologies* 2 (6), 1011-1022, 2021.
9. N.A. Normamatovich. Features of Symbolic Interpretation. *International Journal on Orange Technologies* 3(3), 71-76, 2021.
10. N.A. Normamatovich. Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. *International Journal of social science Interdisciplinary Research*. 2023.

## YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

**Tojiboev Muzaffar Tursunpo‘latovich***Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid tushunchalar, qarashlar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *vatanparvarlik, san'at sohasi, estetik ehtiyojlar, madaniy-ma'rifiy faoliyat.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so'z bilan aytganda ma'naviy- mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev – Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy etuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda», - deb bu borada qilishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko'rsatmalarni berib o'tdilar. Bu so'zlar zamirida hali oldimizda bu sohada juda ko'p ishlarni qilishimiz lozimligini hayotni o'zi isbotlamoqda. – Maqsadimizga erishish yangi demokratik jamiyatni qurish, islohatlarning taqdirini qanday kuchlarga ega ekanliklarimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday g'oyalarga e'tiqod qilishiga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir»- deydi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov. Shu bois yoshlarning ma'lumot olish imkoniyatini oshirish, milliy umuminsoniy tiklanish g'oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shuning uchun bugungi kunda o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma'naviyatini va milliy qadriyatlarini singdirish yoshlarni vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash madaniyat va san'at sohasining asosiy masalalaridan biri sifatida

qaralmoqda. Chunki, madaniyat va san'at jamiyat hayotining muhim ajralmas qismi bo'lib, u inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Milliy Vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat ahloqiyma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, qarashlar yig'indisi tushuniladi. Ta'lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tarbiyalash ta'limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda O'zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o'zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo'lgan tuyg'ular, fazilatlar o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyatda o'z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelinmoqda.

Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg'usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O'sha tafakkur qilmaydigan jonzorlar ham, hasharotlar ham o'zining uyini taniydi, uni quradi,

unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aqlu zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo'lgan insonda esa bu tuyg'u yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashkibuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko'rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog'onalarini ko'rib guvohi bo'lib turibmiz. Insonlarning tinchhotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro'yini ko'tarish, Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, «xalqni rozi qilish» yo'lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta ustivor yo'nalishlari



mazmunida ham shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro'yini oshirish va boshqa masalalar turibdi. Bunday ulug' ishlarni amalga oshirishda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli insonlarning fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. "Vatan" - arabcha so'zdan olingan bo'lib, - «Ona yurt» degan ma'noni anglatadi.

Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, avlod va ajdodlari tug'ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma'naviy tushunchalarni anglatadi. -Vatanparvarlik - deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ma'naviy - axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik - ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o'tmishi va kelajagi, xalq urfodatlarini, kuy-qo'shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir».

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda roy berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to'g'ri. Ammo, biz bu tuyg'uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qo'llagan bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromjon, Y., & Shaxnoza, P. L. (2022, November). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA O 'QITUVCHISI KASBINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TALABLARI. In E Conference Zone (pp. 67-78)..

2. Yo'ldashev, I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O 'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA O 'QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(15), 39-45.

3. Yo'ldashev, I. (2023). O 'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo 'naltirish pedagogik-psixologik, ijtimoiy muammo sifatida. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(19), 7-15.

4. Po'latova, S. (2023, November). KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

5. Po'latova, S. (2023, November). O ‘QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO ‘YICHA MUNTAZAM MASHG ‘ULOTLARGA BARQAROR QIZIQISH VA KO ‘NIKMALARNI TARBIYALASH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI BILAN BIRGALIKDA  
ZAMONAVIY PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANGAN XOLDA  
PSIXOKORREKSIYON MASHG‘ULOT SIFATIDA TRENNINGLAR  
O‘TKAZISHNING MOXIYATI**



**J.G. Tursumatov**

*O‘zbekiston Respublikasi Icki Ishlar Vazirligi  
Akademiyasi 3-o‘quv kursi kursanti*

**Annotatsiya:** *Xodimlar psixologik tayyorgarligining xususiyatini belgilovchi markaziy bo‘g‘in, o‘zak uni o‘tkazish usullaridir. Bu o‘rinda operativ xizmat vazifalarini samarali bajarishga imkon beruvchi psixologik tayyorgarlik rivojlantiriladigan va uning zarur darajasiga erishishga yordam beradigan usullar nazarda tutiladi. So‘nggi vaqtlarda psixologik tayyorgarlikni tashkil etishda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy psixologik treningidan foydalanish borgan sari ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy psixologik trening xodim shaxsining kasbiy muhim xislatlarini samarali rivojlantirishga imkon beruvchi maqsadga qaratilgan mashqlar tizimidir.*

**Kalit So‘zlar:** *Xodim, shaxs, muammo, stress, trenning, korreksiya, agressiya, buyrug‘, frustratsiya, ro‘lli o‘yin, ta‘lim, extiyoj.*

Yurtimizda xususan, Ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar natijasida psixologik xizmatning fuqorolar hamda xodimlar orasidagi ta‘siri oshdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20-yanvardagi

PQ–10-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta‘minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” gi 185 – sonli buyrug‘i qabul qilindi. Ushbu buyrug‘da mutaxassis psixologlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ular tomonidan olib boriladigan trenning mashg‘ulotlar, xodimning xizmat davomidagi psixologik xolatini aniqlashga yordam

beradigan metodik test va so'rovnomalar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ushbu metodikalar yordamida xodimlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarni bartaraf etiladi va ularni oldi olinadi.

Shaxsni individual, o'ziga xos shaxs - ma'lum bir tarixiy davrning ijtimoiy rivojlanishining mahsuli bo'lib, unga xos individual, biologik va ijtimoiy jihatdan aniqlangan psixikaning xususiyatlari va sifatlari bilan ta'riflanishi mumkin. Lekin inson nafaqat inson, balki organizm hamdir. Shuning uchun, yuqoridagi ta'rifni aniqlab, shuni aytish kerakki, shaxs - bu ong tashuvchisi sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Shaxs o'ziga xos xususiyatlarning individual funktsional tuzilishiga ega. Individual shaxs xususiyatlari, odatda xususiyatlar deb ataladi, o'zgarishlarga duchor bo'ladi (turmush sharoitlari, tarbiya, patologik jarayon va boshqalar). Shuning uchun ular odatda faqat tuzilish haqida emas, balki shaxsiyatning dinamik tuzilishi haqida gapirishadi.

Kasbiy psixologik trening usullari operativ xodim uchun zarur bo'lgan xislatlar, ko'nikmalar va mahoratni samarali shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Bilish xislatlari treningiga kasbiy xotira, kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish va kasbiy idrok tajribasini to'plash bo'yicha treninglar, kasbiy ziyalikni rivojlantirish bo'yicha mashqlar kiritiladi.

Kommunikativ trening psixologik aloqa va ishonchli munosabat o'rnatish, operativ qiziqish uyg'otuvchi shaxslarga psixologik ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini egallashni bildiradi.

Xodimlar operativ xizmat vazifalarini bajarish jarayonida turli rollarni bajarishlariga to'g'ri keladi. Boshqa qiyofaga kirish, o'z xatti-harakatlarini niqoblash

va asoslash qobiliyati ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy mahoratining zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, unda tegishli xislatlarni shakllantirish uchun rolga kirish treningi katta ahamiyat kasb etadi. Rolga kirish ko'nikmalari rol' gimnastikalari, ya'ni nutqqa va nutqsiz vositalarga tegishli rolga mos tashqi ifodali belgilar bag'ishlash, ushbu vositalarni qo'llashda improvizatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarish orqali rivojlantiriladi.

Hissiy-irodaviy jarayonlarni boshqara olish ko'nikmalarini egallash uchun psixologik boshqaruv mashqlaridan foydalaniladi. Bu mashqlar shaxsning hissiy holatlarini boshqarishga, ortiqcha asabiy zo'riqishni bartaraf etishga, xodimning faoliyatida muayyan ijobiy kayfiyat yaratishga imkon beruvchi o'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullaridan foydalanish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan. Ushbu guruhga autogen mashqlar, irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullarini boshqarishni egallash ham kiritilgan.

Psixotexnik o'yinlar xodimlarni psixologik tayyorlashning samarali usuli bo'lib, o'yin tarzidagi xatti-harakatlarni bajarish orqali muayyan xislatlarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Psixotexnik o'yinlar psixologik jihatdan amaldagi vaziyatlarga yaqin bo'lgan,

haqiqatda mavjud bo‘lgan vaziyatlarni qaror toptirishga asos bo‘ladigan muayyan ro‘llarni, o‘zaro harakatlarni bajarishni nazarda tutadi.

Psixologik tayyorgarlik usullariga operativ xizmat faoliyati sharoitlari va qiyinchiliklarini psixologik modellashtirish ham kiritiladi. Bu operativ xizmat faoliyatining haqiqiy sharoitlariga yaqin bo‘lgan tashqi va ichki (psixologik) sharoitlarni yaratishga imkon beruvchi yo‘llar, usullar va vositalar majmuasidir.

Kasbiy psixologik treningni amalga oshirishda uni tashkil etishning muayyan prinsiplariga suyanish zarur. Quyidagilar umumiy prinsiplardir:

- treningning ilmiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi;
- treningning kasbiy yo‘nalganligi;
- uni o‘tkazishda muntazamlilik va ketma-ketlik;
- ta‘lim oluvchilarning ongliligi va faolliligi; tayyorgarlik ko‘rishning barcha uchun

osonligi.

Treningning kasbga yo‘nalganligi tayyorgarlik vazifalari va mazmunining xodimlar kasbiy faoliyatining xususiyatlari va ular duch keladigan psixologik qiyinchiliklardan kelib chiqib maksimal darajada aniqlik kiritilishida ifodalanadi. SHuningdek, ana shundan kelib chiqib o‘quv vazifalari, usullari, ob‘yektlarini tanlash, shart-sharoitlari va harakatlarni imitatsiya qilish zarur.

Kasbiy psixologik treningni o‘tkazishda muntazamlilik va ketmaketlik yangi bilim, ko‘nikma va uquvlar avvalgilarining asosida egallanganda, avvalgilari esa rivojlantirishni talab etganda psixologik tayyorgarlikni o‘tkazishda qat‘iy mantiqiy aloqa bo‘lishini talab etadi. Bunda oddiydan murakkabga, sinalgandan sinalmaganga tomon borish; mashqqiluvchilarning haqiqiy bilimlarini va avvalgi mashg‘ulotlarda erishgan natijalarini to‘liq hisobga olgan holda katta, ammo bajarsa bo‘ladigan qiyinchiliklarni yaratish zarur. Ushbu mashg‘ulot topshiriqlari (vazifalari, sur‘ati, sharoitlari va sh.k.)dagi qiyinchiliklar avvalgilaridan biroz ko‘proq bo‘lgani ma‘qul. Agar mashqqiluvchi, harakat qilishiga qaramay, vazifani umuman bajara olmayotgan bo‘lsa, qiyinchilikni kamaytirish lozim.

Ta‘lim oluvchilarning ongliligi va faolligi printsipi xodimlarning o‘z qobiliyatlarini takomillashtirib borishlari, bilim olishlarini faollashtirish, psixologik tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotlarga barqaror qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan ongli faoliyatini ta‘minlashdan iborat. Mashqqiluvchi nimani va qanday tartibda bajarish kerakligini aniq tushunib olishi zarur. Bunda harakatni egallash sur‘atlari va darajasi hamda amaliyotda bajarish samaradorligi oshadi.

Tayyorgarlik ko‘rishning osonligi prinsipi psixologik tayyorgarlikni xodimlarning zarur bilimlar hamda talab etilayotgan ko‘nikma va uquvlarni o‘z aqliy va jismoniy kuchlarini muayyan darajada zo‘riqtirish evaziga ongli ravishda o‘zlashtira olishlari uchun qulay tarzda tashkil etish va o‘tkazishni talab etadi.

Kasbiy psixologik treningni samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri xodimlarning o‘z imkoniyatlarini, kasblari uchun muhim shaxsiy xislatlarining rivojlanganlik darajasini bilishlaridir. Bu esa xodimga tayyorgarlik dasturini to‘g‘ri belgilash, o‘z kuchlarini kerakli yo‘nalishda jamlash imkonini beradi. Bu borada xodimga o‘z psixologik imkoniyatlarini yaxshiroq bilish imkonini beradigan muayyan oddiy psixodiagnostik usullardan foydalanish katta yordam berishi mumkin. Mazkur qo‘llanmaning birinchi ilovasida har qanday xodim foydalanishi mumkin bo‘lgan bir qator psixodiagnostik usullar berilgan. I Bob bo‘yicha xulosalar

Tadqiqot ishimizning birinchi bobida ichki ishlar organlari xodimlari psixologik trening tushunchasi va uni namoyon bo‘lishining psixologik-pedagogik asoslariga oid fikrlar keltirilgan. Unga ko‘ra, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: demak xodimlarning xizmat davomida mavjud ijtimoiy me‘yorlarning buzilishga, xizmat davomida va jamiyatda o‘zi yoki uning atrofida qilgan aziyat chekishiga, va bunday xodimlar bilan psixologik trening mashg‘ulotlarini olib borish ushbu metodlar asosida ma‘lum maqsad va vazifalarga erishishdir. SHuni alohida takidlash kerakki, shaxsda bunday xulq-atvor shakllanishining bir necha bosqichlarini ko‘rsatish mumkin:

1. ehtiyojlarning dolzarbligi - ya‘ni qaysidir ehtiyojni qondirish nihoyatda zarur bo‘lib qoladi.
2. motivlarning vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. maqsad qo‘yilishi.
4. maqsadga erishish yo‘llarini tanlash.
5. natijani oldindan tasavvur etish-prognoz.
6. qaror qabul qilish va ijro etish kabi bosqichlarda yuzaga kelishini fan doirasi hamda real hayotdandan olib qaraydigan bo‘lsak haqiqatga zid kelmasligi barchamizga aniq va ravshandir.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida psixologik trening o‘tkazish va xodimlar bilan metodikalar olib borish va ushbu metodikalarni xulosalari bilan oshkora va nooshkora malum qilish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014 yil 14 may qonuni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2014. – №20. – 221-m.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni (2010 yil 29 sentyabr’).
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T., 1999.

- 
5. Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. – T., 2005.
  6. Kriminalogya. Maxsus qism. (I. Ismailov, Q.R. Abdurasulov).
  7. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminalagik tavsifi va oldini olish. ( B.A.Umirzoqov. )
  8. Deviant xul-atvor psixologiyasi. (I.M. Hakimova)
  9. B.R.Kadirov “Способности и склонности” .
  10. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun.
  11. Voyaga yetmaganlarning g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etishning profilaktikasini tashkil etish. ( Sh.R.G‘ofurov )

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA  
NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI.**

**Mirzayev Fazliddin Ilyosjon O‘g‘li**

*O‘zbekiston respublikasi iiv akademiyasi kursanti*

*Mirzo ulug‘bek tumani turon mfy yoshlar yetakchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining tushunchasi, asosiy xususiyatlari, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normalar va ularni qo‘llash amaliyoti tahlil qilinib, faoliyatni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.*

**Annotation:** *The article analyzes the concept, main features of the preventive activities of the preventive inspector for minors and young people, the norms governing the activities in question and the practice of their application, and highlights suggestions and recommendations for improving activities.*

**Tayanch so‘zlar:** *huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlar, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, qonun, nizom, ichki ishlar organlari, profilaktik hisob.*

Bugungi kunda respublikamiz miqiyosida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning keskin kamayaishiga olib kelganligi kishi dilini quvontiradi. Albatta, tinchlik bu eng ulug‘ va bebaho nemat isoblanadi lekin ushbu nematning ham qadriga yetmasdan o‘zining sodir etayotgan hatti-harkatlari bilan jamiyat rivojiga qolaversa, mahalla ko‘y qo‘niqo‘shni olidida uyat va or-nomus bilan bosh ko‘tarib yurgvnlr bugungi kunda yo‘q emas oramizda. Bu kabi huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldin olish va ularga qarshi kurashishda samarli usul hamda vositalarni ko‘llab kelayotgan Ichki ishlar oragnalari xodimlari nafaqat bu harakatlarining oqibati bilan ularni sabab va sharoitalari eng asosiysi barvaqt profilaktikasi bilan shug‘lanib kelishmoqda. Ayniqsa, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning ko‘p qismi voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida sodir etilayotganligi kishi ko‘ngilini bevosita ranjitadi desak yanglishmagan bo‘lmiz. Asosan, oilalardagi nosog‘lom muhit va yoshlar tarbiyasining buzilishi bu sohadagi tizimli va dolzarb muommolarini hal jtishni talab etmoqda. Malumki, farzand tarbiyasi masalasiga jiddiy hamda har doimgi etibor talab etiladi. Xususan, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada quyidagicha fikrlarini bildiradilar: «Bola ota ona qo‘lida bir omonatdir deydi buyuk allomalarimiz. Ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga



o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas. Biz ko‘pincha bolam maktabda, o‘qishda yoki chet elda ishlayapti, deb hotirjam yuramiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorallik bilan foydalanmoqda. Bizning jonu jahonimiz bo‘lgan farzandlarimiz dushmanlar qo‘lida qurolga aylanib qolsa, buning uchun avvalo kim aybdor O‘zimiz emasmi? Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Lekin tarbiya degani faqat maktab tarbiyasidan emas. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag‘darib qolishga o‘rganib qolganmiz. Mahalla, oila va keng jamoatchilik-chi? Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona degan maqolning haqiqiy manosini anglyadigan vaqti keldi. Anglab, shu asnoda yashaydigan vaqt keldi. Albatta, bu kabi dolzarb masalalarni hal etmasak bizning ertangi kelajagimiz bo‘lgan farzandlarmizni huquqbuzarlik va jinoyat yo‘liga kirib qolishiga o‘zimiz zamign yaratib bergan bo‘lib qolamiz. Bu kabi masalalarni barpvaqt oldni olish va ularning sabab-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan Ichki ishlar organlarining Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyati tashkil etildagan bo‘lib, ular jamiyatda adashib huquqbuzarlik va jinoyat yo‘liga kirgan yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarini tizimli ravishda o‘rganib bosqichma-bosqich ishlarni amalga oshiradilar. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o‘z faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlarida quyidagi vazifa va vakolatlarni amalga oshiradilar. Ular o‘z faoliyatini voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazoratsizligi, ular o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish, otaonalik burchlarini bajarmasdan, farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni aniqlash, ularga nisbatan .qonuniy choralar ko‘rish borasida ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlari, davlat idoralari, nodavlat hamda jamoat tashkilotlarining ko‘magiga tayangan holda ishlarni tashkil qiladi va olib boradi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar, jinoyatlar to‘g‘risida tegishli davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, voyaga yetmaganlarning o‘qish va ish joylariga va ularning ota-onalari yoki o‘rnini bosuvchi shaxslarning ish joylariga xabarnomalar yuborib, salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish borasida takliflar kiritadi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar tahlillaridan kelib chiqib, ular orasida «O‘quvchi», «Davomat», «O‘smir», «G‘amxo‘rlik» kabi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik tadbirlari idoraviy normativ hujjatlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar bilan O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining «Yakka tartibdagi profilaktika ishini tashkil etish» bobi talablari asosida yakka tartibda profilaktika

ishi tashkil etiladi. Ushbu holatda yakka tartibda profilaktika ishi olib borilayotgan shaxslarga nisbatan ushbu Nizomning 2–ilovasiga muvofiq profilaktika ishi yuritiladi.

O‘ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib boriladigan voyaga yetmaganlar O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida» gi qonunni asoslariga ko‘ra, ularga nisbatan profilaktika ishi ochiladi va Ichki ishlar vazirining boshqa idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari asosida yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’limning uzluksizligi, umumiy, o‘rta va o‘rta maxsus ta’limining majburiyligi haqida voyaga yetmaganlar va ota-onalar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib boriladi. Majburiy ta’limdan bosh tortgan voyaga yetmaganlar aniqlanib, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalari orqali o‘qishga qaytarish choralari ko‘riladi. Voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, terrorizm, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan tizimli profilaktik chora-tadbirlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarining voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishidagi faoliyati Bosh boshqarmaning voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish bo‘limi tomonidan uslubiy ta’minlanadi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi ishlarining ahvoli bo‘yicha oliy va o‘rta–maxsus ta’lim, Xalq ta’limi vazirliklari, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi va boshqa manfaatdor idoralar bilan o‘zaro hamkorlik va axborot almashinuvi ta’minlanadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari:

- yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga;

- doir faoliyatda ishtirok etadi; yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart–sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi; yosh fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy ;

- moslashtirish chora–tadbirlarini ko‘radi; yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi va boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi vakolatlari voyaga yetmaganlar bilan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi, qidiruv e’lon qilingan voyaga yetmaganlarni, shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashga doir chora–tadbirlarni amalga oshiradi hamda belgilangan tartibda ularni voyaga yetmaganlar

o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlarga yoki muassasalarga yuboradi, voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti– harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud voyaga yetmaganlarga nisbatan boshqa g‘ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga yetmaganlarning xulq–atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan ota–onalarni yoki ota–ona o‘rnini bosuvchi shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta‘sir choralarini qo‘llash to‘g‘risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi, voyaga yetmaganlarning, ularning ota–onasi yoki ota–ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek boshqa shaxslarning voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog‘liq shikoyatlari va arizalarini ko‘rib chiqadi, huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti–harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta‘sir choralarini qo‘llash to‘g‘risida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlar va muassasalarga takliflar kiritadi, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy–huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv–tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydi, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, huquqbuzarliklari yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti–harakatlari faktlari, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart–sharoitlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi, huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti–harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ichki ishlar organlariga olib boradi, bu haqda zudlik bilan ushbu Nizomning 3–ilovasiga muvofiq shaklda bayonnoma tuzadi hamda voyaga yetmaganlar keltirilganligi haqida ularning ota– onasini yoki ota–ona o‘rnini bosuvchi shaxslarni xabardor qiladi, voyaga yetmaganlarning yashash, o‘qish (ish) joyidagi ta‘lim, madaniy–ko‘ngilochar, sport–sog‘lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to‘garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o‘rganadi, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti–harakatlar sodir etishiga imkon berayotgan sabablar va shart–sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti–harakatlari to‘g‘risidagi materiallarning tegishli organlar va muassasalar tomonidan ko‘rib chiqilishida ishtirok etadi, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti–harakatlarning, voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga

ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning hisobini yuritadi, shuningdek statistika hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'adi va umumlashtiradi, yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko'maklashadi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sharoitlar va sabablarni aniqlash hamda bartaraf etish borasidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-son qarori bilan tashkil etilgan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi .

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi qonuni talablariga ko'ra Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida: yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi; qidiruv e'lon qilingan voyaga yetmaganlarni, shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda belgilangan tartibda ularni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlarga yoki muassasalarga yuboradi; voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud voyaga yetmaganlarga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalarni yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarni qo'llash to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi; voyaga yetmaganlarning, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek boshqa shaxslarning voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqadi; huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarni qo'llash to'g'risida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlar va muassasalarga takliflar kiritadi; voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydi; voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi,

huquqbuzarliklari yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari faktlari, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shartsharoitlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi; huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ichki ishlar organlariga olib boradi, bu haqda zudlik bilan bayonnoma tuzadi hamda voyaga yetmaganlar keltirilganligi haqida ularning ota-onasini yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarni xabardor qiladi; voyaga yetmaganlarning yashash, o‘qish (ish) joyidagi ta’lim, madaniy-ko‘ngilochar, sport-sog‘lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to‘garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o‘rganadi; voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon berayotgan sabablar va shartsharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi; voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi materiallarning tegishli organlar va muassasalar tomonidan ko‘rib chiqilishida ishtirok etadi; voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti harakatlarning, voyaga yetmaganlarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan ota-onalar yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning hisobini yuritadi, shuningdek statistika hisobotini tuzish uchun zarur

bo‘lgan axborotni yig‘adi va umumlashtiradi; yetim bolalar hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko‘maklashadi. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Takidlash joizki, ichki ishlar organlarining Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari tomonidan Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni profilaktikasi va ularni barvaqt oldini olish bo‘yicha dastavval ular istiqomat joylarida profilaktik tadbirlarini amalga oshirishlari lozim hisoblanadi yakka tartibdagi suhbatlar, rasmiy ogohlartirishlar va tarbiyaviy tasir choralari amalga oshirish, ular bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari va bandligini taminlash choralari taminlashlari lozim. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari bugungi kunda hal etilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri voyaga yetmaganlar va uyshmagan yoshlar bilan ishlash ular tomondan sodir etilyotgan huquqbuzarliklarni sabab va sharoitlarini tahlil qilish ularni bartaraf etish hamda oldini olish yuzasidan eng avvalo har bir oiladagi asosan bugungi kunda ota-onalik muomala layoqtini o‘z hatti-xarakterlarin bilan cheklaydigan jamiyatda o‘rnatilgan qonunlarga nisbatan

nosamimiy munosabatda bo‘layotgan oilalarni dastaavval mahalla hamda o‘zni o‘zi boshqarish organlari bilan ishlovga olish kerak hisoblanadi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquqlari va erkinliklarini taminlash, farzandlarimizning qonuniy huquqlarini muhofaza etish, eng muhimi, barkamol avlod tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish oliy yurid kuchga ega bo‘lib, unga asosan davlat fuqarolarning Qonsitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini taminlaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yoshlari Konsitutsiya va qonun hujjatlarida mustahkamlab ko‘yilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklardan to‘liq foydalanadilar.

Ushbu islohotlar va jarayonlar bola huquqlari va erkinliklarini davlat tomonidan kafolatlovchi yana bir alohida huquqiy hujjatning qabul qilishini zaruratga aylantirdi. Bundan tashqari qishloqlar, ovullar va mahallalardagi kriminogen vaziyatni, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o‘rganadilar ularda voyaga yetmaganlarning va yoshlar ishtiroklari qay darajada ekanligini tahlil qiladi, shuningdek o‘rganish natijalari bo‘yicha yuqori turuvchi ichki ishlar organlariga tegishli ma‘lumot va takliflarni taqdim etadilar, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo‘yish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktika ishlarini amalga oshiradilar, o‘quvchilarining ta‘lim muassasalaridagi davomatini nazorat qiladilar, ijtimoiy xavfli holatda bo‘lgan va ta‘lim muassasalariga qatnamaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarning ota-onalari bilan profilaktika ishlarini olib boradilar, taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g‘ayriqonuniy va buzg‘unchilik yo‘nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlaydilar, o‘rnatilgan tartibda profilaktik hisobga olishni, shu jumladan, huquqbuzarliklar, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbuzarliklardan jabrlanganlar hisobini yuritadilar.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasidagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma‘lum murdalarning shaxsini aniqlash bo‘yicha tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Aholi bilan muntazam ravishda mavjud muammolarni o‘rganish va ularni hal etishning maqbul yo‘llarini aniqlashga qaratilgan uchrashuvlar o‘tkazib boradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlarga huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan, shu jumladan, infratuzilmani rivojlantirish va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishlarini tashkil etish yuzasidan

takliflar kiritadilar. Davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalar kiritadilar.

Huquqbuzarliklardan jabrlangan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvoriga ega, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga hamda voyaga yetmaganlar va yoshlarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlarni ko‘rsatish, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan choralarni amalga oshiradilar.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularga qonunga hurmat hissini singdirish bo‘yicha tadbirlarni, shu jumladan, davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini jalb etgan holda, o‘tkazadilar. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladilar, ularning murojaatlarini, shu jumladan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarini qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqadilar. O‘qotar qurollarni saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga ko‘maklashadilar qolaversa, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan pirotexnika vositalarining hamda o‘q otar qurollardan noqonuniy ravishda foydalanish kabi holatlar yuzasidan profilaktik chora tadbirlarni olib boradi.

Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni va yoshlarini aniqlaydilar va hisobini yuritadilar, ularning chet elda bo‘lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib boradilar, uzoq muddat mobaynida chet elda bo‘lib qaytgan shaxslar va yoshlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshiradilar. Biriktirilgan hududdagi har bir oilani aylanib chiqadilar va ularni o‘rganadilar, notinch oilalarni aniqlaydilar, ular bilan profilaktik ishlar olib boradilar, shu jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda ularning maishiy va boshqa muammoli masalalarini hal etishga ko‘maklashadilar. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazoga mahkum qilingan shaxslar va voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek qamoqda saqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslar ustidan o‘rnatilgan tartibda nazoratni amalga oshiradilar, ular bilan profilaktik ishlar olib boradilar.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan va ichki ishlar organlari ma‘muriy nazoratiga qo‘yilgan shaxslarga tarbiyaviyprofilaktik ta‘sir choralarni, ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovlar qo‘llashni amalga oshiradilar. Fuqarolar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida qonun hujjatlari talablariga rioya etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash masalalarida tushuntirish ishlarini tashkil etadilar.

Doimiy va vaqtincha ro‘yxatda yoki turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatda turmagan yoxud boshqacha tarzda pasport-viza rejimi talablarini buzgan holda yashayotgan shaxslarni

aniqlaydilar, fuqarolarning turar joylari ijarasi yoki ulardan tekin foydalanish to‘g‘risidagi shartnomalarning mavjudligini tekshiradilar. Turar joy egalari va xususiy mulkdorlar shirkatlari tomonidan uy-joy fondi va uy atrofi hududlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga, shu jumladan, ko‘p qavatli uylarning chordoq va yerto‘lari hamda boshqa qo‘shimcha bino va xonalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi bo‘yicha choralar ko‘radilar. Egasiz turar joylarni aniqlash va ularning saqlanishini nazorat qilish bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko‘radilar hamda u yerlarda voyaga yetmaganlar va yoshlarning maqsadsiz yig‘ilishlari yuzasidan doimiy ravishda habardor bo‘ladilar. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanishi va iste‘mol qilinishi, alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishining oldini olish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi, pornografik mazmundagi mahsulotlar, fohishabozlik va OIV/OITSning, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida yoyilishi hamda fohishaxonalarning saqlanishiga chek qo‘yish, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining ushbu yo‘nalishdagi ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazadilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi-2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22.09.1994
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 22.09.1994
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat – ijroiya kodeksi 25.04.1997
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni 16.09.2016 O‘RQ-406
6. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni 14.05.2014 O‘RQ-371
7. O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxlar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida” gi Qonun 2.04.2019 O‘RQ-532
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “ Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2896 18.04.2017
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Ichkis ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5050 2.04.2021
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Mahalla huqu-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” VM-343 23.06.2022



**ОЗОДЛИКДАН МАҲРУМ ЭТИШ ЖОЙЛАРИДАН ОЗОД ЭТИЛГАН  
ШАХСЛАРНИ ИЖТИМОЙ МОСЛАШТИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ  
ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС  
ХУСУСИЯТЛАРИ**

**А.Ш.Ўринбоев**

*ИИВ Академияси 3-ўқув курси*

*321-гуруҳ курсанти*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод этилган шахсларни ижтимоий мослаштиришда фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорликнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида кўплаб тушунчаларга тариф берилган.

**Калит сўзлар:** озодликдан маҳрум этиш, ижтимоий мослаштириш, фуқаролик жамияти, маҳкум, инсон ҳуқуқлари.

Маълумки, миллий давлатчилигимиз тарихида илк бор шаҳарча, Фуқаролик жамиятининг муҳим бўғини бўлган қишлоқ, овул ва маҳалла фуқаролар йигинлари ўзини ўзи бошқаришнинг ҳудудий бирликлари сифатида Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 105-моддасида мустахкамлаб куйилди. Чунончи, Асосий Комусимизнинг мазкур моддасига асосан, шаҳарча, қишлоқ ва овулларда, шунингдек улар таркибидаги маҳаллаларда ҳамда шаҳарлардаги маҳаллаларда фуқароларнинг йигинлари ўзини ўзи бошқариш органлари ҳисобланади. Бошқача айтганда, «худудий тамойил бўйича яшаш жойларида - шаҳар, қишлоқ, овул ва маҳаллаларда ташкил қилинадиган йигин» сифатида эътироф этилди.

Албатта, фуқаролар жамияти институтининг ўзини ўзи бошқариш органи Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 105-моддасида мустахкамланганлиги давлат мустақиллиги ва сиёсий суверенитетига эришиш шароитида давлатчиликнинг миллий шакллари тиклаш, Ўзбекистон халқининг ижтимоий ҳаётидаги миллий анъаналар ва одатларидан янада тўлиқ фойдаланиш жараёнлари кўзатилаётганлигидан дарак беради, ўзини ўзи бошқариш тизимининг энг куйи маъмурий-худудий булақларда ва маҳаллаларда жорий қилинганлиги масал ага тўғри ёндашилганлигини кўрсатади. Аини пайтда мазкур соҳага оид муносабатларни такомиллаштириш учун конституциявий асос яратилганлигидан далолат беради.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, 1993 йил 2 сентябрда илк маротаба қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонундан фаркли ўлароқ, 1999 йил 14 апрелда ҳамда 2013 йил 22 апрелда янги тахрирда қабул қилинган қонунларда шаҳарча, қишлоқ, овул ва

шаҳардаги маҳалла фуқаролар йиғинлари ҳамда шаҳарчадаги, қишлоқдаги ва овулдаги маҳалла фуқаролар йиғинининг ваколатлари алоҳида моддаларда белгиланди.

Демак, мамлакатимизда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг 4 та тури - шаҳарча, қишлоқ, овул ва маҳалла фуқаролар йиғинлари мавжудлигини ҳамда Г.Маликова тўғри таъкидлаганидек, ўзини ўзини бошқариш тизими икки поғонали эканлигини эътироф этиш лозим. Яъни биринчи поғона - шаҳарча, қишлоқ, овул фуқаролар йиғини ва шаҳардаги маҳалла фуқаролар йиғини бўлса, иккинчи поғона — шаҳарча, қишлоқ ва овулдаги маҳалла фуқаролар йиғинидан иборат . Айни пайтда республикаимизда 9116 та фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, шу жумладан 26 та шаҳарча, 101 та қишлоқ, 162 та овул, 8827 та маҳалла фуқаролар йиғинлари фаолият кўрсатмоқда .

Чунончи, Фуқаролик жамияти институтининг муҳим бўғини бўлган ўзини ўзи бошқариш органларининг ўзаро жазони ижро этиш муассасалари билан ҳамкорлиги тасирчан йўлга қўйилмаган. Ушбу орган билан агар жазони ижро этиш муассасасидан озод этилаётган шахснинг маълум сабабларга кўра аниқ турар жойи бўлмаса, жазони ижро этиш муассасаси маъмурияти унта яшаш жойи билан таъминлаш, доимий яшаш ёки вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олишга ҳамда ишга жойлашишга ёрдам беришни сўраб, шунингдек ногиронлиги бўлган шахсларни ёки огир касалликларга чалинган шахсларни даволаш масалаларини олдиндан хал қилиш тўғрисида тегишли маҳаллий давлат ҳокимияти органларига, ички ишлар органларига ва соғлиқни сақлаш муассасаларига илтимоснома юбориш каби масалаларда ўз ҳамкорлигини билдирса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Ўзини ўзи бошқариш органи ва жазони ижро этиш муассасалари ёки органлари билан маҳкумларни озодликка ижтимоий мослаштиришда ҳамкорлигининг ўзига хос жиҳатлари қуйидагиларда номоён бўлади:

Биринчидан, маҳкумлар ва оилаларини даромад манбаларини, шу жумладан, томорқа ерлардан фойдаланиш ҳамда даромадли меҳнатга бўлган интилиши ва эҳтиёжларини «хонадонбай» ўрганиш;

Иккинчидан, озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод этилган шахсларни ижтимоий мослаштиришда Маҳкумлар озодликка чиқкандан сўнг ёки жазо ўтаётган даврда уларнинг оила аъзоларидан ишсиз ёшлар ва хотин- қизларнинг муаммоларини ўрганиш орқали уларни касб-хунар ва тадбиркорликка ўргатувчи курсларга йўналтириш ва меҳнат фаолияти билан шуғулланишга амалий кўмаклашиш;

Учинчидан, озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод этилган шахсларни ижтимоий мослаштиришда маҳкумлар ва оила аъзоларининг ўз мустақил фаолиятини мисол тадбиркорлик амалга оширишга тўсиқ бўлаётган ер ажратиш, қурилиш учун

рухсат бериш, турли хил фаолиятлар учун лицензия олиш, бўш бино ва ер майдонларини тадбиркорлик учун ажратиш,

коммуникация тизимларига уланиш муаммоларни тезкорлик билан хал этиш каби ишларда ҳамкорлиги ўзига хос хусусиятларидан ҳисобланади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бойдадаев М. ЎЗБЕКISTON да ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қурилиши ва бошқарув тизимининг шаклланиши ва такомиллашувининг ҳуқуқий асослари: Юрид. фанлар доктори .. диссертацияси. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси, 2001. - Б.209.
2. Джалилов Ш.И. Реформа местных органов государственной власти в Узбекистане (1990-1994 гг.): Диссертацияси...докт.юрим.наук. - Ташкент: ТГЮИ, 1994. - С.221.
3. Хусанов А.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти асослари: Ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар: Юрид. фанлар доктори .. диссертацияси. - Тошкент: ТДЮИ, 1995. - Б. 149.
4. Маликова Г.Р. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш институтининг конституциявий (ҳуқуқий) асосларини такомиллаштириш муаммолари: Юрид. фанлар доктори .. диссертацияси. - Тошкент: ТДЮИ, 2009.-Б.5.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й. - №9. - 322-м.
6. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелда янги тахрирда қабул қилинган «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й. - №5. - 110-м.; Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 22 апрелдаги УРК-350-сонли қонуни билан тасдиқланган янги тахрирдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуниИ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2013 й. - №4. - 96-м.

**ОЗОДЛИКДАН МАҲРУМ ЭТИШ ЖОЙЛАРИДАН ОЗОД ЭТИЛГАН  
ШАХСЛАРНИ ИЖТИМОЙ МОСЛАШТИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ  
ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ**

**А.Ш.Ўринбоев**

*ИИБ Академияси 3-ўқув курси*

*321-гуруҳ курсанти*

**Аннотация.** Ушбу мақолада озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод этилган шахсларни ижтимоий мослаштиришда фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлигининг ҳуқуқий асослари тўғрисида кўплаб тушунчаларга тариф берилган.

**Калит сўзлар:** озодликдан маҳрум этиш, ижтимоий мослаштириш, фуқаролик жамияти, маҳкум, инсон ҳуқуқлари.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А. Каримов таъкидлаганидек, “Оғир жазо, айниқса, фуқароларни жамиятдан ажратиш билан боғлиқ бўлган жазоларнинг жиноятчиликнинг олдини олишдаги аҳамиятини ошириб кўрсатиш ўринсиз эканлигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда. Жиноятчиликнинг олдини олиш, унга қарши курашиш самарадорлиги жазонинг оғирлиги ва шафқатсизлигига эмас, балки биринчи навбатда, қонунни бузган шахснинг жазонинг муқаррарлигини нечоғлик англашига боғлиқ. Жазонинг муқаррарлиги жиноятчиликнинг олдини олишда самарали таъсир кўрсатувчи омиллардан ҳисобланади”.

Ҳар бир шахс ўз қилган жинояти учун жавоб бериши шарт лекин уларни қайта жиноят содир этилишини олдини олиш мақсадида қуйидаги ҳуқуқий асосларини келтириш мумкин, булар 2022 йил 28 январдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони, 2021 йил 29 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сонли фармони, ва бундан ташқари ҳамкорликка маълум даражада хизмат қиладиган бир қатор жумладан Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 30 июндаги «Ўзбекистон Республикасининг жиноят-ижроия кодексига маҳкумларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ишончли химоя қилинишини таъминлашга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги ЎРҚ-625-сонли хонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жихатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6196-сонли фармони, 2017 йил 11 августдаги «Ички ишлар

органларининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлган жазоларни ижро этиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПК-3200-сонли, 2018 йил 7 ноябрдаги «Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПК-4006-сонли, 2019 йил 2 августдаги «Қорақалпоғистон Республикаси ички ишлар вазирлигининг 19-сон ихтисослаштирилган жазони ижро этиш колониясини тугатиш тўғрисида»ги ПҚ-4414-сонли, 2021 йил 2 апрелдаги «Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПК-5050-сонли қарорлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 5 мартдаги «Озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ жазоларни ижро этиш муассасаларининг фаолияти самарадорлигини таъминлаш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги 128-сонли қарори каби қонунчилик ҳужжатлари қабул қилинди.

2022 йил 28 январдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон нинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони қабул қилиниб Мамлакатимизни 2017 — 2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харажатлар стратегияси доирасида ўтган давр мобайнида давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан ислох этишга қаратилган 300 га яқин қонун, 4 мингдан зиёд Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорлари қабул қилинди.

Шунингдек, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, давлат органларининг ҳисобдорлиги ва очикдигини кучайтириш ҳамда фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг роли, аҳоли ва жамоат бирлашмаларининг сиёсий фаоллигини ошириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилди.

Миллий иктисодиётни ислох қилиш борасида ташки савдо, солиқ ва молия сиёсатини либераллаштириш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва хусусий мулк дахлсизлигини кафолатлаш, қишлоқ хужалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлашни ташкил этиш ҳамда ҳудудларни жадал ривожлантиришни таъминлаш бўйича таъсирчан чоралар қўрилди.

Сўнгги беш йиллик ислохотларнинг натижасида мамлакатимизда Янги ўзбекистон ни барпо этишнинг зарур сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иктисодий ва илмий-маърифий асослари яратилди.

Жаҳон микёсидаги мураккаб жараёнларни ва мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт натижаларини чуқур таҳлил қилган ҳолда кейинги йилларда «Инсон кадри учун» тамойили асосида халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, иктисодиёт тармоқларини трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш, инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш ҳамда фаол фуқаролик

жамиятини шакллантиришга қаратилган ислохотларнинг устувор йўналишларини белгилаш мақсадида: Кенг жамоатчилик муҳокамаси натижасида «Харакатлар стратегиясидан — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган куйидаги етита устувор йўналишдан иборат 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ва уни «Инсон кадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастури ишлаб чиқилган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент. Адолат. 2021 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси Т. Адолат 2021 й.
3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси Т. Адолат. 2021 й.
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси Т. Адолат. 2021 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-ижроия кодекси Тошкент. Адолат. 2021 й.

---

**SILLIQ STVOLLI O‘QOTAR QUROLLARNING GURUHIY  
TAALLUQLILIGINI ANIQLASH****Ma'mirov Bilolbek Azamat O'gli***Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-Kurs 325-Guruh Kursanti***A.A.Oppoqxonov***Ilmiy Rahbar Iiv Akademiyasi Kriminalistik Ekspertizalar Kafedrasida O'qituvchisi  
Kapitan*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali hozirgi kundagi zamonaviy ballistik ekspertizaning imkoniyatlari, tasniflanishi, zamonaviy ballistikaning nazariy va huquqiy asoslariga tuxtalib o'tilgan. Bundan tashqari, silliq stvolli o'qotar qurollarning diagnostik ekspertizasini o'tkazishdagi dolzarb muammolar va ularning yeshimlari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ballistika, stvoll, xodisa joyi, tadqiqotlar amalga oshirish, o'q izlari, patron, ekspertlar mahorati, daliliy ashyolar, tepkili mexanizm, qoldirilgan izlar, zarrachalar, ishlov asboblari.

**Annotatsiya:** V dannoy stat'ye rassmatrivayutsya vozmojnosti, klassifikatsiya, a takje teoretiko-pravoviye osnovi sovremennoy ballistiki. Krome togo, obsujdayutsya aktual'niye problemi i puti ix resheniya pri diagnosticheskom obsledovanii gladkostvol'nogo ognestrel'nogo orujiya.

**Klyucheviye slova:** Ballistika, stvoll, mesto prestupleniya, rassledovaniye, sledi pul', patron, ekspertniye naviki, dokazatel'stva, spuskovoy mexanizm, ostavlenniye sledi, chastitsi, sredstva obrabotki.

**Annotation:** This article deals with the capabilities, classification, and theoretical and legal foundations of modern ballistics. In addition, current problems and their solutions in the diagnostic examination of smooth-bore firearms are discussed.

**Key words:** Ballistics, crime scene, investigation, bullet marks, cartridge, expert skills, evidence, trigger mechanism, traces left, particles, processing tools.

Bugungi kunda jamiyat rivojlanishi bilan bir qatorda unda sodir bo'layotgan jinoyatlarning xam turli xil yangi ko'rinishlari paydo bo'lib bormoqda. Sodir etilgan jinoyatlarga to'la va xolisona baxo berishda, ularning tub moxiyatini aniqlashtirishda ekspertiza xulosalarining o'rni katta. CHunki, ekspertiza tadqiqotlari orqali jinoyat xodisasiga aloqador bo'lgan juda ko'plab xolatlar aniqlanishi mumkin.

Sud-ballistik ekspertizalariga tadqiqot uchun taqdim etiladigan o'qotar qurollar va ularga o'xshash boshqa qurilma hamda moslamalarning guruhiy taalluqliligi deyilganda, quyidagilar tushuniladi:

– qo‘lbola va zavodda yasalgan standart qurilma va moslamalarning o‘qotar qurollar turkumiga tegishliligi;

– o‘zgartirilgan, ba’zida, standart otuvchi qurilmalarni o‘qotar qurollarning muayyan turlariga tegishliligi;

– standart yoki o‘zgartirilgan o‘qotar qurollarning aniq rusumdagi o‘qotar qurollar turkumiga tegishliligi.

Tadqiq etilayotgan obyektlar (qurolga o‘xshash buyumlar, otuvchi moslama va mahsulotlar)ni guruhiy taalluqliligini aniqlashning asosi bo‘lib, o‘qotar qurolning tushunchasi va uning tasniflanishi, shuningdek, qurolning sifatga oid tavsiflari tizimi xizmat qiladi. Standart o‘qotar qurolning sifatga oid tavsiflari. Qurolsoz – mutaxassislar standart jangovar o‘qotar qurollar (bunday qurollar sirasiga artileriya qurollari ham, qo‘l o‘qotar qurollari ham kiradi) ega bo‘lishi lozim bo‘lgan uchta sifatga oid tavsiflarni – ballistik, manyovr qilish va ishlashining ishonchliligini ta’minlovchi xususiyatini alohida ajratib ko‘rsatadilar

Ballistik xarakteristikalar:

– o‘q otishning aniqligi va g‘ujligi;

– snaryad uchishining boshlang‘ich tezligi va kinetik energiyasi;

– turli maqsad uchun mo‘ljallangan snaryadlarning nishonga nisbatan kerakli ta’siri

$$\left. \begin{aligned} y_t - \sigma\tau\Lambda y_t &= \Lambda y + \varphi, & (x, t) \in \omega_{h\tau}, \\ y(0, t) = y(1, t) &= 0, & t \in \overline{\omega_\tau} \\ y(x, 0) &= u_0(x), & x \in \overline{\omega_h} \end{aligned} \right\}$$

(2.43)

Ayirmali sxema turg'un bo'lishi uchun

$$\|y(t)\|_{(1)} \leq M_1 \|u_0\|_1 + M_2 \max_{0 \leq t' < t} \|\varphi(t')\|_{(2)}, \quad t \in \omega_\tau$$

(2.44)

shartning qanoatlantirilishi zarur, bu yerda  $M_1, M_2$  lar  $h$  va  $\tau$  ga bog'liq bo'lmagan musbat o'zgarmas sonlar bo'lib,  $\|\cdot\|_{(1)}$  va  $\|\cdot\|_{(2)}$  mos ravishda berilgan to'r funksiyalaridagi normalardir. Agar  $f = 0$  bo'lsa, ikkinchi qo'shiluvchi nolga teng va

$$\|y(t)\|_{(1)} \leq M_1 \|u_0\|_{(1)}$$

(2.45)

munosabat boshlang'ich shart bo'yicha turg'unlikni ifodalaydi. Agar  $u(x, 0) = 0$  bo'lsa,

$$\|y(t)\|_{(1)} \leq M_2 \max_{0 \leq t' < t} \|\varphi(t')\|_{(2)}$$

(2.46)

munosabat tenglamaning o'ng tomoniga nisbatan turg'unlik shartini ifodalaydi. (2.43) masalaning yechimini  $y = \bar{y} + y$  ko'rinishda yozaylik, bu yerda  $\bar{y}$

$$\left. \begin{aligned} y_t - \sigma \Lambda y_t &= \Lambda y, \\ y(0, t) = y(1, t) &= 0, \quad y(x, 0) = u_0(x), \end{aligned} \right\}$$

(2.47)

Bir jinsli masalaning yechimini,  $y$  esa bir jinsli bo'lmagan

$$\left. \begin{aligned} y_t - \sigma\tau\Lambda y_t &= \Lambda y + \varphi, \\ y(0, t) = y(1, t) &= 0, \quad y(x, 0) = 0, \end{aligned} \right\}$$

(2.48)

masalaning yechimini ifodalaydi. (2.47) masalaning turg'unligini tekshirish uchun o'zgaruvchilarni ajratish usulidan (Fure usulidan) foydalanamiz va yechimni

$$y(x, t) = X(x)T(t)$$

(2.49)

ko'rinishda izlaymiz. (2.49) dan

$$\Delta y = T \cdot \Delta x, \quad y_t = X \cdot T_t \tag{2.50}$$

kelib chiqishini e'tiborga olgan holda, (2.47) dan

$$\frac{T - T}{\tau(\sigma T + (1 - \sigma)T)} = \frac{\Delta \lambda}{X} = -\lambda$$

(2.51)

ni hosil qilamiz, bu yerda

$$T = T(t_{j+1}), \quad T = T(t_j), \quad \lambda - \text{ajratish parametri.}$$

(2.51) tenglikdan

$$T = qT$$

(2.52)

ni hosil qilamiz, bu yerda

$$q = \frac{1 - (1 - \sigma)\tau\lambda}{1 + \tau\sigma\lambda} \tag{2.53}$$

$X(x)$  uchun (2.51) dan Shturm-Luivillning ayirmali tenglamasi kelib chiqadi:

$$\left. \begin{aligned} \Delta X(x) + \lambda X(x) &= 0, \quad (0 < x = ih < 1), \\ X(0) &= X(1) = 0. \end{aligned} \right\} \tag{2.54}$$

Shunday qilib, (2.47) masala noldan farqli  $y_{(k)} = T_k X^{(k)} \neq 0$  yechimga ega bo'lib, bu yerda  $T_k$  quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$T_k = q_k T_k \text{ yoki } T_k^{j+1} = q_k T_k^j = \dots = q_k^{j+1} T_k^0, \tag{2.55}$$

$$q_k = \frac{1 - (1 - \sigma)\tau\lambda_k}{1 + \sigma\tau\lambda_k},$$

$T_k^0$  - ixtiyoriy o'zgarmas son.

(2.47) masalaning  $y_{(k)} = T_k X^{(k)}$  ko‘rinishdagi yechimini  $k$  – nomerli garmonika deyiladi.

Agar  $|q_k| \leq 1$  bo‘lsa, u holda  $j_0$  ning o‘sishi ( $\tau \rightarrow 0$ ) bilan,  $\|y_k^j\|$  fiksirlangan  $t = j\tau$  da o‘smaydi:

$$\|y_{(k)}^{j+1}\| \leq \|y_{(k)}^j\| \leq \dots \leq \|y_{(k)}^0\|$$

va garmonika turg‘un bo‘ladi.

Agar hamma  $\|q_k\| \leq 1$  va  $\|y_{(k)}^j\| \leq \|y_{(k)}^0\|$  bo‘lsa, u holda sxema har bir garmonikada turg‘un deb ataladi.

(2.47) masalaning umumiy yechimi uning xususiy yechimlari yig‘indisi ko‘rinishida izlanadi (chunki masala chiziqli):

$$\hat{y} = \sum_{k=1}^{N-1} y_{(k)} = \sum_{k=1}^{N-1} T_k X^{(k)}$$

yoki

$$\hat{y} = \sum_{k=1}^{N-1} q_k T_k X^{(k)}.$$

So‘nggi tenglikning har ikki tomonidan norma olsak;

$$\|\hat{y}\|^2 = \sum_{k=1}^{N-1} q_k^2 T_k^2 \|X^{(k)}\|^2 \leq \max_k q_k^2 \sum_{k=1}^{N-1} T_k^2 = \max_k q_k^2 \|y\|^2$$

(2.56)

(bu yerda  $X^{(k)}$  larning orthogonal ekanligini e‘tiborga olsak).

$\sigma \geq \sigma_0$  bo‘lganda,  $\max_k |q_k| \leq 1$  va (2.56) dan

$$\|\hat{y}\| \leq \|y\|$$

yoki

$$\|y^{j+1}\| \leq \|y^j\| \leq \dots \leq \|y^0\| = \|u_0\|$$

kelib chiqqanligidan, (2.47) masalaning yechimi uchun quyidagi baho o‘rinli bo‘ladi:

$$\|y^j\| \leq \|u_0\|, \quad j = 1, 2, \dots$$

(2.57)

Shu bilan yechimning boshlang'ich shartga nisbatan turg'unligi isbotlandi.

Endi o'ng tomonga nisbatan turg'unlikni ko'raylik. Buning uchun (2.48) masalani qarab, uning yechimini ham

$$\hat{y} = \sum_{k=1}^{N-1} T_k X^{(k)}$$

(2.58)

ko'rinishda izlaymiz va  $\varphi$  ni  $\{X^{(k)}\}$  funksiyalar bo'yicha qatorga yoyamiz:

$$\varphi = \sum_{k=1}^{N-1} \varphi_k X^{(k)}.$$

Bularni e'tiborga olsak, (2.48) dan [(2.37) ga q.]

$$\sum_{k=1}^{N-1} \{T_{kt} (1 + \sigma\tau\lambda_k) + \lambda_k T_k - \varphi_k\} X^{(k)} = 0.$$

(2.59)

$\{X^{(k)}\}$  larning ortogonalligi natijasida so'nggi tenglikdan

$$\tau\lambda_k T_k + (1 + \sigma\tau\lambda_k)(T_k - T_k) = \tau\varphi_k$$

yoki

$$T_k = q_k T_k + \frac{\tau\varphi_k}{1 + \sigma\tau\lambda_k}$$

(2.60)

ni hosil qilamiz, bu yerda

$$q_k = \frac{1 - (1 - \sigma)\tau\lambda_k}{1 + \sigma\tau\lambda_k}.$$

Endi (2.60) ni (2.58) ga qo'ysak,

$$\hat{y} = \sum_{k=1}^{N-1} T_k X^{(k)} = \sum_{k=1}^{N-1} q_k T_k X^{(k)} + \tau \sum_{k=1}^{N-1} \frac{\varphi_k}{1 + \sigma\tau\lambda_k} X^{(k)}$$

va bu tenglikning har ikki tomonlaridan norma olib, keyin uchburchak tengsizligidan ( $\|v + w\| \leq \|v\| + \|w\|$ ) foydalansak,

$$\|\hat{y}\| \leq \max_k |q_k| \left( \sum_{k=1}^{N-1} T_k^2 \right)^{1/2} + \max_k \frac{\tau}{|1 + \sigma\tau\lambda_k|} \left( \sum_{k=1}^{N-1} \varphi_k^2 \right)^{1/2}$$

yoki

$$\|\hat{y}\| \leq \max_k |q_k| \|y\| + \max_k \frac{\tau}{|1 + \sigma\tau\lambda_k|} \|\varphi\|$$

(2.61)

kelib chiqadi. Faraz qilaylik,  $\sigma \geq \sigma_0 > 0$  bo'lsin, u holda,  $|q_k| \leq 1$ ,  $1 + \sigma\tau\lambda_k \geq 1$  bo'ladi. Shuning uchun

$$\|\hat{y}\| \leq \|y\| + \tau \|\varphi\| \text{ yoki } \|y^{j'+1}\| \leq \|y^{j'}\| + \tau \|\varphi^{j'}\|.$$

So'nggi tengsizlikni  $j' = 0, 1, 2, \dots, j$  bo'yicha yig'ib chiqamiz:

$$\|y^{j+1}\| \leq \sum_{j'=0}^j \tau \|\varphi^{j'}\|. \tag{2.62}$$

Faraz qilaylik, a)  $\sigma \geq \sigma_4$ ,  $\sigma_\sigma = \frac{1}{2} - \frac{1-\varepsilon}{4\tau} h^2$ ,  $0 < \varepsilon < 1$  va b)  $\sigma < 0$  shartlar bajarilsin, u holda (2.61) dan

$$\|\hat{y}\| \leq \|y\| + \frac{1}{\varepsilon} \tau \|\varphi\|.$$

Buni  $j' = 0, 1, \dots, j$  bo'yicha yig'ib chiqsak,

$$\|y^{j+1}\| \leq \frac{1}{\varepsilon} \sum_{j'=0}^j \tau \|\varphi^{j'}\|.$$

Shunday qilib, quyidagi teoremani isbot qildik.

**Teorema.** Agar  $\sigma \geq \frac{1}{2} - \frac{h^2}{4\tau} = \sigma_0$  va  $\sigma \geq 0$  shartlar bajarilsa, (2.43) sxema

boshlang'ich shart va o'ng tomon bo'yicha turg'un bo'lib, (2.43) ning yechimi uchun quyidagi baho o'rinli bo'ladi:

$$\|y^{j+1}\| \leq \|u_0\| + \sum_{j'=0}^j \tau \|\varphi^{j'}\|.$$

Agar  $\sigma < 0$  bo'lsa, (2.43) sxemaning turg'un bo'lishi uchun

$$\sigma \geq \sigma_\varepsilon, \quad \sigma_\varepsilon = \frac{1}{2} - \frac{(1-\varepsilon)h^2}{4\tau}$$

( $0 < \varepsilon < 1$ ) shartning bajarilishi yetarlidir ( $\varepsilon \in (0,1)$  ixtiyoriy o‘zgarimas son bo‘lib, h va  $\tau$  ga bog‘liq emas). Bu holda (2.43) ning yechimi uchun quyidagi baho o‘rinlidir:

$$\|y^{j+1}\| \leq \|u_0\| + \frac{1}{\varepsilon} \sum_{j'=0}^j \tau \|\varphi^{j'}\|.$$

Demak, *xos sonlar va xos funksiyalar yordamida diferensial tenglamalar kabi ayirmali tenglamalar uchun ham yechim qurish va bu yechimning normasini tekshirish orqali approksimatsiya, turg'unlik va yaqinlashish masalalarini hal qilish mumkin.*

Shunday qilib, biz oddiy issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun ayirmali sxemalarni o‘rganib chiqdik. Shuni eslatib o‘tish kerakki, murakkab diferensial tenglamalarni katta aniqlik bilan almashtiradigan ayirmali sxemalarni o‘rganish zaruriyati tug‘ilganida asosiy masalalardan biri hamma vaqt sxemalarning turg'un ekanligini tekshirishdir, chunki shunday sxemalargina amaliy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Biz kelgusida ayirmali sxemalarning turg'unlik masalasini tekshirishning quyidagi usullarini ham ishlatamiz:

- 1) maksimum prinsipi asosida sxemalarning turg'unligini tekshirish;
- 2) ayirmali sxemalar indeksi yordamida sxemalarning turg'unligini tekshirish;
- 3) birlik xatoning o‘shishini o‘rganish hisobiga turg'unlikni tekshirish;
- 4) o‘zgaruvchilarni ajratish usuli asosida sxemalarning turg'unligini tekshirish; yuqorida biz xuddi shu usuldan foydalandik.

Bu usullarning hammasi asosan o‘zgarimas ko‘effitsientli diferensial tenglamalarga mos kelgan ayirmali tenglamalarning turg'unligini tekshirish uchun yaraydi.

O‘zgaruvchi ko‘effitsientli diferensial tenglamalarga mos keladigan ayirmali tenglamalarning turg'unligini tekshirish odatda juda murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Amaliyotda uzluksiz ko‘effitsientli tenglamalarga mos keladigan ayirmali tenglamalarning turg'unligini quyidagi prinsip asosida tekshiriladi.

Tenglamadagi barcha o‘zgaruvchi ko‘effitsientlarni soxaning qandaydir  $P$  nuqtasidagi qiymati bilan almashtiriladi. Agar ixtiyoriy  $P$  uchun hosil bo‘lgan ayirmali masala turg'un bo‘lsa, u holda o‘zgaruvchi ko‘effitsientli ayirmali masala turg'un deb hisoblanadi.

Chiziqli bo‘lmagan diferensial tenglamalarni yechish uchun mos keladigan ayirmali sxemalarning turg'unligini tekshirish yana ham og‘irroq masaladir. Bu holda sxemaning turg'unligini chiziqli holga keltirilgan tenglamaning yechimi atrofida tekshiriladi. Bunday sxemalarni biz mexanika masalalarini qarayotganimizda keltiramiz.

Endi biz bundan keying paragraflarda to‘r usulini umumiyroq ko‘rinishda bayon qilamiz, yaqinlashish va turg'unlikning o‘zaro aloqasini ko‘rsatamiz hamda sxemalarni yuqorida sanab o‘tilgan usullarning ba‘zilari asosida tekshirishga to‘xtalamiz.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ikromjon, Y., & Shaxnoza, P. L. (2022, November). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI KASBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TALABLARI. In E Conference Zone (pp. 67-78)..
2. Yo‘ldashev, I. (2023). UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(15), 39-45.
3. Yo‘ldashev, I. (2023). O‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo‘naltirish pedagogik-psixologik, ijtimoiy muammo sifatida. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(19), 7-15.
4. Po‘latova, S. (2023, November). KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
5. Po‘latova, S. (2023, November). O‘QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUNTAZAM MASHG‘ULOTLARGA BARQAROR QIZIQISH VA KO‘NIKMALARNI TARBIYALASH. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".



---

**METHODOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN  
GENERAL SECONDARY SCHOOLS****Hakimova Sarvinoz Sharifjana qizi***Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi E-mail manzili:**[sarvinozhakimova122@gmail.com](mailto:sarvinozhakimova122@gmail.com)**Telefon raqami: +99894 174 68 03*

**Annotation:** *This article describes the improvement of English grammar in the educational process based on various methods. It discussed teaching English grammar to general secondary school students, as well as some recommendations for the development of education.*

**Key words:** *Education, English language, interactive method, grammatical rules, practice, pedagogical processes, intellect.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ingliz tili grammatikasini turli metodlar asosida ta'lim jarayonida takomillashtirish yoritilgan. Unda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga Ingliz tili grammatikasini o'rgatish muhoma qilingan, shuningdek ta'limni rivojlantirish uchun bir qancha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, ingliz tili, interfaol usul, grammatik qoidalar, amaliyot, pedagogik jarayonlar, intellekt.*

**Аннотация:** *В данной статье описано совершенствование английской грамматики в учебном процессе на основе различных методов. Обсуждалось преподавание английской грамматики учащимся общеобразовательных школ, а также некоторые рекомендации по развитию образования.*

**Ключевые слова:** *Образование, английский язык, интерактивный метод, грамматические правила, практика, педагогический процесс, интеллект.*

Today, in the era of advanced technology and innovation, at a time when the social relations of our society are undergoing major changes, communication media (information technologies) require the improvement of students' communicative skills, they can use various methods in the process of interacting with other participants of the dialogue. exchange of ideas in situations, correct use of language and speech norms. In such conditions, the main purpose of a foreign language is the formation of communicative skills, that is, it is required to carry out interpersonal and intercultural communication in a foreign language. By the end of the 20th century, English had finally established itself as a world language. It became compulsory to study it in schools all over the world and the teaching methodology started to develop by leaps and bounds. On May 6, 2024, under the chairmanship of President Shavkat

Mirziyoyev, a video selector meeting was held regarding measures to improve the system of teaching foreign languages. It's time to put a new system in place. Since we have set ourselves the goal of building a competitive country, from now on, graduates of schools, lyceums, colleges and universities must be fluent in at least 2 foreign languages. This strict requirement should become the main criterion for the activity of the head of every educational institution," said Shavkat Mirziyoyev.

Continuous education in Uzbekistan is aimed at forming the young generation's high professional culture, skills of independent adaptation to creative and social life, as well as the ability to define and solve future plans. It is important to be in demand of the current period in performing these tasks. That is why foreign language, especially English, plays a very important role in raising a young generation who knows foreign languages well in social, economic and scientific development of the society. English in the state educational standard and curriculum of general secondary education the goals of language education should be derived from the interests and requirements of society, the state, and should be in accordance with it.

The developmental goal of foreign language teaching includes the following:

- a) the components of speech ability are listening, perception, noticing, distinguishing language phenomena, logical expression of thought, etc.;
- b) mental processes related to speech activity: thinking, memory, attention, imagination, analysis and synthesis, generalization;
- c) ability to communicate: emotionality, eloquence, approachability, politeness, initiative during conversation, appropriate use of gestures, etc.;
- d) internal and external motivation, interest and enthusiasm for learning a foreign language and the country where the language is being studied, its people, culture, customs, etc.;
- e) independent work during education and preparation of students for independent education after completing education [1].

Based on the requirements of modern methodology, we chose an integrative approach to teaching grammatical phenomena. And some grammatical phenomena do not pose a great difficulty for mastering due to their similarity with the grammatical phenomena of the mother tongue according to their meaning or methods of formation. The linguist T. Sattorov's researches provide detailed information about this, and the idea of a stratified approach to grammatical phenomena is put forward. Wide use of information technologies in foreign language education is recommended. Therefore, we found it necessary to use the following information technologies in the process of teaching students grammatical phenomena: computer technology (internet network), interactive methods, open discussion (dispute), excursion, auction, press conference, competition, round table, wish-intention, she

types of riyat, foreign language teaching project method, etc. When interactive methods are used, the student thinks independently and works as a partner with the teacher. Internet technologies are one of the most modern forms of information acquisition and communication in improving grammar skills of students in English classes. Students use the Internet to write lectures and abstracts. Multimedia makes it possible to present educational material in voice, that is, it acts as a virtual teacher. The reader is pure English he listens to the pronunciation, tries to adapt his speech to it. The role of electronic dictionaries is incomparable for students of high schools of general education to gain vocabulary. In the electronic dictionary, words are pronounced directly as a set of sounds, not through a graphic representation. When working with such dictionaries, it is easy to remember words and they are stored in long-term memory. A test is taken to check and strengthen students' knowledge. During the test, students have the opportunity to work independently and self-assess. It is known that knowledge acquired independently is stored in the memory for a long time and is easy to recall. Strategy and game tasks from modern technologies prevent students from getting bored and provide them with independent mental activity.

Also, the cluster approach or method helps effectively in teaching English grammar to students in secondary schools. This method is not only effective, but also a very convenient way to teach students. Every growing young generation of Uzbekistan must be educated and knowledgeable, no less than anyone else, able to fully meet the level of world education standards, and we must do this with all our heart. Today, the demand and interest in learning foreign languages, especially English, has increased so much that children from kindergarten to senior professionals are trying to learn English. This is definitely a positive thing, because learning a language opens doors to personal interests, along with learning about the culture, history, and customs of the countries that speak that language. The use of modern technologies in foreign language teaching can help increase efficiency. For example, by watching a video clip in a foreign language during training, the student's listening skills develop sufficiently. In some cases, the comments given for the videos are enough to improve their writing, reading and even speaking skills.

Based on our special observations and experience, we have come to the following conclusions: the use of games and assignments is a practical, educational, serves as an effective tool in the implementation of general educational and developmental goals; allows to eliminate the psychological negative experiences of students in relation to expressing (speaking) in a foreign language, teaches students to think independently, master the acquisition of speech skills, encourages them to achieve goals, to win, language based on communicative methodology allows learning,

makes a significant contribution to attracting all students to the lesson, increasing their interest, and increasing the effectiveness of the lesson.

Knowledge, skills and competence acquire a unique attitude in learning a foreign language and reflect the nature of the subject of study. It is necessary to be able to use language material in order to express an idea in a speech or to understand the expressed idea. In order to achieve this, it is necessary to establish a strong and flexible connection between language tools and the content of speech, as S. Setlin says, an association. Language skills are formed as part of speaking skills. The formation of grammatical skills is a three-stage methodical process: 1) the distribution stage consists of explaining a new grammatical unit (presenting it in a speech sample), explaining and performing preliminary grammatical operations. 2) doing grammar exercises. This stage is mainly focused on skill building. 3) the stage of using a grammatical event in speech activities. It is clear from what has been said that grammar serves to develop skills, not to absorb knowledge.

The only goal of researching the scientific-methodical description of the formation of English grammar skills in high school students is to introduce a model for teaching English grammar. The theoretical model is a technology for improving students' English grammar skills. The exercises used in foreign language teaching were classified: types of speech activities (speaking /listening/understanding /reading/writing) exercises; language material (vocabulary/ grammar/ pronunciation) exercises; receptive/reproductive exercises; presentation, training, ap-

lication exercises; familiarization/practice/application/correction (correction) exercises should be conducted. Formative (educational/ informative/ generalization mastery); developmental (skill-forming/operational/training of ready-made material) exercise; it would be appropriate if an improvement (qualification/motivational/acquisition of grammatical movement) exercise was conducted.

#### REFERENCES:

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., - London., 2006.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - London., 2001.
3. Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. - Москва., 1985.
4. Safaeva F.N., Umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida ingliz tili grammatikasi va uni rivojlantirish masalalari, Molodoy uchenniy, T.: 2016, - 112

5. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi, 5-maxsus son, T: 1999, - 25 b.
6. Umumta‘lim maktablari dasturi, Chet tillar, O‘qituvchi, T:, 1996, - 44 b.
7. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. - T. 1996
8. T.Madumarov, M.Kamoldinov " Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim - tarbiya jarayonida qullash." T- 2012
9. Siddikova I.A. Metodika prepodovaniya angliyskogo yazika. T. 2002
10. Saydaliev S. “Chet til o‘qitish metodikasi “ uslubiy qo‘llanma- N. 2004

**RUHIY ZO‘RLIK BILAN SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLAR  
PROFILAKTIKASI**

**Boboqulov Saidjon Irkin o‘g‘li**  
*IIV Akademiyasi 312-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolda mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini taziyiq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo‘lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar, ushbu faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik, shahvoniy shilqimlik, himoya orderi, shaxsning sha‘ni va qadr-qimmat, or-nomusi, ruhiy va psixologik taziyiq, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik, moddiy va ma‘naviy qaramlik.*

**Kirish.** Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan taziyiq va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyat va huquqbuzarliklar ko‘payib ketayotgan bir vaqtda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan xotin-qizlarni huquq va erkinliklarini ta‘minlash ularni jamiyat va davlat hayotini boshqarishda teng huquqli imkoniyat va sharoitlar yaratish bilan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o‘z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo‘llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo‘yuvchi o‘zgartishlar kiritilmoqda. Shuningdek xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo‘ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi.

Respublikamizda ruhiy zo‘rlilik bilan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga doir o‘ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda.

Ushbu sohadagi milliy qonunchilik tizimi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasi qonunlari; O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi; O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksi; O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi; 2010 yil 29 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni; 2014 yil 14 mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar

profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni; 2016 yil 16 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni; 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni; 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-sonli “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ 829-sonli “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlardan iborat.

Asosiy qism.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarning turlari – jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabilarga ta‘rif berilgan. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini sodir etish taqiqlanadi hamda qonunga binoan ta‘qib qilinadi.

Bulling deganda – bir guruh bolalar yoki bir bolaning boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan, xususan, zo‘ravonlik qurboniga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u bilan har qanday muloqotni cheklab qo‘yish (bojkot qilish), uning mol-mulkini qo‘lga kiritish va (yoki) zarar yetkazish, uning o‘ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish yoki sog‘lig‘i va hayotiga ziyon yetkazishda ifodalangan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlari va internet orqali amalga oshiriladigan muttasil psixologik va (yoki) jismoniy tajovuzkor harakat tushuniladi. Ruhiy zo‘rlik bilan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda ijtimoiy hayot, turmush, dam olish, mehnat kilishni ta‘minlash, ushbu vazifalarni bajarishdagi turli parokandalik va qarama-qarshiliklarga yul qo‘ymaslikni doimiy ravishda maqsad sari rivojlantirish, takomillashtirish va bir me‘yorda tashkil etish g‘oyatda muhimdir. Bu yunalishdagi umumiy profilaktika choralari kup kirrali bulib, hokimiyat idoralari faoliyatini hamda davlat tizimiga kiruvchi barcha kuch va vositalar hamkorligini yulga kuyish katta ahamiyatga egadir. Shu urinda ta‘kidlash lozimki, mehnatni tashkil etish nafakat shaxsning ma‘lumot olishi va dunyokarashining shakllanishi, ma‘naviy extiyojlarining ta‘minlanishiga ta‘sir etadi, balki odamning madaniyati, maishiy turmushda o‘zini tutishi, dam olishdagi o‘zaro munosabatining shakllanishiga yordam beradi.

-zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

-zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoyaga ega bo‘lish;

-o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilgani, tahdid qilingani yuzasidan ariza berish yoki sudga murojaat etish;

-barcha turdagi bepul taqdim etiladigan maslahatlardan foydalanish;

-himoya orderi berish to‘g‘risidagi talab bilan murojaat qilish;

-sodir etilgan zo‘ravonlik natijasida o‘ziga yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi hamda ma‘naviy ziyon kompensatsiya qilinishini talab qilishi mumkin.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatiga quyidagi davlat organlari va tashkilotlari bevosita mas‘uldir: hukumat, Bolalar ombudsmeni, Ijtimoiy himoya milliy agentligi; prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi; mahalliy hokimiyat organlari va boshqalar.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya tomonidan muvofiqlashtiriladi. Milliy komissiyaning sohaga doir o‘nlab vakolatlari bor. Ijtimoiy himoya milliy agentligi komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda quyidagi chora-tadbirlar ko‘riladi:

-himoya orderini berish;

-zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi va shunday xavf ostidagi bola uchun yordam;

-jabrlanuvchining oilalarini mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlash;

-bolani ota-onadan (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslardan) yoki o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxslardan olish;

-zo‘ravonlik xulqini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturlaridan o‘tish;

-jinsiy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash.

Ijtimoiy himoya agentligi zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish, maslahat berish maqsadlarida butun O‘zbekiston hududida tun-u kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog‘i (ishonch telefoni) ishlab turishini ta‘minlaydi. Telefon liniyasi tarmog‘i maxfiylikka rioya etgan holda faoliyat ko‘rsatadi quyidagilar zo‘ravonlik xavfi ostidagi bolalar deb hisoblanadi:

- yetim yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganlar;

- hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan yoxud ta‘minlash, tarbiyalash talablariga javob bermaydigan sharoitdagilar;

- ota-onasi yashash joyi bo‘yicha vaqtincha bo‘lmaganda yoki ularning ota-onalik majburiyatini vaqtincha bajara olmasligi davrida vasiy yoki homiy tayinlanmaganlar;

- nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar, ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvolda bo‘lganlar, nogironligi bo‘lganlar;

- otasi yoki onasi ruhiy kasalliklar dispanseri yoxud narkologiya muassasalarida hisobda turganlar;

- ota-onasiga yoki ulardan biriga qamoqqa olish, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanganlar;

- otasi yoki onasi JK va MJTKning belgilangan ayrim moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganlar;

- g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etganlar, fohishalik bilan shug‘ullanayotganlar va vakolatli organ tomonidan aniqlanadigan boshqa toifadagi bolalar.

Xulosa.



Ruhiy zo‘rlik bilan sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan bir qator muammolarni hal etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar quyidagilardan iborat:

-bolalarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zuravonlikni barvaqt oldini olish maqsadida mahalla yettiligini rolini kuchaytirish;

-jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish va ota-onalarning stereotiplarini o‘zgartirish uchun bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosini ommaviy axborot vositalarida tizimli yoritish;

-zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalarga, shu jumladan, ular shaxsan murojaat qilganda, tezkor yordam ko‘rsatish uchun " ishonch telefonlari " ni keng ochish ;

-umumta’lim muassasalarida hurmatsizlik sababli darsga bormayotgan yoki muntazam ravishda dars qoldirayotgan maktab yoshidagi bolalarni aniqlash va hisobga olish ustidan nazoratni kuchaytirish;

-oiladagi ijtimoiy muhitning salbiylashuviga olib keluvchi nizoli holatlarning tahlilini olib borish orqali aniq sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga;

Bundan tashqari, hamkorlik ishtirokchilarining mas’uliyatini yanada oshirish zarur, tan olish kerak, bu soxada yuqorida ta’kidlaganimizdek, qator kamchiliklar mavjudki, ularni har kunlik faoliyatda bartaraf etishni ta’minlash lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ikromjon, Y., & Shaxnoza, P. L. (2022, November). UMUMIY O ‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA O ‘QITUVCHISI KASBINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TALABLARI. In E Conference Zone (pp. 67-78)..

2. Yo‘ldashev, I. (2023). UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O ‘QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA O ‘QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(15), 39-45.

3. Yo‘ldashev, I. (2023). O ‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo ‘naltirish pedagogik-psixologik, ijtimoiy muammo sifatida. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(19), 7-15.

4. Po‘latova, S. (2023, November). KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

5. Po‘latova, S. (2023, November). O ‘QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO ‘YICHA MUNTAZAM MASHG ‘ULOTLARGA BARQAROR QIZIQISH VA KO ‘NIKMALARNI TARBIYALASH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

**TURKUM TARBIYACHILAR KENGASHI FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USLUBIY TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH**

**Nurillayeva Nilufar Luftillo qizi**

*IIV Akademiyasi 327-guruh*

*kursanti*

**Tayanch so‘zlar:** *tarbiya, turkum jamoa, jazoni ijro etish muassasasi, profilaktika, estetika*

**Annotatsiya:** *Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni ma’naviy, huquqiy, jismoniy, mehnat va estetik yo’nalishlarda olib boriladigan ishlarni, mahkumlar ma’naviy dunyosini boyitish, milliy g’oya asosidagi mafkuraviy immunitetni shakllantirish huquqiy tarbiya, mahkumlarda qonunga ongli ravishda itoat qilish jismoniy jihatdan so’g’lom turmush tarzini shakllantirish, mehnatga halol munosabatda bo’lish undan tashqari mahkumlarning foydali tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash yuzasidan kompleks chora tadbirlar amalga oshirish.*

**Аннотация:** *В этой связи разработан опыт передовых зарубежных стран по обеспечению сотрудничества исправительных учреждений с государственными органами и общественными организациями, а также предложения и рекомендации, направленные на решение теоретических и практических проблем, возникающих в процессе сотрудничества учреждений исполнения наказаний.*

**Annotation:** *The measures and shortcomings, problems, their specific features, the implementation of punishment in this regard. The experience of advanced foreign countries in ensuring the cooperation of correctional institutions with state bodies and non-governmental organizations, as well as proposals and recommendations aimed at solving theoretical and practical problems arising in the process of cooperation of penal institutions were developed “Og’ir jazo tayinlash kabi allaqachon umrini o’tab bo’lgan tartiblarni bekor qilish vaqti yetdi”*

**Sh.M.Mirziyoyev**

Bugungi kunda jazoni ijro etish tizimida yangidan yangi o’zgarishlar va tartiblar joriy etib kelinmoqda. Dunyoda jinoyatchilik profilaktikasi muammosi tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etayotga bir davrda mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta jinoyat sodir etishini oldini olish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni muammolarini o’rganish ularga har taraflama ko’maklashish uchun Turkum tarbiyachilar kengashi tashkil etilgan. Turkum tarbiyachilar kengashi harakatdagi guruh bo’lib mahkumlarga nisbatan yengiliklar yaratish ularni har taraflama qo’llab quvvatlash uchun tashkil etilgan kengash hisoblanadi Turkum tarbiyachilar kengashi O’z faoliyatini quyidagi yo’nalishlarda amalga oshiradi;

-Turkum tarbiyachilar kengashi a’zolari turkumdagi mahkumlarning muammolarini ko’rib o’rganib, (uyiga yaqinroq bo’lgan kaloniyaga ko’chirish tartibi, avf etish tartibi, insonparvarlik dalolatnomalarini qo’llash tartibi, intizomiy jazolarning yechish muddatlari va qonuniy javob berish, takroriy murojatlarning oldini olish;

-Insonparvarlik dalolatnomalarini qo'llash muddatlarini to'g'ri kelgan mahkumlarni hulg-atvorini o'rganib chiqish va ushbu mahkumlarga tavsiyanomalar berish;

-Turkum mahkumlari o'rtasida tartibbuzarliklar va qayta jinoyatlar holatini muhokama qilish;

-Turkum mahkumlariga muassasada o'rnatilgan ichki kun tartib qoidalarini va mahkumlarning huquq erkinliklarni, majburiyatlarni tushuntirish,

-Turkumdagi og'ir tarbiyalanadigan, tuzalish yo'liga o'tgan va to'liq tuzalgan mahkumlar ro'yhatiga kiritish va undan chiqarish haqidagi masalalarni hamda og'ir tarbiyalanadigan, tuzalish yo'liga o'tkazishdagi ishtiroki uchun otaliqqa olingan mahkumlarni rag'batlantirishga tavsiyalar berishni muhokama qilish;

-Kaloniya ozod etilayotgan mahkumlarni mehnat va turar joy bilan ta'minlash ishlari;

-Mahkumlarni intizomiy tarzda jazolash yoki rag'batlantirish bo'yicha koloniya rahbariga takliflar kiritish va boshqa masalalarni muhokama qilish;

-Turkum mahkumlarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatlarini hamda tarbiyaviy-profilaktik tadbirlar samarasini oshirish bo'yicha muhokama qilish.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda va ular tomonidan turli huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishda quyidagi muammo va kamchiliklarga yo'l qo'yilib kelinayotgan kamchiliklar quyidagilar;

-kaloniyalarda xizmat qilayotgan barcha xizmatlar xodimlari tomonidan mahkumlarni tarbiyalashdagi ishtiroki mavjud emas;

-koloniya sohaviy xizmat xodimlarining mahkumlarni tarbiyalashdagi ishtiroki Vazirimizning buyrugida belgilanganligini bilmaydi;

-koloniya rahbarlarining mahkumlarni tarbiyalashda ishtiroki va ularni tarbiyalashda ma'sul bo'lgan xizmatlarni joy-joyiga qo'ymasdan kelmoqda;

-Mahkumlarning sodir etgan huquqbuzarliklari va turkumlarda olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik ishlar muhokama etilmayapdi;

-turkumlarda tashkil etiladigan turkum tarbiyachilari kengashlari a'zolarining o'rni umuman mavjud emasligi yoki biron marta turkumlarda yig'ilishlar o'tkazilmagan;

-Buyruq yangilanganligiga qaramasdan hanuzgacha eski buyruq talablariga asosan turkum tarbiyachilar faoliyati yuritib kelinmoqda;

-Turkum tarbiyachilar kengashi raisi va a'zolari turkum tarbiyachilar kengashi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan masalalar va uning faoliyati to'g'risida tushunchaga ega emas.

Turkum tarbiyachilar kengashidagi ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun qonun normalarida aniq keltirib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T-2017 yil 14 martdagi PQ-2833-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi ”Jamoat xavfsizligini taminlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlarini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida “gi 6196-son farmoni.

3. I. Ismailov va boshqalar IIO larining jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini tashkil etish. Darslik T.2011.

5. U Tadjixanov A Saidov Davlat va huquq nazariyasi T.2001. Yuridik lug‘at. IIV Akademiyasi kutubxonasi.

6. Jazolarni ijro etish xizmati xodimlari tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar namunalari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. T.2022. (A.A.Shodiyev, A.Sh.Murodov, I.S.Nasirov).

**TIRIK SHAXSLARDAN YOKI MUDALARDAN GENOM MA'LUMOTLARINI OLISHNING USULLARI****Абдуллаев Шахзодбек Нодирович**

ИИБ Академияси 3-босқич 325-гуруҳ курсанти

[Shabdullayev636@gmail.com](mailto:Shabdullayev636@gmail.com)

**Анотация:** Мазкур мақолада Геном маълумотлар ҳамда геном маълумотларидан жинойтларни самарали ва иссиқ изидан очиш ва мазкур маълумотлар базасини яратишда ҳамда геном маълумотларини сифатли самарали олиш услуб ва методикасига оид маълумотлар келтирилган бўлиб, Қисқача тарихий ривожланиши ва унинг истиқболлари ҳақида маълумот берилган. Инсон геноми намунаси орқали ҳозирги даврида жинойтчиликнинг янги босқичга чиқиши ҳамда олдинги методлар билан жинойтчиликни фош қилиш кундан-кунга қийинлашиб бораётгани ва бугунги кунда ДНК маълумотлар баъзаси бунинг энг самарали ечими сифатида жаҳон тажрибасида ўзининг афзаллиги ва аниқлиги билан кунсайин оммалашиб бормоқда. Янги авлодларнинг параллел ДНК кетма-кетлиги, бир нуклеотид полиморфизми эса ДНКни рақамлаштиришининг энг юқори даражасига эга ва юқори даражада ташкилий шаклланиш имконини беради ва шу билан бирга жинойтларни “Иссиқ изи” дан очиш уларни тез ва самарали анаиқлаш каби истиқболларини белгилашда муҳим аҳамият касб этади.

**Калит сўзлар:** Геном, ДНК, полиморфизм, Нуклеотидлар, Универсал ДНК маълумотлар баъзаси.

**Abstract:** This article discusses the The article highlights current issues of creating and using a unified database of genomic information of the Republic of Uzbekistan. Using genomic information for fast and high-quality investigation of crimes. In addition, methods and techniques for obtaining high-quality DNA.

**Keywords:** Genomic information, database, methods, techniques, DNA.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается В статье освещаются актуальные вопросы создания и использования единой базы геномной информации Республики узбекистан. Использования геномной информации для быстрого и качественного расследования преступлений. Кроме этого Способы и методики качественного получения геномной информации.

**Ключевые слова:** Геномная информация, методы, Способы, Получение геномной информации, ДНК.

**КИРИШ.**

2019-йилда фанларидаги энг муҳим кашфиётлардан бири бўлган ДНК кашф этилганига 150 йил тўлди, у 1869 йилда йирингли лейкоцитлар ядросидан аввал номаълум аммо фосфорга бой моддани ажратиб олган ёш швейцариялик олим Фридрих

Мишер томонидан амалга оширилган ҳамда бу кашфиётнинг аҳамияти баҳоланишига деярли бир аср керак бўлди. Шундай қилиб, 1944 йилда ДНК ўзида ирсий ва наслий маълумотларни сақлаш ва узатиш учун жавобгар эканлиги аниқланди

ва 1953 йилда Жеймс Уотсон ва Френсис Крик ДНКнинг қўш спирал қўринишдаги тузилишини очиб беришди ва мазкур тасвир ҳозирда замонавий физикавий ва кимёвий биологиясининг рамзига айланди. Ушбу ишлардан сўнг ДНК ва инсоннинг гемон маълумотларига бўлган қизиқиш кескин ортди ва янги муҳим кашфиётлар қилинди, улар орасида 1985 йилда турли одамларда днк молекулаларидаги фарқлари яъни ДНК полиморфизми, айнан бир шахсга тегишли бўлган ўзининг идентификацион белгилари билан фарқ қиладиган аниқлаш учун фойдаланишни таклиф қилган инглиз Алек Жеффриейснинг мазкур таклифни илгари сурган айнан шу ҳолатлар ДНКни суд тиббиётида пайдо бўлишининг бошланиши эди. Ўша ишдан сўнг ўтган ўттиз йилдан кўпроқ вақт ичида ДНК устида ишлайдиган олимлар томонидан қўлланилган ёндашувларни такомиллаштириш бўйича жуда кўп ва мураккаб бўлган изланишлар ўтказилган.

Бироқ, сўнгги йилларда, ягона нуклеотид полиморфизми ёки бошқа йўл билан снпс (пушти фон) асосида одамнинг ДНК идентификациясининг янги усуллари ишлаб чиқиш бўйича тадқиқотлар устунлик қила бошлади. Кулранг фонли қаторлар инсон геномининг бошқа турдаги полиморф ҳолатларидан ёки аралаш ёндашувлардан фойдаланишни кўрсатади, бу сўнгги йилларда ДНК суд-тиббиёти соҳасидаги тадқиқотлар учун ҳам хосдир.

\* ушбу жадвалда ДНК-маълумотларининг полиморфизмининг ҳар хил турларини билдирувчи турли атамаларнинг декодланишини таъминламайди, чунки бу жадвал фақат инсоннинг ДНКни идентификациялаш усуллари амалга ошириш ва ишлаб чиқиш қўллашни, уларнинг хилма-хиллигини кўрсатиш учун мўлжалланган.

Амалга ошириш имкониятига эга бўлиш учун гумон қилинаётган жиноятчининг ДНКсини масофадан таққослаш Маҳаллий маълумотлар базаларида сақланадиган ДНК бармоқ излари маълумотлар, лабораториялараро усуллар натижаларни солиштириш, бунда катта эътибор берилди ҳаракатчанликдаги руҳсат этилган оғишларни аниқлаш ДНКнинг баъзи қисмлари, шунинг учун улар қонуний равишда бир хил деб ҳисобланиши мумкин, баъзи хатолар мақолалар туркумига бағишланган. Масалан, Лифесодес корпорацияси ўз ичида маълумотлар базаси 2,4% оғиш имконини берди, бу озми-кўпми аниқ фарқлаш имконини берди ДНК намуналари . Бу аллақачон ёлғизда олинган аналог маълумотни айтади ВНТР локуслари асосида одамнинг ДНК идентификацияси унинг аниқлиги учун мутлақо мос эмас. Рақамлаштириш ва ҳақиқий рақамли шаклда сақлаш каби диск майдонини тежаш ва тезлаштириш маълумотлар базасини қидириш. Бундан ташқари, турли хилларга қўшимча равишда гибридизация намуналари, Англия ва АҚШда Юкориди айтиб ўтилганидек, ДНКнинг парчаланиши, шу жумладан ПСР усулини жорий этишдан олдин, турличеклаш эндонуклеазлар, бу ҳам истисно намуналар бир хил эди. Бироқ, бунинг барча камчиликларига қарамай одамнинг ДНК идентификация қилиш усули, биринчи бўлиб ВНТР локусларидан фойдаланиш суд ишларида катта рол ўйнаган, ва деярли ўн йил давомида, жуда кенг қўлланилади, амалга оширишга ёрдам беради жавобгарлар учун адолат ва бермасдан бегуноҳларнинг тақдирини мағлуб қилади ва шу билан ишонтиради аризага муҳтож жамият одамларни ДНКдаги фарқлар билан аниқлаш. 1980-йилларнинг иккинчи ярмида одамнинг ДНК идентификацияси таклиф қилинди.

**ХУЛОСА.**

Ўзбекистон Республикасида Мустақил ва Универсал Геном маълумотлар базасини амалиётда тадбиқ этиш бир қанча ҳозирда юзага келган муаммоларни бартараф этишда хусусан жиноятларни тергов қилишда айнанлик ва исботлаш жараёнини енгиллаштиришига ёрдам беради

**Фойдаланилган адабиётлар:**

китобхонга малол келмаслиги учун нима қилиш керак? Асар факат ва факат бадийликка асосланиши лозим холос. Бадийлик — юксак истеъдоднинг ҳосиласи, шаклланишидир. Истеъдодни кўриш, вазнини ўлчаш мумкин бўлмаганидек, бадийлик даражасини дафъатан

белгилаш, таъсир кучини аниқ ифодалаш мушкул. Бадийлик омилларидан бири — янгиланган анъанадир. Ҳар бир санъаткор ўз замони, халқи, тузумининг вакили. У ўз истеъдодини она халқи характерини, ўз замони руҳини, ижтимоий-маънавий, маданий-мафкуравий иқлимни ифодалаш орқали намоён этади.

Бадийлик замон, макон доирасида намоён бўлади,

лекин унинг фойдаси, таъсир кучи замон, маконга

тобе булмайди. Бадийлик — ҳаётнинг гўзалликка чулғанган кўриниши. Ижодкор ҳаёт фожиаларини, иллатларини акс эттириши мумкин. Лекин бадийлик воқеликни ич-ичидан ёритиб турадиган гўзалликдан холи

бўлиши мумкин эмас. Бадийлик — маҳорат меваси.

Хуллас, бадийлик барча турдаги, жанрдаги асарларнинг жон робитаси, асаб — ҳаракат калаваси, миллийлик тамғаси, қилинган меҳнатнинг сифат белгиси, шавк-завкнинг туганмас қуввати”.

---

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. М., 1962.
2. Д.Қуронов ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
3. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикоянинг такомил йўли // Сарчашма мавжлари (мақолалар). Ўзбекистон Ёзувчиларушмаси «Ижод» жамоат фонди. –Т.: «MASHHUR-PRESS». 2016.
4. Краткий словарь литературоведческих терминов (Составители: Тимофеев Л.И. и Тураев С.В) – М. Просвещение, 1978.
5. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
6. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. Т. 2004.
7. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. Т. 2004.

---

**ELEKTR ENERGIYASI HISOBLAGICHLARINI KO'RSATGICHLARINI  
INTELLEKTUAL TANIB OLIISH APPARAT-DASTURIY TAMINOTINI ISHLAB  
CHIQISH****Hamroyev Yahyobek Yunus o'g'li***M6-22 TJBACT guruhi talabasi, Buxoro muhandislik-texnologiyaya instituti, O'zbekiston***Ibragimov Ulug'bek Muradilloevich***Dotsent(PhD), Buxoro muhandislik-texnologiyaya instituti, O'zbekiston***Qobilov Hasan Xalilovich***Dotsent(PhD), Buxoro muhandislik-texnologiyaya instituti, O'zbekiston**Email: [yahyobekhamroyev@gmail.com](mailto:yahyobekhamroyev@gmail.com)*

**Annotasiya:** *Maqolada elektrdan foydalanish jarayonidagi elektr hisoblagichlari ko'rsatkichlarini intellektual tanib olish jarayonini avtomatlashtirish jarayoni tahlil qilinib, texnologik jarayonni AKT asosida boshqarish tizimi ishlab chiqilib, ob'yektni tanib olishda intellektual tizimlar nazariyasi aniqlangan.*

Apparat-dasturiy vositalar yordamida avtomatlashtirilgan tanib olish texnologiyasi hamda nazoratlashning dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan. Elektrdan foydalanish jarayonidagi elektr hisoblagichlari ko'rsatkichlarini intellektual tanib olish jarayonini avtomatlashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarga tayanib, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotida ishlatilgan kutubxonalar va dastur kodi optimal varianti asoslab berilgan.

Hozirgi kunda elektr energiyasidan foydalanish jadal oshishi va iste'molchilar sonining oshishi ularni nazoratlash zaruriyatini o'z o'zidan keltirib chiqarmoqda. Bunda ayniqsa elektr hisoblagichlarini ko'rsatkichlarini nazoratga olish juda muhim hisoblanadi. Bunda nazoratda inson faktorini (charchagan payt xat ko'rish yoki xato tanib olish hamda yozib olish) bartaraf etish va elektr hisoblagich ko'rsatkich raqamlarni tanib olishda intellektual tizimlarni ishlatish zaruriyati oshdi. Bu funktsiya ba'zi mijozlar uchun raqamni avtomatik ravishda eskiz qilish uchun ishlatiladi.


Bunda raqamlarni tanib olish va ularni markaziy baza bilan taqqoslash esa tanib olish jarayoni natijalarini yanada oshiradi. Endi elektr hisoblagich haqidagi ba'zi ma'lumotlarni (markasi, modeli, ishlab chiqarilgan yili, rangi va boshqalar) orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Chiziqli dasturlashning oddiy qo'llash tartibi ya'ni - butun fotosuratlar ma'lumotlar bazasidan raqamlarni o'qish va ushbu ma'lumotlarni foydalanuvchi ko'rsatgan ma'lumotlar bilan tasdiqlashga qaraganda super vazifa oldida o'z kuchini yo'qotdi. Bu qandayligini sezgan bo'lsayiz bizni oldimizda yangi murakkab vazifa paydo bo'ldi. Vazifa qiyinchiligi qabul qilindi, boshqa barcha vazifalar bir muncha vaqt zerikarli va monoton bo'lib qoldi [1].

Ma'lumotlarni qayta ishlovchi mutaxassislar (Data science) bunday muammolarni uzoq vaqtdan beri bilishgan va ularni hal qilishga qodir, shuning uchun ushbu maqolada dasturchilar uchun maxsus ko'rsatmalarni keltrildik. Agar siz «yuqori aniqlikdagi to'rlar» iborasidan qo'rqqmasangiz va python tilida «Salom dunyo» singari oddiy dasturlarni yaratib bilsangiz demak ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlarni tushunasiz.

Yopiq dasturiy ta'minotga ega ko'plab tijoriy tizimlar mavjud, ammo biz yaxshi ochiq kodli dasturni topmadik. Aslida, bu juda g'alati, chunki bu muammoni hal qilish uchun asos bo'lgan ochiq manba vositalari uzoq vaqtdan beri mavjud.

Elektr hisoblagich raqamini tanib olish uchun qanday vositalar kerak

Tasvirda yoki video oqimida ob'ektlarni topish - bu kompyuter ko'rish sohasidagi vazifa bo'lib, u turli yondashuvlar bilan hal qilinadi, lekin ko'pincha konvolyutsion neyron tarmoqlari yordamida. Biz fotosuratda nafaqat kerakli ob'jekt sodir bo'lgan maydonni topishimiz kerak, balki uning barcha nuqtalarini boshqa ob'ektlardan yoki fondan ajratishimiz kerak. Ushbu turdagi vazifa «Instance Segmentation» deb ataladi. Quyidagi rasmda kompyuterni ko'rish vazifalarining har xil turlari tasvirlangan[5,6].



### 1-RASM. KOMPYUTERLI KO'RISH TURLARI.

Agar sizga O'zbekistonda qo'llaniladigan elektr hisoblagich raqamlarining misollari kerak bo'lsa (tuzatish algoritmlarini sinab ko'rish uchun), ushbu papkadan misol oling.

Men tushunamanki, mavzu juda o'rinli va dasturchilarning keng doirasi uchun katta qiziqish uyg'otishi dargumon, bundan tashqari, kod va modellar tanib olish sifati, tezligi, xotira sarfi va hokazolar nuqtai nazaridan hali ham kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin. Hali ham o'z ehtiyojlari, o'z mamlakati uchun modellarni tayyorlashga qiziqadigan, muammo bor joyda yordam beradigan va taklif qiladigan va biz bilan birgalikda loyihani tijorat hamkasblaridan yomonroq qilmaydigan ishqibozlar bo'lishiga umid bor [2].

Mashhur muammolar

- Loyihada hujjatlar yo'q, faqat asosiy kod misollari.
- Tanib olish moduli sifatida universal OCR tesseract tanlangan va u ko'p narsalarni o'qiy oladi, lekin u juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadi. O'zbekiston qo'llaniladigan elektr hisoblagich raqamlari tan olingan taqdirda, u yerda ixtisoslashtirilgan tuzatish tizimi yozilgan bo'lib, u hozirgacha ba'zi xatolarni qoplaydi, ammo bu yerda ancha yaxshi ish qilish mumkinligi haqida oldindan ogohlantirish mavjud.
- «Kvadrat» raqamlari (1:2 nisbati bo'lgan elektr hisoblagich raqamlari) juda kam uchraydi va biz ular bilan endigina shug'ullanishni boshladik, shuning uchun ular bilan xato kattaroq bo'ladi.
- Ba'zan modelimiz elektr hisoblagich raqami o'rniga boshqa yozilgan belgilari, elektr hisoblagich model raqamlari, paneli va boshqa artefaktlarni topadi.
- Agar raqam sifati past yoki ruxsati past bo'lsa, 4 ball hududi to'liq aniqlanmagan.


Agar bu kimgadir qiziq bo'lsa, maqolada ma'lumotlar to'plamini qanday va nima bilan belgilash va kontentingiz uchun yaxshiroq ishlashi mumkin bo'lgan modellaringizni qanday o'rgatish haqida gaplashamiz (modelingiz, fotosuratingiz o'lchami). Shuningdek, biz o'z tasniflagichingizni qanday yaratish haqida gaplashamiz, bu, masalan, fotosuratda raqam chizilganligini aniqlashga yordam beradi[4].

Biz sizga OpenALPR kutubxonasi bilan bir xil Raspberri Pi platasida ixcham avtomatik elektr hisoblagich raqamini aniqlash tizimini qanday yaratishni bu paragrafda ma'lumot keltirib o'taman.



**2-RASM. OPENALPR KUTUBXONASI BILAN BIR XIL RASPBERRI PI PLATASIDA IXCHAM ELEKTR HISOBLAGICH RAQAMINI ANIQLASH TIZIMI**

Keling OpenALPR ochiq kutubxonasi asosida elektr hisoblagich raqamlarini avtomatik aniqlash va tanib olish uchun o'z tizimimizni yaratish vazifasini ko'rib chiqaylik. Bunday tizimlar nafaqat jazolash, balki aniqlikni oshirib yuborgan ma'lumotlarni tekshirish uchun ham qo'llaniladi. Shunday qilib, nazorat-o'tkazish jarayonida o'rnatilgan tanib olish tizimi elektr hisoblagich ko'rsatkichlarini tanib olish vaqtini qisqartiradi va tizim ishni tezlashtiradi. Dastur tan olingan elektr hisoblagich modeli raqamini ma'lumotlar bazasi bilan tekshiradi, elektr hisoblagich ko'rsatkichlarini tanib oladi [3]. Yana bir ilova - tashqi kuzatuv kameralari orqali elektr hisoblagich ko'rsatkichlarini tanib olish orqali elektr sarfini tabribga soladi yoki ularni ishini optimallashtirish. Izohlarda bunday tizimlardan foydalanish bo'yicha fikrlaringizni o'rtoqlashsangiz xursand bo'lamiz.



## 2-RASM. ELEKTR HISOBLAGICH RAQAMLARINI TANIB OLIISHNING MOBILE TESKHIRUV NATIJA QISMI.

Shunday qilib, videokuzatuv ramkasida elektr hisoblagich ko'rsatkichi tanib olish buyrug'i berilganda, tizim belgini aniqlashi va uni belgilar to'plamidan iborat qator sifatida tan olishi kerak. Video oqimidagi ob'yektlarni oppish – bu kompyuterni tanib olish sohasidagi vazifa. Internetda qidiruv tizimlari orqali siz raqam belgilarini aniqlash bo'yicha ko'plab nashrlarni topishingiz mumkin, lekin ko'pincha misollar takrorlanadi. Bunday yechimlar, albatta, universal emas. Kameraning ko'rish sohasidagi litsenziya plitalari turli

burchaklarda, o‘zgaruvchan yorug‘lik sharoitida ular iflos va shikastlangan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, bir vaqtning o‘zida bir nechta elektr hisoblagich turli qismida bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki bugungi kunda elektr energiyasidan foydalanishda elektr hisoblagichlari ko‘rsatkichlarini tashish jarayonini nazorat qilish dolzarb mavzulardan hamda vazifalardan biri hisoblanadi hamda ko‘pgina korxonlar ushbu tizimlarga muhtojligi ma‘lum bo‘ldi. Ushbu tizimlarni yaratishda ikkinchi bobda keltirilgan nazariyalarga asoslangan holda ushbu bobda xulosa qilib biz kelajakda korxonalar va ilmiy izlanuvchilar o‘zlarining ishlarida yuqori samaradorlikka erishish va yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish uchun ushbu bobdagi ko‘rsatmalardan foydalanish mumkin. Bunda biz litsensiya talab etmaydigan hamda zamonaviy dasturlash tillar(open-source) asosida ishlab chiqialgan va barqaror otladka jarayonidan o‘tgan kutubxonalardan foydalanishni taklif etishimiz barcha uchun qulay hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 802.11s-2011 - IEEE Standard for Information Technology--Telecommunications and information exchange between systems--Local and metropolitan area networks--Specific requirements Part 11: Wireless LAN Medium Access Control (MAC) and Physical Layer (PHY) specifications Amendment 10: Mesh Networking [текст]. — IEEE, 2011. — URL: <https://doi.org/10.1109/ieeestd.2011.6018236>.

2. Борщев, А. Имитационные модели как виртуальная среда для обучения и тестирования искусственного интеллекта для бизнес-приложений [электронный ресурс] / А. Борщев, А. Махдави, А. Жеребцов // ИММОД-2019.

3. Фам В. Д. Метод передачи изображений в энергоэффективной сети дальнего радиуса действия с ячеистой топологией / В. Д. Фам, В. С. Кисель, Р. В. Киричек, А. О. Овчинников, А. С. Бородин // Труды Научно-исследовательского института радио. — 2021. — № 1. — С. 2–15.

4. <https://proglib.io/p/avtomaticheskoe-raspoznavanie-avtomobilnyh-nomerov-na-raspberry-pi-2019-11-01>

5. <https://vc.ru/transport/643758-chatgpt-i-raspoznavanie-avtomobilnyh-nomerov-eto-rabotaet>

**ТУРИЗМ – ПЕРСПЕКТИВНАЯ ОТРАСЛЬ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА****PhD Абдуллаева Шахноза Еркиновна**

Ташкентский государственный университет востоковедение

**Ибрагимова Дильрузахон Акмал кизи**ТГУВ факультет экономики, политика и туризма восточных стран направление  
туризм 3 курс

**Аннотация.** В этой статье рассматривается важность туризма в экономике Узбекистана. Также подчеркиваются пути превращения туризма в высокодоходный сектор экономики, в том числе разработанные правовые рамки и возможности для развития туризма. Особое внимание уделяется туристическим возможностям и потенциалу республики, а также развитию инфраструктуры и разработке необходимых мер для развития транспортной системы.

**Ключевые слова:** туризм, туристская политика, высокодоходная экономика, диверсификация экономики, ускоренное развитие регионов, национальный стандарт, безопасность туристов.

**Annotation.** This article explores the importance of tourism in the economy of Uzbekistan. It also highlights ways to transform tourism into a highly profitable sector of the economy, including the developed legal framework and opportunities for tourism development. Particular attention is paid to the tourism opportunities and potential of the republic, as well as the growth of infrastructure and analyzing of necessary measures for the development of the transport system.

**Key words:** tourism, tourism policy, highly profitable economy, economic diversification, accelerated development of regions, national standard, safety of tourists.

**Введение.**

Развитие туризма в стране является стимулом для развития более 50 отраслей экономики. Туризм позволяет развивать малый и средний бизнес, увеличивает занятость и самозанятость населения Узбекистана, способствует повышению качества жизни и инфраструктуру нашего развивающегося государства. Естественно, туризм увеличивает поступления в бюджеты всех уровней и способствует развитию экспорта.

В отличие от экспорта товаров туризм экспортирует свои продукты и услуги непосредственно на территории страны, т.е. потребители сами приезжают за необходимыми им услугами. Это позволяет участвовать во внешнеэкономической деятельности компаниям, не имеющим объективных возможностей (например, ввиду небольших размеров) участвовать в классических экспортных операциях. Следовательно, потенциал дальнейшего роста въездного и выездного туризма далеко не исчерпан. Республика Узбекистан располагает богатым природно-географическим потенциалом. Создание современного туристско-рекреационного комплекса, который бы реально давал стране экономические, политические и социальные выгоды – это вполне реальная задача.



Однако для создания современного туристского комплекса необходима грамотная, четко спланированная и разумно проводимая туристская политика. Под туристской политикой, как правило, понимается совокупность форм, методов и направлений воздействия государства на туризм для достижения целей сохранения и развития социально-экономического комплекса. Туристская политика является одним из видов макроэкономической политики государства, и её воздействие на туризм осуществляется через государственное регулирование туристской деятельности.<sup>1</sup>

### ***Материалы и обсуждение***

Туристическая отрасль в Узбекистане на подъеме – реализуются необходимые меры по ее развитию. Прежде всего следует отметить, что визовый режим долгое время был самым большим препятствием для посетителей из других стран в Узбекистан, что для развития туризма в стране пришлось принимать вызов от туристов и упрощать получение визы. В частности, сегодня установлены безвизовый въезд для граждан 93 государств, туристы из для 56 государств может пользоваться преимуществом использование электронной въездной визы, пятидневный транзитный безвизовый въезд для 47 государств, дополнительно еще установлено упрощенный порядок выдачи туристических виз для 76 государств. Для граждан КНР, США и Вьетнама, достигших 55-летнего возраста и приезжающих в нашу страну на срок не более 30 дней с туристическими целями, введен безвизовый режим въезда. Также введены новые категории виз для иностранных граждан, такие как *Vatandosh*, *Student visa*, *Academic visa*, *Medical visa* и *Pilgrim visa*. Кроме того, создана туристическая полиция для обеспечения безопасности гостей страны.

Малый бизнес вносит значимый вклад в экономическое благополучие государства. Поддерживая малое предпринимательство, государство стимулирует развитие экономики и повышает уровень благосостояния граждан. Так как основа туристического бизнеса составляет сет предпринимателей малого бизнеса, последние годы для развития всех видов туристского направление в стране создаются благоприятные условия, таких как выделение субсидии на строительство отелей и привлечение международных брендов, увеличение потока туристов.

Принятое Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3217 от 16 августа 2017 года «О первоочередных мерах по развитию сферы туризма на 2018-2019 годы» считается важным этапом внедрение туризма в сектор экономики как государственная политика, проводимой руководством страны в сфере туризма и нацелена на максимальную пользу с созданием комфортных экономических, административных и правовых условий для ускоренного развития туристической индустрии, расширения экономического потенциала регионов и их доходной базы, организации новых рабочих мест, увеличения тур восточных потоков в республику. А также активное и комплексное продвижение национального туристического продукта на мировые рынки [1].

По имеющимся данным, за первое полугодие 2019 года начали функционировать более 148 хозяйствующих субъектов, 81 из которых оказывают гостиничные услуги, а

<sup>1</sup> Государственно-частное партнерство как инновационный механизм

68 - туристические. В январе - июне 2019 года основные показатели туристического сектора превысили показатели, достигнутые по итогам аналогичного периода предыдущего года, в том числе, темпы роста экспорта туристических услуг за первое полугодие 2019 года составили 113,5% [2].

В 2019 году были приняты важные документы, в частности Указ Президента «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан» от 5 января и утвержденная им, концепция развития сферы туризма в Республике Узбекистан в 2019-2025 годах стало логическим продолжением выше указанной стратегии. Указ Президента был направлен на достижение повышения эффективности проводимых реформ по формированию благоприятных экономических условий и предпосылок, разработку приоритетных целей и задач по ускоренному развитию туристской отрасли, повышению ее роли и вклада в экономику, диверсификации и улучшению качества услуг, а также совершенствованию туристской инфраструктуры.[3]

Мировая практика показывает, что для превращения туристической индустрии в высокодоходную необходимо консолидировать усилия всех участников из государственного и частного секторов. В этом заключается роль руководства той или иной страны в обеспечении координации и планирования политики развития в сфере туризма на международном и правительственном уровнях.

Еще одним великим историческим событием для Центральноазиатского региона стало проведение в 2023 году в Самарканде юбилейной 25-й сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации. Было отмечено что, представители свыше 140 стран во время международной конференции пересматривали дальнейший путь к реализации развитие туризма во всем мире.

В частности, в 2023 году Узбекистан посетили почти семь миллионов туристов. Если сравнивать с предыдущими показателями, то в 2016 году к нам приезжали 1,3 миллиона человек, а в 2022-м - 5,2 миллиона. Поток туристов из дальних стран увеличился в три-четыре раза. Например, в прошлом году больше гостей прибыло из Индии - в 3,5 раза (25 тысяч), Японии - в пять раз (семь тысяч), США - в два раза (14 тысяч), Италии - в 3,5 раза (17 тысяч). В 2017 году средняя сумма, потраченная каждым иностранным туристом на территории республики, помимо прямых затрат, составила 197 долларов, в 2022-м этот показатель достиг 309 долларов, в 2023 году - 330 долларов. В прошлом году средняя продолжительность пребывания туристов составила четыре-пять дней и выросла в 1,5 раза по сравнению с аналогичным периодом 2022-го (три дня). За последний 6,5 лет (2017 год - июнь 2023-го) объем туристических услуг вырос в 2,5 раза, их экспорт кратно увеличился, достигнув в 2023-м 2 миллиардов 143 миллионов долларов.[4]

Как отметил глава государства: «Одно новое рабочее место, созданное в сфере туризма, стимулирует создание еще двух рабочих мест в других отраслях. Откровенно говоря, даже в те годы, когда всех насильно мобилизовали на хлопок в палящий зной и лютой мороз, экспорт хлопкового волокна Узбекистана не превышал

миллиарда долларов. В настоящее время экспорт туризма превысил этот рубеж. Если мы увеличим его в три-четыре раза, нам не придется, так сказать, «сажать хлопок».<sup>2</sup>

Кроме того, эти изменения еще больше повышают мировой престиж нашей страны. Так, по данным Всемирной туристской организации, Узбекистан занимает высокие позиции в списке самых быстрорастущих стран в сфере туризма, а также в рейтинге известного центра социологических исследований Gallup «Самое безопасное государство для туризма». Наша страна стала победителем в номинациях «Открытие года» и «Гастрономический туризм» в списке National Geographic Traveler Awards.[5]

В 2022 году признана лучшим развивающимся туристическим направлением в «Глобальном индексе мусульманского туризма». Отрасль привлекает льготами и возможностями В рамках Стратегии «Узбекистан - 2030» определены льготы в сфере туризма. В частности, важной опорой нового этапа развития отрасли должна стать система полного возмещения налога на добавленную стоимость, введенная с 1 января 2024 года. В частности, к 2030 году планируется увеличить количество иностранных туристов до 15 миллионов, а внутренних до 25 миллионов. Для достижения таких высот предусмотрена реализация ряда программ и проектов. Планируются создание совместных туристических маршрутов со странами региона, расширение транспортно-логистических возможностей в Центральной Азии, в частности, реализация программы «Один тур - весь регион». В центре внимания - развитие медицинских, экологических, гастрономических, этно-экстремальных и других туристических направлений. Благодаря воплощению в жизнь таких комплексных проектов в будущем планируется создать не менее миллиона рабочих мест. И это станет важным фактором социально-экономического развития нашей страны, улучшения жизни нашего народа, обеспечения занятости населения.[4]

В Республике Узбекистан проводятся последовательные реформы для развития сектора туризма как одного из стратегических секторов национальной экономики, что в долгосрочной перспективе поможет решить такие важные социальные и 15 экономические задачи, как создание рабочих мест, диверсификация экономики и ускоренное развитие регионов, повышение доходов и качества жизни населения страны.

### ***Заключение***

На территории Узбекистана, богатого архитектурными шедеврами и многовековыми традициями, испокон веков хранят историю древнейшие города планеты. Некоторым более 2,7 тысячи лет. Уникальные памятники славятся на весь мир самобытностью и красотой, а народ - гостеприимством. Поэтому важно развивать имеющийся потенциал.

Государство постоянно реализует комплексные меры по развитию туризма как одной из стратегических отраслей национальной экономики, обеспечивая его диверсификацию и ускорение развития регионов, создание новых рабочих мест, увеличение доходов и качества жизни населения, а также улучшение инвестиционная привлекательность.

<sup>2</sup> «Правда Востока» общественно-политическая газета 15 декабря 2023 года № 261 (30298) статья «ИННОВАЦИИ В ТУРИЗМЕ: ОПТИМИЗАЦИЯ КАДРОВЫХ РЕШЕНИЙ ДЛЯ УСПЕХА»

Либерализация визового режима, упрощение процедур регистрации иностранных граждан, предоставление преимуществ и преференций для развития туристической отрасли позволили создать благоприятные условия для эффективного продвижения национального туристического потенциала как на внутреннем, так и на внешнем рынках.

### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Государственно-частное партнерство как инновационный механизм реализации туристской политики в РФ [Текст]/ А.Э. Саак, Е.В.Жертовская// Туризм: право и экономика.- 2014.-№2.-С. 24-29.
2. «Правда Востока» общественно-политическая газета 15 декабря 2023 года № 261 (30298) статья “ИННОВАЦИИ В ТУРИЗМЕ: ОПТИМИЗАЦИЯ КАДРОВЫХ РЕШЕНИЙ ДЛЯ УСПЕХА”

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ САЙТОВ**

1. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-3217 от 16 августа 2017 года «О первоочередных мерах по развитию сферы туризма на 2018-2019 годы».
2. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/> (дата обращения: 28.01.2020)
3. <https://lex.uz/docs/4143186?ONDATE=15.01.2022>
4. <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/6979-turizm-stanovitsya-odnim-iz-vedushix-sektorov-ekonomiki-uzbekistana.html>
5. <https://old.gov.uz/en/news/view/19100>

---

**INTERFAOL O‘QITISH METODLARI ASOSIDA BO‘LAJAK HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH****Tojiev Xakimjon Xoliqovich***Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, interfaol metodlar, interfaol ta’lim usuli va texnologiyalari, kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayoni, kasbiy-pedagogik shart-sharoitlar, kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish, talabalarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kreativlik, interfaol metodlar, qobiliyat, kognitiv bilimlar.*

Jahondagi globallashtirish va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘ljak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogini muhim kasbiy-pedagogik vazifasi hisoblanadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Buyuk allomalarimiz yangi g‘oyalar, yangicha yondashuvlarni ta’limga joriy qilish bo‘yicha tinmay kurash olib borganlarini ko‘rish mumkin. Sharqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad alFarg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlar o‘z davrining yangi ilg‘or pedagogik g‘oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta’lim-o‘sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar, dunyodagi eng mashhur daholar hisoblanib, asosan, mustaqil, mutolaa qilish natijasida olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishga muvaffaq bo‘lganlar. Mustaqil ta’lim, o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalanishiga olib keladi

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga

chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. SHunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida bo‘lajak harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik ta‘lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta‘lim jarayonini qurish, ta‘lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta‘sirida kechadi. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o‘zi qidirib topish, mustaqil o‘rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o‘zi keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘rganuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga ko‘maklashish ularning o‘z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi.

Interfaol ta‘limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning sub‘ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta‘lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta‘limni amalga oshirishning muhim vositasi - interfaol o‘qitish metodlaridir.

Interfaol o‘qitish metodlari talabalardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshirishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini hamda o‘qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.

Interfaol metodlarning mohiyati o‘qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo‘yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo‘li, usuli puxta ko‘rib chiqilishi lozim. O‘qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli talabaga nima berishini oldindan ko‘ra olishi va darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak.

Interfaol ta’lim o’qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o’qituvchi, talaba va talabalar guruhi o’rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg’in bahs-munozalar, o’zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o’quv materiallarini o’zlashtirishda talabalarning o’zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o’qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o’zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo’llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo’lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O’qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat, o’z-o’zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o’z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo’ladi. Eng muhimi, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo’llash orqali o’qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo’lida o’zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo’naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo’lga kiritadi

Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o’ziga xos farqlar mavjud bo’lib, har bir o’qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o’tkazish usullarini tanlashda to’g’ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko’nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo’llash mashg’ulotlarida hamda o’quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo’yicha mashg’ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo’lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to’g’ri tanlash nazarda tutiladi. To’g’ri tanlangan metodlarni qo’llash mashg’ulotning qiziqarli va samarali bo’lishini ta’minlaydi.

Interfaol mashg’ulot turlari ko’p bo’lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko’zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko’riladi. Interfaol mashg’ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o’ziga xos talablar qo’yiladi, bular mashg’ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o’zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o’zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o’z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko’nikmalari va boshqalardan iborat.

Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-talabalarning muloqot olib borish bo’yicha ko’nikma va malakalarini rivojlantiradi, talabalar orasida emotstional aloqalar o’rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o’z o’rtoqlarining fikrini tinglashga o’rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo’lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo’llash talabalarning asabiy zo’riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Hozir interfaol mashg’ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo’llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o’sib

o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, talabalarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarining bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi kasbiy-pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

- talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

- o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandard yechimlar qabul qilishga undash;

- kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi hamda ularda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayoni o‘zining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullariga ega bo‘lishi shart.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida talabalarining mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.



---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke uchitelya. - T.: TDPU, 2000. -80-b.
3. Барышева Т.А., Jigalov Yu.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovi razvitiya kreativnosti. SPb, 2006. -285s.
4. Bubenov A.V. Kommunikatsionnaya kul’tura: Filosofsko- metodologicheskiy analiz Elektronniy resurs.: dis. kand. filosof, nauk. M., 2006.
5. Bepalko O.V. Sotsialnaya pedagogika: shemy, tablitsi, kommentarii (ucheb.posobie). – M.: TSentr uchebnoy literaturi, 2009. – 208 s. – ISBN 978-966-364-837-81.
6. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y. 2.
7. Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
8. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y. 1
9. Isaev I. Professionalno pedagogicheskaya kultura prepodavatelya. – M.: Izdatel’skiy tsentr «Akademiya», 2002. – 208 s.;
10. Ibragimova G.N. Interfaol ukitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik kobilyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. - 77-b.
11. Drujilov S.A. Professionalnaya kompetentnost’ i professionalizm pedagoga: psixologicheskiy podxod. // Sibir. Filosofiya. Obrazovanie. Nauchno-publitsisticheskiy al’manax: So RAO, IPK, Novokuznetsk, 2005
12. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda ta’lim jarani samaradorligining psixologik tomonlari – T.:TDPU, 2001. – 10

**FIRIBGARLIK JINOYATINING SABAB VA SHART-SHAROITLARINING  
AHAMIYATI VA UNING PROFILAKTIKASI****Mannopov Masrurbek Hoshimjon o‘g‘li***O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi 3-bosqich 315-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Jamiyatda shunday ijtimoiy-iqtisodiy salbiy hodisa, voqea jarayonlar borki, ular shaxslarga ta’sir etish orqali ma’lum bir toifadagi odamlarning ma’naviy-ruhiy dunyosida, xulq-atvorida ijtimoiy muhitda va salbiy hususiyatga ega muhit ta’sirida zo’ravonlik, g‘arazgo’ylik, ochko’zlik, xudbinlik va boshqa salbiy hislatlarni shakllantiradi, ular bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishi va ko‘payib ketishiga olib keladi.*

**Abstract:** *In society, there are such socio-economic negative phenomena, event processes that, by influencing individuals, in the spiritual and spiritual world of a certain category of people, in their behavior, in the social environment and under the influence of an environment with negative characteristics, violence, g forms greed, greed, selfishness and other negative feelings, which lead to the commission and increase of crimes related to them.*

**Аннотация:** *В обществе происходят такие социально-экономические негативные явления, событийные процессы, которые, воздействуя на отдельных людей, на духовный и духовный мир определенной категории людей, на их поведение, на социальную среду и под влиянием среды с негативными Характерные черты насилия, жадность, жадность, корысть и другие негативные чувства, которые приводят к совершению и увеличению связанных с ними преступлений.*

**Tayanch so‘zlar:** *Jamiyat, salbiy hodisa, xulq-atvori, ijtimoiy muhit, zo’ravonlik, g‘arazgo’ylik, ochko’zlik, xudbinlik, firibgarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi.*

Firibgarlik jinoyatlari ham yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek ochko’zlik, xudbinlik, g‘arazgo’ylik kabi g‘ayriahloqiy va qonunga xilof qilmishlardan biridir.

Ta’kidlash joizki, respublikamizda sodir etilayotgan jami jinoyatlar orasida firibgarlik jinoyatining salmog‘i yildan-yilga o‘sib borishi kuzatilmoqda.

Firibgarlik jinoyatlarining kamaytirish masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan eng muhim va ustuvor vazifalaridan bo‘lib, mazkur vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlash ko‘proq ogoh etuvchi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni hamda ularni amalga oshirishda qo‘llanilayotgan firibgarlikning barvaqt profilaktikasi mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Yoshlar tomonidan firibgarlikning sodir etilishi sababini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan mahkumlarning 38,1% ta’lim tarbiyadagi sustkashlik, 32% ishsizlik, 14,9 % huquqiy madaniyatning pastligi, 5,4 % moddiy yetishmovchilik, 4,1 % oson yo‘l bilan pul topish , 1,6 %ni ichkilik, 0,6 % internetning salbiy ta’siri deb belgilashgan.

Yengil pul topish, hayotda qiyinchilik ko‘rmasdan yashash, qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o‘tishga urinish har qanday shaxsni o‘ziga jalb etish ehtimoli yuqori. Biroq, shuni

ta’kidlash joizki, shaxslardagi g’urur, insof, diyonat, vijdon kabi xususiyatlar hamda axloqiy tarbiya tamoyillari ko’pchilikni jinoyat sodir etishga yo’l qo’ymaydi.

Firibgarlik jinoyatining sodir etilishida o’g’rlikdan farqli ravishda jabrlanuvchilar xulq-atvoridagi o’ta ishonuvchanlikka sharoit yaratadi. Shuningdek, ushbu jinoyatning o’g’rlik jinoyatidan farqli bo’lgan asosiy jihati jabrlanuvchi o’ziga tegishli bo’lgan moddiy qiymatliklarni o’z qo’li bilan jinoyatchiga topshirishidir.

Qonunda firibgarlik uchun qat’iy jazo choralari belgilangan bo’lsada biroq firibgarlar tomonidan fuqarolarni mulkini egallash maqsadida ularni aldash davom etadi. Chunki, jazoni og’rliqi bu turdagi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi degan fikrdan yiroq yurishimiz lozim.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tishimiz mumkinki, yuqoridagi omillarni bartaraf etmay turib biz jamiyatda uchraydigan salbiy holatlar shu jumladan firibgarlik jinoyatlarini oldini olishda, natijalarga erishib bo’lmashligini anglashimiz lozim. Shu boisdan, bugungi kunda mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining kam ta’minlangan qatlamini ijtimoiy qo’llab quvvatlash, yangi ishchi o’rinlarini yaratish, “uyushmagan yoshlar”ning mavjud muammolarini aniqlash va bartaraf etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini turmush darajasini oshirish borasida ko’zga ko’rinarli ishlar amalga oshirildi va ular davom ettirilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ikromjon, Y., & Shaxnoza, P. L. (2022, November). UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI KASBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TALABLARI. In E Conference Zone (pp. 67-78)..

2. Yo‘ldashev, I. (2023). UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(15), 39-45.

3. Yo‘ldashev, I. (2023). O‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo‘naltirish pedagogik-psixologik, ijtimoiy muammo sifatida. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(19), 7-15.

4. Po‘latova, S. (2023, November). KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH. In Conference on Digital Innovation: " Modern Problems and Solutions".

5. Po‘latova, S. (2023, November). O‘QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUNTAZAM MASHG‘ULOTLARGA BARQAROR QIZIQISH VA KO‘NIKMALARNI TARBIYALASH. In Conference on Digital Innovation: " Modern Problems and Solutions".

---

**INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA VAQT VA MAKONNING  
LINGVISTIK TOIFALARINI O'RGANISH**

**Qurbonova Nasiba Yusubjonovna**  
*O'zDJTU magistratura 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada makon va zamon tushunchasi va uning o'ziga xos talqini, lokallikning ifodalanish xususiyatlari, tilshunoslikda bu hodisaning o'rganilishi ahamiyati yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *makon, lokallik, lokalizatsiya, gap, nutq, mikromaydon, topoxronos, antropotsentrik.*

**Abstract:** *The article describes the concept of space and its specific interpretation, features of expression, the study of this phenomenon in linguistics, its importance in the poetry of Muhammad Yusuf.*

**Key words:** *concept of space, locality, localization, sentence, speech, microfield, topochronos.*

текшириш учун Пеарсон, Студент ва Фишер тестларидан фойдаланилган. Максимал еҳтимоллик усули ва дисперсияни таҳлил қилиш таклиф қилинди ва экспериментни режалаштиришнинг асосий ғоялари шакллантирилди. 20-асрнинг биринчи учдан бирида ишлаб чиқилган маълумотларни таҳлил қилиш назарияси параметрик статистика деб аталади, чунки унинг асосий ўрганиш объекти бир ёки бир нечта параметрлар билан тавсифланган тақсимотлардан олинган намуналардир. Енг кенг тарқалгани тўртта параметр билан аниқланган Пеарсон егри чизиклари оиласи. Қоида тариқасида, маълум бир кузатиш натижаларини тақсимлаш нима учун маълум бир параметрик оилга киритилиши кераклиги ҳақида ҳеч қандай жиддий сабаб келтирилиши мумкин эмас. Истиснолар ҳаммага маълум: агар еҳтимоллик модели мустақил тасодифий ўзгарувчилар йиғиндисини назарда туца, у ҳолда йиғиндини нормал тақсимот билан тавсифлаш табиийдир; агар модел бундай микдорларнинг кўпайтмасини кўриб чикса, у ҳолда натижа логнормал тақсимот билан яқинлаштирилган кўринади ва ҳоказо.

Гуруҳлашнинг уч тури мавжуд:

- аналитик,
- типологик,
- структуравий.

Аналитик гуруҳлаш - гуруҳлар ўртасидаги алоқаларни аниқлаш имконини беради. Типологик гуруҳлаш - ўрганилаётган аҳолининг бир жинсли гуруҳларга бўлиниши. Структуравий гуруҳлаш - бунда бир жинсли аҳоли маълум бир мезон бўйича гуруҳларга бўлинади.

Типик гуруҳлар: ичкарида максимал даражада бир ҳил ва ташқи томондан ҳетерожен. Гуруҳлар бирламчи ва иккинчи даражали. Бирламчи гуруҳлашлар статистик кузатишлар орқали олинади. Ва иккинчи даражалилар бирламчи асосида амалга оширилади.

Статистик усуллар - статистик маълумотларни таҳлил қилиш усуллари. Илмий тадқиқотнинг барча соҳаларида ва халқ хўжалигининг исталган соҳаларида қўлланилиши мумкин бўлган амалий статистика усуллари ва қўлланилиши у ёки бу соҳа билан чегараланган бошқа статистик усуллар мавжуд. Бу статистик қабул қилишни назорат қилиш, технологик жараёнларни статистик назорат қилиш, ишончлилик ва синовдан ўтказиш, тажрибаларни режалаштириш каби усулларга тегишли. Маълумотларни таҳлил қилишнинг статистик усуллари деярли барча соҳаларда қўлланилади. Улар ҳар қандай ички хилма-хилликка ега бўлган гуруҳ (объектлар ёки субъектлар) тўғрисида ҳар қандай ҳукмларни олиш ва асослаш учун зарур бўлганда фойдаланилади. Маълумотларни таҳлил қилишнинг статистик усуллари соҳасида илмий ва амалий фаолиятнинг учта турини ажратиш кўрсатиш тавсия етилади (аниқ муаммоларга ботиш билан боғлиқ усулларнинг ўзига хослик даражасига кўра):

- а) қўллаш соҳасининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олмасдан, умумий мақсадли усулларни ишлаб чиқиш ва тадқиқ қилиш;
- б) муайян фаолият соҳаси еҳтиёжларига мувофиқ реал ҳодиса ва жараёнларнинг статистик моделларини ишлаб чиқиш ва тадқиқ қилиш;

в) қўлланиладиган муаммоларни ҳал қилишда аниқ маълумотларни статистик таҳлил қилиш учун статистик усуллар ва моделлардан фойдаланиш, масалан, танлама сўровлар ўтказиш учун.

Амалий статистика тасодифий характердаги маълумотларни қайта ишлаш ҳақидаги фандир. Амалий статистика ва таҳлилнинг статистик усулларининг математик асосини еҳтимоллар назарияси ва математик статистика ташкил этади. Маълумотлар тури ва уни яратиш механизмининг тавсифи ҳар қандай статистик тадқиқотнинг бошланиши ҳисобланади. Маълумотларни тавсифлаш учун ҳам детерминистик, ҳам еҳтимоллик усуллари қўлланилади. Детерминистик усуллардан фойдаланиб, фақат тадқиқотчи учун мавжуд бўлган маълумотларни таҳлил қилиш мумкин. Масалан, уларнинг ёрдами билан корхона ва ташкилотлар томонидан тақдим етилган статистик ҳисоботлар асосида расмий давлат статистика органлари томонидан ҳисобланган жадваллар олинди. Олинган натижаларни кенгроқ популяцияга ўтказиш ва прогнозлаш ва назорат қилиш учун фақат еҳтимоллик-статистик моделлаштириш асосида фойдаланиш мумкин. Шунинг учун математик статистикага кўпинча еҳтимоллар назариясига асосланган усулларгина киритилади. Энг оддий ҳолатда, статистик маълумотлар ўрганилаётган объектларнинг баъзи характерли хусусиятларининг қийматлари ҳисобланади. Қадриятлар миқдорий бўлиши мумкин ёки объектни таснифлаш мумкин бўлган тоифани кўрсатиши мумкин. Иккинчи ҳолда, улар сифат белгиси ҳақида гапиришади. Бир нечта миқдорий ёки сифат кўрсаткичлари бўйича ўлчашда биз объект ҳақида статистик маълумот сифатида векторни оламиз. Бу маълумотларнинг янги тури сифатида кўриб чиқилиши мумкин. Бундай ҳолда, намуна векторлар тўпламидан иборат. Координаталарнинг бир қисми - рақамлар ва бир қисми - сифатли (тоифали) маълумотлар мавжуд, кейин биз ҳар хил турдаги маълумотларнинг вектори ҳақида гапирамиз. Намунанинг бир элементи, яъни бир ўлчови бутун функция бўлиши мумкин. Масалан, индикаторнинг динамикасини, яъни унинг вақт ўтиши билан ўзгаришини тавсифловчи беморнинг электрокардиограммаси ёки восита милининг уриш амплитудаси. Ёки маълум бир компаниянинг ишлаши динамикасини тавсифловчи вақт серияси. Кейин намуна бир катор хусусиятлардан иборат.

Намуна элементлари бошқа математик объектлар ҳам бўлиши мумкин. Масалан, иккилик муносабатлар. Шундай қилиб, экспертларни сўров ўтказишда улар кўпинча экспертиза объектларини - маҳсулот намуналарини, инвестиция лойиҳаларини, бошқарув қарорлари вариантларини тартиблашдан (тартиблашдан) фойдаланадилар. Эксперт тадқиқотининг қоидаларига қараб, танлама элементлари турли хил иккилик муносабатлар (тартиб, бўлиниш, бардошлик), тўпламлар, лойқа тўпламлар ва бошқалар бўлиши мумкин. Амалий статистиканинг турли масалаларида намунавий элементларнинг математик табиати жуда бошқача бўлиши мумкин. Шу билан бирга, статистик маълумотларнинг иккита синфини ажратиш мумкин - рақамли ва рақамли бўлмаган. Шунга кўра, қўлланиладиган статистика икки қисмга бўлинади - сонли статистика ва носонли статистика.



**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407 сонли қонуни
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш; жамоат тартибини; фуқаролар ҳуқуқлари; эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5005 – сонли фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 10-апрелдаги “Ички ишлар органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5005-сонли Фармони // URL: <http://www.lex.uz>
4. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси;
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрель кундаги ПҚ-2883-сонли "Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори; билан Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тўғрисида низом;
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сон фармони;
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 май кундаги ПҚ-2940-сонли "Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раислигида 2021-йилнинг 12 феврал куни Ички ишлар вазирлиги Ҳайъатининг кенгайтирилган тарзда ўтказилган йиғилишида сўзлаган нутқи // URL: <http://www.lex.uz>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 январдаги «Юридик хизмат фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2733-сонли Қарори
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 1 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Юридик хизмат фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 19 январдаги ПҚ-2733-сон қарори
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги ПҚ-10 сон қарори
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги ПҚ-10 сон қарори билан тасдиқланган “Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси”
13. Ички ишлар органларида бошқарув ва ахборот-таҳлил фаолияти асослари: Дарслик / И. Исмаилов, Д.С.Мухамадалиев, Э.У. Азизов; масъул муҳаррир Б.А. Матлюбов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – 616 б.

**СТАТИСТИК МАЪЛУМОТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ИЧКИ ИШЛАР  
ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ Т АШКИЛ ЭТИШДАГИ ЎРНИ ВА РОЛИ****Zohriddinov Ramziddin Munojiddin o'g'li***Ichki ishlar vazirligi akademiyasi**Tashkiliy shtab faoliyati**329-guruh kursanti*

**Аннотация:** Ушбу мақолада статистик маълумотларга бўлган талабларнинг пайдо бўлиши, яъни статистик маълумотларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, статистик маълумотлардан фойдаланиш методикаси ҳамда уларнинг ички ишлар органлари фаолиятида нечоғлик аҳамиятга эга эканлиги тўғрисида қарашлар мавжуд ва бу орқали асосий мақсад ички ишлар органлари фаолиятини ташкил этиш ва тизим фаолиятини бошқаришда қандай маълумотларга таяниш лозим ва айнан қандай турдаги статистик маълумотлар тизим фаолиятига ижобий таъсир ўтказиши ҳақида фикрларни аниқлаштириб олиш ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** статистика, анализ, синтез, таҳлил, тадқиқод, амалий статистика, статистик усуллар, кўрсаткичларни таҳлил қилиш.

**Аннотация:** В данной статье изложены взгляды на возникновение требований к статистическим данным, то есть на возникновение и развитие статистических данных, на методологию использования статистических данных и на то, насколько они важны в деятельности органов внутренних дел, и через это основная цель как организовать деятельность органов внутренних дел и как управлять деятельностью системы. необходимо опираться на данные и уточнять мнения о том, какие статистические данные окажут положительное влияние на работу системы.

**Ключевые слова:** статистика, анализ, синтез, анализ, исследования, прикладная статистика, статистические методы, анализ показателей.

**Annotation:** This article contains views on the emergence of requirements for statistical data, that is, the emergence and development of statistical data, the methodology of using statistical data and how important they are in the activities of internal affairs bodies, and through this, the main goal is how to organize the activities of internal affairs bodies and how to manage the system's activities. it is necessary to rely on the data and clarify the opinions about what kind of statistical data will have a positive effect on the system's operation.

**Keywords:** statistics, analysis, synthesis, analysis, research, applied statistics, statistical methods, indicator analysis.

**Кириш**

Янги Ўзбекистон бугунги кунда ўз ривожланишининг энг чўққисига кўтарилаётганини таъкидлаб ўтиш лозим. Республикасининг ҳар бир нуқтаси ва ҳар бир соҳасида ўзгаришлар ва ривожланишлар жадаллашмоқда. Бу борада давлатимиз раҳбарининг ташаббусларини эътироф этмасликнинг иложи бўлмаса керак. Мустақилликка эришгач олиб борилган сиёсатдан тортиб ҳозирга қадар айнан мана шу ислохотларнинг эътибор марказида қонун устуворлиги ва суд-ҳуқуқ тизимини

ривожлантириш мақсади ётганлиги мақтовга сазовордир. Ушбу ислохотлар айна мавзудаги турли тадқиқодларни талаб этиши аниқ. Шу нуқтаи назардан юқоридаги мавзу ҳам ривожланиб бораётган Янги Ўзбекистон ўзгаришларга бир ижобий таъсир бўлиши учун танлаб олинди. Ҳар қандай ривожланиш албатта, маълум ҳисоб-китоб асосида амалга оширилади. Бундай ҳисоб-китоб айна пайтда статистик маълумотларга таяниш кераклигини билдиради.

Статистика ўзи нима?

Аввало мана шундай саволга жавоб излаш лозим. Статистика сўзи инглизча “статистис сўзидан олиган бўлиб, ноаниқлик шароитида қарор қабул қилиш мақсадида маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш учун қўлланиладиган процедуралар ва тамойиллар тўпламини билдиради. Ушбу атаманинг олдинги талқини “ҳукуматнинг сиёсий шакли” деган маънони англатувчи “давлат” сўзидан келиб чиққан. 1935 йилгача пайдо бўлган статистик маълумотларнинг кўплаб қисми давлатнинг ўтмишдаги ва ҳозирги сиёсий ёки молиявий ҳолатининг тавсифи<sup>4</sup> ҳақида бўлган. Аммо бу ҳаммаси эмас, замонлар ўтиши билан инсонлар турли воқеа ва ҳодисаларга ҳам алоҳида эътиборда бўла бошладилар. Ва статистика (лотинча статусдан — ҳолат, ҳолат), оммавий ҳодисалар параметрларини, уларнинг ривожланиш тенденцияларини ёки фактлар асосида улар ўртасидаги муносабатлар мавжудлиги ҳақидаги фаразларни баҳолашнинг ўзига хос усулларини ишлаб чиқадиган фан ёки статистик маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш, шарҳлаш, тақдим этиш ва тартибга солиш бўйича амалий фаолият ёхуд ҳар қандай мавзу бўйича импирик маълумотлар массивлари каби турлича мулоҳазалар пайдо бўла бошлади. Статистика давлат, жамият ва иқтисодиёт еҳтиёжлари билан боғлиқ амалий масалаларни ҳал қилиш воситаси сифатида пайдо бўлди ва ривожланди. Бунинг асосий сабаби, давлатнинг солиққа тортиш ва бошқа давлат вазифаларини, масалан, армияни шакллантириш учун аҳоли, ҳосил ва даромадлар тўғрисидаги маълумотларга муҳтожлиги еди. Қадимги Хитойда давлат еҳтиёжлари учун статистик маълумотларни йиғиш амалиёти мавжудлиги тўғрисида далиллар мавжуд. Ю.Е.Янсон «биринчи аҳолини рўйхатга олиш милоддан аввалги 23-асрга тўғри келади», деб ёзган<sup>5</sup>. Дастлаб, статистик маълумотларни йиғиш муаммо туғдирган. Аммо, бу муаммолар ибтидоий усуллар ёрдамида ҳал қилинди. Масалан, Форс ҳукмдори Доро ўз кўшинини маълум бир жойга кўрсатиб, ҳар бир жангчи ўтиб кетаётганда, у ерга тош қўйишни буюрган ва кўшин миқдорини ҳосил бўлган тепаликнинг баландлигига қараб баҳолаган. Агар бу маълумот тўғри бўлса, у нафақат маълумотлар йиғиш усулларини ишлаб чиқиш, балки натижаларни визуаллаштиришнинг далили деб ҳисобланиши мумкин. Давлат маълумотларига бўлган еҳтиёжнинг ўсиши билан статистик фаолият ривожланди ва аста-секин давлат органларининг одатий вазифасига айланди. Қадимги Юнонистонда аллақачон тизимли аҳоли ёзувлари мавжуд еди. VI асрда Қадимги Римда Сервиус Туллиус муассасалари аҳолини рўйхатга олишни фуқароларнинг мулкани баҳолаш мақсадида рўйхатга олди, шунингдек, туғилиш ва ўлимни қайд етди ва катталар рўйхатини тузди. Бундай

<sup>4</sup> М.Я. Келберг, Й.М. Сухов “Еҳтимоллар назарияси ва математик статистиканинг асосий тушунчалари”

<sup>5</sup> Янсон. 1886. 7-бет)], Осурия ва бошқа қадимги давлатлар.

рўйхатга олишларни ўтказган ходимларни аллақачон профессионал статистиклар деб ҳисоблаш мумкин<sup>6</sup> эди. “Сенсус” атамаси ҳали ҳам инглиз тилида “Сенсус” тушунчасини ифодалаш учун ишлатилади. Аҳолини рўйхатга олиш ва бошқа статистик маълумотларни йиғиш учун масъул бўлган статистика агентлиги инглизча аҳолини рўйхатга олиш бюроси деб аталади. Унинг ривожланиши ҳозирги кунга қадар ҳам ривожланишдан тўхтамаяпти. Айни пайтда статистик маълумотларнинг аҳамияти бошқа давлат органларида бўлгани каби ички ишлар органларида ҳам катта аҳамиятга эга. Яъни, ички ишлар органлари ўз фаолиятини маълум бир турдаги маълумотларга таянган ҳолда белгилаб олади ёки муайян йўналишни танлаб олади. Собиқ иттифоқ давридаёқ ташкил этилган ички ишлар органларининг фаолияти мамлакатимиз мустақилликка эришган вақтларда тарихий тараққиётдан келиб чиқиб ўзининг йўналишларини белгилаб олди. Кейинги даврларда ушбу вазият такрорланишига тўғри келди. Бунга сабаб эса вақтнинг ўтиши билан ҳар қандан нарсга тараққий этгани каби мамлакатимизда содир этилаётган жиноятларнинг турлари ҳам уларни олдини олиш борасидаги чора-тадбирларнинг турлари ҳам ўзгариб борди. Масала ҳам мана шу ерда. Ушбу ўзгаришлар қандай аниқланади? Бу масалага аниқлик киритиш орқали ички ишлар органлари фаолияти учун зарур бўлган маълумот ёки бошқача айтганда статистик ахборотлар ҳақида тегишли билимларга эга бўлиш мумкин.

### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407 сонли қонуни
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш; жамоат тартибини; фуқаролар ҳуқуқлари; эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5005 – сонли фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 10-апрелдаги “Ички ишлар органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5005-сонли Фармони // URL: <http://www.lex.uz>
4. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси;
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрель кундаги ПҚ-2883-сонли "Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори; билан Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тўғрисида низом;
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сон фармони;

<sup>6</sup> Янсон. 1886. 8-бет)], Осурия ва бошқа қадимги давлатлар.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 май кундаги ПҚ-2940-сонли "Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раислигида 2021-йилнинг 12 феврал кун Ички ишлар вазирлиги Хайъатининг кенгайтирилган тарзда ўтказилган йиғилишида сўзлаган нутқи // URL: <http://www.lex.uz>

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 январдаги «Юридик хизмат фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2733-сонли Қарори

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 1 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Юридик хизмат фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 19 январдаги ПҚ-2733-сон қарори

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги ПҚ-10 сон қарори

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги ПҚ-10 сон қарори билан тасдиқланган “Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси”

13. Ички ишлар органларида бошқарув ва ахборот-таҳлил фаолияти асослари: Дарслик / И. Исмаилов, Д.С.Мухамадалиев, Э.У. Азизов; масъул муҳаррир Б.А. Матлюбов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – 616 б.

**БАНК КАРТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ БИЛАН БОҒЛИҚ  
ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТЛАРИНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ТАВСИФИ****Адилханов Аброр***Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги**Академияси 304-гуруҳ курсанти*

**Анотация:** *Жиноятларни тез ва тўла очиб, айбдорларни фош этиш ҳамда одил судлов фаолиятида банк карталаридан фойдаланиш ҳамда картадан ноқонуний йўл билан пул ечиб кетиш билан боғлиқ фирибгарлик жинояти турларига қарши курашиш ва тергов қилишда бошқа соҳа хизматлари билан ҳамкорлик қилишни такомиллаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш ҳисобланади.*

**Калит сўзлар:** *фирибгарлик, жиноят, тезкор тадбир, жиноят иши,*

Президентимиз Шавкат Мирзиёев халқимиз азалдан юксак қадрлаб келадиган, ҳамма нарсадан устун кўядиган “адолат” туйғусини ҳаётимизда янада кенг қарор топтириш, биринчи даражали вазифа эканига алоҳида эътибор қаратмоқда. Жамиятимизда коррупция турли жиноятларни содир этиш ва бошқа ҳуқуқбузарлик ҳолатларига қарши курашиш, уларга йўл қўймастик, жиноятга жазо албатта муқаррар экани тўғрисидаги қонун талабларини амалда таъминлаш бўйича катъий чоралар кўриш зарурлиги таъкидланмоқда.

Шунингдек таъкидлаш керакки, мамлакатимиз иқтисодиёти ривожланиши билан бирга рақамли иқтисодиёт соҳасида ҳам янги турдаги ижтимоий хавфли қилмишлар ҳам юзага кела бошлади. Иқтисодиёт соҳасидаги жиноятлар қаторида, хусусан ўзгалар мулкни талон-тарож қилиш фаолияти соҳасидаги жиноятлар ичида кўпроқ содир этилаётган жиноят сифатида фирибгарлик жинояти ҳисобланади.

Қонунга кўра, алдаш ёки ишончни суистеъмол қилиш йўли билан ўзганинг мулкни ёки ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқни қўлга киритиш *фирибгарлик* дейилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг

“Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида” ги 2017 йил 11 октябрь 35-сонли қарорида фирибгарликка қўйидагича таъриф берилган: “Фирибгарлик ўзганинг мулкни ёки мулкка бўлган ҳуқуқни алдаш ёки ишончни суистеъмол қилиш йўли билан ҳақ тўламай эгаллашда ифодаланиб, бунинг таъсирида мулк эгаси ёки бошқа шахс ёхуд ваколатли ҳокимият органи мулкни ёки унга бўлган мулкни бошқа шахсга беради ёки ушбу мулк ёки унга бўлган ҳуқуқ бошқа шахс томонидан олиб қўйилишига имконият беради”<sup>7</sup>.

Жиноят кодексининг 168 моддаси диспозициясига мувофиқ фирибгарликда алдаш деганда, айбдор томонидан, била туриб, ҳақиқатга тўғри келмайдиган ёлғон маълумотлар хабар қилиниши ёки иш ҳолати бўйича мулк эгаси ёки бошқа шахсга маълум қилиниши лозим бўлган ҳақиқий фактларни яшириш ёхуд мулк эгаси ёки

<sup>7</sup> Фирибгарлик жинояти учун жавобгарлик ўқув қўлланма

бошқа шахсни янглиштиришга қаратилган қасддан содир этилган ҳаракатлар тушунилади.<sup>8</sup> Фирибгарликда ёлгон маълумотларга жабрланувчини янглиштиришга олиб келиши мумкин бўлган ҳар қандай ҳолатлар, жумладан, юридик факт ва воқеалар, мулкнинг сифати, нархи, айбдорнинг шахси, унинг ваколати, нияти (масалан, айбдор шахс ўзини мансабдор шахс ёки ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходими сифатида кўрсатиши), пластик карта ва банк карталаридан ўзларини банк ходиман деб код ва паролларни олиб шахсларнинг ҳисобидаги пулларни ечиб олиш ҳолатлари тааллуқли бўлиши мумкин.

Фирибгарликда алдаш ёки ишончни суиистеъмол қилиш мулкни ёки унга бўлган ҳуқуқни айбдор мулкдорлиги ёки эгалигига ихтиёрий равишда берадиган ақли расо шахсга нисбатан содир этилган бўлиши шарт. Айбдор томонидан, била туриб, ақли норасо шахсни ёки воқелик моҳиятини англаш қобилиятига эга бўлмаган (масалан, ўта ёшлиги, руҳий жиҳатдан норасолиги алкоғол, гиёҳвандлик воситаси ёки психотроп модда таъсирида оғир даражада мастлиги туфайли) шахсни алдаш ва ундан мулкни олиш **фирибгарлик тариқасида эмас, балки ўғирлик сифатида квалификация** қилиниши лозим, чунки бундай ҳолларда шахс мулк унинг эгалигидан чиқиб кетаётганлигини англамайди.<sup>9</sup> Мулкни эгаллашга қаратилган фирибгарлик, мазкур мулк айбдор ёки бошқа шахсларнинг ғайриқонуний эгалигига ўтган ва улар ундан хоҳлаган тарзда фойдаланиш ёки тасарруф этиш реал имкониятига эга бўлган пайтдан тугалланган деб топилади. Қонунга кўра, шахс банкдаги пул маблағларини улар унинг банкдаги ҳисобварақасига келиб тушган (ўтказилган) пайтдан бошлаб реал тасарруф қилиш имкониятига эга бўлганлиги туфайли, жиноят бу маблағлар уларни маблағ эгаси ҳисоб варақасидан алдаш ёки ишончни суиистеъмол қилиш йўли билан олган шахснинг ёки бошқа шахснинг банкдаги ҳисоб варақасига ўтказилган пайтдан тугалланган деб топиш лозим.

Ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқни эгаллашга қаратилган фирибгарлик айбдорда ўзганинг мулкига эгалик қилиш ёки тасарруф этиш учун юридик жиҳатдан тасдиқланган имконият пайдо бўлган пайтдан (масалан, кўчмас мулкка нисбатан мулк ҳуқуқи ёки қонунга мувофиқ рўйхатга олинishi шарт бўлган бошқа мулкка нисбатан ҳуқуқ рўйхатга олинган пайтдан; шартнома тузилган вақтдан; мулкка нисбатан шахснинг ҳуқуқи тан олинган суд қарори учга кирган кундан; ваколатли давлат органи айбдорда ёки бошқа шахсларда мулкка нисбатан эгалик қилиш, фойдаланиш ёки тасарруф этиш учун асослар мавжудлиги тўғрисида қарор қабул қилган кундан) тугалланган ҳисобланади.

Фуқаролик ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган мажбуриятлар (масалан, қонунга мувофиқ тузилган қарз, кредит, аренда, прокат, пудрат, омонат сақлаш ва ҳ.к.)ни бажармаганлик учун жавобгарлик, башарти шахснинг ҳаракатларида жиноят аломатлари мавжуд бўлмаса, **фуқаролик қонунчилиги нормалари** бўйича келиб

<sup>8</sup> Фирибгарлик жинояти бўйича Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси дарслик махсус қисми

чиқади. Шу муносабат билан фуқаролик ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган мажбуриятларни бажармаган шахсларга нисбатан ишларни кўришда, судлар жиноят ишини жиноий ҳодиса юз бермаганлиги сабабли тугатиш масаласи муҳокама этишлари ҳамда манфаатдор шахсларга бундай масалалар фуқаролик ёки хўжалик суд ишларни юритиш тартибида ҳал қилишнинг зарурлигини тушунтиришлари

**Фирибгарлик жиноятининг жиноий-ўқуқий тавсифи.** Фирибгарлик ўзганинг мулкини ёки мулкка бўлган ҳуқуқини алдаш ёки шончли суиистеъмом қилиш орқали ҳақ тўламай эгаллашда ифодаланиб, бунинг натижасида мулк эгаси ёки бошқа шахс ёхуд ваколатли ҳокимият органи мулкни ёки унга бўлган ҳуқуқни бошқа шахсга еради ёинки ушбу мулк ёки унга бўлган ҳуқуқ бошқа шахс омонидан олиб қўйилишига имкон беради.

Фирибгарлик жиноятининг **объекти** - ўзгалар мулки ёки мулкка ўлган ҳуқуқини таъминловчи ижтимоий муносабатлар.

Фирибгарлик жиноятининг предмети: 1) ўзганинг мулки; 2) ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқ ҳисобланади. Ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқ одатда турли хил ҳужжатларда (масалан, мулкни тасарруф илишга ҳуқуқ берувчи ишончномада) мустаҳкамланади.

Фирибгарлик жинояти **объектив томондан** ўзганинг мулкини қонунга хилоф равишда олиш мақсадида қилинган алдов ҳаракатларида ёки шу мақсадда жабрланувчининг ишончини суиистеъмом қилган олда мулкка бўлган ҳуқуқни қўлга киритишида намоён бўлади.<sup>10</sup>

Ишончли суиистеъмом қилиш, фирибгарликнинг иккинчи шакли-ни ташкил қилади. **Ишончли суиистеъмом қилиш деганда** айбдор томонидан мулк эгаси ёки мулкни учинчи шахсларга бериб юбориш тўғрисида қарор қабул қилишга ваколатли бўлган бошқа шахслар билан бўлган ишончли муносабатлардан ғаразли мақсадларда фойдаланиши тушунилиши лозим. Ишончга турли ҳолатлар, масалан, айбдор шахснинг хизмат мавқеи ёки унинг жабрланувчи билан шахсий ёки қариндош-уруғлик муносабатлари сабаб бўлиши мумкин. Ишончли суиистеъмом қилиш мустақил усул сифатида содир этилган фирибгарликда фаол алдов (ҳақиқатни бузиб кўрсатиш) ҳам, фаол бўлмаган алдов (ҳақиқатни яшириш) ҳам мавжуд бўлмасдан, фақат ўзаро ишончга асосланган муносабатларни суиистеъмом қилиш ҳолати мавжуд бўлади.

**Субъектив томондан** фирибгарлик жинояти тугри қасд билан содир этилади.

Жиноятнинг **субъекти** 16 ёшга тўлган ақли расо жисмоний шахсдир. **Фирибгарлик деганда** ўзгалар мулкини (давлат, жамоат ёки фуқароларнинг шахсий мулкларини) алдаш ёки ишончли суиистеъмом қилиш йўли билан қўлга киритиш тушунилади. Мазкур жиноятни тергов қилиш ўз хусусиятларига эга. Бу хусусиятларга қуйидагиларни киритиш мумкин: *биринчидан*, фирибгарлик жиноятининг содир этилиши бошқа жиноятлар содир этилишидан фарқ қилади. Жабрланувчилар фирибгарлар билан муайян вақт (10-15 кун, 1-2 ой) давомида, баъзи вақтларда узоқроқ муддат (6 ой ва ундан кўп вақт) давомида ўзаро муносабатда бўладилар. Шунинг учун

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси дарслик Махсус қисми Тошкент 2009.



хам жабрланувчилар жиноят содир этилгандан кейин фирибгарнинг ташқи кўриниши белгилари тўғрисида тўлароқ маълумот беришлари мумкин; *иккинчидан*, фирибгар ташқи кўриниши, ўзини тутиши, ақл-фаросати, дунёқараши, фикрлаш доираси ва хулқ-атвори билан бошқа турдаги ғаразли жиноятларни содир этувчи (ўғрилиқ, талончилик, безорилик) шахслардан фарқ қилади. У жиноятни содир этишда айёрлик ва чаптастлик қобилиятларини ишлатиб, одамларни ўзига жалб этади, уларда ўзларига нисбатан ишонч ва қизиқиш уйғотади;

*учинчидан*, фирибгарлик баъзи вақтларда фуқароларнинг ноўрин истаклари натижасида содир этилади. Жабрланувчилар фирибгарга нисбатан ўта ишонч ва очиқ кўнгиллик билдирадilar ва шу билан ўзларининг алданиб қолганликларини сезмай қоладилар.<sup>11</sup>

Фирибгарликнинг **криминалистик тавсифи қуйидаги элементлардан** иборат:

- жиноят содир қилингани тўғрисидаги дастлабки хабарлар;
- фирибгар шахси;
- фирибгарликнинг содир этилиш йўли, уни яшириш усуллари ва ўзига хос оқибатлари;
- жиноятнинг содир этилишига имкон берган сабаб ва шарт-шароитлар. Жиноят содир этилгани тўғрисидаги дастлабки ахборот. Аксарият ҳолларда дастлабки ҳужжатлардаги маълумотлар ўзида мазмунан ва ҳажмли тарзда жиноятнинг таркибига оид айрим элементлар жамлаган бўлади.<sup>12</sup> Фирибгарликдан жабрланган шахслар ёки уларнинг қариндошлари берган аризаларда, айрим ҳолларда эса давлат, нодавлат, нотижорат ташкилотлари, корхона ва муассасалардан келиб тушган ҳужжатларда жиноят содир этган шахс тўғрисида муайян маълумотлар қайд этилади. Шу билан бирга, жиноят ходисаси, унинг содир этилиш механизми, эпизодлари ва иш учун муҳим бошқа ҳолатлар тўғрисида етарли маълумотлар бўлмайди.

Дастлабки маълумотларни таснифлаш терговчига жиноят ишини қўзғатиш ёки кузғатишни рад қилиш тўғрисидаги масалани ҳал этишда, содир бўлган воқеанинг тавсифи, жиноятни содир қилиш йўли ва яшириш усуллари, жиноятчининг шахси тўғрисида асосли тусмол (версия)ларни ишлаб чиқишда ёрдам беради, натижада тергов вазиятига тўғри баҳо берилади, унинг йўналишини белгилаш ва фирибгарни излаб топиш ҳамда у

«қонунийлаштириб» ўзлаштирган мулкни топишда тўғри йўл кўрсатади.

Шундай қилиб, фирибгарлик жиноятини тергов қилишда исботланиши лозим ҳолатлар мавжуд бўлиб, уларга жиноятни содир этиш усули, жиноят содир этилишида жабрланувчининг роли, фирибгарлик жиноятининг содир этилишига имкон яратган шарт-шароитлар киради.

Алдаш жабрланувчида мулкни айбдор эгалигига ўтказишида, ташқи томондан қонуний асослар мавжуд бўлгани ҳолда келишувга олиб келиши мумкин. Масалан: айбдорлар солиқ ёки банк ходими кийимини кийиб қалбаки ҳужжатларни намоиш қилган ҳолда жабрланувчининг хонадони сизнинг солиқ қарздорлигингиз бор ёки

<sup>11</sup> **Фирибгарлик жинояти бўйича Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами**

<sup>12</sup> **Фирибгарлик жиноятини тергов қилиш Ўқув қўлланма – Тошкент 2012й**

нафақа пуллари пластика берилади деб алдаб муайян қимматликларга эга бўлган мулкларни олиб, мулкни олиб қўйиш тўғрисида байоннома тузади ёки шахсга доир малумотларни олиб ўғли ёки қизингизни пластикига пул ташлаб берамиз деб алдаб малумотларни олиб банк карталаридан пулларни ўзлаштириш.<sup>13</sup>

Айтилганларнинг барчаси ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходимларидан мазкур турдаги жиноятларни тергов қилиш ва унга қарши кураш чораларини белгилашда ушбу жиноятнинг криминалистик хусусиятларига алоҳида аҳамият беришлари лозимлигини тақозо этади.

Қуйидагилар фирибгарлик жинояти бўйича дастлабки маълумотлар манбаи бўлиб, хизмат қилади:

- жабрланувчиларнинг арзлари
- махсус тезкор қидирув тадбирлар ўтказилиши натижасида олинган фактлар;
- жиноят шохидларнинг кўрсатмалари (хабарлари);
- мансабдор шахслар хабарлар;

Банк карталаридан пул маблағларини жиноятчилар томонидан фирибгарлик усулида ечиб олиб ўзларидан қолдириладиган излар жуда ҳам ранг-баранг бўлиб, улар жиноятнинг турлари, шунингдек, содир этиш усулларига боғлиқдир. Ушбу турдаги фирибгарлик жиноятлари асосан компьютер тармоқларидан ҳамда ўзларини банк ходими деб таништириш бундан ташқари пластик карталардан банкamatларда смс хабарномага улаб бераман деб ёки пластик картадан фойдаланиш учун олиб туриб уни ичидаги пулларни ечиб олиш ёки пластик карта рақамларни ўзларини телефонларига улаб олиш орқали содир этилиб ечиб олинган пулларни бошқа бир нечта картага ташлаб жиноятчи ўз изидан янглиштирмоқчи бўлади. Ушбу турдаги Жиноятларни очиш, фош қилишни ташкил этиш ва тергов қилишни ташкиллаштиришнинг самарадорлигини таъминлаш учун: тергов-тезкор гуруҳининг ҳодиса рўй берган жойга имкон борича, тезроқ етиб келиши, жиноят иши қўзғатиш ва дастлабки тергов ишларини бошлаш тўғрисида тезкорлик билан қарор қабул қилиш, барча зарур куч ва воситаларни кечиктирмай ишга жалб этиш, ўтказиладиган тергов ҳаракатлари ва тезкор-қидирув тадбирларни танлаб олиш, тезкор қидирув тадбирларининг, тезкорлиги, узлуксизлигига риоя қилиб, уларни барча тергов-тезкор гуруҳининг таркибидан фойдаланган ҳолда кенг миқёсда ўтказиш, ўта кам вақт сарфлаган ҳолда имкон борича кўпроқ маълумотлар йиғиш ва уларни тўплаш, бирга иш юритаётган органларга ва ҳамкор ташкилотларга тезкорлик билан малумотлар йиғиш тезкор тадбирини ўтказиш, муайян маълумотдан хабардорларни тезда топиш ва улар билан сўров тадбирларини тезликда ўтказиб улардан тушунтиришлар олиш тезкор равишда тезкор кузатув тадбирларини амалга ошириш орқали жиноятчини топиш жиноятни фош этиш амалга ошириш лозим.

Ўзининг мазмуни бўйича жиноий ҳолатлари ҳар-хил бўлиши мумкин. Тезкор қидирув ходими жиноий ҳодиса ҳолатидан келиб чиққан ҳолда, жиноий ҳодиса

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами

юзасидан тактик қарорларни қабул қилиш, мисол учун тезкор ходим ходиса гувоҳ шохидлар яқин атрофдаги шахслар билан сўров тадбирларини ўтказиб жиноятчи шахс хақида малумот олиб ушбу шахсни топишда малумотлар йиғиш тезкор тадбир ўтказиб ҳамкор органларга сўров йубориб малумотлар йиғиш тадбирини ўтказди, жабрланувчининг банк картасидан талон тарож қилинган пулларни малумотлар тўплаш учун кибержиноятчиликка қарши кураш бошқармаларига сўровлар юборилади бундан ташқари банк карта ўтказмалар тарихини олиш учун банкка хабарнома жўнатилиб банк сири бўлган ўтказмалар тарихи олинади, бундан ташқари телефон апаратларига телефон қилинган рақамларни топиш бўйича мисол учун телефондан чиқилган қўнғироқлар тарихи ва телефонга қаердан чиқилганлигини аниқлаш учун кибержиноятчилик марказларига жўнатилиб телефон малумотлари кўтартирилиб ушбу малумотлар орқали қидирув тадбирлари ўтказилади ва жиноят содир етган шахсни топиб қонуний чора кўрилади. Бундан ташқари банк карталаридан ноқонуний пул ечиш жиноятини содир этиш вақти ва жойи тўғрисидаги маълумотларни тадқиқ этиш, банк карталаридан олинган ўтказмалар тарихидан қаратлар пул айлантирган фирибгар пулларни қандай доимий бир хил карталарга ташлашини ҳисоблаш, орқали такроран содир етилаётган жиноий ходиса ва ҳолатлар юзасидан, бундан ташқари жабрланувчилардан телефон қилиб ўзларини банк ходими деб таништирган шахсларга қонуний чора қўйиш сўраган мурожатлари бўйича тезкор қидирув ходими тезкор қидирув излов кузатув тадбирини ўтказиш чорасини кўриб жиноят содир етмоқчи бўлган шахсларга сўраётган вақтда телефон апарат рақамлари қаерда жойлашганлигини билиш учун овоз ёзиб олиб телефон қайта қилишини сўраб ўзи телефон яна қилишини кутиб туриб телефон малумотларидан уни қидириб излаб топиш вақтида тезкор гуруҳ томонидан ашёвий далилар билан ушлаш чораларини кўради ва жиноят такроран содир етишга чек қўйиш. Шунингдек ички ишлар органларининг тезкор ходимлари ва бошқа соҳавий хизматлар ишларини тўғри ташкиллаштириш орқали жиноятни жиловлашга ҳаракат қилиш, мисол учун ОАВларда чиқиш фуқароларни ҳуқуқий онг ва маданиятини ошириш ҳар хил реклама ва шахсларга ишониб қолишларини олдини олиш орқали тезкор кузтувлар натижасида содир етилиши мумкин ёки содир етилаётган жиноятларга иссиқ изидан очиш уларни фош этиш муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтганда банк карталаридан фирибгарлик йўли билан жиноятлар содир етиб жабрланувчига айланиб жиноятчи шахс топилмай қолиши айбдорлар номалумлигича қолиб кетади шундай вазиятларда тергов ва тезкор қидирув ходимлари тезкор равишда жиноятларни фош етишга киришиб тезкор қидирув тадбирлар ўтказиб жиноят иссиқ изидан фош етиб жиноят содир етган шахсга қонуний чоралар кўрилади.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamirovich, B. A., & Kamoliddinovich, N. M. (2023). JANUARY 14 IS THE DAY OF DEFENDERS OF THE FATHERLAND. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 98-104.

2. Halilovich, M. S. (2023). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING YARATILISH SABABLARI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 105-108.

3. Ortiqovich, U. A., & Abduraupovich, P. B. (2023). QUROLLI KUCHLAR YARATILISHINING QONUNY NEGIZLARI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 109-112.

4. Polvonova, M. (2023). LANGUAGE AND CULTURE. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 113-120.

5. Shaxzoda, R., & Qurbonov, D. R. (2023). OILADA MULKNING SHARTNOMAVIY KO‘RINISHLARINING KAFOLATI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 121-126.

6. Abdupattoevich, K. R., & Musajonovich, X. M. (2023). TALABA-YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI SPORT MUSOBAQALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 127-129.

7. Kamolitdinovich, N. M., & Ibragimjanovich, T. I. (2023). BO ‘LG ‘USI CHQBT O ‘QITUVCHILARINI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI MUSTAXKAMLASHGA QARATILGAN IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 130-133.

8. Marg‘uba, M. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALARI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 134-136.

9. Abdullajonovna, M. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QUVCHILARINING TA‘LIM-TARBIYASIDA OILANING RO ‘LI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 137-140.

10. Sunnatovna, O. D. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA VA TA ‘LIM MUASSASALARINING O ‘ZARO HAMKORLIGI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 141-144.

11. Абдулладжанов, Ж. Н. (2023). ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАСИДА ҚИШЛОҚ СУҒУРТАСИ ФАОЛИЯТИ АСОСЛАРИ ВА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИСТИҚБОЛЛАРИ. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 145-148.

12. Ibragimovich, T. I. (2024). IMPROVING OF PEDAGOGICAL SKILLS OF STUDENTS OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY DURING CONTINUOUS PEDAGOGICAL PRACTICE. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(2), 92-94.

13. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.

14. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. JournalNX, 7(1), 311-314..

**TRANSPORT OBEKTLARIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA FOSH ETISH**

**Azizov Kamron Shuxrat o‘g‘li**  
*IIV Akademiyasi 304-guruh kursanti*

Transport xavfsizligi bosh boshqarmasi transport vositalarini qo‘riqlash, yo‘lovchilar, operatorlar va aholi xavfsizligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jinoiy taktikalar va xavfsizlikka tahdidlarning jadal rivojlanishi bilan ushbu agentlikdagi tezkor vakillar jinoyatlarning oldini olish va aniqlash bo‘yicha innovatsion strategiyalarni qo‘llashlari shart. Ushbu maqolada Transport xavfsizligi bosh boshqarmasi tezkor vakillari tomonidan transport vositalaridagi jinoyatlarga qarshi kurashda qo‘llaniladigan taktikalar ko‘rib chiqilib, faol choralar va turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish muhimligi ta‘kidlangan. Profilaktik profilaktika strategiyalari: Operativ vakillar tomonidan qo‘llaniladigan asosiy taktikalardan biri bu proaktiv oldini olish strategiyalarini amalga oshirishdir. Bunga transport vositalaridagi potentsial zaifliklarni aniqlash uchun muntazam ravishda xavflarni baholashni o‘tkazish va ularni bartaraf etish uchun mustahkam xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish kiradi. Tezkor kuzatuv tizimlari, kirishni nazorat qilish choralari va biometrik identifikatsiya usullari kabi ilg‘or texnologiyalardan foydalanish jinoiy faoliyatning oldini olishga va transport vositalarining umumiy xavfsizlik holatini yaxshilashga yordam beradi. Xodimlar va xavfsizlik xodimlari uchun shubhali xatti-harakatlarni aniqlash va xavfsizlik hodisalariga samarali javob berish bo‘yicha o‘quv dasturlari ham proaktiv oldini olish harakatlarining muhim tarkibiy qismidir. Razvedka ma‘lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish: Jinoyatlarning oldini olish va fosh etishning yana bir hal qiluvchi taktikasi bu tezkor ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishdir. tezkor vakillar huquq-tartibot idoralari, qidiruv xizmatlari va xavfsizlikning boshqa manfaatdor tomonlari bilan yuzaga kelayotgan tahdidlar va jinoiy harakatlar haqida tegishli ma‘lumotlarni to‘plash uchun yaqindan hamkorlik qiladi. Ushbu razvedka ma‘lumotlarini tahlil qilish va naqshlar yoki tendentsiyalarni aniqlash orqali operativ vakillar xavfsizlik xavflarini faol ravishda hal qilishlari va potentsial jinoiy faoliyatni ular sodir bo‘lishidan oldin to‘xtatishlari mumkin. Prognozli tahlil va tahdidlarni baholash vositalaridan foydalanish razvedka operatsiyalari samaradorligi va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hamkorlik va ko‘p agentliklarni muvofiqlashtirish: Transport vositalaridagi jinoyatlarga qarshi kurashda turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida samarali hamkorlik va muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Transport xavfsizligi Bosh boshqarmasining tezkor vakillari xavfsizlik choralarini kuchaytirish bo‘yicha axborot, resurslar va ilg‘or tajribalarni almashish uchun transport organlari, huquqni muhofaza qilish idoralari, xususiy sektor sub‘ektlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qiladi. Qo‘shma o‘quv mashqlari, stol usti simulyatsiyalari va ma‘lumot almashish platformalari xavfsizlik hodisalari yoki favqulodda vaziyatlarda uzluksiz muvofiqlashtirish va javob berishga yordam beradi. Kuchli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va hamkorlik madaniyatini oshirish orqali operativ vakillar transport vositalarini yaxshiroq himoya qilish va jinoyatlarning oldini olish uchun jamoaviy tajriba va resurslardan foydalanishlari mumkin.

Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda transport vositalari har kuni millionlab odamlarning qatnovi uchun zarurdir. Biroq, har qanday boshqa jamoat joylari kabi, avtobuslar, poezdlar, aeroportlar va metrolar kabi transport vositalari ham jinoyatlarga duch kelishi mumkin. Cho'ntak o'g'irligi va ta'qibdan tortib o'g'irlik, hujum va hatto terrorizm kabi jiddiy jinoyatlargacha - bu jinoyatlar yo'lovchilar va xodimlarning xavfsizligi va xavfsizligini buzishi mumkin. Bu jinoyatlarni fosh etish huquqbuzarlarning javobgarligini ta'minlash va kelgusida sodir bo'ladigan hodisalarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz ushbu jinoyatlarni transport vositalarida qanday fosh qilish mumkinligi haqida ba'zi taktikalarni muhokama qilamiz.

Transport vositalaridagi jinoyatlarni fosh etishning eng samarali taktikalaridan biri kuzatuv kameralaridan foydalanish hisoblanadi. Ko'pgina transport ob'ektlari jinoiy harakatlarni suratga olishga yordam beradigan videokuzatuv kameralari bilan jihozlangan. Rasmiylar gumonlanuvchilarni aniqlash va dalillar to'plash uchun ushbu yozuvlarni ko'rib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, odamlar gavjum kutish joylari, chiptalar va avtoturargohlar kabi mumkin bo'lgan faol nuqtalarga kameralarni o'rnatish jinoyatchilarni oldini olishga yordam beradi va har qanday noxush hodisalar yuz berganda qimmatli dalillarni taqdim etadi. Yana bir taktika - yo'lovchilar va xodimlarni o'zlari guvoh bo'lgan har qanday shubhali harakatlar yoki jinoyatlar haqida xabar berishga undashdir. Ko'pgina transport vositalarida odamlar har qanday hodisalar haqida osongina xabar berishlari mumkin bo'lgan maxsus ishonch telefonlari, mobil ilovalar va elektron pochta tizimlari mavjud. Yo'lovchilar o'rtasida jinoyatlar to'g'risida tezkor xabar berish muhimligi to'g'risida xabardorlikni shakllantirish zarur. Xabar tarqatuvchi dasturlar va anonim maslahatlar odamlarni qasos olishdan qo'rqmasdan ma'lumot bilan chiqishga undashda ham samarali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, huquq-tartibot idoralari, xavfsizlik xodimlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish transport vositalaridagi jinoyatlarni fosh etish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishi mumkin. Mahalliy politsiya bo'lumlari bilan hamkorlik qilish va jinoiy harakatlar, naqshlar va gumonlanuvchilar haqida ma'lumot almashish tezroq va samaraliroq tergovga olib kelishi mumkin. Qo'riqchilar va transport xodimlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, shuningdek, potentsial tahdidlarni aniqlash va ular sodir bo'lishidan oldin jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi. Transport vositalaridagi jinoyatlarni fosh etishda aholi o'rtasida olib borilayotgan targ'ibot va targ'ibot dasturlari ham muhim ahamiyatga ega. Jinoyatlarning keng tarqalgan turlari, xavfsizlik bo'yicha maslahatlar va favqulodda tartib-qoidalar haqida ma'lumot berish yo'lovchilarga hushyor bo'lishga va har qanday shubhali xatti-harakatlar haqida xabar berishga yordam beradi. Transport vositalarida varaqalar, plakatlar va broshyuralarni tarqatish kengroq auditoriyani qamrab olish va jinoyatlar haqida xabar berishning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, transport vositalarida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish yo'lovchilar va xodimlar xavfsizligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kuzatuv kameralari, hisobotlarni rag'batlantirish, hamkorlikni yo'lga qo'yish va jamoatchilikni ma'rifat qilish kabi taktikalardan foydalanib, biz jinoiy harakatlarni samarali ravishda fosh qilishimiz va kelajakdagi voqealarning oldini olishimiz mumkin. Barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, transport organlari, huquqni muhofaza qilish idoralari, yo'lovchilar va xodimlar uchun jinoyatlarga qarshi birgalikda kurashish va hamma uchun xavfsizroq muhit yaratish juda muhimdir.

